

**INTERPRETATION OF THE ARCHAIC EPIC IN
TURKISH AND OTHER WRITTEN SOURCES**

QO'CHQAROV TO'XTAMUROD OLIMOVICH

ISBN:- 978-1-957653-21-1

PUBLISHED DATE:- 13 DECEMBER 2023

DOI:- <https://doi.org/10.37547/gbps-16>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

JIZZAX AKADEMIK LITSEY

QO'CHQAROV TO'XTAMUROD OLIMOVICH

**ARXAIK EPOSNING TURKIY VA
BOSHQA YOZMA MANBALARDAGI
TALQINI**

QO'CHQAROV TO'XTAMUROD OLIMOVICH

Interpretation Of The Archaic Epic In Turkish And Other Written
Sources

Mazkur monografiyada o‘lkamizda yashagan qadimgi sak va massagetlar eposining antik davr yozma manbalari orqali yetib kelgan epik syujetlarini o‘zbek folklori materiallari bilan qiyosiy tahlil qilish asosida an’anaviy syujetlarning tarixiy ildizlari va badiiy evolyusiyasiga doir qiziqarli ilmiy mulohazalar ilgari surilgan.

Monografiya folklorshunoslik, adabiyotshunoslar, akademik litseyi o‘quchilari, oliy o‘quv yurtlari filologiya fakulteti talabalari, magistrantlari hamda o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiyotini o‘rganuvchi ilmiy tadqiqotchilarga mo‘ljallangan.

In this monograph, interesting scientific considerations about the historical roots and artistic evolution of traditional plots have been put forward based on the comparative analysis of the epic plots of the ancient Saka and Massaget epics that lived in our country through the written sources of the ancient period with the materials of Uzbek folklore.

The monograph is intended for folklorists, literary scholars, students of academic lyceums, students of the faculty of philology of higher educational institutions, graduate students, and scientific researchers studying the oral art of the Uzbek people.

MUQADDIMA

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi ajdodlarimiz badiiy tafakkurining asriy an'analarini o'zida mujassam etgan ko'pqatlamli qadriyatlar tizimidir. Shuning uchun ham xalqimizning o'ziga xos milliy ruhiyati va badiiy-estetik an'analarini o'zida ifodalagan folklor asarlarining tarixiy ildizlari, ayniqsa, epik syujetlarning shakllanish tarixi va ildizlarini tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, mamlakatimiz hududida o'tmishda yashagan ajdodlarimiz, xususan, sak va massagetlarning og'zaki badiiy ijodi, ularning turmush tarzi va o'z yurtini mardonavor himoya qilgan vatanparvar o'g'il-qizlarining jasoratini tarannum etuvchi qahramonlik eposi syujetlarini qiyosiy-tarixiy asnoda tadqiq etish yosh avlodni buyuk ajdodlarimizning ulug'vor an'analarini ruhida tarbiyalashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, sak-massaget eposida kuylangan vatanparvarlik, qahramonlik va yurtsevarlik g'oyalari xalqimizning tarixiy xotirasini, milliy mentalitetiga xos ustuvor jihatlarni o'zida aks ettirganligi bilan qadrliidir.

Ma'lumki, xalqimiz uzoq asrlar davomida betakror folklor asarlarini yaratib, ularni bevosita jonli og'zaki ijro orqali avloddan avlodga yetkazib kelgan. Ajdodlarimiz badiiy tafakkurining beqiyosligini namoyish etadigan ana shunday folklor asarlari, urf-odat va marosimlar, asriy an'analar ma'naviyatimizni boyitadigan muhtasham qadriyatlar tizimini tashkil etgan. Zero, mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "...Insoniyat yaratgan beba ho madaniyat durdonalari, eng avvalo, har qaysi millatning folklor san'atida mujassam topgani hammamizga yaxshi ma'lum. ... Jahon madaniy merosining bu o'lmas asarlari bizga insoniyatning naslu nasabi, tarixiy ildizlari, oljanob ideallari bir ekanini, binobarin, turli millat va elat vakillarining kelajak sari intilishlari ham mushtarak ekanini anglatadi".¹ Shuning uchun ma'naviyatimiz sarchashmasi hisoblangan nomoddiy madaniy meros durdonalari, xususan, folklor asarlarini har tomonlama chuqr o'rganish milliy o'zligimiz, qadimiylarini va shonli tariximizni badiiy aks ettirgan beba ho epik merosimizning tarixiy asoslari va poetik evolyusiyasini oydinlashtirish imkonini beradi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Халқаро бахшичилик санъати фестивали очилишига бағишланган тантанали маросимдаги нутки // Халқ сўзи. – Тошкент, 2019 йил, 7 апрель. – № 68

Folklor xalqimiz nomoddiy madaniy merosining eng qadimiylari, rang-barang va doimiy ravishda yangilanib, boyib, takomillashib kelgan shakli bo‘lib, ma’naviy qadriyatlarimizning asl durdonasi hisoblanadi. Shuning uchun ham xalq ijodini o‘rganish, uning tarixiy asoslari va taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, epik syujetlarning badiiy evolyusiyasini tarixiy-folkloriy jarayon bilan bevosita aloqadorlikda o‘rganish muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

O‘zbek folklorining epik janrlariga mansub asarlar uzoq asrlar davomida yaratilib, jonli og‘zaki ijro orqali ommalashishi natijasida takomillashib, ba’zan u yoki bu uzvlarini yo‘qotib, gohida “sayyor syujetlar” hamda boshqa xalqlar folklorining ijodiy ta’sirida yangilanib, o‘zgarib kelavergan. Epik syujetlarning muttasil rivojlanib, taraqqiy etib kelishi tarixiy-folkloriy jarayonning muhim xususiyatlaridan biridir. Shuning uchun ham xalq og‘zaki badiiy ijodidagi muayyan epik asarning bundan bir necha yuz yillar burungi namunalarini uning XX asrda yozib olingen variantlarini qiyoslab o‘rganish folklorshunoslikning dolzarb ilmiy muammolaridan biri sanaladi. Zero, bunday paleofolkloristik yo‘nalishdagi qiyosiy taddiqotlar natijasida epik syujetning an’anaviylashish jarayoni va uning tarkibidagi asosiy motivlarning genezisi aniqlanadi.

O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi epik janrlarining tarixiy taraqqiyoti bir necha asrlar davomida bevosita ijrochilar og‘zidan yozib olingen faktik materiallar asosida izchil o‘rganish imkoni yo‘q, albatta. Chunki Mahmud Koshg‘ariy, Rabg‘o‘ziy, Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Gulxaniy va boshqa ijodkorlar o‘zbek folklorining u yoki bu janrlariga oid materiallarni yozib olib, o‘z asarlariga kiritgan bo‘lsalar-da, xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini yozib olish va ilmiy asosda to‘plash ishlari XX asrning 20-yillaridan keyin muntazam tus oldi. Shuning uchun ham o‘zbek folkloridagi u yoki bu epik sjetlarning yuzaga kelish tarixi, manbalari va badiiy evolyusiyasi kabi masalalarni o‘rganishda O‘rta Osiyo hududida yaratilgan tarixiy, jo‘g‘rofiy manbalar, shuningdek, qadimgi yunon, xitoy, fors, arab muarrixlarining asarlaridan o‘rin olgan folklor materiallaridan g‘oyat muhim qiyosiy manba sifatida foydalanish mumkin. Chunki “To‘maris”, “Shiroq” singari tarixiy rivoyatlar syujeti og‘zaki epik an’anada emas, balki tarixiy-jo‘g‘rofiy manbalar orqali yetib kelganligi, N.Ya.Bichurin tomonidan rus tiliga o‘girilgan qadimgi xitoy solnomalarida bo‘ri qabilasi haqidagi totemistik mif talqinlari, ko‘plab kosmogonik-samoviy afsonalar, urug‘-qabilalar nomining kelib chiqishi to‘g‘risidagi etnogenetik rivoyatlar mavjudligi, Narshaxiyning

“Buxoro tarixi”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Abulg‘oziyning “Shajarai turk” asarida ko‘plab tarixiy, toponimik va etnonimik rivoyatlar kiritilganligi bu manbalarni o‘zbek folklorining XX asrda yozib olingan namunalari bilan qiyosiy o‘rganish asnosida muayyan epik syujetlarning tadrijiy rivoji bilan bog‘liq muhim ilmiy xulosalar chiqarishga asos beradi.

Ma’lumki, qadimgi manbalardagi folklor syujetlari va ularning o‘zbek xalq og‘aki badiiy ijodidagi badiiy evolyusiyasi masalasi hozirga qadar maxsus o‘rganilgan emas. Shunday bo‘lsa-da, bir qator maqola va tadqiqotlarda dissertatsiyamiz mavzuiga oid qiziqarli mulohazalar bildirilgan. Xususan, atoqli olim H.Zarifovning folklor va arxeologiya materiallarini qiyosiy o‘rganishga oid maqolasi,¹ o‘zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslariga doir tadqiqotini², B.Sarimsoqovning epik janrlar diffuziyasiga oid ishini³ misol qilib keltirish mumkin. O‘zbek folklorshunosligida qadimgi xitoy manbalaridagi epik syujetlar, xususan, bo‘ri bilan bog‘liq mifik afsonalarning o‘zbek folkloridagi talqinlari M.Jo‘raev⁴ tomonidan o‘rganilgan. Epik syujetlarning qadimiylaridan biri – sak va massaget eposining tadrijiy rivoji masalasi “Oysuluv” dostoni misolida T.Mirzaev, B.Sarimsoqov⁵ tomonidan tadqiq qilingan.

Adabiyotshunos F.Boynazarovning antik davr yozma yodgorliklari taxliliga doir ilmiy asarlarida qadimgi yunon va rim mualliflarining asarlaridagi Markaziy Osiyo folkloriga oid ko‘plab epik syujetlar, afsona va rivoyatlar keltirilgan.⁶

Bundan tashqari, V.M.Jirmunskiy, M.Saidov, O.Sobirov, M.Is’hoqov, N.Rahmonov, H.Boltaboev, Sh.Turdimov kabi olimlarning asarlarida ham qadimgi turkiy, fors-tojik, arab va boshqa tillardagi manbalarda o‘z aksini topgan epik syujetlar yuzasidan bildirilgan ayrim ilmiy mulohazalar mavjud. Yuqoridagi qisqacha tahlil shuni

¹ Зарифов Ҳ. Фольклор ва археология материалларини қиёсий ўрганиш масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1958. – №1. – Б.25-30.

² Зарифов Ҳ. Ўзбек халқ достонларининг тарихий асослари бўйича текширишлар // Пўлкан шоир. – Тошкент, 1974. – 69-98.

³ Саримсоқов Б. Эпик жанрлар диффузияси // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент, 1981. – Б.68-100.

⁴ Жўраев М. Бўри ҳақидаги қадimgи туркий мифлар ва ўзбек фольклори // Адабиёт гулшани. – Тошкент, 1999. – Б.8-17. Ўша муаллиф. «Алпомиш» достонида мифологик образлар // «Алпомиш» – ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси. – Тошкент, 1999. – Б.149-154.

⁵ Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Достонлар, уларнинг таснифи ва тарихий тараққиёти // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент, 1981. – Б.6-23.

⁶ Бойназаров Ф. Ўрта Осиёнинг антиқ даври. – Тошкент, 1991.

ko'rsatadiki, qadimgi yozma manbalardagi epik syujetlarning turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek folklori materiallari bilan qiyosiy tahlili amalga oshirilgan emas.

O'rta Osiyo tarixi va bu hududda istiqomat qilgan qadimgi etnoslar madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlari haqida hikoya qiluvchi yozma manbalardagi materiallar asosida o'zbek folklori epik syujetlarining badiiy evolyusiyasini tadqiq etishga bag'ishlangan mazkur dissertatsion ish mavzusining dolzarbliги quyidagilarda ko'rindi:

1) O'rta Osiyo tarixiga oid qadimgi yozma manbalar, xususan, yunon, arab, fors tillarida yaratilgan tarixiy asarlar, shuningdek, o'rta asrlardan e'tiboran turkiy tilda bitilgan tarixiy, jo'g'rofiy va ilmiy adabiyotlardagi folklor materiallarining talqini masalasi hozirga qadar maxsus o'rganilmagan bo'lib, biz tomonimizdan tanlangan mavzu shu yo'nalishdagi dastlabki ilmiy izlanishlarga yo'l ochadi;

2) Gerodot, Kursiy Ruf, Arrian, Polien, Diodor, Plutarx, Strabon kabi antiq dunyo mualliflarining asarlaridagi mifologik tasavvurlar, afsona va rivoyatlarni O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek folklorida mavjud bo'lgan mushtarak syujetlar bilan qiyosiy tahlil qilish asosida epik tafakkur tadrijiga xos xususiyatlar ochib beriladi;

3) Yozma manbalardagi folklor materiallarini O'rta Osiyo turkiy xalqlari folklori kontekstida tahlil qilish o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotida mavjud bo'lgan muayyan epik syujetlar, an'anaviy motivlar yoki obrazlarning tarixiy ildizlarini aniqlashga asos bo'ladigan xulosalar berishi bilan dolzarblik kasb etadi;

4) Folklordagi muayyan syujetning turli davrlarga oid namunalarini o'zaro qiyoslash epik tafakkurning tadrijiy rivojiga xos qonuniyatlarni belgilash, epik syujet evolyusiyasi davomida ro'y bergan o'zgarishlarni aniqlash hamda xalq ijodida hayotiy vogelikni badiiy aks ettirish an'anasing shakllanish jarayonlariga doir kuzatishlar olib borish imkonini tug'diradi.

5) O'rta Osiyoga oid yozma manbalardagi folklor materiallarini ilmiy tafsiflash, epik syujetlarning har bir davrdagi tarixiy-folkloriy jarayonga xos xususiyatlarni tashuvchi manba sifatidagi belgilarini aniqlash hamda o'zbek folklori epik janrlarining taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'sirini yoritish folklorshunoslikning haligacha o'z yechimini topmagan dolzarb ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Mazkur monografik tadqiqotda O'rta Osiyo tarixiga taalluqli yozma manbalar hamda o'rta asr mualliflarining tarixiy-jo'g'rofiy asarlaridagi folklor materiallarining qiyosiy tahlili asosida o'zbek folklori epik

syujetlarining manbalari, asosiy motivlar tizimining shakllanish jarayoni va epik janrlarning tadrijiy rivoji maslalari yoritildi. Binobarin, o'zbek folklor-shunosligi tarixida birinchi marta O'rta Osiyo tarixiga oid yozma manbalar hamda o'rta asr mualliflarining tarixiy-jo'g'rofiy asarlaridagi folklor materiallari qiyosiy tavsiflanib, o'zbek folklori epik syujetlarining manbalari, asosiy motivlar tizimining shakllanish jarayoni va epik janrlarning tadrijiy rivoji aniqlashga harakat qilindi.

O'rta Osiyoga oid tarixiy, jo'g'rofiy va ilmiy xarakterdagи yozma manbalardagi folklor materiallарини aniqlash hamda ularни o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi asalari bilan qiyosiy tadqiq qilish, ana shunday yozma manbalarda keltirilgan epik syujetlarning o'zbek folklorida qayd qilingan variantlarini solishtirish asosida epik syujetlarning tadrijiy rivojini o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Zero, shu yo'sindagi tadqiqotlar orpqали o'zbek folklori epik syujetlarining manbalari, tarixiy asoslari va ilk shakllarini aniqlash, shuningdek, yozma manbalardagi folklor materiallарини o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodidagi mushtarak talqinlarini qiyosiy tahlil qilish hamda epik syujetlarning badiiy evolyusiyasini yoritish imkonи yuzaga keladi.

Tadqiqot davomida o'zbek folklori epik syujetlarining genezisi ilk bor yozma manbalar bilan qiyoslab o'rganildi. Unda epik syujetlarning shakllanishi uchun asos bo'lган birlamchi manbalar O'rta Osiyo hududida yashagan qadimgi etnoslar tarixi, jo'g'rofiyasi va madaniyatiga oid yozma manbalar materiallari asosida yoritildi. O'lkamiz tarixi, jo'g'rofiyasi, madaniyati, tili va adabiy qadriyatlariga oid yozma manbalar, turli davr sayyoohlari va olimlarining memuar asarlari va boshqa manbalarda keltirilgan qadimgi epik syujetlar aniqlandi va ularning turkiy, shu jumladan, o'zbek folkloridagi evolyusiyasi jarayoni tadqiq etildi. Shu asnoda qadimgi mifologiya va mifik syujetlarning yozma manbalardan o'rin olishi va shu orqali ommalashish xususiyatlari yoritiladi hamda shu kabi manbalardagi folklor materiallari asosida epos syujetlari va an'anaviy motivlarning genetik asoslari oydinlashtirildi.

PALEOFOLKLOR VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ma’lumki, muayyan xalq og‘zaki badiiy ijodining hozirga qadar bevosita jonli iじro sharoitlarida saqlanib kelayotgan yoki yozib olib, arxivlashtirilgan namunalarini tarixiy-qiyosiy tadqiq etish asosida o‘scha etnosning qadimiy ajdodlari folklorini rekonstruksiya qilish hamda epik ijodiyotning yuzaga kelishi va rivojlanish xususiyatlarini tahlil etish orqali tarixiy-folkloriy jarayonning o‘ziga xos taraqqiyot qonuniyatlarini aniqlash hozirgi zamon jahon folklorshunosligining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday tadqiqotlarning eng muhim jihatni folklor janrlarining tarixiy taraqqiyoti, har bir davrga xos stadijal rivojlanish xususiyatlari va ayniqsa, xalq eposining umumtadrijiy bosqichlarini yoritib berishi bilan belgilanadi. Dunyoning boshqa xalqlarida bo‘lgani singari o‘zbek folklorida ham aksariyat dostonlar eposning gurillab rivojlangan davrida, ya’ni epik ijrochilik o‘zining eng yuqori darajasiga ko‘tarilgan paytida yuksak mahoratli baxshilar ijrosida yozib olingan. Bu dostonlar syujeti tarixan olis zamonlarga borib taqaladigan qadimiy motivlarga boyligi, epos taraqqiyotining ko‘p asrlik tarixini o‘zida aks ettirganligi, mohiyatan ko‘pqatlamligi va turli ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning ta’sirini o‘zida saqlab kelayotgaligi bilan xarakterlanadi. Aksariyat xalqlar folklorining eng qadimgi davrlarda bevosita ijrochi og‘zidan yozib olingan namunasi mavjud bo‘lmaganligi kabi o‘zbek xalq ijodining arxaik davri, xususan, mifologik eposning biror namunasi saqlanib qolmagan. Shuing uchun ham xalq og‘zaki badiiy ijodining qadimiy asoslarini tadqiq etish, ayniqsa, epik syujetlarning shakllanish tarixi, manbalari va badiiy evolyusiyasini o‘rganish orqali u yoki bu an’anaviy syujetning arxaik tiplarini aniqlashda turli xarakterdagи yozma yodgorliklar orqali yetib kelgan folklor namunalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Orzigul”, “Oysuluv” singari xalq dostonlari va ko‘pgina ertaklarning tarixiy asoslarini qadimgi yunon, xitoy va turkiy manbalarga bog‘lab tekshirish shuni ko‘rsatdiki, aksariyat epik syujetlarning genetik ildizlari o‘tmishda mamlakatimiz hududida yashagan etnoslarning arxaik mifologiyasi va qadimgi folklor ijrochiligi an’analariga borib taqaladi. Epos syujetlari yoki ularning kompozitsion strukturasini tashkil etuvchi an’anaviy motivlarni qadimgi og‘zaki ijod a’analarini o‘zida aks ettirgan yozma manbalar, tarixiy-arxeologik materiallar, qoyatosh suratlari – petrogliflardagi lavhalar bilan qiyosiy tahlil qilish esa tarixiy-folkloriy jarayon davomida o‘zbek

folklorining eng qadimiy namunalari qay darajada transformatsiyaga uchragan-ligini aniqlash imkonи tug‘iladi.

Folklor va yozma adabiyot taraqqiyotining qadimiy manbalarini o‘rganish borasida hozirga qadar amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda badiiy tafakkurning tadrijiy rivojlanish qonuniyatlarini ochishning bir necha xil tamoyillari ishlab chiqildi. Ayniqsa, A.N.Veselovskiyning “tarixiy poetika” nazariyasi,¹ O.M.Freydenbergning adabiyot tarixini davrlash-tirish konsepsiysi,² mifologik tasavvurlar tizimining shakllanish tarixi va mif poetikasi tadqiqotchisi Ye.M.Meletin-skiyning mifologik arxetipler nazariyasi,³ S.F.Neklyudovning qadimgi madaniyatlarning asosini tashkil etuvchi mifo-folklor sistema nazariyasi,⁴ an’anaviy xalq she’riyatining genezisini qadimiy irland yozma manbalari bilan qiyoslab o‘rgangan D.S.Nikolaevning “paleofolklor” va uning folklor janrlari genezisida tutgan o‘rniga doir nazariy qarashlari⁵ yozma yodgorliklar orqali yetib kelgan arxaik folklor rudiment-larining badiiy tafakkur tarixini o‘rganishdagi rolini ilmiy tadqiq etishda muhim nazariy ahamiyat kasb etdi. Chunki bu nazariy konsepsiylar va ilmiy qarashlar yozma manbalardagi mifo-folklor materiallariga asoslangan holda qadimgi davr folk-lovi, shu jumladan, arxaik mifologiya va eposni rekonstruksiya qilish orqali bevosita og‘zaki an’ana orqali saqlanib qolgan nomoddiy madaniy meros namunalarining shakllanish tarixi va badiiy evolyusiyasining qonuniyatlarini ochish imkonini beradi.

Turkiy va mo‘g‘ul-buryat epik syujetlarining tadqiqotchisi S.Yu.Neklyudov o‘zining adabiy-folkloriy rekonstruksiya masalasiga bag‘ishlangan bir maqolasida Misr, shumer va akkad (Bobil hamda Assiriya) obidalarida naql qilingan mifologik epos talqinlari, shuningdek, qadimgi Sharq epik syujetlari, motivlari va obrazlari saqlanib qolgan ko‘plab ko‘hna bitiklardagi materiallarni tahlil qilish

¹ Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – 406 с.

² Фрейденберг О.М. Миф и литература древности. – М.: Наука, 1978. 896 с.

³ Мелетинский Е.М. Происхождение героического эпоса. Ранние формы и архаические памятники. – М.: Наука, 1963. 462 с.; Яна ўша. “Эдда” и ранние формы эпоса. – М.: Наука, 1968. 364 с.; Яна ўша. Первобытные источники словесного искусства // Ранние формы искусства. – М.: Наука, 1972. – С.149–190; Яна ўша. Введение в историческую поэтику эпоса и романа. – М.: Наука, 1986. 318 с.

⁴ Неклюдов С.Ю. Мифологическая семантика в засинах монгольского эпоса // Rocznik Orientalistyczny. Tom LVIII. Zeszyt 1. – Warszawa, 2005. – P.117-132 (интернет материалларидан).

⁵ Николаев Д.С. Ранняя ирландская поэзия и проблема палеофольклора: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 2011.

asnosalida yozma yodgorliklar orqali yetib kelgan qadimgi og‘zaki ijod an’analarini “paleofolklor” atamasi bilan atashni taklif qilgan edi.¹ Qadimgi shumer-akkad mifologik eposi tadqiqotchilaridan biri I.M.Dyakonov to‘g‘ri yozganidek, “folklorshunoslikda Gilgamesh haqidagi afsonaga bo‘lgan qiziqish tobora kuchayib borayotganligining sababi shu bilan izohlanadiki, bizga qadar bu mifik qahramonga bag‘ishlangan epik qo‘shiqlarning biri ikkinchisidan qariyib bir yarim ming yilga farq qiladigan, ya’ni yaratilishi nuqtai nazaridan turli davrlarga mansub bir qancha namunalari yetib kelganligi bois ushbu syujet evolyusiyasining tadrijiy taraqqiyotini kuzatish imkoniga egamiz. Muayyan epos namunalarining bir necha asrlik rivojlanish jarayonini o‘rganish esa epik poeziyaning nazariy tamoyillarini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi... Shunday qilib, biz Gilgamesh to‘g‘risidagi epik asarning yozma talqinlari misolida qadimgi akkad afsonasining qariyib ikki ming yillik hayotini o‘rganib, jonli ijro davomida mazkur epos qanday o‘zgarishlarni boshidan kechirganligini aniqlay olamiz”.²

Demak, “paleofolklor” termini muayyan etnosning eng qadimgi ajdodlari tomonidan yaratilgan og‘zaki badiiy ijod namunalari, ya’ni qadimgi davr folklori yoki arxaik folklorga nisbatan qo‘llaniladigan atama hisoblanadi. Qadimgi davr folklorini o‘rganishning ahamiyati shundan iboratki, birin-chidan, xalq ijodining bugungi kunga qadar jonli ijro holatida yetib kelgan namunalarining shakllanish tarixi, folklor an’analarining genetik ildizlari va rivojlanish jarayonining o‘ziga xos jihatlarini tadqiq etish bevosita folkloarning nisbatan qadimiyligiga birlamchi manba sifatida murojaat etishni taqazo etadi; ikkinchidan, paleofolkloristik tadqiqotlar natijasida tarixiy-folkloriy jarayonning ko‘p asrlik taraqqiyoti davomida unutilib ketgan qadimgi folklor namunalari, ya’ni arxaik epik syujetlarni rekonstruksiya qilish imkoniy yuzaga keladi.

Qadimgi davr folkloriga oid manbalarni tadqiq etishda qo‘llaniladigan usul “paleontologik metod” deb yuritilishi maqsadga muvofiqidir. Binobarin, paleontologik tahlil usuli qiyosiy etnografiyaning tadqiqot metodlaridan biri sifatida taniqli ingliz etnolog olimi J.Frezer, shuningdek, qadimgi madaniyat tadqiqotchisi E.Taylor tomonidan tomonidan muvaffaqiyat bilan qo‘llanilgan. Ular qadimgi marosim va

¹ Неклюдов С.Ю. Литературно-фольклорные реконструкции и проблемы палеофондаклора // Слово и мудрость Востока. Литература. Фольклор. Культура. – М., 2006. – С.287-295.

² Дьяконов И.М. Эпос о Гильгамеше // Эпос о Гильгамеше (“О все видавшем”). Пер. с аккадского И.М.Дьяконова. – СПб., 2006. – С.91-92.

e’tiqodiy qarashlar, urf-odatlarning oilaviy-maishiy marosimlar folkloridagi qoldiqlarini paleontologik tahlil asosida aniqlaganlar¹.

Atoqli adabiyotshunos A.N.Veselovskiy ham o‘zining “Syujet poetikasi” asarini yaratishda shu usuldan foydalangan va motivlarning badiiy evolyusiyasini jamiyat taraqqiyotining rivoji bilan bog‘liq holda tekshirgan². Folklorshunos olim V.M.Jirmunskiy A.N.Veselovskiy tomonidan tavsiya etilgan “motivlar paleontologiyasi” atamasiga munosabat bildirar ekan, u yoki bu epik syujet “ayniqsa, epik qo‘sinqning nisbatan qadimiyligini faqatgina motivlar paleontologiyasi asosida baholash to‘g‘ri emas”, – deb yozadi³. To‘g‘ri, epik syujet genezisini oydinlashtirishda qator tarixiy, etnofolkloristik dalillardan foydalaniлади. Ammo syujetning motivlar tizimidan tashkil topgan badiiy qurilma ekanligini nazarda tutsak, A.N.Veselov-skiy haq bo‘lib chiqadi. Bizningcha, paleontologik metod, xususan, uning motivlar paleontologiyasiga doir nazariy tamoyillari epik syujetlar genezisi va badiiy evolyusiyasi, ayniqsa, uning manbalari, arxaik variantlarning tadrijiy rivoji va taraqqiyot xususiyatlarini tarixiy-qiyosiy jihatdan o‘rganishning samarali va ishonchli usullaridan biri sifatida folklorshunoslikda keng qo‘llanilmog‘i kerak.

Epik motivlar genezisini paleontologik metod asosida o‘rganish borasida jahon, shu jumladan, rus folklorshunoslida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda muhim ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Xususan, paleontologik tahlil asosida epik motivlarning qadimiylarini aniqlash usulini tavsiya etgan N.A.Krinichnayaning ta’kidlashicha, bu metod folklor elementlarining ma’lum bir etnomadaniy an’ana doirasidagi epik rivojini bosqichma-bosqich tadqiq etish imkonini beradi. Natijada an’anaviy syujet elementlarining tarixiy-tadrijiy rivoji arxaik, oraliq va quyi bosqichlar misolida kompleks tadqiq etiladi⁴.

O‘zbek folklorshunoslida paleofolkloristik yo‘nalishda bajarilgan dastlabki ilmiy tadqiqot atoqli olim H.Zarifov qalamiga mansubdir. Uning “O‘zbek tili va adabiyoti masalalari” jurnalida bosilgan “Folklor va arxeologiya materiallarini qiyosiy o‘rganish masalalariga doir” nomli maqolasida “Malika ayyor” dostoni syujetining

¹ Фрезер Дж. Золотая ветвь. – М.: Политиздат, 1990; Тайлор Э. Первобытная культура. – М.: Политиздан, 1989.

² Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – С.493-596.

³ Жирмунский В.М. Народный героический эпос. – М.,-Л., 1962. – С.95.

⁴ Криничная Н.А. Русская народная историческая проза. Вопросы генезиса и структуры. – М.: Наука, 1987. – С.23.

genetik ildiz-lari, shuningdek, bo‘ri totemi bilan bog‘liq afsonalarning kelib chiqish tarixini oydinlashtirishda arxeologik topilmalarda aks etgan obraz, motiv va syujetlarning o‘rni masalasi chuqur tahlil qilingan.¹ Garchi bu maqolada tadqiqot qaysi metod va yo‘nalishda bajarilganligi aytilmagan bo‘lsa-da, professor M.Jo‘raev o‘zining “Folklorshunoslik asoslari” nomli o‘quv qo‘llanmasida atoqli olim o‘zining ushbu maqolasi bilan o‘zbek folk-lorshunosligi fanida “arxeofolkloristika” yo‘nalishini boshlab berdi, deb hisoblaydi.² M.Jo‘raevning fikricha, “arxeofolkloristika” – xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti janrlar tarkibi, epik syujet, motiv va obrazlar tizimining tarixiy asoslarini aniqlash, shuningdek, xalqimiz poetik tafakkurining eng qadimiyligiga oid arxaik folkloرنi rekonstruksiya qilishga imkon beradigan tadqiqot usuli bo‘lib, uning asosiy mohiyati “arxeologik topilmalarda o‘z aksini topgan folklor syujetlari, obraz va motivlarni o‘rganish hamda xalq og‘zaki ijodining muayyan janriga oid u yoki bu syujet, motiv, obraz va badiiy detalning genezisini arxeologik yodgorliklardagi suratlar, chizgi va ifodalarga qiyoslab tadqiq etish”dan iboratdir.³ Darhaqiqat, o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlaridagi an’anaviy epik syujet va poetik obrazlarning genetik ildizlarini yoritishda yozma manbalar bilan bir qatorda, tarixiy-arxeologik manbalar ham muhim rol o‘ynaydi. Bu o‘rinda “arxeofolkloristika” atamasi tarkibidagi “arxeo” so‘zi yunon tilidagi “archaios” (ya’ni “qadimgi”) leksemasi asosida shakllanganligini hisobga olsak, mohiyatan bu atama “paleofolkloristika” terminiga muqobil atama ekanligi va bu yo‘nalishdagi izlanishlar o‘zbek folklorshunosligida o‘tgan asrning 50-yillaridayoq boshlanganligidan dalolat beradi.

Folklorshunosligimizda qadimgi davr folklorini o‘zida aks ettiruvchi manbalar yaxlit tizim sifatida monografik jihatdan maxsus o‘rganilmagan bo‘lsa-da, “O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi” darsligida “O‘rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi folklor namunalari ba’zi tarixiy yodgorliklar, ilmiy asar va yodnomalar orqaligina bizgacha yetib kelgan”⁴ligi qayd etilgan.

¹ Зарифов Х. Фольклор ва археология материаларини қиёсий ўрганиш масалаларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1958. – 1-сон. – Б.25-30.

² Жўраев М. Фольклоршунослик асослари. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.21-22.

³ Жўраев М. Кўрсатилган асар. – Б.20.

⁴ Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди (дарслик). – Тошкент, 1990. – Б.43.

Bevosita paleofolkloristika yo‘nalishidagi izlanishlardan yana biri filologiya fanlari doktori, professor M.Jo‘raev tomonidan bajarilgan. Uning “Paleoosyo mifologik syujetlari va ularning arxeofolkloristik talqini” nomli maqolasi Buqantov tizma tog‘laridagi qoyatosh suratlari, xususan, Qirbukan nomli quduq yonidagi granit toshlardan biriga tushirilgan tosh asri chizgilaridagi kosmogonik-samoviy syujetlarni o‘zbek folklori va mifologiyasi materiallari bilan qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan. Olim bu qoyatosh suratlaridan birida ajdodlarimizning oy yoki quyosh tutilishi bilan aloqador mifologik tasavvurlari o‘z ifodasi topganligini aniqlaganligi hamda arxaik epos syujetlari ilk tosh asri davridayoq shakllana boshlaganligini dalillab bergenligi alohida e’tiborga molikdir. Maqolada to‘g‘ri qayd etilganidek, “qahramonlik eposi va umuman, xalq dostonlarining muayyan motivlari yoki ayrim arxaik epos namunalari syujetining genetik ildizlari tosh asrida yashagan odamlar dunyoqarashi, ayniqsa, mifologik tasavvurlari tizimiga borib taqalishi mumkin. Garchi bugungi kungacha yetib kelgan epos syjeti bilan qoyatosh suratlarida tasvirlangan u yoki bu lavha orasidagi bevosita bog‘liqlikni dalillash uchun yetarlicha faktik asos mavjud bo‘lmasa-da, petrogliflarda paleoosyo mifologiyasining bizgacha og‘zaki an’anada saqlanib qolgan ko‘plab asotiriylari va epik syujetlarining izlarini, aniqrog‘i, arxaik miflarning tasviriy talqinini uchratamiz. Ana shunday qadimiy syujetlardan biri xalq orasida oy yoki quyosh tutilishini izohlovchi kosmogonik mif tarzida ommalashgan”.¹ Bundan tashqari, M.Jo‘raevning “Arxeofolk-loristika: qoyatosh suratlari va kalender miflar genezisi” nomli maqolasi ham bevosita paleofolkloristik xarakterdagi ishlardan bo‘lib, unda an’anaviy xalq taqvimi bilan bog‘liq miflar syjeti aks etgan qoyatosh suratlari va arxeologik yodgorliklardagi asotiriylari obrazlar qiyosiy o‘rganilgan.²

Darhaqiqat, paleofolklor qadimda istiqomat qilgan etnoslarning bevosita jonli og‘zaki ijrochilik an’anasi orqali yetib kelmagan bo‘lsada, o‘tmishda yaratilgan turli xarakterdagi yozma manbalarda, tarixiy, adabiy, ilmiy-ma’rifiy va boshqa yozma obidalarda qayd qilingan og‘zaki badiiy ijodi namunalaridir. Bunday manbalardagi qadimiy mif va epos syujetlarining qoldiq holdagi ko‘rinishlari, epik motivlar va obrazlar xalq badiiy tafakkurining tadrijiy rivojini o‘rganishda ishonchli

¹ Жўраев М. Палеосиё мифологик сюжетлари ва уларнинг археофольклористик талқини // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. – 5-сон. – Б.15.

² Жўраев М. Археофольклористика: қоятош суратлари ва календарь мифлар генезиси // Хоразм фольклори. VIII китоб. – Урганч, 2006. – Б.20–28.

material bo‘ladi oladi. Shuning uchun ham turkiy xalqlar eposining yirik tadqiqotchilarida biri V.M.Jirmunskiy “kamdan-kam hollar-dagina muayyan xronologik va jo‘g‘rofiy yo‘nalishni bizga qadimgi yozma yodgorliklar beradi: XIII asrga mansub qadimgi Misr papirusida saqlanib qolgan ikki aka-uka haqidagi ertak; “Odisseya”dagi bir ko‘zli siklopning ko‘r qilinishi hamda arning o‘z xotini to‘yi ustiga kelishi kabi xalqaro epik syujetlar; Gerodot tomonidan hikoya qilingan uddaburon o‘g‘ri (“Rampsenit hazinasi”), Apuleyaning oltin eshagi, Amur va Psixeya muhabbatи haqidagi ertaklar; Panchatantra”da naql qilingan ko‘plab qadimiy majoziy ertaklar va h.k.”¹ Bu o‘rinda olim qayd etgan qadimiy epik syujetlarning aksariyati o‘zbek folklorida ham mavjud bo‘lib, ularning bir qismi ajdodlarimizning qadimgi mifologiyasi va epik ijodiyoti bilan bog‘liq bo‘lsa, ayrimlari (masalan, hayvonlar to‘g‘risidagi majoziy ertaklar) folklor aloqalari va “sayyor syujet”lar migratsiyasi natijasida ommalashgan.

Jahon xalqlarining hozirga qadar yozma yodgorliklar orqali yetib kelgan paleofolklorini xronologik jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, bu jarayon hamma joyda bir xilda kechmaganligi ma’lum bo‘ladi. Xalq eposining yozma mabalarda qayd etilgan eng ko‘hna namunasi qadimgi Shumerdagi Uruk shahrida hukmronlik qilgan I sulolaning afsonaviy ajdodboshisi deb talqin qilinadigan Gilgamesh haqidagi mifologik eposining shumer va akkad versiyalari bo‘lib, u dastlab miloddan burungi II ming yillikning birinchi choragida mansub yozma obidada naql qilingan. Bu eposning nisbatan to‘liq matni esa miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Uruk shahrida yashagan afsungar Sinlikeunnini tomonidan yozib qoldirilgan.² Shuningdek, qadimgi xitoyliklar folklorining ilk namunalari miloddan avvalgi III asrdan e’tiboran, ya’ni san va Xan sulolasi hukmronligi davrida yozib olingan bo‘lsa,³ koreys qahramonlik eposi “Jumo‘ng” dostonining yaratilishiga dastlabki epik hikoyalari Go‘guryo davlati (miloddan avvalgi 37–668 yillar) davrida yuzaga kelgan bo‘lishiga qaramay, uning ilk namunalari milodiy IV-VI asrlarga mansub “Samguksagi”, “Samgukyusa”, “Do‘nggukysanggukjib”, “Jevanungi” kabi yozma mabalarga

¹ Жирмунский В.М. Фольклор Запада и Востока. Сравнительно-исторические очерки. – М., 2004. – С.440.

² Афанасьева В.К. Гильгамеш // Мифы народов мира. Т.1. – М., 1980. – С.302-303.

³ Лисевич И.С. Древнекитайская поэзия и народная песня. – М.: Наука, 1969. – С.16.

kiritilgan.¹ O‘zbek xalq dostonlarining eng qadimiyligi qatlami sifatida e’tirof etilgan sak eposi miloddan burungi VIII asrdan milodiy V asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, uning eng muhim epik syujetlari Gerodot, Polien, Ktesiy, Kursiy Ruf va boshqa qadimgi yunon muarrixlarining asarlarida o‘z ifodasini topgani holda jahonning ko‘pgina xalqlari, jumladan, rus va ukrain folklorining ilk namunalari XI-XV asrlarda yozma yodgorliklardan joy olganligi ilmiy manbalarda qayd etilgan.²

Qadimgi davr folklorining yozma yodgorliklardan o‘rin olishi jarayoni odatda ikki xil yo‘sinda kechgan:

1) *paleofolkloarning u yoki bu yozma manbada qayd etilishi.* Boshqacha qilib aytganda, bu usulga ko‘ra, o‘tmish mualliflari muayyan tarixiy, jo‘g‘rofiy yoki adabiy-ma’rifiy xarakterdagi asarni yozish jarayonida o‘zlari bevosita eshitgan yoki boshqa biror yozma manbada hikoya qilingan mif, epos, afsona, rivoyat yoki naql syujetlari, epik motiv va obrazlardan ijodiy foydalanishgan. Xususan, mamlakatimizda yaratilgan ulkan yozma obida – “Avesto”, antik davr manbalari – Gerodotning 9 kitobdan iborat “Tarix”i, Polienning “Harbiy hiylalar”, sitsiliyalik Diodorning “Tarixiy kutubxona”, Flaviy Arrianning “Aleksandrning yurishi”, Kursiy Rufning “Aleksandr Makedonskiy tarixi”, Strabonning “Geografiya”, Klavdiy Ellianning “Ajoyib hikoyalar”, Pompey Tron va Yustinning “Tarixiy kundaliklar” kabi asarlari, shuningdek, O‘rta Osiyo xalklari tarixi, madaniyati, tili va urfodatlari haqida ma’lumot bergen qadimgi xitoy solnomalari paleofolklorini o‘rganishning nodir manbalari sirasiga kiradi. O‘rta asrlar o‘zbek folklori materiallari esa Abu Bakr ibn Ja’far Narshaxiyining “Buxoro tarixi”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi avlodlarda qolgan yodgorliklar”, Rashididdinning “Jome’ at-tavorix”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Abu Tohirxo‘janing “Samariya”, Abulg‘oziyning “Shajarai turk”, “Shajarai tarokima” asarlarida jamlangan.

2) *paleofolkloarning bevosita og‘zaki ijro sharoitlarida yozib olinishi.* Jahon folklorshunosligi tarixida xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini bevosita ijrochilar og‘zidan jonli ijro holatida yozib olish

¹ Ингёэнг О. “Алпомиш” ва “Жумўнг” достонларининг қиёсий-типологик таҳлили: Филол. фанлари докт. дисс. – Тошкент, 2014. – Б.27-28.

² Топоров В.Н. Праславянская устая словесность (опыт реконструкции) // История литературы западных и южных славян. Т.1. – М., 1997. – С.38-94.

ishlari juda qadimdan boshlanganligi xususida ham ma'lumotlar mavjud. Masalan, qadimgi xitoy she'riyati tadqiqotchisi I.S.Lisevichning aniqlashicha, xalq qo'shiqlarini tashkiliy asosda toplash ishlari miloddan burungi davrlardayoq boshlagan bo'lib, hatto konfutsiylik ta'limoti namoyandalari ham o'z qarashlarini keng yoyishda folklordan samarali foydalanishgan. Miloddan avvalgi II asrda Xitoy imperatorlari maxsus "Musiqa saroyi" tashkil etib, u yerda xizmat qiladigan a'yonlarga "xalq orasidagi qadimiyligi qo'shiqlarni toplash, ularni qayta ishlar va yangi ashulalarni yaratish" vazifasini topshirishgan. Ayniqsa, Xan imperiyasi davrida folklor asarlari, shu jumladan, qo'shiqlar xalq ommasining ruhiyati, ijtimoiy voqelikka munosabati va kayfiyatini ifodalaydigan material sifatida qaralgan.¹

O'zbek folkloriga oid materiallarni bevosita ijrochilar og'zidan yozib olishning dastlabki namunasi XI asrning yirik tilshunos olimi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari hisoblanadi. Bu asarda keltirilgan ko'plab xalq maqollari, tarixiy qo'shiqlar, xalq lirikasi namunalari, urf-odat va marosimlar bilan bog'liq etnografik qaydomalar, mifologik obrazlar va ular bilan aloqador asotirlar, joy nomlari va tarixiy shaxslar haqidagi afsona hamda rivoyatlar asar muallifining o'zi tomonidan yozib olinganligiga shubha yo'q. Chunki kitobning muqaddimasida Mahmud Koshg'ariy tomonidan yozilgan quyidagi qaydnoma mavjud: "Men turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini ko'p yillar kezib chiqdim, lug'atlarini to'pladim, so'z xususiyatlarini o'r ganib, aniqlab chiqdim. Men bularni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Bo'lmasa, men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar va qirg'izlarning tillari butunlay dilimga jo bo'ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim".²

Ana shu ma'lumotning o'zi Mahmud Koshg'ariyning to'plovchilik faoliyatini folklor-dialektologiya ekspeditsiyasi ishiga qiyoslash uchun to'la asos beradi. Uning "Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida maxsus hikmatli so'zlar, saj'lar, maqollar, qo'shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan

¹ Лисевич И.С. Кўрсатилган асар. – Б.-14-16.

² Махмуд Кошғарий. Девону луготит турк. 1-том. – Тошкент: Фан, 1960. – Б.44.

adabiy parchalar bilan bezadim”¹ degan e’tirofi esa o‘z izlanishlari davomida til lug‘at boyligi bilan bir qatorda o‘sha davrning jonli folklor an’analari doir materiallari ham yozib olganligidan dalolat beradi.

Turkiy qavmlar yashagan hududlar bo‘ylab safar qilgan Mahmud Koshg‘ariy ularning til xususiyatlari doir materiallar to‘plash bilan bir qatorda, xalk og‘zaki badiiy ijodi asarlari – mif, afsona, rivoyat, qo‘sish, maqol, matal va boshqa janrlarga doir g‘oyat nodir manbalarni ham yozib olgan. Shuning uchun ham uning “Devonu lug‘otit turk” asari nafaqat o‘zbek, balki barcha turkiy xalqlar ajdodlarining qadimgi folklori va uning tadrijiy rivoji, ya’ni badiiy evolyusiyasini o‘rganishning noyob manbalaridan biri hisoblanadi. Fikrimiz isboti tariqasida, jonivorlar to‘g‘risidagi arxaik miflarning “Devonu lug‘otit turk”dagi talqinlari hamda ushbu manbada qayd etilgan epik syujetlarning tadrijiy rivoji natijasida saqlanib qolgan ko‘rinishlari masalasiga to‘xtalib o‘tamiz. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining asarida “ko‘k tubulg‘on” so‘zining ma’nosini izohlash, tushuntirib berish maqsadida quyidagi mifni keltirgan: “kok tubulg‘on – bir qushning nomi. Aytishlaricha, bu qushning ikki qanotida po‘lat bo‘ladi va qanoti bilan toqqa urib, bir tomondan boshqa tomonga o‘tadi. Bu so‘zni menga o‘zim foydalanib yurgan bir kishi aytdi”.² Bu mifda tasvirlangan afsonaviy ko‘k tubulg‘on qushining qanotlari po‘latdan ekanligi uning asosiy asotiriyligi mohiyatini tashkil etadi. O‘zbek folklorida shu mavzudagi yoki qanoti temirdan iborat qush haqidagi afsona yoki ertak mavjudligi qayd etilgan emas. Ammo uzoq davom etgan tarixiy-folkloriy jarayon davomida ko‘k tubilg‘on qushi to‘g‘risidagiga bu mif syujeti unutilib ketgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilidagi “temirqanot” so‘zi ana shu qadimiy mifning mohiyati xalqimizning ong osti hislarida qoldiq holda saqlanib kelayotganligini ko‘rsatadi. Ma’lumki, qushlarning endigina qanot patlari o‘sib chiqayotgan paloponlari haqida so‘z ketganda “temirqanot bo‘libdi” iborasi qo‘llaniladi. Qush paloponiga nisbatan ishlatilgan ana shu sifat “ikki qanotida po‘lati” bo‘lgan ko‘k tubilg‘on to‘g‘risidagi arxaik miflarning aks sadosiga o‘xshaydi.

O‘zbek folklori epik syujetlarining badiiy evolyusiyasiga doir ilmiy kuzatishlar olib borishda “Devonu lug‘otit turk”da keltirilgan “Baroq” afsonasi yaxshi misol bo‘la oladi. Mahmud Koshg‘ariyning yozishichasi, “baroq – serjun it. Turkiy xalqlar e’tiqodiga ko‘ra, burgut qariganda

¹ Ўша маба. – Б.44-45.

² Кошғарий Махмуд. Девону луғотит турк. 1-тум. – Тошкент: Фан, 1960. – Б.474.

ikkita tuxum qo‘yar emish. Tuxumlarning biridan o‘sha baroq otli kuchuk paydo bo‘lar emish. Itlarning eng tez yuguradigani va ovni qattiq saqlaydigani shu baroq itdir. Ikkinchi tuxumdan jo‘jasি chiqar emish. Bu uning jo‘jalarining oxirgisi bo‘lar emish.¹

Ushbu mifda bayon etiliishcha, serjun it suratida tasavvur qilingan baroq qush tuxumidan chiqqan g‘ayrioddiy jonivor bo‘lib, o‘zida kuchuk hamda qush sifatlarini o‘zida mujassamlashtirgan dimorf (ya’ni ikki xil jonzot ko‘rinishini o‘zida birlashtirgan) asotiriy obraz hisoblanadi. Xarakteriga ko‘ra, bu mifologik obraz kosmogonik-samoviy xarakter kasb etgan bo‘lib, o‘zida ikki olam, ya’ni zamin – yer va unda yashovchi jonivor (bu o‘rinda it) hamda yuqori olam – ko‘k yoki osmon timsoli hisoblangan qush mohiyatini yaxlit holda ifoda etgan. Bunday dimorf shakldagi kosmogonik obrazlardan biri grifon bo‘lib, uning qanotli it, boshi it, tanasi qush va boshqa ko‘rinishdagi turli xil talqinlari arxaik mifologiyada ko‘p uchraydi.

G‘ayrioddiy ravishda qush tuxumini yorib chiqqan afsonaviy it to‘g‘risidagi mif syujeti turkiy xalqlar folklorida bevosita jonli ijro holatida yashashda davom etgan va hatto, XX asrga qadar xalqning epik xotirasida saqlanib qolganligini tilshunos D.Bozorova tomonidan chop ettirilgan quyidagi ang‘irt degan qush to‘g‘risidagi o‘zbek xalq afsonasi ham tasdiqlaydi. Afsonada aytlishicha, bir necha yuz yil mobaynida atigi bir marta ang‘irt degan qush tuxumidan o‘rdakcha o‘rniga tozi it chiqarkan. Shuning uchun xalq uni “it olaqoz” deb yuritar ekan. Bunday tuxumni topish katta baxt hisoblanar ekan, ammo bu baxt hammaga ham nasib bo‘lavemas ekan. Chunki ang‘irt sag‘analarning chuqur yorig‘iga, uylarning mo‘risiga, tulki va cho‘l mushuklarining tashlandiq uyalariga, o‘pirilgan eski go‘rlarga in qo‘yar ekan”².

Ushbu afsonaning qozoq folklorida mavjud bo‘lgan boshqa bir namunasi esa XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida O‘rta Osiyo xalqlari folklorini to‘plash borasida samarali xizmat qilgan A.A.Divaev tomonidan yozib olingan. Unda hikoya qilinishicha, it olaqoz degan qush mozoristonda in yasab tuxum qo‘yar, bu tuxumlardan “qumay” deb ataluvchi kuchuklar chiqar emish. Qush o‘zining tuxumlaridan kuchukchalar chiqqanligini ko‘rgach, inini tashlab qochib ketarkan. Itlar esa och-nahorlikdan nobud bo‘lisharkan. Omadi kelgan ovchilargagina

¹ Кошгариј Маҳмуд. Девону луготит турк. 1-том. – Тошкент: Фан, 1960. – Б.359.

² Бозорова Д. Исми жисмига монанд // Фан ва турмуш. – Тошкент, 1976. – 9-сон. – Б.17.

ana shunday tezkor itlarni topish nasib qilarmish. Shu bois qozoqlar it olaqozni nopol hisoblab, uning go'shtini yeyishmas ekan.¹

Ko'rinadiki, qo'limizda ayni bir mifologik syujetning uch namunasi, ya'ni XI asrga oid yozma manbada keltirilgan zoonimik mif sifatidagi arxaik ko'rinishi hamda o'zbek va qozoqlar orasida jonli ijro holatida qayd etilgan mifologik afsona tarzidagi variantlari mavjud. Har uchala namunaning matni mushtarak syujet asosiga qurilgan. Birinchi hamda ikkinchi va uchinchi namunalarning oralig'idagi vaqt qariyib ming yilni tashkil etishiga qaramay, epik syujetning asosiy mohiyati o'zgarmagan: unda qush tuxumidan chiqqan g'aroyib it haqida hikoya qilinadi. Epik syujetning tadrijiy rivoji davomida g'aroyib jonivor tug'ilishiga sababchi bo'lган qush hamda ana shu qush tuxumini yorib chiqqan afsonaviy itning nomi o'zgarishga uchragan: o'zbek afsonasida tuxum qo'ygan jonzot o'rdaksimonlar oilasiga mansub ang'irt degan qush bo'lsa, uning tuxumidan chiqqan tozi kuchuk "it olaqoz" deyilgan; qozoq afsonasida esa tuxum qo'yuvchi qush – it olaqoz, uning tuxumidan chiqqan kuchukvachchalar "qo'may" deb ataladi.

Syujet tizimidagi epik motivlarning saqlanish darajasiga ko'ra, o'zbek xalq afsonasi "Devonu lug'otit turk"da keltirilgan zoonimik mifga ancha yaqin turadi. Chunki mazkur mifning arxaik namunasida tasvirlanishicha, burgut qarigan chog'ida oxirgi marta bola ochayotganida atigi ikkitagina tuxum qo'yar va ana shu tuxumlarning biridan serjun it – baroq, ikkinchisidan esa o'zining zurriyodi davomchisi – burgut jo'jası chiqarkan. D.Bozorova tomonidan yozib olingan o'zbek afsonasida ham mifning paleofolklor namunasidagi syujetining bir qator motivlari, xususan, tuxumdan bitta it chiqishi va bu it ovni qattiq saqlaydigan tezkor kuchuk bo'lib yetishishi motivlari saqlanib qolgan. O'zbek afsonasida ang'irt tuxumidan chiqqan kuchukvachchaning "tozi it" deb ta'riflanishi hamda uni topib olish eng baxtli odamga nasib qilishining qayd etilishi mifning arxaik namunasiga xos motiv – baroqning ovchi it ekanligiga ishoradir. Qush tuxumidan chiqqan it to'g'risidagi qozoq xalq afsonasida g'aroyib holatda dunyoga kelgan itning nomi "qumay" deb yuritilishini qirg'iz xalq eposining qahramoni Manasning sevimli iti Qumayiq deb atalishi² bilan qiyoslasak

¹ Диваев А. Ит-ала-каз // Оразаева Ф. Абубакр Диваев – фольклорист. – Алматы: Билим, 2012. – С.156-157.

² Абрамзон С. М. Фольклорные мотивы в киргизских преданиях генеологического цикла // Фольклор и этнография. Связь фольклора с древними представлениями. – Л., 1977. – С.163.

qadimgi turkiylarning paleofolklorida mavjud bo‘lgan mifologik syujetning qamrovi ancha kengligigiga amin bo‘lamiz. Mifning arxaik namunasidagi eng muhim bir motiv – ikkinchi tuxumdan jo‘ja chiqishi motivi esa epik syujetning tarixiy taraqqiyoti davomida unutilib ketgan.

“Baroq” afsonasi syujetining turkiy xalqlar folkloridagi o‘ziga xos talqinlarini yozma manbalarda, shu jumladan, “O‘g‘uznomalar”da keltirilgan Itbaroq obrazi bilan qiyosan o‘rgangan folklorshunos M.Jo‘raevning fikricha, “baroq” obrazi it boshli, qush siyratli mifologik jonzot sifatida tasvirlangan bo‘lib, “qush tuxumidan chiqqan it, qushdek ucha oladigan qanotli it haqidagi afsonalarning genetik ildizlari Semurg‘ haqidagi mifologik tasavvurlarga aloqadordir”.¹ Turkiy xalqlar folklorining mushtarak mifologik personajlaridan biri Semurg‘ obrazining genetik ildizlari O‘rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, o‘zbek xalqining qadimgi ajdodlari folkloriga bog‘lanishini inkor etmagan holda, qush tuxumini yorib chiqqan it to‘g‘risidagi asotirlar mustaqil turkiy qavmlar paleofolk-lorining mustaqil mifologik syujeti sifatida yuzaga kelgan va taraqqiy etgan deb hisoblaymiz.

“Devonu lug‘otit turk”da keltirilgan “Baroq” nomli zoonimik mif syujetining turli xil epik talqinlari, O‘rta Osiyodan olisdagи hududlarda, masalan, Kavkazda yashovchi xalqlar folklori ham qayd etilgan. Chunki Orolbo‘yi mintaqasida yashagan turkiy qavmlarning Kavkazorti o‘lkalariga ko‘chib o‘tishi bilan qush tuxumidan chiqqan it haqidagi qadimgi turkiy mif syujeti o‘scha joyda istiqomat qiluvchi boshqa xalqlar folkloriga ham kirib borgan. Fikrimiz isboti tariqasida Kursha deb ataluvchi it haqidagi gruzin afsonasini keltiramiz: hikoya qilishlaricha, uzoq umr ko‘rgan qarg‘a o‘zining eng baland daraxtdagi iniga ikki dona tuxum qo‘yar emish. Ana shu tuxumlarning bittasidan qarg‘aning jo‘jasiga, ikkinchisidan esa it chiqar emish. Qarg‘a o‘zining jo‘jasiga o‘xshamagan jonzotni inidan tashlab yuborar, shuning uchun bunday g‘aroyib itvachcha ko‘pincha ochlikdan o‘lib ketar ekan. Kunlardan bir kuni bir omadli ovchi ana shunday kuchukvachchani topib olib, parvarishlab boqibdi. Kursha degan olg‘ir ovchi it ana shu qarg‘a inidan tashlab yuborgan jonzot, deydilar.²

Yuqoridaagi tahliliy materiallar asosida shunday xulosaga kelishimiz mumkin:

¹ Жўраев М. “Грифон” ёки қанотли ит образининг тарихий асослари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. – 1-сон. – Б.56–66.

² Вирсаладзе Е. Грузинский охотничий миф и поэзия. М., 1976. С.50-52.

1) Folklorshunoslikdagi “paleofolklor” atamasi muayyan xalq og‘zaki badiiy ijodining eng qadimgi qatlami, ya’ni o’sha etnosning ajdodlari tomonidan yaratilgan arxaik folklorga nisbatan qo‘llaniladi. Qadimgi odamlar badiiy tafakkurining mahsuli hisoblangan paleofolklor o‘zining asl holida bizning kunlargacha yetib kelmagan, albatta. Tarixiy-folkloriy jarayonning izchil taraqqiy etishi davomida ajdodlarimizning folklor an’analari bevosita og‘zaki jonli ijro orqali yashashda davom etgan bo‘lsa-da, xalqning badiiy-estetik qarashlari, turmush tarzi, ijtimoiy-madaniy hayotning rivojlanib borishi natijasida muttasil o‘zgarishga uchrab, ayrim uzvlarini yo‘qotib, ba’zilarini boyitib, to‘ldirib, yangi asarlarning yaratilishiga zamin bo‘lib kelavergan. Shuning uchun ham hozirga qadar yozib olingan yoki jonli ijro holatini saqlab kelgan folklor materiallari orasida qadimgi davr folklori bilan bevosita bog‘lanuvchi u yoki bu epik syujetni topish anchayin mushkul ishdir. Folkloarning mohiyati va uning xalq ma’naviy-madaniy hayotidagi o‘rnini to‘la anglash uchun esa uning tarixiy asoslari, ya’ni zaminini yaxshi bilish g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Bu esa paleofolklooni chuqur o‘rganish, ya’ni xalq og‘zaki ijodidagi an’anaviy epik syujetlarning eng qadimiylarini namunalarini repkonstruksiya qilish orqali folkloarning arxaik qatlamiga xos xususiyatlarni aniqlashni taqazo etadi.

2) Qadimgi davr folklori namunalari yoki uning muayyan syujet, motiv yoki obrazlari o‘tmishda yaratilgan yozma yodgorliklar va moddiy madaniyat yodgorliklari (qoyatoshlarga chizilgan suratlar – petrogliflar, gil, tosh yoki yog‘ochdan yasalgan haykalchalar, turli arxeologik topilmalar va h.k)da ham o‘z ifodasini topgan. Paleofolklooni tadqiq etishda arxeologik materiallar, qadimgi mifologiya, urf-odat va marosimlarda saqlanib qolgan etnofolkloristik talqinlar bilan bir qatorda o‘tmishda yaratilgan yozma manbalar ham muhim ilmiy qimmatga ega. Shuning uchun ham o‘zbek folklori epik syujetlarining badiiy evolyusiyasiga doir ilmiy izlanishlar olib borishda paleofolklor namunalarini o‘zida saqlab qolgan yozma manbalardagi materiallarni tahlilga tortish yaxshi samara beradi.

3) Qadimgi va o‘rtalasr yozma manbalarida o‘z ifodasini topgan arxaik folklor namunalari xalq og‘zaki poetik ijodidagi epik syujetlarning kelib chiqish tarixi, manbalari, shakllanish jarayoni va badiiy evolyusiyasi jarayonini o‘rganishda muhim ilmiy qimmatga ega. Yozma yodgorliklar orqali yetib kelgan paleofolklor namunalarining ahamiyati shundaki, bu materiallar muayyan epik syujetlarning bir necha

asr, hatto, bir necha ming yillik taraqqiyoti bosqichlarini qiyosiy o‘rganish syujet tarkibidagi motivlar va obrazlar silsilasining o‘zgarishlari, epik diffuziya va transformatsiya jarayonlarini aniqlashga asos bo‘ladi.

QADIMGI YuNON YoZMA MANBALARI VA EPIK SYuJETLAR GENEZISI

Ma'lumki, muayyan xalqning epik ijodiyoti o'sha millat nomoddiy madaniy merosi va ma'naviy qadriyatlari tizimining ajralmas qismini bo'lib, jamiyatning tarixiy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan birini tashkil etadi. Odatda xalq eposi milliy badiiy tafakkur mahsuli, ya'ni voqelikni keng epik planda badiiy aks ettiruvchi folklor janri sifatida talqin qilib kelinadi. Ammo shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki epik asarlar uni yaratgan xalqning tarixiy o'tmishi, o'ziga xos turmush tarzi, madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti, orzu-tilishlari, jamiyat va tabiatga bo'lgan badiiy-estetik munosabatini yaxlit holda o'zida jamlagan qadriyatlardan biri sanaladi. Shuning uchun ham folklordagi epik syujetlarning tarixiy asoslari va tadrijiy rivojini tadqiq etishda u yoki bu eposdagi xayoliy-fantastik uydirmalarga burkalgan tasvir zamirida qachonlardir bo'lib o'tgan real voqeа-hodisalar yashiringanligini yoddan chiqarmaslik kerak bo'ladi. Ammo epos o'z mohiyatiga ko'ra uni yaratgan xalqning qadimiy tarixi, o'sha davrlarda yashagan o'tmishdoshlarining turmush tarzi va maishiy hayoti, odamlarning ruhiy kechinmalari va ichki dunyosi, davrning global ijtimoiy muammolari va tarixiy haqiqatini epik ko'lamda aks ettirishi bilan xarakterlanadi.

Jahondagi barcha xalq va elatlar taraqqiyotning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan deyarli bir xil modelini boshdan kechirganliklari, shuningdek, ularning badiiy tafakkuri va falsafiy-etik qarashlaridagi umumiyligi jihatlar bir-bioriga yaqin epik syujetlar hamda folklor asarlarining yuzaga kelishiga asos bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Bunday holatlar "o'zlashtirma syujetlar" mahsuli emas, balki tipologik mushtaraklik namunasi sifatida baholanishi lozim. Tabiiyki, u yoki bu xalq folkloridagi epik asarlar syujetining muayyan bir qismi original bo'lib, bevosita o'sha asarni yaratgan xalqning epik kuychilari – baxshishoirlari tafakkurining mahsuli hisoblansa, boshqa bir qismi xalqlar o'rtasidagi o'zaro madaniy-iqtisodiy munosabatlar va adabiy aloqalar natijasida o'zlashtirilgan epik syujetlardan iborat bo'ladi. Muayyan bir etnosga taalluqli bo'lgan epik syujetlar tizimi o'sha xalq nomoddiy madaniy merosining tadrijiy rivoji davomida takomillashib, taraqqiy etib, qadimiy folklor an'analarining qaysidir uzvlari unutililib, yangidan-yangi syujetlarning yaratilish jarayoni esa davom etib kelaverган. Zero, nomoddiy madaniy meros doimiy ravishda yangilanib, badiiy

tafakkurning har qanday yangi an'analarini o'ziga singdirib, shu tariqa doimiy ravishda boyib boradigan qadriyatlar silsilasi bo'lganligi uchun ham uning tarkibida o'zlashtirilgan syujetlar ham ko'p uchraydi. Shuning uchun ham muayyan xalq folkloridagi epik syujetlarning genetik ildizlari va shakllanish tarixini o'rganish asnosida an'anaviy syujetlarning kelib chiqishiga asos bo'lgan birlamchi manbalarni aniqlash folklorshunoslikning dolzarb vazifalari sirasiga kiradi.

Epik syujetlar genezisini aniqlash maqsadida paleofolkloristik tadqiqotlar olib borishning yana bir muhim jihatni bor. Ma'lumki, turkiy xalqlar folkloridagi epik syujetlarning tarixiy asoslari va tadrijiy rivoji masalalariga doir ayrim ilmiy tadqiqotlarda O'rta Osiyo aholisining o'rta asrlardagi folklor an'analarini, xususan, "Alpomish" dostonining yaratilishi to'g'risida so'z ketganda bu muhtasham eposning syjetini go'yoki Gomer "Odisseya"sidan "o'zlashtirilgan"¹ degan noto'g'ri talqinlarga hamon duch kelib turibmiz. To'g'ri, o'zbek xalq qahramonlik eposi bilan Gomer "Odesseya"si syujet qurilishi orasida juda ko'p mushtarak nuqtalar, o'xshash motivlar mavjud. Xolbuki ana shu mushtarak jihatlarning mohiyati va sabablari haqida so'z yuritganda ana shu ikki buyuk asarni qiyosiy o'rgangan akademik V.M.Jirmunskiy bu kabi asossiz da'volarga shunday deb javob berib qo'yganligini yodimizdan chiqarmasligimiz kerak, deb o'ylaymiz: "Takaya blizost syujeta "Odissei" i skazaniya ob Alpamyshe, chasto daje v podrobnostyax, ne mojet, konechno, ponimatsya v smysle pryamogo literaturnogo vliyaniya eposa Gomera na sredneaziatskuyu poemu "Alparamish", xotya by na samikh rannix etapax yee slojeniya. Podobnoe "vliyanie" istoricheski nepredstavimo. Oba proizvedeniya ustnogo epicheskogo tvorchestva imeli, veroyatno, obishm istochnikom drevneyshiy skazochnyu syujet, shiroko rasprostranennyu v folklore mnogix narodov i v drugom, bolee pozdnem variante otlojivshiysya v srednevekovyx zapadnyx skazaniyax o muje na svadbe svoey jeny".²

Demak, o'zbek xalq eposining yuzaga kelishiga asos bo'lgan ana shunday "qadimiy epik syujetlar"ni aniqlash, ayniqsa, folklor an'analarini rivojining arxaik qatlamiga xos prosyujetlarni rekonstruksiya qilish muhim ilmiy qimmatga ega. Biz ana shu maqsadda tadqiqotimizning ushbu faslida ko'plab qadimgi epik syujetlar yoki ularning qoldiq holdagi ko'rinishlari o'zida jamlagan yozma manbalardan biri – atoqli

¹ Осколков В.С. К вопросу о влиянии античного эпоса на героические сказания тюркских народов // Античность и общечеловеческие ценности. Вып.6. – Алматы, 1999. – С.188-195.

² Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Л.: Наука, 1974. – С.317.

yunon muarixi Gerodotning “Tarix” asaridagi mif, afsona va rivoyatlarni o‘zbek folklori materiallari bilan qiyosiy tahliliga tortishni lozim topdik. Zero, bu yo‘nalishdagi tadqiqot Yevropa va Osiyo xalqlari madaniyatlarining o‘zaro ta’siri hamda aloqalari tizimida g‘arb submadaniyati birlamchi faktor bo‘lmay, Osiyo xalqlari badiiy an’analari jahon poetik madaniyatining taraqqiyotini belgilovchi asosiy markaz rolini o‘taganligini, boshqacha qilib aytganda, Markaziy Osiyo xalqlari nomoddiy madaniy merosi qadimgi yunon madaniyatiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatganligini dalillashga xizmat qiladi.

Atoqli tarixnavis Gerodot tomonidan yozilgan “Tarix” asarining folklorshunoslik nuqtai nazaridan tahlili, xususan, ushbu asarda keltirilgan mifologik personajlar, afsona, rivoyat va hikoyalarning jahon xalqlari og‘zaki ijodidagi epik syujetlar bilan qiyosiy tahlili masalasi alohida o‘rganilmagan bo‘lsa-da, turli xarakterdagи ishlarda u yoki bu tarzda shu muammoga ham munosabat bildirib o‘tilgan.

O‘rta Osiyoning antik davriga oid manbalarni monografik planda chuqur o‘rgangan F.Boynazarovning aniqlashicha, asosan tarixiy manba sifatida e’tirof etilgan Gerodot “Tarix”ida qadimiylar folklor an’analaring o‘rni, xususan, ertak syujetlari va motivlarining talqini masalasi V.Klinger tomonidan maxsus o‘rganilgan bo‘lsa, muallifning tarixiy voqeа-hodisalarni bayon etishda folkloridan foydalanishdagi o‘ziga xosligi A.Dovaturning tadqiqotida yoritilgan.¹ Olim o‘z monografiyasining “Qadimgi yodnomalar” deb nomlangan 1-bobida Gerodotning biografiyasi, uning “Tarix” asarining O‘rta Osiyoning antik davrini o‘rganishdagi ahamiyati va kitob mazmuni xususida keng ko‘lamda ma’lumot berish bilan bir qatorda, ushbu manbadan o‘rin olgan skiflarning kelib chiqishi, Geraklning o‘z otini izlashi va ilon-qiz bilan uchrashishi, Aristeyning sarguzashtlari haqidagi hikoyalarni ham chuqur tahlil qilganligi e’tiborlidir.²

Tatar folklorshunosi L.Z.Zemaletdinov ertakchilik an’ana-laridagi o‘zlashtirma epik syujetlar xususida to‘xtalar ekan, bunday syujetlarning aksariyati u yoki bu yozma manba orqali tarqalganligini yozadi. Ana shunday “o‘zlashgan syujet”lardan biri sifatida Gerodotning “Tarix” asarida keltirilgan “Tog‘a va jiyan” hikoyasini qayd etadi.³ Folklorshunoslik olima G.Z.Imaeva Sharq va G‘arb xalqlari folklorida keng tarqalgan “ayyor o‘g‘ri” haqidagi AT 950 (“Rampsinitning hazinasi”) tipidagi ertakning eng qadimgi Misr

¹ Бойназаров Ф. Ўрта Осиёнинг антик даври. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б.37.

² Ўша асар. – Б.27-43.

³ Земалетдинов З.Л. Татарская народная сказка и литературные сказки Г.Тукая: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Казань, 1993. – С.10.

versiyasi Gerodotning “Tarix” asarining 5-kitobida hikoya qilinganligini qayd etar, bu epik syujetning migratsiyasi, ya’ni jahon xalqlari og‘zaki badiiy ijodiga o‘zlashtirilishida ushbu manbaning o‘rniga ham to‘xtalgan.¹ Ye.S.Torokova ham AT 950 (“Rampsinitning hazinasi”) syujet tipiga mansub ertaklarning hakas folkloridagi variantlari Gerodot tarafidan hikoya qilingan qadimgi Misr ertagiga aynan mos kelishini aniqlagan edi.² Rus xalq ertaklaridagi an’anaviy epik obrazlarning arxetiplarini tadqiq etgan V.N.Lyusinning bir maqolasida ertaklardagi kenja o‘g‘il obrazining ideallashtirilishi an’anasining tarixiy ildizlarini yoritish asnosida Gerodotning “Tarix” asaridagi Targitay haqidagi afsonani qiyos uchun keltirgan.³

Bir turkum tadqiqotlar mavjudki, ularda bevosita Gerodotning asarida hikoya qilingan afsona va rivoyatlarning motivlar tarkibi, ularda naql qilingan syujetning arxeologik yodgorliklar va folklor asarlaridagi ifodasi kabi masalalar yoritilgan. Bu o‘rinda V.A.Kiselning qadimgi ko‘chmanchi skif qabilalarida mo‘tabar deb tasavvur qilingan idishlar haqidagi afsona,⁴ L.A.Lelekov va D.S.Raevskiy larning Gerodot rivoyatlarining folklordagi zamini,⁵ A.A.Neyxardning Gerodot afsona va rivoyatlarining rus tarixshunosligida o‘rganilishi tarixi,⁶ A.S.Rusyaevaning Gerakl haqidagi afsonaning tarixiy ildizlariga⁷ doir maqolalarini keltirib o‘tish mumkin.

D.S.Raevskiy,⁸ V.N.Abaev¹ kabi olimlarning skif mifologiyasiga doir tadqiqotlarida ham Gerodot asariga juda ko‘p murojaat qilingan.

¹Имаева Г.З. Сказочные новеллистические сюжеты АТ 950 “Сокровища Рампсина”, АТ 1534 “Шемякин Суд” и их отражение в литературе: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Екатеринбург, 1995. – С.14.

² Торокова Е.С. Хакасские народные бытовые сказки: сюжетный состав и поэтика: : Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Уфа, 2005. – С.15.

³ Люсин В.Н. Особость архетипов женского/девичьего успеха в русской сказке // Общественные науки и современность. – М., 2000. – №4. – С.91.

⁴ Кисель В.А. Рассказ Геродота и ритуальные сосуды древних кочевников // Археология, этнография и антропология Евразии. №3 (31). – Новосибирск, 2007. – С.69-79.

⁵ Лелеков Л. А., Раевский Д. С. Скифский рассказ Геродота: фольклорные элементы и историческая информативность // Народы Африки и Азии. – М., 1979. – №6. – С.68–69.

⁶ Нейхард А. А. Скифский рассказ Геродота в отечественной историографии. – Л., 1982. – С.126–131.

⁷ Русяева А. С. Понтийская легенда о Геракле: вымысел и реальность // Духовная культура древних обществ на территории Украины. – Киев, 1991. – С.112.

⁸ Раевский Д.С. Скифский мифологический сюжет в искусстве и идеологии царства Атея // Советская археология. – М., 1970. – №3. – С. 90-101; Яна ўша. Очерки идеологии скифо-сакских племен. Опыт реконструкции скифской мифологии. – М.: Наука, 1977. – 216 с.

Ma'lumki, miloddan avvalgi 484 yilda Kichik Osiyodagi Galikarnas shaharchasida dunyoga kelgan Gerodot yoshligidanoq yunon folklori va adabiyotiga juda qiziqqan. Shu bilan bir qatorda o'sha davrlarda yaratilgan tarixiy hamda geografik asarlarni ham katta qiziqish bilan o'qigan. U tug'ilib, o'sgan joy port shaharchasi bo'lganligi sababli yoshligidanoq uzoq o'lkalarga safar qilgan savdogarlar va sayyoohlar bilan uchrashib, ularning olis yurtlarda yashovchi kishilar hayoti, urfodatlari, tarixi to'g'risidagi maroqli hikoyalarni, afsona va rivoyatlarni eshitgan. Bunday hikoyalarni Hindiston, Eron, Baqtriya, So'g'diyona va Kavkaz tarixini puxta o'rganish ishtiyoqini yuzaga keltirgan. Shuning uchun ham u juda ko'p mamlakatlarda sayohatda bo'lib, o'zining kelgusida yaratilajak asari uchun materiallar to'plagan. Gerodotning skiflar haqidagi asarini tahlil qilgan professor F.Boynazarov to'g'ri qayd etganidek, "eng xarakterli tomoni shundaki, Gerodot o'z ko'zi bilan ko'rgan va eshitgan voqealarini qalamga oladi, yolg'on-yoshiq ma'lumotlar bilan ish ko'rmaydi. Tarixiy haqiqatni aniq va real tasvirlashga harakat qiladi. Shuningdek, Gerodot ijodida mifologik xarakterdagи hikoyalarni ham berilgan".²

Gerodot o'zining "Tarix" asarini yozish uchun materiallar to'plash jarayonida o'zigacha mavjud bo'lgan yozma manbalar bilan bir qatorda bevosita safarlari chog'ida o'zi eshitgan og'zaki ma'lumotlar – skif, ya'ni sak-massaget qavmlari folkloridagi epik syujetlarni, shuningdek, boshqa kishilardan eshitgan hikoyalarni ham jamlagan ko'rindi. Shuning uchun ham uning "Tarix"ida Markaziy Osiyo turkiy xalqlari, shu jumladan, o'zbek folkloridagi ko'pgina doston, ertak, afsona va rivoyatlar syujetiga o'xshash lavhalar ko'p uchraydi. Tarixshunos olim L.A.Yelniskiy o'zining skif afsonalari tahliliga doir bir maqolasida Gerodot, Ktesiy kabi qadimgi muarixlarning asarlarida keltirilgan ko'pgina mif, afsona, rivoyat va naqllar bevosita skif qabilalari og'zaki ijodi namunalari ekanligini qayd etadi. U o'z fikrini skiflarning qadimgi ajdodlari Targitay, olamda yaratilgan ilk odam, tog'dagi oltinlarni qo'riqlovchi g'aroyib fantastik jonzotlar – grifonlar, bir ko'zli mifik mavjudotlar haqidagi afsonalar syujetining Sharq xalqlari, xususan,

¹ Абаев Н.В. Отражение религиозно-мифологических представлений народов Саяно-Алтая в скифо-сакской мифологии // Вестник Бурятского государственного университета. Сер.16. – Вып.1. – Улан-Удэ, 2004. – С.166-178.

² Бойназаров Ф. Ўрта Осиёнинг антик даври. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б.36.

forsiy tilli xalqlar folklori materiallari bilan qiyoslash asnosida isbotlagan edi.¹

Gerodot “Tarix”ining IV-kitobi “Melpomena” o‘zining mavzu ko‘lamiga ko‘ra rang-barang bo‘lib, asosan VI asrga oid voqeа-hodisalar – Eron shohi Daro I ning frakiyaliklar va skiflar yurtiga qilgan yurishlari (§§ 1–144) hamda Liviyaning fath etilishi (§§ 145–205) tasviriga bag‘ishlangan. Muarrix o‘z asarining bu faslida asosan geografik va etnografik ma’lumotlar, skif-fors urushi haqidagi hikoyalar hamda asarning asosiy mazmuniga aloqador bo‘lmagan turli-tuman afsona va rivoyatlarni bayon qilgan. “Melpomena” asarining kompozitsion qurilishi quyidagi qismlardan iborat:

§§ 1–12. Skiflarning paydo bo‘lishi haqidagi afsonalar.

§§ 13–15. Prokoneslik Aristey haqidagi qistirma hikoya.

§§ 17–28. Skifiya va Skifiyadan sharqiy tomondagi hududlar geografiyasi.

§§ 28–31. Skifiyaning sovug‘i haqidagi hikoya.

§§ 32–36. Giperboreylar haqidagi qistirma hikoya.

§§ 36–45. Yevropa, Osiyo va Liviya geografiyasi haqida mulohazalar.

§§ 46–58. Skifiya tabiatи va daryolari.

§§ 59–75. Ko‘chmanchi skiflar dini va maishiy hayoti.

§§ 76–80. O‘z ajdodlari an’analalarini buzgan skif hoqonlari haqida rivoyatlar.

§ 81. Podsho Ariantning Eksampayda yasatgan g‘aroyib idishi haqida.

§ 82. Skifiyada diqqatga sazovor joylar yo‘qligi haqida.

§§ 83–85. Doro hujuming boshlanishi.

§ 86. Daryolarda masofa o‘lchovi.

§§ 87–93. Doroning Frakiyaga hujumi.

§§ 94–96. Gotlarning diniy e’tiqodi.

§§ 97–98. Skifiyaga hujum.

§§ 99–101. Skifiya haqida umumiy geografik tushuncha.

§ 102. Skiflar va ularning qo‘shnilari forslar hujumidan xabar topishi.

§§ 103–110. Skiflarga qo‘shni qavmlarning udumlari.

§§ 110–117. Amazonkalar haqida afsona.

¹ Елницкий Л.А. Скифские легенды как культурно-исторический материал // Советская археология. – 1970. – №2. – М., 1970. – С.63-73.

§§ 118–122. Skiflar strategiyasi.

§§ 123–125. Doroning mustahkam himoya qo‘rg‘oni qurbanligi va skiflarni ta’qib qilgani.

§§ 126–134. Skif hoqoni Idanfirs bilan Doro bilan muzokora qilishi.

§§ 135–143. Forslarni chekinishi.

§ 144. Sarkarda Megabaz haqida latifa.

(Shundan keyin Liviya tasviriga o‘rin beriladi).

Bundan ko‘rinadiki, Gerodot “Tarix”ining skiflar bilan bog‘liq voqeal-hodisalar tasviriga bag‘ishlangan IV-kitobi “Melpomena”ning yozilishi jarayonida muarrix asosan og‘zaki ma’lumotlar, ya’ni o’sha davr folklorining materiallari – epos, afsona, rivoyat va og‘zaki hikoyalardan foydalangan. Bu kitob Gerodotning o‘z sayohati mobaynida bevosita skiflar o‘lkasida bo‘lgan yoki ular haqida ko‘p xabar-ma’lumotlarni eshitgan kishilar, shuningdek, mahalliy aholi vakillari bilan qilgan suhbatlari asosida to‘plagan og‘zaki manbalar asosida yaratilgan. Shuning uchun ham kitobda bayon etilgan afsona, rivoyat yoki og‘zaki hikoyalarning aksariyati o’sha davrlarda skiflar – sak-massaget qabilalari folklorida jonli ijro holatida ommalashgan epik asarlarning parchalari yoki qayta hikoya qilingan talqinlari bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Ko‘plab sayohatlar davomida to‘plangan og‘zaki ma’lumotlar, ya’ni folklor materiallari hamda yozma manbalar asosida yaratilgan Gerodot “Tarix”ida keltirilgan mif, afsona va rivoyatlarni O‘rtta Osiyo turkiy xalqlari, shu jumladan, o‘zbek folklori bilan qiyosan tahlil qilsak ko‘plab qadimiy epik syujetlarning kelib chiqishi tarixi va badiiy evolyusiyasini yoritish imkonini yuzaga keladi.

Gerodot o‘zining “Tarix” kitobining 4-faslini Doroning katta qo‘sish bilan skiflar diyoriga hujum qilganligi haqidagi hikoyani eslash bilan boshlaydi. Keltirilgan rivoyatga ko‘ra, Old Osiyo hududida yashovchi qavmlar bilan jang qilish uchun otlangan skif qo‘smini oradan 28 yil o‘tgach o‘z yurtiga qaytibdi. Ular o‘zlarining vatani qaytib kelishganida bu yerda juda kuchli boshqa bir qo‘sning duch kelib qolishibdi. Chunki erlari uzoq muddatli urushga jo‘nab ketgan skif ayollari o‘zlarining qullari bilan qo‘snilishgan ekan. Skiflar o‘z ixtiyoridagi barcha qullarining ko‘zlarini ko‘r qilishadi. Buning o‘ziga xos sabablari ham bo‘lgan. Ular biya sutini ichishar edi. Skiflar biyadan sutni shunday sog‘ishar ekan: nayga o‘xshash suyakni baytalning qiniga o‘rnatishadi, so‘ngira biri og‘iz bilan puflab, u yerga havo jo‘natishadi, ikkinchisi esa biyani sog‘ib oladi. Yelindagi tomirlar shishganidan so‘ng

biyadan sut osongina sog‘ilar ekan. Biyadan sog‘ib olingan sut yog‘ochdan yasalgan tog‘oraga solinadi. So‘ngra yog‘och tog‘ora atrofiga ko‘r qullar o‘tirishadi. Skiflar qullariga sutni chayqashni buyuradi. Sutning tindirilgan (qaymoqlangan) ustki qatlamini yig‘ishtirib oladilar. Qaymoqlangan qismi yuqori baholanadi. Skiflar qo‘lga tushgan asirlarining ko‘zini ko‘r qilishlarining boisi mana shu. Chunki skiflar dehqon emas, balki ko‘chmanchidirlar. Ana shu ayol va erkak qullardan yangi avlod o‘sib voyaga yetadi. Ana shu yosh avlod o‘zlarining asl zoti kim ekanligini bilgach, Midiya safaridan qaytib kelgan skif lashkariga qarshilik ko‘rsatadi. Skif qo‘shini yurtiga qaytib kelayotganidan xabar topgan ko‘r qullarning bolalari o‘zlarining Tavriya tog‘idan Meotiy ko‘ligacha bo‘lgan hududi chegaralari bo‘ylab chuqur xandak qazib, suvga to‘ldiradilar va o‘tib bo‘lmas g‘ovni hosil qiladilar. Skiflar ko‘l orqali o‘tishga urinishganida ko‘r qullarning bolalaridan iborat lashkar ularga qarshi murosasiz jang qiladi. Jang uzoqqa cho‘zilsa-da, skiflar ularni mahv etishning uddasidan chiqolmadilar. Shunda ulardan biri dedi: “Biz o‘zi nima qilayotganimizni bilamizmi, ey skif lashkarlari! Axir biz o‘zimizning qullarimiz bilan jang qilayapmizku! Ular bizni o‘ldirishsa, qo‘shinimizning kuchi qirqiladi, agar biz ularni qirib tashlasak unda xizmatkor qullarimizning soni kamayib ketadi. Kelinglar, nayza va kamonlarimizni qo‘yib, har qaysimiz qo‘limizga qamchi olib qullar ustiga yopirilaylik. Ular bizning qo‘limizga quroq bilan hamla qilganimizni ko‘rishsa o‘zlarini bizga teng biladilar, agar qo‘lda qamchi bilan quvib borsak ular o‘zlarining asli zoti kim ekanligi eslab, dami ichiga tushadi-da qarshilik ko‘rsatishga yuragi dov berolmay qoladi” Bu maslahat barcha skiflarga ma’qul bo‘ladi. Qullar esa bundan dahshatga tushib, jang maydonidan qocha boshlaydilar. Shunday qilib, skiflar o‘z yurtlariga qaytib kelishadi”.¹

Gerodot tomonidan hikoya qilingan “ko‘r qullarning bolalari” haqidagi bu rivoyat qachonlardir skif folklorida mavjud bo‘lgan muayyan arxaik syujetning parchasi ham bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Binobarin, qadimgi yunon mualliflari tomonidan “skiflar” nomi bilan atalgan etnoslar yashagan Kavkaz ortidan to tog‘li Oltoygacha bo‘lgan ulkan hududda istiqomat qiluvchi xalqlar folklorida ana shu ko‘hna rivoyatga mushtarak epik talqinlar mavjudligi qayd etilganligi ham shu taxmin to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

¹ Геродот. История. – Л.: Наука, 1972. – С.187-188.

Xususan, “ko‘rning o‘g‘li” haqidagi qadimgi syujet ta’sirida yuzaga kelgan epik motiv arman muarrixlaridan biri Vizantiyalik Faustning Arshaq to‘g‘risidagi rivoyatida ham uchraydi. Naql qilinishicha, arman shohi Tiran makkorlik bilan eron hukmdori Shopux saroyiga olib borilib, podshoning amri bilan o‘sha zahotiyoy ikki ko‘zi ko‘r qilingan. Bu o‘ziga xos qasos bo‘lib, qachonlardir shoh Tiran arman zaminini alqagan avliyo Sedekiasning ko‘zlarini o‘ydirganligi uchun olingan o‘ch edi. Oradan 11 yil o‘tgach, uning o‘zi ham eron podshosining hukmi bilan ko‘zlaridan ayrıldi. Shopux esa adolat yuzasidan Tiranni o‘g‘li Arshaqni taxtga o‘tkazadi. Shunday qilib, ko‘rning o‘g‘li Arshaqning hukmronligi boshlanadi.¹

Ma’lumki, miloddan burungi III asrning o‘rtalarida hukm surgan Arshaq aslida O‘rta Osiyo hududida yashagan qadimgi qabila va urug‘lar birlashmasining yo‘lboshchisi bo‘lgan. Chunonchi Strabon(miloddan burungi I asr)ning yozishicha, “Arshaq skiflar avlodidan bo‘lib, day qabilasining sardori edi. O‘zlarini parnalar deb ataydigan bu qavm Ohu (Tedjen) daryosi sohillarida yashar edi”.² Boshqa bir muarrix Arrian (miloddan burungi II asr) esa day qabilasiga mansub aholi Sirdaryo sohillarida, shuningdek, Baqtriyaning ayrim hududlarida ham yashaganligini tasdiqlaydi.³ “O‘zbekiston tarixi”da keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Arshaq nomi bilan tilga olingan tarixiy shaxs Parfiya podsholigiga asos solgan hukmdordir. Arshaq haqidagi rivoyatlarning Armaniston bilan bog‘lab bayon etilishi esa antik davrga mansub yozma manbalardagi ma’lumotlarning keyingi talqinlari hisoblanadi.⁴

Arshaq haqidagi epik rivoyatlar tahlili va bu atamaning kelib chiqish tarixi haqida maxsus maqola yozgan H.Zarifov shunday yozadi: “Bizningcha, “Arshaq” atamasining kelib chiqishi va mohiyatini bevosita O‘rta Osiyo xalqlarining tili hamda qadimiy tarixidan izlash kerak. Modomiki, o‘tmish bitikchilarining “Arshaq skiflar avlodidandir” degan ta’rifiga asoslanadigan bo‘lsak, uning asli shaq qabilasiga mansubligiga hech bir shubha qolmaydi...Bu atama ikki qismdan, ya’ni “ar” va “shaq” uzvlaridan tashkil topgan. E’tirof etish kerakki, N.Ya.Marr ham “Arshaq” so‘zi tarkibidagi “shaq” elementini urug‘-

¹ Дюмезиль Ж. Легенды о “сыновьях слепых” на Кавказе и в Прикавказье // Этнографическое обозрение. – М., 1996. – №5. – С.82-83.

² Древние авторы о Средней Азии. - Ташкент, 1940. – С.91.

³ Древние авторы о Средней Азии. - Ташкент, 1940. – С.47.

⁴ История народов Узбекистана. Т.И. - Ташкент, 1950.

qabila atamasi, ya’ni etnik nom deya to‘g‘ri talqin qilgan edi. Ammo uning “Arshaq” so‘zidagi “ar” elementi “totem”, “tangri” ma’nolarini anglatadi, degan fikriga qo‘silib bo‘lmaydi. Shuningdek, N.V.Treverning “ar” so‘zi “quyosh”, “yog‘du” ma’nolarini bildiruvchi “xvar” leksemasiga aloqadorligi to‘g‘risidagi farazi ham haqiqatdan yiroqdir... “Arshaq” “ar” so‘ziga O‘rta Osiyoda yashagan qadimgi qabilalardan birining nomi – “shaq” etnonimi qo‘shilishidan yasalgan. Menimcha, “ar” so‘zining ma’nosini ham O‘rta Osiyoning qadimgi aholisi tilidan izlagan ma’qul... Menimcha, “ar” so‘zi va uning “er” shaklida talaffuz qilingan fonetik varianti qadim zamonlardan beri “er”, “erkak kishi”, “jasur”, “bahodir”, “mard”, “qahramon” kabi ma’nolarda qo’llanilib kelgan”.¹

Bizningcha, Vizantiyalik Faust rivoyatida keltirilgan shoh ismi sifatida keltirilgan “Tiran” atamasi ham qadimgi “Turon” nomining fonetik o‘zgarishga uchragan shakli bo‘lishi kerak.

Osetin qahramonlik eposining 1881 yilda yozib olib chop etilgan bir variantida tasvirlanishicha, nartlarning sardori Batradzning yo‘qligidan foydalangan bir ko‘r devning o‘g‘li o‘z otasining gapiga kirmasdan nartlarning huzuriga borib o‘yin-kulgu qiladi, keyin ularga zug‘um o‘tkazib, haqorat qiladi. Ertasi kuni qahramon Batradz qaytib keladi va “ko‘r devning bolasi”ni oldiga chaqirib, uning qo‘lini sug‘urib uzib tashlaydi. Yigit nartning qo‘lidan qochib qutuladi, ammo mayib bo‘lganligi sababli o‘ladi.² Nartlar haqidagi osetin eposidagi “ko‘r devning o‘g‘li” bilan bog‘liq epik syujet ikki jihatiga ko‘ra Gerodot naql qilgan rivoyatga mos keladi: birinchidan, har ikki epik syujetda ham “ko‘rning o‘g‘li” (Gerodot asarida “ko‘rlarning o‘g‘illari”) o‘z xo‘jayini yoki yetakchi sardor yo‘qligida fursatdan foydalanib, o‘z kuchini ko‘rsatib, zo‘ravonlik qiladi; ikkinchidan, ikki holatda ham yurtning haqiqiy egasi qaytib kelgach, ular jazoga mubtalo etiladilar. Bu kabi mushtarakliklar esa Gerodot o‘zining “Tarix” asarini yozish jarayonida qadimgi skif eposiga mansub epik syujetlardan samarali foydalanganligi, binobarin, “ko‘rning o‘g‘li” haqidagi rivoyat syujetining tarixiy assoslari ham skif yoki sak-massagethlar folkloriga borib taqalishini ko‘rsatadi.

Gerodot hamda Vizantiyalik Faust tomonidan naql qilingan “ko‘r o‘g‘li” haqidagi ma’lumotlarni boshqa manbalardagi shu mavzuga doir

¹ Зарифов Ҳ. Аршақ – халқ қаҳрамони // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 2011. – Б.

² Дюмезиль Ж. Легенды о “сыновьях слепых” на Кавказе и в Прикаавказье // Этнографическое обозрение. – М., 1996. – №5. – С.82-83.

materiallar bilan qiyosiy tahlil qilgan fransuz olimi J.Dyumezil mazkur qadimiy epik rivoyat bilan turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan “Go‘ro‘g‘li” (“Ko‘ro‘g‘li”) dostoni syujeti o‘rtasida muayyan aloqadorlik bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risidagi gipotezani o‘rtaga tashlab, “Vizantiyalik Faust o‘z asarini yozishda aslida ko‘r shohning o‘g‘li bo‘lgan hukmdorning qahramonliklari va ehtiyyotsizlik tufayli halokatga mahkum etilishi to‘g‘risidagi xalq eposi namunalaridan foydalanganligiga shubha yo‘q. Biroq o‘sha xalq dostoni aslida qanday bo‘lganligini aniqlashning bugun sira imkonni bo‘lmasa-da, Eronning shimoliy-g‘arbiy hududida yashovchi turkiylar folklorida Faust hikoya qilgan rivoyatga o‘xshash syujetlar keng tarqalganligini alohida qayd etish kerak. Bu “ko‘rning o‘g‘li” Ko‘ro‘g‘li haqidagi dostonlar turkumidir...Bu tasodifiy mushtaraklik bo‘lishi ham mumkin, albatta. Agar ular o‘rtasida tarixiy-genetik aloqadorlik mavjudligi masalasi kun tartibiga qo‘yilsa, uni asoslashga harakat qilamiz”,¹ – deb yozgan edi.

“Go‘ro‘g‘li” dostoni syujetining shakllanish tarixi qadimgi yunon yozma yodgorliklarida keltirilgan arxaik syujet va motivlar bilan aloqadorligi masalasi keyinchalik ozarbayjon folklorshunosi Z.Gasanov tomonidan tadqiq etildi. U o‘zining maqolalaridan birida mazkur dostonning ozarbayjon versiyasina mansub epik asarlar syujeti mohiyatan ikki qatlamdan, ya’ni mifologik va tarixiy qatlamdan iboratligini ta’kidlab, epos syujetining tarixiy qatlamini miloddan burungi VII-VI asrlarda yashagan ikki qondosh etnos – kimmeriyaliklar va “hoqoniy skiflar” o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning epik ifodasi tashkil etadi, degan xulosaga kelgan edi.² Keyinchalik esa u qadimgi yunon yozma yodgorliklarida keltirilgan naqllar bilan “Ko‘ro‘g‘li” eposi syujeti hamda obrazlari, xususan, Ko‘ro‘g‘li va Gerakl sarguzashtlar hikoya qilingan epik syujetlar orasida bir qator mushtarak nuqtalar, parallelliklar borligini aniqlab, “skiflar folkloridagi Gerakl obrazi va u haqda hikoya qiluvchi miflar turkiy xalqlar eposi “Go‘ro‘g‘li”da o‘z ifodasi topgan” degan taxminni ilgari surdi.³

¹ Дюмезиль Ж. Легенды о “сыновьях слепых” на Кавказе и в Прикавказье // Этнографическое обозрение. – М., 1996. – №5. – С.88, 91.

² Hasanov, Zaur. Historical and mythological parallels between the Legend of Herodotus about Cimmerians and “sons of blind slaves” and epos “Koroglu” // International Silk Road Cultural & Academic Conference (Myth, Nation, Literature). – Baku. 2006. – pp. 93-96.

³ Гасанов З. Элементы шаманизма в эпосе “Кёрголу” и в мифе о происхождении скифов от Геракла // От общего тюркского прошлого к общему тюркскому будущему. – Баку, 2007. – С.706-716.

Bizning fikrimizcha ham, “ko‘r o‘g‘li” haqidagi epik syujetning Gerodot va boshqa qadimgi mualliflar asarlaridagi talqinlari bilan “Go‘ro‘g‘li” dostoni bosh qahramoni nomining kelib chiqishi o‘rtasidagi bog‘liqlik mavjud. Ushbu ilmiy gipotezani “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarning o‘zbek versiyasi materiallari misolida asoslashga harakat qilib ko‘raylik.

O‘zbek xalq baxshilari repertuaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlari talqinicha, epik qahramon, ya’ni Go‘ro‘g‘lining otasi Ravshan tulpor otlarning zotini ayira biladigan kuchli sinchi bo‘lib, Shohdorxon podshoning talabiga binoan otlarning zotini bayon qilib aytgan to‘g‘ri so‘zi uchun o‘zining ko‘zlaridan ayrilib, ko‘r bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham bu Go‘ro‘g‘li “ko‘rning o‘g‘li”dir. Ravshanning ko‘r bo‘lishi bilan bog‘liq voqealar Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan shoirdan yozib olingen “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida¹ shunday tasvirlanadi: Taka-Yovmit elining bir guruh bolalari toqqa sayrga chiqishganida Shohdorxon podshoning lashkariga to‘g‘ri kelib qoladilar. G‘anim lashkari, barcha bolalar qatori Ravshanni ham asir qilib olib ketadilar. Askarlar bandi qilib haydab kelgan bolalarni Shohdorxon podsho o‘limga hukm qiladi. Ammo podshoning Hamza degan lashkarboshisi Ravshanxонни o‘g‘il qilib olmoqchi bo‘lib, sandiqqa yashirib parvarishlay boshlaydi. Baxshi ta’rificha, “Hamza, Ravshanbekni o‘g‘il qilib olaman, deb har kuni tong otguncha uning kokilini yetti martaba o‘rib, har o‘rganda mushkning suvini berar edi. Ravshanxon ham bir bola bo‘ldiki, ko‘rganlar havasda, ko‘rmaganlar armonda, kansiz, suluv-xushro‘ylaridan biri”. Ulg‘ayganidan keyin Ravshanbek o‘z yurtiga ketish uchun ruxsat so‘raganida bundan jahli chiqqan Hamza uni qul bozoriga olib chiqib sotmoqchi bo‘ladi. O‘scha kuni asli o‘zi taka-yovmit elidan bo‘lgan Gajdumbek ham singlisi bibi Hilolga bir qul sotib olish uchun bozorga chiqqan edi. Gajdumbek o‘scha kuni Ravshanbekni sotib oladi va uyiga olib kelib, keyinroq singlisi bibi Hilolni unga nikohlab beradi.

“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida tasvirlanishicha, bir kuni Gajdumbek bilan Ravshanbek bir soyning ichida odam va otlarning suyaklari to‘da-to‘da bo‘lib yotganini ko‘rib qolishadi. Ana shunda Ravshanbek bir otning qo‘l suyagini ko‘rib:

¹ Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети хузуридаги Ўзбек тили ва адабиёти илмий-тадқиқот институти Фольклор архиви. И nv. №19.

Shu yerlarda urush bo‘lgan ekan-da,
Ajalli, maydonda o‘lgan ekan-da.
Shu bedovni podsho mingan ekan-da,
O‘q tegib jonivor o‘lgan ekan-da,
Bizlarday g‘arib bo‘p qolgan ekan-da.

Dunyo tushsin qo‘ydi qayg‘u-hasratga,
Beklar shiddat bilan minadi otga,
Ajal yetib o‘lib ketsak, Gajdumbek,
Qanday odam qo‘yib kelar lahadga,
Shu suyak bizlarday bo‘lgan ekan-da, –

deb yig‘laydi. Shundan keyin bekbachchalar haligi otning kalla suyagini uyiga olib kelib, xafa bo‘lib, lampaday osib, kallaning ostida tunab yotaberadilar. Oradan ikki oy o‘tgach, odamlar orasida “Gajdumbekning bir kuyovi bor emish, o‘lib ketgan qirq yillik bedov tulporning suyagidan tanir emish”, degan gap tarqaladi. Bu gap Shohdorxon podshoning ham qulog‘iga yetib boradi. Shunda:

– Shu sinchini olib kelinglar, bizlar ham sinab ko‘raylik, – deydi. Mahram-xizmatkorlar kelib, Gajdumbek bilan Ravshanbekni olib Shohdorxon podshoning huzuriga eltadilar. Shohdorxonning sakson tabla bedov oti bor edi. “Qani, shularning ichida tulpori bormi?” deb hammasini bir-bir Ravshanbekning nazaridan o‘tkazadi. Otlarni ko‘zdan kechirgan Ravshanbek: “Tulpori bor ekan, lekin bor ham bo‘lsa yo‘q ekan”, – deydi. Bu gapni eshitgan Shohdorxon hayron bo‘lib turganida ko‘chadan bir odamning “Holva ketdi!” – degan ovozi eshtiladi. Hamma qatori Ravshanbek ham ko‘chaga qaraydi, qarasa, “mingan oti harish, yoli-dumi to‘kilgan, dumginasi bir qarich, ostidan shamol esgan, cho‘qqilarini olashaqshaq teshgan, luqadan quyushqoni bor, cho‘pdan suvlug‘i bor, ipdan tizgini bor, o‘zi yog‘ochday qotgan, qamchilab dingillatgan” bir otni minib olgan holvachi o‘tayotibdi. Shunda Ravshanbek haligi holvachining otini maqtab shunday deydi:

Shuni mingan ko‘rar o‘sgan yurtini,
Dushman dan hamisha olar lotini.
Maqtasang tulporni, Shohdorxon,
Ko‘rmaysizmi holvachining otini?

Sag‘risiman barobardir biqini,

Qahrlansa tortar norning yukini,
Ko‘rmaysizmi jonivorning tangini,
Miroxo‘rlar ovlaydi cho‘lning ongini,
Hali ham chopishsang tekis yerlarda,
Hech bir oting ko‘rolmaydi changini!

Elim desam rangim gulday so‘ladi,
Tomosha qil, holvachining tulporin.
Chin bedov degani shunday bo‘ladi!
Maqtasang bedovni maqta, podshoyim!

Ravshanbek holvachining otini, bedov, deb maqtaganligi uchun Shohdorxon podsho: “Ey Ravshanbek, sen holvachining yomon cho‘bir otini maqtaysan, mening shuncha otlarimni maqtamaysan, endi bilsam, sening ko‘ngling boshqa ekan, menga dushman ekansan!” – deb achchig‘i kelib, odamlariga uning ko‘zini o‘yib olishni buyuradi. Shu tariqa Ravshanbek ko‘r bo‘lib qoladi.

Ravshanbekning ko‘zi ko‘r qilinishi voqeasi Rahmatulla Yusuf o‘g‘lining “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida shunday tasvirlangan: “Sayislar otlarni birma-bir ko‘rsatib o‘taberdi. Ravshanbek shu o‘ttiz ming otning ichidan uchta tulpor tanladi. Bir qaracha kar ot. Agar bir to‘xtasa, qaytarilib chopmay qoladigan. Biri ola ot. Kunga qarab chopa olmaydigan. Biri oq ot, toshloqda chopa olmaydigan. Bulardan boshqa otlarning hammasini tulpor emas, deb sayislar bilan birga Ravshanbek Xunxorshohning xizmatiga qaytib borib: – Shohim, buyurgan farmoningizni bajarib, otlaringizni ko‘rib chiqdim. O‘ttiz ming otingizning ichida uchta tulpor bor ekan. O‘lar ham bo‘lsa aybdor, – deb Xunxorshohga qarab, bir necha joydan timsol keltirib, bir so‘z dedi:

Ko‘rib chiqim otlaringni birma-bir,
Hamasi ham jobi ekan, sultonim,
Uchta tulpor, uchovi ham nuqsonli,
Shular juyruktobi ekan, sultonim.

Uchovi hom chopqir otni tutolmas,
Poyga bo‘lsa, pilgasiga yetolmas.
Chin tulpor topilsa, undan o‘tolmas,
Shuytib bari bekor ekan, sultonim.

Bekorga boqibsan o‘ttiz ming otni,
Shularman qo‘riyib bu mamlakatni,
Bari ishing qilmas bir tulpor zotni,
Shuytib ishing bekor ekan, sultonim.

Odamlaring ot yaxshisin bilolmas,
Bilganda ham uni tulpor qilolmas,
Bu otlaring, yov kelsa, duch bo‘lolmas,
Shon-shavkating bekor ekan, sultonim.

Bu so‘zlarni eshitib, Xunxorshohning har murti sixday bo‘lib, qahri kelib, ilonday zahri kelib: – Voh, hali sen bizning otlarni, shonu shavkat, podsholigimizni kamsitadigan bo‘ldingmi? Mirg‘azablar, bu haddidan oshgan o‘r turkmanni bog‘langlar. Bu ozroq qul bo‘lgani uchun ko‘zi g‘ilaylashibdi, ko‘zini yaxshi bir dog‘langlar, – deb... mirg‘azablarga buyurib, bir otashkurakni olovda qip-qizil qizdirib, Ravshanning ikki ko‘ziga otashkurakning ikki uchini bostirdi. Ravshan bechoraning ikki ko‘zi oqib tushib qoldi”.¹

O‘zbek xalq baxshilari repertuaridagi “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni bilan Gerodotning “Tarix” kitobida keltirilgan “ko‘r qullar” haqidagi rivoyat syujeti bir necha nuqtalarda o‘zaro uyg‘unlik kasb etadi:

– *birinchidan*, Gerodot talqinicha, ko‘zi ko‘r qilingan kishilar qullardir; “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ham asl tulpor zotini bayon etgani uchun ko‘zları ko‘r qilingan Ravshanbek Shohdorxonning lashkari tomonidan Taka-yovmit elidan bandi qilib (ya’ni qul qilib) olib kelingan. Rahmatulla Yusuf o‘g‘lining “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida tasvirlanganidek, “Ravshanbekni qizilboshlar yalangbosh, yalangoyoq bog‘lab, ot hukmida haydab, yurak-bag‘rini dog‘lab, qamchi urib, ilingan joyini qonatib”, bandi qilib olib kelishgan. Baxshining bayon qilishicha, “Xunxorshohning rasmida asirni kim keltirsa, o‘sha sotishga haqli edi. Ana endi bek Ravshanni tutib keltirgan qizilboshlar qulning belgisi uchun Ravshanbekka cho‘chchayma kalapo‘sh kiydirib, qul bozoriga” haydab olib borib sotadi;

– *ikkinchidan*, skif lashkari o‘zining 28 yillik jangovar safaridan qaytib kelganida o‘z ayollarining qullar bilan qo‘shilib ketganidan xabar topadilar va shuning uchun ham ularning ko‘zlarini ko‘r qilishga qaror

¹ Рахматулла Юсуф ўғли. “Гўрўғли” достонлари. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б.

qiladilar. O‘zbek xalq dostonida Ravshanbekning o‘z ko‘zlaridan judo bo‘lishi sinchilik voqeasi bilan bog‘lab talqin qilinsa-da, qahramonning g‘anim yurt ayoli bilan aloqadorligi motivining qoldiq holdagi ifodasi saqlanib qolgan: garchi Gajdumbek bilan uning singlisi bibi Hilol aslida Taka-yovmit elidan bo‘lsalar-da, taqdir taqazosi tufayli Shohdorxon yurtidan panoh topishgan. Ravshanbekning bibi Hilolga uylanishi orqali “qul”ning o‘z xo‘jayini (Gajdumbek uni bozordan qul sifatida sotib olgan) singlisi bilan birlashishi hodisasi ro‘y beradi;

– *uchinchidan*, Gerodot tomonidan hikoya qilingan rivoyatda ko‘r qullarning mehnat faoliyati biya sutini aralashtirib chayqatishdan iborat (ya’ni ot detali bilan bog‘liq)dir. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining barcha variantlarida Ravshanbek “suyagidan tulpor naslini aniqlay oladigan” bilgich sinchi sifatida tasvirlangan.

Ana shularning barchasi, qadimgi yunon tarixchisi Gerodotning “Tarix” asarida keltirilgan “ko‘r qo‘llar” haqidagi rivoyat bilan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonidagi Ravshanbekning ko‘zlaridan judo bo‘lishi voqealari tasvirlangan epik syujet o‘zaro mushtarak negizga bog‘lanishidan dalolat beradi. Nazarimizda, sinching ko‘r qilinishi to‘g‘risidagi epik syujetning arxaik namunasi dastavval O‘rta Osiyo hududida yashagan qadimgi ajodolarimizning paleofolklorida yuzaga kelgan. Bu syujetning Gerodot asarida qayd etilishi esa buyuk muarrixning sak-massaget eposi materiallaridan samarali foydalanganligini ko‘rsatadi.

Qadimgi yunon muarixi Gerodotning “Tarix” asarida keltirilgan qadimiylar orasida mohiyatan “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining syujeti bilan bog‘liq bo‘lgan qadimiylar orasida mohiyatan “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining syujeti bilan bog‘liq bo‘lgan qadimiy rivoyatlardan yana biri keltirilgan bo‘lib, unda bahodir Geraklning o‘z otlarini izlashi bilan bog‘liq voqealar bayon etilgan. Gerodotning hikoya qilishicha, otlari yo‘qolib qolgan Gerakl o‘zining tulporlarini butun mamlakat bo‘ylab izlay-izlay topmagach, yurib-yurib oxiri Gileya degan joyga borib qoladi. O‘sha yerdagи g‘orda u yarmi suluv qiz, yarmi ilonga o‘xshash g‘alati bir mavjudotni uchratadi. Uning beligacha bo‘lgan joyi qiz suratida bo‘lsa, pastki qismi ilonday buralib turarkan. Buni ko‘rib ajablangan Gerakl undan u yoq-bu yoqda adashgan otlarni ko‘rgan yoki ko‘rmaganligini so‘raydi. Shunda haligi ilon-qiz otlar uning qo‘lida ekanligi, ammo toki Gerakl u bilan ishqiy aloqaga kirishmasa otlarni bermasligini aytadi.¹

¹Геродот. История. В 9-ти кн. / Пер. Г.А.Стратановского. Т.2. – М.: ООО “Издательство АСТ”, “Ладомир”. – 2001.

Ushbu rivoyatni Ko‘ro‘g‘li haqidagi ozarbayjon eposi materiallari bilan qiyosiy o‘rgangan Z.Gasanov “skiflarning Gerakl avlodi ekanligi haqidagi mif eng qadimiy shomoniylikning ilk bosqichlariga xos mifologik tafakkur mahsuli bo‘lib, unda Geraklga shomonlik iqtidori va belgi-alomatlarining berilishi bayon etilgan”, binobarin, “Ko‘ro‘g‘li” eposi syujetining zamirida ham shomon miflari yotadi”, degan xulosaga keladi.¹

Rahmatulla Yusuf o‘g‘li repertuaridagi “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilib, o‘sishi” dostonida tasvirlanishicha, qalandarlar G‘irotni xonaqoning oldiga bog‘lab, Go‘ro‘g‘liga podshohlik kuylagini kiydirmoqchi bo‘lishganida, “Go‘ro‘g‘libek otiga juda kashal bo‘lib: – Ko‘ylakni beringlar, tez kiyib olay, – deb ko‘ylakni qalandarlarning qo‘lidan ola solib, abil-g‘ubil kiya solib, ko‘ylakning yoqasidan boshini chiqara solib qarasa, G‘irko‘k oti yo‘q, qalandarlar ham yo‘q. Juda kayfi uchib ketganidan Go‘ro‘g‘libek kiygan ko‘ylagini yirtib, bo‘lak-bo‘lak qilib tashlab, otini izlab” yo‘lga tushadi. Go‘ro‘g‘libek G‘irko‘k otini izlab bir tog‘ning bag‘riga yeitib kelganida “bir kamarning bulog‘ida Yunus-Misqol parilarning ruhlari kir yuvib o‘tirgan suratda Go‘ro‘g‘libekning ko‘ziga ko‘rindi. Go‘ro‘g‘libek ulardan: – Shu yerlardan g‘o‘nondan do‘nonga chiqma bir ko‘k toy o‘tdimi? – deb so‘raydi. Shunda Yunus, Misqol parilarning ruhi “Ot yuqotgan yaxshi yigit, otingni el bor joydan so‘rada. Ot bu odamsiz tog‘larda nima qilsin?” deb javob beradi. Shu kuni gashti peshinda tog‘ning ustiga chiqib o‘tirib, naryoqdagi kamarlarni birma-bir ko‘zdan kechirib qarab o‘tirsa, bir pilla bir kamardan bir do‘lanaga bog‘log‘lik turgan bir otni ko‘rib qolib, rangiga zehn solib qarasa, ot ko‘k, yashil, g‘irko‘k, G‘irko‘kka o‘xshagan bir ot. “Agar G‘irko‘k bo‘lsa, shuncha mohnatim kuymagan bo‘ladi. Qani bir borib ko‘ray-chi”,— deb asta-asta o‘sha kamarga borib ko‘rsa, o‘zining G‘iroti do‘lonaga bog‘log‘liq turibdi”.²

Bizning fikrimizcha, Go‘ro‘g‘lining o‘z otini izlashi va tog‘ning kamari yonidagi buloq bo‘yida ikki pariga duch kelishi motivlari Gerodotning “Tarix” kitobida keltirilgan Gerakl to‘g‘risidagi rivoyat syujeti bilan hamohang jihatlarga ega. Har ikki epik qahramonning safarga chiqishiga ot(otlar)ning yo‘qolishi sabab bo‘ladi. Safar chog‘ida qahramonlar uchratgan qiz (qizlar) mifologik tabiatga ega: Geraklga

¹ Гасанов З. Элементы шаманизма в эпосе “Кёрглу” и в мифе о происхождении скифов от Геракла // От общего тюркского прошлого к общему тюркскому будущему. – Баку, 2007. – С.716.

² Рахматулла Юсуф ўғли. “Гўрўғли” достонлари. – Тошкент: Гарқ, 2005. – Б.

duch kelgan jonzot yarmi qiz, yarmi ilon suratida bo‘lsa, Go‘ro‘g‘li uchratgan Yunus hamda Misqol pari ham shu tipdagi mifologik personajlar sirasiga kiradi. Chunki folklorshunos olim K.Imomovning yozishicha, parilar ertaklarda kaptar, o‘t, ilon, kampir, kiyik, maymun, odam, baliq va boshqa xil turli qiyofada ko‘rinadilar.¹ Pomirlik tojiklar e’tiqodicha ham parilar ezgu niyatli parilar zoomorf qiyofada, ko‘pincha chiroyli qushlar (lochin, to‘ti, kaptar), shuningdek, oq yoki sariq ilon ko‘rinishiga kirarkan.²

Parilarning goh qiz, gohida esa ilon suratida ko‘rinishi o‘zbek xalq ertaklarida ham uchraydi. Masalan, “Ilon pari” ertagida tasvirlanishicha, “bir podsho ov qilib yurib, uzoqda bir narsa ko‘ribdi. Podsho sekin borib qarasa, daraxt tagida bir qiz dam olib o‘tirgan mish. U qizni ko‘rgan zamon hushidan ketibdi. Bir ozdan so‘ng o‘ziga kelib qarasa, pari suv keltirib podshohning yuziga sepib turgan emish. Podshoh uning qo‘lidan suvni ichib, o‘zi bilan birga saroyga olib kelibdi. Pariga uylangan podsho kundan-kun ozib-to‘zib, rangi sarg‘aya boshlaydi. Buni kuzatib yurgan vazir bir kuni podshoga bir sirni ochadi: “Taqsir, tag‘in bu dashtdan olib kelgan qizingiz ilon pari bo‘lmasin, o‘tmishda qarilar: “Dashtda ko‘rma ilon bo‘ladi. Qirq yil odam ko‘rmasa, u pariga aylanadi, odamga kunduzi pari bo‘lib ko‘rinadi”, der edilar. Xotiningiz tag‘in ilon bo‘lmasin, deb gumon qilaman?”³ Shundan keyin tuzli suv vositasida haligi pari qizning ilon ekanligi aniqlanishi va podshoning undan qutulishi bilan bog‘liq voqealar tasviri beriladi.

Shunga ko‘ra aytish mumkinki, Go‘ro‘g‘li o‘zining G‘irotni izlab yurganida ikki pariga duch kelishi motivi bilan Geraklning yarmi qiz, yarmi ilon sifatidagi mavjudotga duch kelishi motivi genetik jihatdan yagona manbara – qadimgi sak-massaget qavmlari eposi syujetiga bog‘lanadi.

Gerodotning “Tarix” asarida keltirilgan sak-massaget rivoyatlaridan birida skiflarning ulkan muqaddas idish(qozon)ning qanday qilib yasalganligi haqida shunday hikoya qilinadi: “Skiflarning soni qanchaligini men aniq aytolmayman, chunki bu haqda juda kam, uzuq-yuluq ma’lumotlarni eshitganman. Ba’zilar, skiflar juda ko‘p deyishsa, boshqa birovlar tub joy aholisi bo‘lgan skiflar aslida nihoyatda kamchilikni tashkil etadi, deydilar. Mahalliy aholining menga

¹Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Тошкент, Ўқитувчи, 1980. – Б.143.

²Литвинский Б.А. Семантика древних верований и обрядов памирцев // Средняя Азия и ее соседи в древности и средневековье. – М., 1981. – С.94.

³Чўлоқ бўри. Ўзбек халқ әртаклари. – Тошкент: Юлдузча, 1988. – Б.166.

ko‘rsatishicha, Borisfen bilan Gipanis o‘rtasida Eksampey deb ataladigan bir joy bor bo‘lib, men uni avval ham eslatib o‘tgan edim, aytishlariga qaraganda, u yerda bitta sho‘r suvli buloq bor bo‘lib, suvi Gipanisga quyiladi. Shuning uchun Gipanisning suvini ichib bo‘lmaydi. O‘sha buloqning yonida bitta kattakon mis idish qo‘yilganki, kattaligi Kleombrotning o‘g‘li Pavsaniy tomonidan xudolarga bag‘ishlab Pontdagi ibodatxona oldiga o‘rnatilgan vino idishidan olti baravar keladi. Kimda-kim bu ulkan mis idishni ko‘rmagan bo‘lsa, men uni ta’riflab beray: uning eni olti barmoq bo‘lib, sig‘imi olti yuz amforga teng. Aytishlaricha, bu bahaybat mis idish kamon o‘qlarining uchidan yasalgan emish. Ariant degan skif hoqoni o‘z fuqarolarining sonini bilmoqchi bo‘libdi. Shuning uchun u har kim bittadan kamon o‘qining uchini olib kelishini, kimki bu buyruqdan bo‘yin tovlasa qatl etilajagini aytib, farmon chiqaribdi. Ana shunda skiflarning har biri bittadan kamon o‘qining uchini olib kelibdi, kamon o‘qlarining uchi tog‘ bo‘lib uyulibdi. Hoqon bu kamon o‘qlarining uchidan biror yodgorlik qoldirishni istabdi-da, ularning barini eritib, kattakon idish yasab, Eksempeyga o‘rnatishni buyuribdi. Mening skiflarning soni haqida olgan ma’lumotlarim ana shulardan iborat”.¹

Folklorshunos M.Jo‘raevning fikricha, Gerodotning ushbu rivoyatida qayd etilgan “ulkan mis idish” aslida O‘rtta Osiyo xalqlari orasida qadimdan urf bo‘lib kelgan ritual ashyolardan biri – sumalak, halim kabi serhosillik g‘oyasi bilan aloqador taomlarni pishirishda ishlatiladigan katta mis qozondir. Zero, “navro‘z bayramini eng zo‘r shodiyona sifatida tantana qilgan saklar yilboshi kuni bayram taomi pishiriladigan ulkan qozonlarni serhosillik timsoli deb bilganlar. Bunday qozonlarda pishgan sumalakdan tanovul qilgan kishiga yil bo‘yi omad, qut-baraka esh bo‘ladi deb bilishgan. Ajdodlarimiz bahorgi va kuzgi tengkunlik nishonlanadigan bayramlarda katta qozonlarda quyosh sharafiga qurbanlik qilingan ot go‘shtini pishirishgan va bu taomni birgalikda iste’mol qilishgan. Bu udum el-yurt farovonligi va to‘kinsochinlikni ta‘minlaydi, deb bilishgan”.²

Tabiatdan mo‘l hosil tilash va ajdodlar kultining muqaddasligiga ishonish bilan bog‘liq marosimlarda, shuningdek, jamoaviy tadbirlar – to‘y-hashamlarda taom pishiriladigan katta mis qozonlar xalqimizda

¹ Қаранг: Геродот. История. В 9-ти кн. / Пер. Г.А.Стратановского. Т.2. – М.: ООО “Издательство АСТ”, “Ладомир”. – 2001. – С.228.

² Жўраев М. Наврўз байрами / Ўзбек фольклоршунослиги кутубхонаси. – Тошкент: Фан, 2009.

alohida timsoliy mohiyat kasb etgan Xalq qarashlariga ko‘ra, ana shunday ulkan mis qozonda pishgan taom ham mo‘tabar hisoblanabi, undan birgalashib tanovul qilgan kishilar orasida hamjihatlik, birdamlik mustahkamlanadi, deb tasavvur qilingan. Qadimgi sak madaniyatiga mansub arxeologik topilmalarni o‘rgangan olimlar Markaziy Osiyoning sak-massaget qabila birlashmasiga mansub aholisi madaniyatida misdan yasalgan katta jamoa qozonlari muqaddas sanalganligi hamda unda tangrilarga bag‘ishlab o‘tkazilgan qurbanlik marosimlarida ritual taom tayyorlanganligi qayd etilgan.¹

Saklarning ulkan mis idishi, ya’ni qozoni to‘g‘risidagi rivoyatning Gerodot tomonidan naql qilingan namunasidagi hoqonning o‘z qavmi sonini aniqlash maqsadida kamon o‘qining uchini olib kelishni buyurishi motivi muayyan o‘zgarishga uchragan holda bo‘lsa-da, o‘zbek folklorida saqlanib qolgan. Bu epik motivning muayyan o‘zgarishga uchragan rudiment holidagi talqini “Osiy qal’asi” nomli toponimik rivoyat syujetida mavjudligini aniqladik. Buxoro viloyatining Qorako‘l tumanining Osiyo qishlog‘i yaqinidagi shu nom bilan ataluvchi qadimiylar qal‘a to‘g‘risidagi rivoyatda hikoya qilinishicha, “kunlardan bir kuni Buxoro amiri katta lashkar bilan Osiyo qal’asi ustiga bostirib kelibdi. U o‘zining besh yuz ming sarboziga bosh bo‘lib, to‘pu to‘pxonasi, vaziru vuzarolari, allomayu ikromalari bilan bostirib kelibdi. Amir qal’aga o‘z elchilarini yuborib: “Yo menga bo‘ysunib, el qatori soliq-o‘lponimni to‘lasin, yo bo‘lmasa urush talabi bo‘lsa, maydonga chiqsin!” – deb siyosat qilibdi. Elchilar amirning so‘zlarini oqizmay-tomizmay Do‘nmas dodxoga yetkazibdilar. Shunda sardor o‘zining donishmandlarini maslahatga chaqiribdi. Ular qon to‘kilmasligi uchun amirning oldiga uchovlashib boradigan bo‘libdilar. Do‘nmas dodxo bilan ikki donishmandning qorasi ko‘rinishi bilan amirning lashkarlari har tomonga tumtaraqay qochib qolibdilar. To‘s-to‘polonni eshitib, chodirdan chiqqan amir qarasaki, saf-saf bo‘lib jangga shay bo‘lib turgan lashkardan nom-nishon qolmagan, hamma yaroq-aslahalariniyam tashlab, duch kelgan tarafga qochib borayotgan mish. Amir qochib ketayotgan lashkarboshilaridan birini to‘xtatib: “Nima bo‘ldi, namuncha hovliqmasang?! Nimadan qo‘rqib qochayapsizlar?” – deb so‘rabdi. Shunda dag‘-dag‘ qaltirayotgan lashkarboshi tili zo‘rg‘a kalimaga kelib: “Olampanoh, hech zamonda odam zoti ajdarga bas kelolganmi?! Qal‘a

¹ Қаранг: Акишев К.А., Күшев Г.А. Древняя культура саков и усуней долины реки Или. – Алматы: Наука, 1963. – С.21-24; Кузьмина Е.Е. В стране Кавата и Афрасиаба. – М.: Наука, 1977. – С.109-110.

tomondan kelayotgan odam ikki yelkasiga ikki ajdahoni mindirib olganligini ko‘rgan har qanday kishining labiga uchuq toshadi”, – deb javob beribdi. Do‘nmas dodxoning ikki donishmandi amir lashkarining ko‘ziga ikki ajdaho bo‘lib ko‘ringan ekan.

Buni eshitgan amir qal’ani kuch bilan ololmasligini bilib, hiyla ishlatmoqchi bo‘libdi. Darhol vazirlari bilan maslahatlashibdi. Shunda ulamolaridan biri: “Biz ulardan ana shu sho‘r tapaning ustiga bittadan tuxum olib kelishini so‘raymiz. Shartimiz bajarilgach, biz shu tuxumlarga qarab qal’a ahlining hisobini olajagimizni va shu hisob bo‘yicha suv berajagimizni aytamiz. Tuxumlarni olib kelishgach, biz ularga har kim o‘zi olib kelgan tuxumini olib ketishini buyuramiz. Shunda ular o‘rtasidagi ahillik buziladi, qal’a ahli hech qanday jangsziz, o‘z-o‘zidan tarqalib ketadi”, – debdi.

Bu gap amirga ham ma’qul tushibdi. Do‘nmas dodxo bilan ikki donishmand yetib kelgach, amir ularning oldiga chiqib: “Bizga sizlarning sog‘lig‘ingiz kerak, soliq darkor emas. Endi har holda amirlik sha’nimiz bor, bizga falon qal’a soliq to‘ladi degan gap bo‘lsa kifoya. Shuning uchun har kim bir donadan tuxum olib kelib, shu tepalikka qo‘yib ketaversin. Mening ulamolarim tuxumlarning hisobini olib, shunga qarab qal’aga beriladigan suv hisobini chiqarishadi”, – debdi.

Do‘nmas dodxo ham bunga rozi bo‘lib, qavmini ergashtirib kelibdi. Kattayu kichik har kim bittadan tuxum ko‘tarib kelib, amirning chodiri yoniga qo‘yib ketaveribdilar. Sho‘rtepa ustidagi tuxum uyuming kattaligini ko‘rgan amir qal’a aholisining ko‘pligini bilib, hushi boshidan uchibdi. Oradan bir necha kun o‘tgach, amir yana Do‘nmas dodxoga odam yubortirib, tuxumlarni hisoblab bo‘lganligini, endi har kim o‘zining tuxumini olib ketishi kerakligini aytibdi. Shunda amirning ulamosi aytgan gap to‘g‘ri bo‘lib chiqibdi: avval chumchuq tuxumiday moyakni olib kelgan odam kattaroq tuxumni ko‘tarib ketibdi, katta tuxum egasiga maydasi qolibdi. Xullas, odamlar sanu manga borib qolibdilar. Do‘nmas dodxoning donishmandlari, odamlarni insofga chakirib, shaytonga hay berishni so‘rab, qanchalik harakat qilmasinlar, foydasi bo‘lmabdi. Osiyo qal’asi ahlining og‘zi buzilib, ular o‘rtasidagi inoqlik yo‘qolib, kelishmovchilik va janjallar chiqa boshlabdi. Shuni kutib turgan amir qal’aga hujum qilib, osongina bosib olibdi. Ko‘pchilik osiyoliklarni qilichdan o‘tkazibdi. Do‘nmas dodxo va uning ikki donishmandi ham jangda halok bo‘libdilar. Ular qal’a yaqinidagi

tepalikka dafn etilibdilar, bu mozor hozir ham bor bo‘lib, “Osiyo avliyo” deb ataladi”.¹

Ko‘rinadiki, har ikki epik syujetda ham aholi olib kelishi buyurilgan narsa odamlarning sonini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan. Ammo epik syujetning tarixiy evolyusiyasi davomida Gerodotning “Tarix” asarida keltirilgan sak-massaget rivoyatidagi kamon o‘qining uchi detali o‘zbek xalq toponimik rivoyatida “tuxum” bilan almashtirilgan. Rivoyat syujetining arxaik namunasidagi kamon o‘qining uchi detali o‘rniga “tuxum” elementining ishlatilishi xalqning o‘ziga xos turmush tarzi va maishiy hayoti bilan bog‘liqdir. Chunki ushbu epik syujet yuzaga kelgan sak-massaget qabilalar birlashmasi ijtimoiy muhit deyarli ko‘chmanchilik, yarim ko‘chmanchilik va o‘troq dehqonchilikka asoslanganligi tufayli ovchilik bilan shug‘ullanish, ona yurtni tashqi dushmanidan doimo muhofaza etib turish turmush tarzining ajralmas qismi bo‘lgan. Bu esa har bir kishi o‘sha davr uchun xos bo‘lgan qurol-yarog‘ tiplari, shu jumladan, ov anjomi sifatida ham ishlatilgan o‘q-yoy ishlatishni taqazo etardi. Ariant tomonidan ulkan mis idish(qozon)ning yasattirilishi to‘g‘risidagi sak-massaget rivoyatida kamon o‘qining uchi detalining aholi sonini aniqlash vositasi sifatida qo‘llanilganligining sababi ham ana shunda. “Osiy qal’asi” rivoyatida bu maqsadda “tuxum” detali ishlatilganligi esa ushbu folklor asari ommalashgan va yozib olingan XX asr ijtimoiy-maishiy hayoti, ya’ni qishloq aholisidan har birining xonadonida tovuq boqilishi odatiy hayotiy ehtiyoj sanaganligi bilan bog‘liqdir. Demak, tarixiy taraqqiyot davomida ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning o‘rin almashishi natijasida xalq turmush tarzida ro‘y beradigan epik syujetlar strukturasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazishi tarixiy-folkloriy jarayonning muhim xususiyatlaridan biridir.

Sak-massaget substratiga oid epik syujet rudimentining aynan “Osiyo” deb nomlangan qal’a bilan bog‘liq toponimik rivoyat syujetida qayd etilishining yana bir jihat borki, uni mazkur rivoyatni yozib olib chop ettirgan folklorshunos olim M.Jo‘raevning ushbu matnda nomi tilga olingan “osiyo” etnotoponimining etimologiyasi xususidagi quyidagi fikri oydinlashtiradi: “osiyoliklar – ulug‘ yurtdoshimiz Abu Rayhon Beruniyning ma’lumotlariga qaraganda, qadimda Amudaryo sohillarida **os** urug‘iga mansub kishilar ham istiqomat qilishgan ekan. Os so‘zi Xorazm viloyatidagi ko‘pgina toponimlar tarkibida ham qayd

¹ Ипак йўли афсоналари (Жой номлари билан боғлик афсоналар). Тўплаб, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи: М.Жўраев. – Тошкент: Фан, 1993. – Б.111-114.

qilingan. Shunga ko‘ra, osiyo atamasi etnonim bo‘lib, os qavmi nomiga aloqador bo‘lishi ham mumkin”.¹

Agar, alan va os qabilalarini bevosita O‘rta Osiyoda istiqomat qilgan qadimgi skif qabilalari tizimiga aloqador etnoslar sirasiga kiradi, deb hisoblasak, unda qadimgi sak-massaget rivoyati syujetining izlari Osiyo qishlog‘i aholisining folklorida saqlanib qolganligi mazkur epik syujet evolyusiyasi os urug‘ining etnik tarixi va o‘zbek xalqi tarkibiga singib ketishi jarayonlari bilan bog‘liq holda kelganligidan darak beradi.

Qadimgi sak-massaget eposiga aloqador epik syujetlarning tarixiy-folkloriy jarayon davomidagi badiiy evolyusiyasi natijasida o‘zbek folklorida saqlanib qolgan mavzularidan yana biri yakkako‘z yoki bir ko‘zli mifologik mavjudot obrazi bilan bog‘liq syujetdir. Qoraqalpog‘iston respublikasining Mang‘it shahrida yashovchi Shukurullo Yusupovdan 1982 yilda S.Ro‘zimboev yozib olgan “Yakka ko‘z” nomli afsona ham ana shu qadimiyligi epik syujet asosiga qurilgan. Afsonada aytilishicha, “qadim zamonda, Xorazm tomonda qalmiq qamali davrida «Qalmiq buqqan» degan joyda bir qirg‘in bo‘lgan ekan. Shu vaqtda qocha-qoch bo‘lib, oraliqda ikki oylik bir bola ota-onasidan ayrilib, qolib ketadi. Yov ketgandan keyin mosliqlarni yeyishga vahshiy hayvonlar keladi. Shunda bir sher bitta xarobaga kirganda, yig‘lab yotgan bolaga duch keladi. Uni og‘ziga tishlab, cho‘lga olib ketadi, shu yoqda emizib kalog‘a keltiradi. Oradan bir oz yillar kechib, el-elat yana o‘z makonig‘a qaytadi. Shunda cho‘lda to‘rt oyoqlab chopib yurgan, usti boshini tuk bosgan bir maxluq ko‘zga tashlanadi. Uni sher bolalari bilan o‘ynashib yurganda tutib oladilar. Bolaning kim ekanini aniqlab, kiyim-kechak kiydirishadi, tarbiyalashadi. Bola keyinchalik odam tiliga tushunadigan bo‘ladi. Uning ismini sher tarbiyalagani uchun Sherim deb qo‘yishadi. Sherim yigit yetib, ot minib, qilich o‘ynab yuraveradi.

Kunlardan bir kun bir cho‘pon qo‘ylarni sug‘orishga olib borganida suvda cho‘milib yurgan qizlarga duch kelib, ulardan bittasini ushlab, zo‘rlaydi. Bu qizlar, aslida, parilar ekan, bu voqeadan keyin pari cho‘ponga:

– Benikoh zino xalqing boshiga balo keltiradi, – deb oqqushga aylanib uchib ketibdi. Bir yildan keyin o‘sha pari kelib, qumda yurgan boyagi cho‘ponga osmonda turib:

– Ol, bolangni, – deb qo‘ndoqqa o‘ralgan bir zotni tashlab ketibdi.

¹ Жўраев М., Сайдова Р. Бухоро афсоналари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – Б.1115.

Cho‘pon uni olib qarasa, manglayida bittagina ko‘zi bor. Bu maxluq soat sayin o‘sib, bir yoshida bir qo‘yni yeb boshlaydi. Uni Yakka ko‘z degan nom bilan atab boshlashadi. Keyinroq bu maxluq odamxo‘rlikka o‘tadi. Yakka ko‘z o‘q o‘tmas, o‘tda yonmas bir balo bo‘lib, odamlarni bir-birdan yeb boshlaydi. El-elat undan qochib, boshqa joylarga ko‘chsa, u ham ko‘chib boraveradi. Oxiri odamlar Qo‘rqt ota degan pirga arz qiladilar. Pir kelib, Yakka ko‘z bilan gapirishib, kunda bir odam yeishiga kelishadilar. Unga bir kampirni xizmatkor qilib beradilar.

Kunlardan bir kun Yakka ko‘zning yeishiga gazik bir kambag‘al kampirning o‘g‘liga yetib keladi. Kampir yig‘lab, Sherimning oldiga boradi. Sherim kelib, avvalo, xizmatkor kampirdan Yakka ko‘zning ojiz joyini bilib berishni iltimos qiladi. Kampir yakka ko‘zning faqat ko‘zigagina o‘q o‘tishini aniqlab beradi. Shunda Sherim pichoqni olib, avvalo, o‘tda cho‘q qilib qizdiradi. Keyin Yakka ko‘z uxlab yotganda borib, uning ko‘ziga suqadi. Keyin qochib, qo‘ylarning qo‘rasiga kiradi. Yakka ko‘z g‘azabga minib, Sherimni tutish uchun qo‘raning og‘zidan qo‘ylarni bir-birdan qo‘ldan o‘tkazadi. Shunda Sherim bir qo‘chqorni so‘yib, terisi orasiga kirib, bir amallab qo‘radan chiqadi. Qo‘radan chiqib, Yakka ko‘zni o‘ldirish uchun unga o‘q otadi, qilich uradi, hech foydasi bo‘lmaydi. Oxirida yakka ko‘z hiylaga o‘tib: “Oltin to‘la xazinamni ko‘r”, – deb Sherimni taklif etadi. Sherim chetdan boqib turadi. Yakka ko‘z bitta qilichidan boshqa oltinlarini Sherimga in’om etadi. Shunda Sherim bu qilichda bir gap borligini bilib, ichkari kiradi va Yakka ko‘zni g‘aflatda qoldirib, qilichni qo‘liga oladi. Shu paytda Yakka ko‘z egilib oltinlarini sarmalab, olib unga bermoqchi bo‘lganda, Sherim uning boshini haligi qilich bilan bir urganda, uzib tashlaydi. Oltinlarni xalqqa poylab beradi. Yakka ko‘zdan qutilgan xalq katta sayil boshlab yuboradi. Bu sayilga Qo‘rqt ota kelib, soz chaladi, xalqqa nasihat qiladi”.¹

Ma’lumki, “Yakka ko‘z” afsonasi o‘g‘uz eposi namunasi “Kitobi Dadam Qo‘rqt”ning “Basatning Dapago‘zni o‘ldirishi” nomli faslining bevosita ta’sirida shakllangan. Bu afsona bilan o‘g‘uz eposi orasidagi bevosita tarixiy-vorisiy aloqadorlik mavjud. Xorazm vohasida istiqomat qilgan aholi tilining turkiylashishi jarayonida o‘g‘uz tip lahjalarning ustuvorlik qila borishi natijasida Orolbo‘yi epik arealida o‘g‘uz eposining ta’siri ham kuchaya borgan. Xorazmliklar orasida XVI-XVII asrlarga qadar “Kitobi Dadam Qo‘rqt” tarkibidagi epik asarlar jonli

¹ Ошиқнома /Хоразм достонлари. 4-китоб. – Урганч, 2009. – Б.325-326.

ijroda saqlanganligi ham taxmin qilinadi. Chunki Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarai tarokima” asarida Qo‘rqt otaga nisbat berilgan she’riy parchalar, ya’ni “tortim”lar berilganligi va ularning she’riy tuzilishi Xorazm dostonlari usuliga mos kelishini hisobga olgan folklorshunos M.Jo‘raevning xulosa qilishicha, “Abulg‘oziy yashagan davrda xorazmlik turkman va o‘zbek baxshilari repertuarida Qo‘rqt haqidagi xalq dostonlari ham mavjud bo‘lgan. Buyuk muarrix o‘z asarini yozish uchun materiallar to‘plash jarayonida, ana shunday dostonlarning Orolbo‘yi epik arealidagi muayyan varianti yoki uning parcha holidagi namunalarini tinglagan va dostondan olingan “tortim”ni “Shajarai tarokima”ga kiritgan. XVI-XVII asrlarga qadar Xorazm baxshilari Qo‘rqt haqidagi o‘g‘uz eposining o‘ziga xos versiyasini jonli ijro etganligini mazkur qadimiy doston bilan bevosita bog‘liq ko‘plab afsonalar saqlanib qolganligi ham tasdiqlaydi...Bizningcha, Markaziy Osiyo o‘g‘uz epik an’anasida “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining badiiy ustuvorlik kasb eta boshlashi natijasida Qo‘rqt haqidagi og‘zaki epik asarlar asta-sekin unutilib ketgan”.¹ Bizningcha ham, “Yakka ko‘z” afsonasining Xorazm vohasida yozib olinishining sababini qadimgi o‘g‘uz eposining ta’siri bilan izohlanishi to‘g‘ri.

Binobarin, o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodida “bir ko‘zli dev”, “yakka ko‘z”, “dorop ko‘z”, “yakchashma” kabi nomlar bilan ataladigan mifologik obrazlarning bir necha xil talqinlari mavjud. Folklorshunos Sh.Turdimov Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanidan yozib olgan “Dorop ko‘z” afsonasi ham shu mavzuga daxldordir.² “Kal osiyobon va tulki” nomli o‘zbek xalq ertagida ham “devi yakchashma” obrazi bor.³ Bu esa bir ko‘zli mifologik personaj – siklop obrazi o‘zbek mifologiyasining qadimiy obrazlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Qayd qilish joizki, bir ko‘zli mavjudot obrazi nafaqat o‘zbek, balki Markaziy Osiyodagi juda ko‘plab xalqlar mifologiyasi va eposi uchun mushtarak bo‘lgan personajlardan biri hisoblanadi. Bir ko‘zli siklop

¹ Жўраев М. Рукописное наследие и его роль в изучении эпической традиции тюркоязычных народов Центральной Азии // Рукописи – первичный источник изучения национального наследия (Материалы международной научной конференции. 13-14 марта, 2013 года). – Ашгабад, 2013. – С.400-402.

² Турдимов Ш. Доро кўз – циклоп // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 1985, 6 июль.

³ Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети хузуридаги Ўзбек тили ва адабиёти илмий-тадқиқот институти Фольклор архиви. Пап.№94. Инв.№1439.

obrazi qozoq mifologiyasida “dəu”, “tajal”, “təbe kəz” kabi nomlar bilan ataladi.²

Qirg‘iz xalq eposi “Manas”da magik kuchga ega bo‘lgan bir ko‘zli bahodir Malgun Xitoy chegaralarini qo‘riqlashi tasvirlangan. Malgunning tanini qilich kesmaydi, o‘q o‘tmaydi, olovga kuymaydi, uning eng ojiz joyi – bu ko‘zidir. Shuning uchun ham Malgun bilan yakkama-yakka jang qilgan qirg‘iz pahlavoni Sirgak uning ko‘zini o‘yadi. Shu epik asarda tasvirlangan boshqa bir mifik personaj Madikan-doo ham shunday xususiyatga ega: botirlar unga qarab nayza otishadi – kor qilmaydi, qilich solishsa kesmaydi, kamon o‘qiga tutsalar – o‘q o‘tmaydi.¹

Bir ko‘zli mavjudot – siklop obrazi Gomerning “Odisseya” asarida ham mavjud bo‘lib, ushbu syujetning Markaziy Osiyoda keng tarqalgan variant va versiyalari, xususan, turkiy xalqlar folkloridagi talqinlarini o‘rgangan V.M.Jirmunskiyning fikricha, qadimgi yunon dostonining muallifi miloddan avvalgi I ming yillikning o‘rtalaridayoq xalq orasida keng tarqalgan epik syujetdan ijodiy foydalangan.² Ozarbayon folklorshunosi M.Hakimov ham o‘g‘uz eposi namunasi “Kitobi dadam Qo‘rqt”dagi Dapago‘z obrazi yunon mifologiyasidagi siklop (yakka ko‘z) ta’sirida yaratilgan emas, balki ular qadimgi (o‘g‘uz) turkiy xalqlar iifologiyasidan o‘zlashgan, degan xulosaga keladi.³ “Bir ko‘zli odamlar” haqidagi miflarning paydo bo‘lishi xususida o‘g‘uz eposining yirik tadqiqotchisi X.G.Koroglining “bir ko‘zli dev obrazi turkiy xalqlar folklorida o‘ziga xos tarzda taraqqiy etgan. Bu obrazning eng qadimiy namunasi ovchilik mehnat turi turmush tarzining asosini tashkil etgan ibridoiv davrlarda yuzaga kelgan. Chunonchi, qozoq xalq afsonasida qahramon bir ko‘zli cho‘ponni mag‘lub etadi. Depegyoz obrazining tugal holda shakllanishi esa o‘g‘uzlarning butunicha chorvachilik bilan shug‘ullana boshlagan davrlarga to‘g‘ri keladi”.⁴

Markaziy Osiyo turkiy xalqlari, shu jumladan, o‘zbek folkloridagi bir ko‘zli mavjudot obrazining tarixiy ildizlari qadimgi ajdodlarimiz – sak-massagelarning mifologiyasi bilan bog‘lanib ketadi. Binobarin,

¹ Манас. Киргизский народный героический эпос. – М., 1986. – С.246-252.

² Жирмунский В.М. Огузский героический эпос и “Книга Коркута” // Книга моего деда Коркута. – М.-Л., Наука, 1962. – С.217.

³ Акимов М. Художественные особенности героических и любовных дастанов Азербайджана. – Баку: Знание, 1986. – С.16.

⁴ Короглы Х.Г. Из восточно-западных фольклорных связей. Темяглаз (Депегёз) – Полифем // Типология и взаимосвязи средневековых литератур Востока и Запада. – М.: Наука, 1974. – С.287.

Gerodot “Tarix”ining IV-kitobida “bir ko‘zli odamlar va skiflar tillasini qo‘riqlovchi griflar” haqida shunday hikoya qiladi: “Demak, kallar mamlakati ma’lum bo‘lib, undan narida istiqomat qiluvchi qavmlar o‘tib bo‘lmaydigan baland tog‘lar to‘sib turganligi sababli hech kim u yoqqa o‘tolmaydi va ular to‘g‘risida tayinli bir gap aytolmaydi. Ana shu kallarning menga g‘ayritabiyy tuyulgan hikoyalariga qaraganda, bu tog‘larda echki tuyoqli odamlar yashaydi, bu qavmdan nariroqda esa yilning olti oyini uxlab o‘tkazadigan boshqa bir elat makon qilgan emish. Men bu gaplarga hecham ishonmayman. Aksincha, shunisi aniqki, kallar o‘lkasining sharqiy tarafi issedonlarga tegishli bo‘lib, kallar va issedonlarda shimolda qaysi qavm joylashganligi ma’lum emas...Issedonlarning hikoya qilishlaricha, tog‘ning yuqorisida bir ko‘zli odamlar va oltinlarni qo‘riqlaydigan griflar yashaydi. Issedonlar aytib bergen ana shu hikoyani skiflar ham naql qiladilar. Biz skiflarning hikoyalari orqali arimasplar nega skif tilida shu nom bilan atalganligining sababini bilib olamiz: skiflar tilida “arima” so‘zi “bir” ma’nosini bildiradi, “ospa” esa ularning lahjasida “ko‘z” demakdir”.¹

Gerodot miloddan burungi VII – VI asrning boshlarida Meotidaning sharqiy hududlarida istiqomat qilgan etnoslarning joylashish tartibi va jo‘g‘rofiyasini skiflar, issedonlar, arimasplar, “oltin qo‘riqlovchi griflar”, Ripey tog‘lari va giperboreylar tarzida bayon qilgan bo‘lsa, “bir ko‘zli odamlar” tarzida tasavvur qilingan “arimasp” qavmini Pliniy miloddan avvalgi III asrning birinchi choragida Amudaryo va Sirdaryoning quyi havzasida istiqomat qilgan etnoslar qatorida sanaydi: “saklar, massagetlar, taxlar, arimasplar, shuningdek, exvatlar”. Mutaxasslar qadimgi yunon manbalarida arimasplar yurti bilan bog‘liq Ripey toponimi ostida hozirgi Oltoy tog‘lari nazarda tutilgan, deb hisoblaydilar.² Bu esa, birinchidan, “bir ko‘zli mavjudotlar” haqidagi mifologik tasavvurlar Tog‘li Oltoydan Orolbo‘yigacha bo‘lgan ulkan hududda yashagan qadimgi skif qabilalari folklorida yuzaga kelganligiga yorqin dalil bo‘la oladi; ikkinchidan, bir ko‘zli fantastik mavjudot obrazi etnik kelib chiqishi sarmatlar bilan bog‘liq osetin mifologiyasida uchrashi, shuningdek, sak va massaget qabilalarining bugungi avlodlari hisoblangan O‘rta Osiyo turkiy xalqlari mifologiyasida bir ko‘zli dev,

¹ Древние авторы о Средней Азии. – Ташкент: Остехиздат, 1940. – С.20.

² Исмагилов Р.Б. О локализации некоторых племен “Истории” Геродота // Исторические чтения памяти М.П.Грязнова. Ч. 2. – Омск, 1987. – С.75; Мачинский Д.А. Земля аrimaspov в античной в традиции и "простор ариев" в Авесте // Жречество и шаманизм в скифскую эпоху (Материалы международной конференции). – Санкт-Петербург, 1996. – С.4-6.

yakchashma, Doroko‘z va boshqa mifik personajlarning tasvirlanishi qadimgi skif qabilalari o‘rtasidagi o‘zaro yaqin madaniy aloqalar mavjud bo‘lganligini bildiradi. Gerodotning “Issedonlar aytib bergen ana shu hikoyani skiflar ham naql qiladilar” deb yozishiga asoslangan holda aytish mumkinki, arimasplar to‘g‘risidagi mifologik tasavvurlar O‘rta Osiyoga, ya’ni sak-massagetlari eposiga Oltoy tog‘lari etaklari va hozirgi shimoliy Qozog‘iston dashtlari hududida yashagan qadimgi etnoslar folkloridan o‘tgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Gerodotning asarida “bir ko‘zli odam” ma’nosida keltirilgan (IV, 59) “arimas” so‘zining etimologiyasi xususida tilshunos olim M.Z.Zakievning quyidagi mulohazalarini keltirib o‘tish lozim deb o‘ylaymiz: “arima” so‘zi skiflar tilida “bir” ma’nosini bildirgan bo‘lib, “spu” esa “ko‘z” demakdir. Agar “bir ko‘zli” deganda ko‘zining bittasi yumuq yoki qisiq kishilar nazarda tutilgan, deb hisoblasak, u holda “arima” leksemasini turkiy tillarda “yarim” so‘zining qadimiyy shakli, deb taxmin qilish mumkin bo‘ladi”.¹ Bu esa “asrimasplar”, ya’ni “bir ko‘zli odamlar” to‘g‘risidagi qadimiyy mifologik tasavvurlar O‘rta Osiyo turkiy xalqlari, shu jumladan, o‘zbek folkloriga ularning qadimgi ajdodlari – sak-massaget qabilalari epik ijodining evolyusiyasi natijasida o‘tgan, deb xulosa chiqarishga imkon beradi.

Antik davr tarixchilarining kitoblarida qadimgi sak va massaget eposining bir necha namunasining qoldiq holdagi epik bayonlari keltirilgan. Masalan, “Ko‘r qullar rivoyati”, “Doroning Skifiyaga yurishi”, “Skiflar ovi”, “To‘maris”, “Skiflar qozoni” (Gerodot), “Shiroq” yoki “Sirak” (Polien), “Zarina va Striangey” (sitsiliyalik Diodor), “Amorg va Sparetta” (Ktesey) eoslari shular jumlasidandir. Jumladan, Polienning “Harbiy hiylalar” kitobida keltirilgan “Shiroq” (yoki “Sirak”) rivoyati qadimgi saklarning vatanparvarlik, yurtsevarlik va ozod diyor uchun kurash g‘oyasini o‘zida mujassamlashtirgan qahramonlik eposining ixcham bayoni hisoblanadi. Ushbu rivoyatning qisqacha mazmuni quyidagicha: “Doro qo‘smini bilan saklar o‘rtasida urush borar edi. Saklar o‘z yerlarini jon-jahdlari bilan himoya qilishar, ammo dushman qo‘smini son jihatdan ko‘p bo‘lgani uchun ular qurshovga tushib qolishadi. Ana shunda sak qabilasi sardorlari Saksfar, Omarg va Tomiris maslahatga to‘planadilar. Ular bu qiyin ahvoldan qanday xalos bo‘lish haqida maslahatlashib turishganida davraga

¹ Закиев М.З. Об изучении древних тюрков и их языков // Тюркское языкознание. – Ташкент: Фан, 1985. – С.26.

saklarning bir otboqar cho‘poni Shiroq kirib keladi-da, sardorlarga yuzlanib: “Agar mening oilamga, bolalarimga g‘amxo‘rlik qilishga qasamiyod etsangizlar men el-yurtni Doro qo‘shinining bosqinidan xalos qillardim”, – deydi. U Eron qo‘shinini hiyla bilan halok etajagini aytadi va oilasiga, bolalariga, avlodiga g‘amxo‘rlik qilishga qasam ichdirib, shu va’dani olgach, o‘sha zahotiyoy qonidan pichog‘ini chiqarib, o‘zining quloq-burnini kesadi, boshqa a’zolariga ham jarohat yetkazadi, so‘ngra go‘yoki saklardan ozor chekib Eron qo‘shini tomon qochib o‘tgan kishi bo‘lib, Doroning huzuriga keladi.

Shiroq ana shunday ahvoli xarob holda Doroning qarorgohiga borib arz qiladi va o‘zini saklardan alamzada kishi qilib ko‘rsatadi. “Meni shu ahvolga solganlardan o‘ch olishim kerak, shuning uchun sizlarga yordam beraman”, ya deydi Shiroq. Shundan keyin u Eron qo‘shinini saklar kutmagan yerdan olib borajagini, u yerda turib, sak qo‘shiniga to‘satdan hujum qilib, g‘alaba qozonishlarini aytadi. Eron qo‘shini bir haftalik oziq-ovqat olib yo‘lga tushadi. Qo‘shin uzoq yo‘l yuradi. Oziq-ovqat tamom bo‘ladi. Bir mahal ular tevarak-atrof qum barxanlaridan iborat jazirama sahrodan iborat cho‘lning qq o‘rtasiga yetib boradilar. Ana shundagina Eron qo‘shini aldanganini anglaydi. Eron sarkardaridan biri Shiroqdan: “Shunday ulug‘ podshoni aldab, katta qo‘shinni biror quduq bo‘lmagan, biror qush uchmaydigan, biror jonivor ko‘zga ko‘rinmaydigan, na olg‘a yurish, na ortga qaytish mumkin bo‘lmaydigan sahroga boshlab kelishdan muroding nima edi?” – deb so‘raydi. Shiroq esa mag‘rur turib: “Men sizlarni yengdim! Bu bilan o‘z hamyurtlarim hayotini saqlab qoldim, endi ana shu suvsiz sahroda Eron qo‘shinini halok etaman”, – deb javob beradi. Buni eshitgan Ranosbat darhol Shiroqning boshini tanasidan judo qiladi. Bu orada dushman lashkarining ko‘p qismi ochlik va suvsizlikdan tinkasi qurib, nobud bo‘ladi. Buni ko‘rib tashvishga tushgan Doro suv so‘rab Apollonga iltijo qiladi, biroz vaqt o‘tgach, yomg‘ir yog‘adi. Eron qo‘shining qolgan-qutganlari arang Baqtriya daryosi (Amudaryo) sohiliga yetib oladilar”.¹

Qadimgi sak eposining yorqin namunalaridan biri hisoblangan “Shiroq” rivoyatida miloddan burungi VI-V asrlarda O‘rta Osiyoda yuz bergen real tarixiy voqealarning epik talqini o‘z ifodasini topgan. Rivoyatda oddiy otboqar Shiroqning o‘z ona diyorining ozodligi va tinchligi yo‘lida jonini fido qilganligi, o‘zining mislsiz jasorati tufayli

¹ Қаранг: Ўзбек адабиёти тарихи. 1-том. – Тошкент: Фан, 1977. – Б.49; Бойназаров Ф. Ўрта Осиёнинг антик даври. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б.128-129.

vatandoshlarini halokatdan saqlab qolganligi bayon etilgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, miloddan avvalgi 520-485 yillarda ahmoniyalar hukmdori Doro I o'zining tish-tirnog'igacha qurollangan son-sanoqsiz qo'shini bian saklar o'lkasiga bostirib kirgan. Ko'chmanchi chorvadorlik, yarim o'troq va o'trok dehkonchilik bilan shug'ullanib kelgan sak qabilasining jasur yigitlari dushmanga qarshi mardonavor kurash olib borgan.

Polienning "Harbiy hiylalar" asari orqali saqlanib qolgan qadimiy sak eposi namunasi – "Shiroq" rivoyati mohiyatiga ko'ra qahramonlik xarakteriga ega. Andik davr yozma manbasiga kiritilganligi tufayli unut bo'lib ketishdan saqlanib, bizgacha yetib kelgan bu rivoyatning syujet qurilishi "konflikt" (saklarning dushman qurshovida qolishi va urug' sardorlarining maslahatga yig'ilishi) va "yechim" (otboqar Shiroqning dushman qo'shinini aldov yo'li bilan cho'lga olib chiqib, mag'lub qilishi) qismlaridan iboratligi bu asar qachonlardir saklar folklorida qahramonlik eposi sifatida keng ommalashganligini ko'rsatadi. Folklorshunos olim K.Imomov to'g'ri yozganidek, "To'maris", "Shiroq" rivoyatlarning jangnomma tipini tashkil etgan. Har ikkisida tarixiylik to'laligicha saqlangan. Sabab shuki, mazkur rivoyatlar yuzaga kelgan davrdan uzoqlashmasdan, shakliy tuzilishi o'zgarmasdan, variantlashmasdan oldin yozib olingan. "To'maris" asosini bosqinchchi Eron shohi Kayxusravga qarshi jang voqealari tashkil etadi. "To'maris", "Shiroq", "Zarina va Odatida" nomi bilan O'rta Osiyoda shuhrat topgan rivoyatlar jang, mardlik, qahramonlikni madh etuvchi alohida guruh sanaladi".¹

"Shiroq" rivoyati syujetining yuzaga kelishiga saklar hayotida ro'y bergan real tarixiy voqelik asos bo'lgan. Chunki tarixiy manbalarda bayon etilishicha, Turonga bostirib kirgan Doro lashkari saklar, so'g'diyilar va massagetlarning qattiq qarshiligidagi duch kelgan. Ular mahalliy aholining kuchli irodasi va jasoratini sindira olmay, ortga chekinishga majbur bo'lishgan. Bunda, tabiiyki, Shiroq singari haqiqiy vatanparvar yigitlarning jasorati, mardonavor xatti-harakatlari muhim rol o'ynagan.

Rivoyatning asosiy qahramoni Shiroq bo'lib, u o'z yurtini tashqi dushmanlar xurujidan omon saqlash uchun jonini ham berishga tayyor turgan mard, bahodir o'g'lon, o'zining tadbirkorligi va aql-idroki bilan g'animlarni tuzoqqa tushirishga muvaffaq bo'lgan vatanparvar

¹ ИМОМОВ К. Ўзбек халқ насли поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.

kishilarning umumlashma obrazi darajasida tasvirlanadi. Garchi rivoyat matnida bayon etilgan voqealar hayotiy uydirma asosida tasvirlangan bo‘lsa-da, epik syujet real hayotiy voqelik asosiga qurilgan.

Nazarimizda, miloddan burungi VI-V – milodiy I asrlarda sak-massaget qabilalari birlashmasiga mansub etnoslar o‘rtasida “Shiroq” rivoyati juda mashhur bo‘lgan bo‘lib, uning bayoni o‘zaro madaniy aloqalar natijasida Orolbo‘yi epik arealida ancha keng ommalashgan ko‘rinadi. Chunki Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asarida keltirilgan “Kanik” afsonasi² mazkur epik syujetning badiiy evolyusiyasi mahsuli hisoblanadi. Beruniyning hikoya qilishicha, “Kanovj rojasining Kanikka yuborgan hadyalari orasida ko‘rkam, maqtashga arziguek kiyim bo‘lgan. Kanik undan kiyim tikishni xohlab, tikuvchiga tikishga buyursa, tikuvchi: “Unda odam qadamining izlari bor”, – deb tikishga rozilik bermaydi. Keyinchalik Kanik bilsaki, Kanovjning hokimi shu yo‘l bilan uni xo‘rlab, pastga urishga qasd qilgan ekan. Shu bahona bo‘lib, ikki o‘rtada janjal chiqadi va u katta urushga aylanib ketadi. O‘zini tahqirlangan deb his etgan Kanik katta qo‘sishin to‘plab, o‘z askarlari bilan Kanovj hokimi yerlariga hujum qiladi. Nima qilishini bilmay, hayron bo‘lib qolgan Kanovaj vazirini maslahatga chaqiradi. Ana shunda tadbirdor va aqlli vazir Kanikni yengishni o‘z zimmasiga oladi. O‘zining quloq-burnini kestirib, qattiq sitam ko‘rgan kishi bo‘lib Kanikning oldiga boradi. U Kanovj hokimi zulm qilganini vaj qilib, Kanikka yordam berajagina ma’lum qiladi. Kanik rozi bo‘lgach, u dushman lashkariga yo‘l boshlab, ularni cho‘lga olib ketadi. Sahroning o‘rtasiga borgach esa: “Shuncha askarni bir o‘zim yengdim!” – deb mag‘rur qichqiradi. Askarlari suvsizlikdan nobud bo‘layotganini ko‘rib, g‘azabi qaynagan Kanik bora solib, jahl bilan o‘z nayzasini o‘sha joyning o‘rtasiga sanchadi: nayza sanchilgan yerdan buloq suvi otilib chiqa boshlaydi. Buni ko‘rgan vazir: “Men mo‘jiza ko‘rsatishdan ojiz bo‘lganlarga qasd qilgan edim, ammo bu ishga qodir bo‘lgan farishtalarga qasd qilganim yo‘q”, – deydi.

Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, Kanik milodiy 78-123 yillarda istiqomat qilgan hind hukmdoridir. U haqdagi afsona bilan saklar folkloriga mansub “Shiroq” rivoyati syujetining asosiy motivlari deyarli bir xil bo‘lib, farqli jihatlar personajlar ismidadir. “Shiroq” rivoyatidan farqli ravishda “Kanik” afsonasida urush chiqishining sababi kiyim

² Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. 2-том. Хиндистон. – Тошкент: Фан, 1965. – 311-313-бетлар.

tikish voqeasiga bog‘lanib, vatanparvar qahramonning shijoati va aql-zakovati tufayli sahroga doxil bo‘lgan dushman lashkarining suvsizlikdan xalos bo‘lishi yerga sanchilgan nayza o‘rnidan suv chiqishi motivi orqali ifodalangan. Qayd qilish kerakki, “Kanik” rivoyatida nayza sanchilgan joydan suv chiqishi folkloarning an’anaviy motivlaridan biri bo‘lib, Xizr to‘g‘risidagi o‘zbek xalq afsonalarida ham uchraydi. Masalan, “Jilbuloq chashmasi” afsonasida aytilishicha, bir kuni xo‘jai Xizr buva qirq yamoq to‘n kiygan bir qalandar qiyofasida Sarmish qishlog‘iga to‘yga boribdi. Odamlar uni gadoy gumon qilishib, to‘yxonaga kiritmay quvadilar. Xizr buva qochib borayotib qarasalarki, quvg‘inchilar yaqin kelib qolgan emish. Shunda u kishi hassalarini yerga bir suqib olgan ekanlar, o‘sha joydan chashma paydo bo‘libdi. Uning sersuvligidan dushman yo‘li to‘silib qolibdi. Xizr buva “shu buloq jildirab oqib turib, bandalarning dardiga shifo bo‘lsin!” – deb niyat qilgani uchun bu chashmaning nomi Jilbuloq bo‘lib qolgan emish.¹

Bizningcha, Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asarida keltirilgan “Kanik” afsonasi sak-massagetlar folklorida ommalashgan “Shiroq” afsonasi syujetining Xorazm vohasi og‘zaki epik an’anasidagi badiiy evolyusiyasi bilan bog‘liqdir. Chunki ulug‘ olim o‘zining “Hindiston” asarini yaratish jarayonida o‘zi tug‘ilib-o‘sgan diyorning folklor materiallari, jumladan, tarixiy rivoyatlarning syujetlaridan ham foydalangan ko‘rinadi. Har ikki asar syujetining motivlar tarkii va mazmunidagi o‘xshashlikning boisi ham ularning genetik ildizi mushtarakligida, degan fikrdamiz.

“Shiroq” rivoyati syujetining yetakchi motivlaridan biri – epik qahramonning o‘z qulq-burnini kesib, jabrdiyda kishi sifatida o‘zga yurt hoqoni huzuriga borishi va aldov yo‘li bilan uni tuzoqqa tushirishi motivi o‘zbek xalq eposida, xususan, “Yusuf bilan Ahmad” dostonida ham uchraydi. Dostonning atoqli xalq baxshisi Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan variantida tasvirlanishicha, Go‘zalshoh podsho chin-mochinlik Bobo Qambarga o‘zining tushini yo‘rdirgandan keyin Yusuf bilan, Ahmadbek bilan taraf bo‘lib qoladi. Bir kuni u o‘z eliga qarab:

Eshitinglar, amaldorlar, so‘zimni,
Mo‘ysafid chol sarg‘aytirdi yuzimni.

¹ Ипак йўли афсоналари (жой номлари билан боғлик афсоналар). Тўплаб, нашрга тайёрловчи: М.Жўраев. – Тошкент: Фан, 1993. – Б.87.

Yusufman Ahmadni bandi qip kelsang,
O'rdada berayin Gulnor qizimni.

Gap eshitdim, xafa bo'lgan vaqtimdi[r],
Taraflarim tomosha qip saxtimdi.
Ahmadman Yusufni bandi qip kelsang,
Xizmatiga beray yarim taxtimdi, –

deb murojaat qiladi. Shunda uning a'yonlaridan Mirza Mahmud degan kishi o'rtaga chiqib, bu xizmatni ado etishni o'z zimmasiga oladi. U kattagina qo'shin bilan Urganchga qarab yo'lga tushadi va lashkarini Polopon tog'inining etagiga yashirib qo'yib, o'zi Go'zalshohdan jabrsitam ko'rgan kishi suratida Yusuf bilan Ahmadning huzuriga boradi. Eralixon podshoning maslahatiga ko'ra Yusuf bilan Ahmad bu kelgan mehmondan gap so'raganlarida, u Go'zalshohning zulmidan shikoyat qilib, o'z jonini qutqarish uchun bu yerga qochib kelganligini aytadi:

Go'zalshohga o'zim xazinachi bo'ldim.
G'aznalarni qaroqchiga urdirib,
Axtartib har qishloqni ko'rdirib,
Otu ovozangga keldim, Yusufjon,
Xizmatning qilgani keldim, Yusufjon.

Go'zalshohman mehrlarim tosh bo'lib,
Ovqat degan dasturxonga chosh bo'lib,
G'aznalarni qaroqchiga urdirib,
Go'zalshohman o'la-o'lguncha g'ash bo'lib,
Shonu shavkatingga keldim, Yusufjon,
Xizmatkor bo'lgani keldim, Yusufjon.

Shu tariqa hammaning ishonchiga kirib olgan Mirza Mahmud kunlardan bir kuni ov bahonasida Yusuf bilan Ahmadni bog'lab, bandi qilib Misr eliga haydab ketadi.¹

Ko'rinadiki, "Yusuf bilan Ahmad" dostonidagi ayyor Mirza Mahmudning xatti-harakatlari, ikki bahodirni aldov yo'li bilan qo'lga

¹ Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 2-жилд. "Юсуф билан Аҳмад" достони (Муҳаммадқул Жонмурод ўғли Пўлкан ва Фозил Йўлдош ўғли варианти). Нашрга тайёрловчи: **М.Жўраев**. Масъул мухаррир: **Э.Очилов**. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матба ижодий уйи, 2015.

tushirish uchun amalga oshirgan tadbiri – o‘zini hukmdoridan jabr ko‘rgan kishi qilib ko‘rsatish orqali maqsadiga yetishishi Shiroq obrazini yodga tushiradi. Mohiyatiga ko‘ra, “Shiroq” rivoyati ham, “Yusuf bilan Ahmad” dostoni ham jangnoma epos namunalari hisoblanadi. Bu esa epik an’ananing uzluksiz rivoji va takomillashib borishi jarayonida qadimgi sak eposida shakllangan “Shiroq” rivoyati syujetining motivlari o‘zbek xalq jangnoma dostonlarining shakllanishida muhim rol o‘ynaganligini ko‘rsatadi.

Endi shu o‘rinda Polien tomonidan hikoya qilingan qadimgi sak eposi namunasi “Shiroq” rivoyatida nomi qayd etilgan personaj nomi xususida to‘xtalib o‘tsak. Bizning fikrimizcha, rivoyatda epik qahramon nomi sifatida keltirilgan “shiroq” so‘zi aslida atoqli ot bo‘lmay, Doro qo‘sishini tor-mor etgan qahramon mansub bo‘lgan urug‘ nomi, ya’ni etnik atama bo‘lishi kerak.

Yunon mualliflarining tarixiy-etnografik va jo‘g‘rofiy ma’lumotlariga asoslangan Yu.S.Gagloyt aorslar va siraklarni skiflar tarkibiga kiritadi.¹ Strabonning keltirishicha, “aors va siraklar Kavkaz tog‘larining janubiy qismida istiqomat qiluvchi qabilalar bo‘lib, chodirlarda yashaydilar va dehqonchilik bilan shug‘ullanadilar”.² Boshqa bir o‘rinda esa “Undan narida – Meotida va qaspiy dengizlari oralig‘ida nabianlar, panksanlar, shuningdek, siraklar va aorslar yashashadi. Bu siraklar va aorslar o‘z yurtidan quvg‘in qilinganlar bo‘lishsa kerak, binobarin, aorslar siraklardan shimolroqda joylashishgan. Siraklar hukmdori Abeakning ikki mingta suvoriy lashkari (o‘sha paytda Farnak Bosforni egallab turgan edi) bo‘lgan.³ Milodning 20-yilida o‘zining “Geografiya” asariga oxirgi o‘zgartishlarni kiritgan Strabonning yozishicha, sarmat qabilalari sirasiga mansub siraklar Orol dengizidan Kavkaz tog‘lari etaklarigacha bo‘lgan hududda yashaganlar.⁴ Diodora Sitsiliyskning Bospor taxti uchun kurashgan sirak hukmdori Arifarn haqidagi hikoyasini tahlil qilgan V.P.Shilov sirak va aorslarning Kavkazoldi dashtlarida paydo bo‘lish vaqtini xronologik jihatdan miloddan burungi IV asrning oxiri deb hisoblaydi.⁵

¹ Гаглоити Ю.С. Аланы и вопросы этногенеза осетин. – Тбилиси, 1966. – С.95.

² Страбон. География. – М., 1991. – С.177.

³ Ўша манба. – Б.193.

⁴ Страбон. География. – М., 1993. – С.259, 283-284.

⁵ Шилов В.А. Аорсы (историко-культурный очерк) // История и культура сарматов. – Саратов, 1983. – С.36.

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, miloddan burungi 130-125 yillar oralig‘ida aors va sirak qabilalari Sharqiy Yevropa hududiga ko‘chib o‘tishgan. Binobarin, sarmat qabilalarining Orol dengizidan to Dunaygacha bo‘lgan hududga ko‘chishi Baqtriyaga yuechji-toxarlarning kirib kelishi jarayoni bilan parellel ravishda kechgan.¹

Surxon vohasida istiqomat qiluvchi o‘zbeklarning etnografiyasini o‘rgangan B.X.Karmishevaning aniqlashicha, qo‘ng‘irotlarning tortuvchi shaxobchasi ichida siyroq urug‘i ham bo‘lgan.² Etnograf olim A.Malikov qo‘ng‘irot qabilasi tarkibidagi “siyroq” urug‘i miloddan burungi I asrlarga mansub yozma manbalarda ham qayd etilganligini yozadi.³ Binobarin, qoraqalpoqlarning qo‘ldovli, ashamayli va muyten urug‘lari tarkibida “qara siyrak” shaxobchasi borligi etnograf olima L.S.Tolstova tomonidan aniqlangan.⁴ “Siyroq” urug‘i yirik sarmat qabilalaridan biri – siraqlarning avlodlari deb qaraladi.⁵ Siraqlar miloddan burungi II – milodiy I asrlarda Azov va Kaspiy dengizlari oralig‘idagi hududda istiqomat qilishgan. Ular I asrdan keyin ana shu hududda mavqeyi ancha kuchayib ketgan alanlar tarkibiga singib ketishgan.⁶ Sarmat qabilalari esa qadimgi Qangyuy aholisi tarkibiga mansub etnoslardan biri bo‘lgan. Qo‘ng‘irot qabilasi tarkibidagi tortuvchi urug‘ining qadimgi ajdodlari kelib chiqishi jihatidan qangyuylarga aloqadorligi ma’lum. “Siyroq”ham tortuvchi urug‘ining shaxobchasidan biri ekanligi ham bu urug‘ning genetik ildizlari sarmat-qangyuylarga bog‘lanishini tasdiqlaydi.

Bizning fikrimizcha, siraq qadimgi sak-massaget qabilalari birlashmasi tarkibiga kirgan urug‘lardan birining nomi bo‘lgan. Sak qabilalari (shu jumladan, siraqlar ham) esa o‘zbek xalqining qadimiy ajdodlari sirasiga kirganligi uchun o‘zbek etnonimlari orasida “siyroq” atamasi saqlanib qolgan. Binobarin, sak-massaget qabila birlashmasining yirik urug‘laridan biri hisoblangan siraqlarning jasorati

¹ Гутнов Ф.Х. Ранние аланы. Проблемы этносоциальной истории – Владикавказ: Ир, 2001. – С.24.

² Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С.92.

³ Маликов А.М. К.Вопросу о происхождении кунградцев // Вестник Каракальпакского филиала АН РУз. – Нукус, 2008. – №1(210). – С.63.

⁴ Толстова Л.С.Исторические предания Южного Приаралья. – М.: Наука, 1984. – С.187.

⁵ Толстова Л.С. Отголоски ранних этапов этногенеза народов Средней Азии в ее исторической ономастике // Ономастика Средней Азии. – М., 1978. – С.9=10.

⁶ Мошкова В.Г. Краткий очерк истории савромато-сарматских племен // Степи европейской части СССР в скифо-сарматское время. – М., 1989. – С.156-157.

va qahramonliklari tasvirlangan “Shiroq” (yoki “Siraq”) rivoyati o‘zbek folklorining arxaik qatlamiga mansub epik syujetlar sirasiga kiradi.

SAK-MASSAGET EPOSI VA UNING POETIK TRASFORMATSIYASI

Ma'lumki, Markaziy Osiyoda yashovchi bir qator xalqlar, shu jumladan, o'zbek xalqining kelib chiqishida muhim ahamiyat kasb etgan qadimgi etnoslar orasida sak va massaget qabilalari alohida o'rinn tutadi. Tarixiy-arxeologik manbalarning guvohlik berishicha, saklar dastavval Jung'oriya va Tog'li Oltoy etaklarida istiqomat qilishgan bo'lib, keyinchalik Sirdaryo bo'ylariga ko'chib kelib joylashishgan. Miloddan avvalgi VI asrga qadar Amudaryo va Sirdaryoning quyi havzasi hududidagi unumdon yerlar chorvadorlik va qisman o'troq dehkonchilik bilan shug'ullanib, o'ziga xos madaniyat barpo etgan sak-massaget qabilalari istiqomat qilishgan. Saklar haqidagi ilk ma'lumot Doro I (miloddan burungi 522-486 yillar) tomonidan Behistun qoyatoshiga yozilgan bitikda uchraydi. Bu qoyatosh yozuvida qayd etilishicha, o'zining jangovar safarlari haqida so'z yuritgan Doro I tilidan shunday deyilgan: "Bundan so'ng men saklarga qarshi ular yurtiga bostirib bordim, ularning o'zlari cho'qqi qalpoq kiyib yuradilar. Men daryoga yetib keldim. Ularning sardori Skunxa ismli odamni tutib, mening huzurimga keltirdilar. Men o'z xohishim bilan saklar yurtiga yangi boshliq tayin qildim. Shundan so'ng mamlakat mening qo'l ostimga o'tdi".¹ Ushbu bitikdan ma'lum bo'ladiki, saklar Sirdaryo bo'ylarida istiqomat qilgan qabila bo'lib, ular o'z yurtining daxlsizligi uchun tashqi dushmanqa qarshi doim kurash olib borgan. Ahamoniylar sulolasiga davriga mansub "Naqshi Rustam" yozuvlarida esa o'sha davrdagi Midiya, Elam, Arya, Baqtriya, Sug'diyona, Xorazm kabi davlatlar qatorida "Saka Xaumavarka" va "Saka Tigraxauda", ya'ni "dengizdan narigi yerdagi saklar" ham tilga olingan.²

"Naqshi Rustam"da sak qabilalaring ikki tarmog'i haqida ma'lumot berilganligi o'z navbatida o'sha davrlarda bu etnik birlashma juda katta nufuzga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Binobarin, manbalarda qayd etilishicha, miloddan avvalgi VII-V asrlarda sak qabilasi bir necha katta guruhlardan tashkil topgan bo'lib, ular paradaraya saklari (Kaspiy orti saklari), xaomavarga saklari (xaoma, ya'ni muqaddas ichimlik tayyorlovchi saklar) va tigraxauda saklari (uchi qirrali qalpoq kiyadigan saklar yoki So'g'ddan narida yashovchi saklar)ga bo'lingan edi.

¹Қаранг: Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихи. – Тошкент: "O'zbekiston", 2015. – Б.100.

² Ўша ерда.

Binobarin, paradaraya saklari Dunay daryosi qirg‘oqlarigacha bo‘lgan territoriyani ishg‘ol qilganlar. Qadimgi Xorazm vohasida, aniqrog‘i, Amudaryoning ko‘hna o‘zani Uzboydan Jangadaryogacha bo‘lgan hududda yashaydigan qabilalar esa “apasiaklar”, ya’ni “suv saklari” deb atalgan. Ular o‘sha yerda istiqomat qiladigan xorazmiylar bilan yonmayon yashashgan. Miloddan burungi IV asrda Jangadaryo havzasidagi Chirikrabot shahri apisiaklarning poytaxti vazifasini bajargan. Bu yerdan topilgan arxeologik topilmalar orasida mustahkam zirhli jangovar kiyimlar ko‘pligi saklarning g‘oyat botir va jasur bo‘lganligini ko‘rsatadi.¹ Orolbo‘yi mintaqasining janubiy-sharqiy hududlaridan toki Nurota tog‘ tizmalarigacha bo‘lgan ulkan mintaqa esa “amirgiy saklari”, ya’ni “tog‘ va tekisliklar saklari”ga tegishli bo‘lgan. Xaomavarga saklari Amudaryoning quyi oqimi havzasi bo‘ylab joylashgan bo‘lishsa, tigraxauda saklari Sirdaryo atroflarida, shuningdek, Talasa va Chu vodiysida istiqomat qilishgan. Saklar bilan so‘g‘dlar yurtining chegarasi Yaksart daryosi, ya’ni Sirdaryo hisoblangan. Tarixiy tadqiqotlar natijasida sak qabilalarining Zarafshon vohasi, hozirgi Toshkent viloyati hamda Farg‘ona vodiysida ham tarqalganligi ma’lum. Ba’zi ilmiy manbalarda esa “amirgiy saklari”ning tarqalish hududi Farg‘ona vodiysini ham o‘z ichiga qamrab olganligi aytildi.²

Jo‘g‘rofiy jihatdan g‘oyat ulkan hududda tarqalgan saklar madaniyatining umumiyligi jihatni ularning qadimgi san’atida “hayvon uslubi”ning ustuvorlik qilishi hisoblanadi. Ular o‘zlarining mifologik tasavvurlari va e’tiqodiy inonchlarini turli xil jonivorlar, ko‘pincha, afsonaviy-xayoliy mavjudotlar tasviri, shuningdek, ikki jonzotning olishuvi aks ettirilgan lavhalar orqali aynan ana shu uslubda talqin qilishgan. Qadimgi yunon manbalarida, shu jumladan, Sitsiliyalik Diodorning asarida “sak va massagetlar aslida yagona skif xalqi bo‘lib, ularning nomlari hukmdorlarining ismlaridan olingan”ligi qayd etiladi. Gerodot ham o‘zining “Tarix” asarida sak va massagetlarni “yunonlar skif deb ataganliklarini”³ yozgan. Zero, Xuanxe daryosidan Dunaygacha bo‘lgan katta mintaqada olib borilgan arxeologik qazilmalar chog‘ida “hayvon uslubi” (yoki boshqacha qilib aytganda, “Sibir hayvon uslubi”)ga asoslangan qadimgi san’atni o‘zida aks ettirgan ko‘plab

¹ Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент: Фан, 1964. – Б.112-117.

² Толстов С.П. Древний Хорезм (опыт историко-археологического исследования). – М., 1948. – С.244-145.

³ Геродот. История. В 9-ти кн. / Пер. Г.А.Стратановского. Т.2. – М.: ООО “Издательство АСТ”, “Ладомир”. – 2001. – С.6.

yodgorliklar, shuningdek, tarixnavislikda “skif” nomi bilan atab kelinayotgan qadimgi etnosga xos qurol-yarog‘ va ot anjomlari, kiyim-kechaklar topilganligi¹ ham birinchidan, bu hudud aholisining etnik tarkibida sak va massagetlar ham mavjud bo‘lganligi; ikkinchidan, ularning qadimgi arxaik madaniyati yaxlit tizimni tashkil etganliginidan dalolat beradi.

Atoqli tarixnavis Gerodotning ma’lumot berishicha, “saklar skiflarning o‘zgini, aynan skif qabilasi bo‘lib, forslar bvarcha skiflarni saklar deb ataganlar”.² Qadimgi turkiy yozuvlar buyicha yirik mutaxassis N.Rahmonovning yozishicha ham “Eronliklar skiflarga sak otini berishgan. Miloddan avvalgi VIII-IV asrlardagi O‘rta Osiyo va Qozog‘iston hududidagi qabilalar hammasi sak nomi ostida yuritilgan. Xuddi shu asrlarda Alp er To‘nga (Afrosiyob) va u bilan bog‘liq Bo‘zqur, shuningdek, Arshakiy (Ershakiy)lar, Kengras (Kenagasarlar)i ham sak-iskitlar, ya’ni skif-saklar ishtirokidagi yirik birlashmalar sanalgan. Biz sak nomini turklarga tegishli ekanligini aytdik”.³

Ayrim yozma manbalarning guvohlik berishicha, saklar o‘lkasining sharqiy chegaralari Xo‘tongacha bo‘lgan joylarni o‘z ichiga qamrab olgan. Milodiy VII-X asrlarga mansub sharqiy Turkiston yozma yodgorliklari orasida qadimgi sak yoki “xo‘ton-sak” tilida yozilgan yozma yodgorliklar leksikasini hind-yevropa tillari bilan qiyosan tahlil qilgan tilshunos olim V.I.Abaevning yozishicha, bu obidalar miloddan burungi II asrda Yunon-Baqtriya davlatini fath etib, keyinchalik shimoliy Hindistonga yurish qilgan sak qabilalari tilida yozilgan.⁴ Bu esa o‘sha davrda katta nufuzga ega bo‘lgan saklarning tili, mifologik tasavvurlar tizimi va og‘zaki badiiy ijodi, xususan, ularning jangovar yurishlari to‘g‘risidagi tarixiy qo‘shiq va rivoyatlar ancha keng taraqqiy etganligidan dalolat beradi.

O‘zining tarixiy taraqqiyoti mobaynida sak va massaget qabilalari bugungi o‘zbek xalqi tarkibidagi bir qator urug‘lar tarkibiga singib ketishgan. Xususan, Sirdaryo bo‘ylarida istiqomat qilgan saklar qo‘ng‘iroq urug‘ining qadimgi ajdodlari – qanglalar tarkibiga

¹ Дьяконов М.М. Очерки истории древнего Востока. – М., 1956. – С.242-245.

² Бу ҳақда қаранг: Бойназаров Ф. Ўрта Осиёнинг антик даври. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б.11.

³ Насимхон Раҳмон. Турк ҳоқонлиги. – Тошкент: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993. –Б.11, 43.

⁴ Абаев В.И. Скифо-европейские изоглоссы. – М.: Наука, 1965. – С.12.

assimilyatsiyalashib ketganligi ma'lum.¹ Shuningdek, o'zbek xalqining shakllanishida muhim o'rin tutgan o'g'uz etnik qatlamining shakllanishida tarixiy kelib chiqishiga ko'ra sak-massaget qabilalariga aloqador alan etnosi ham faol komponent sifatida ishtirok etgan. Etnograf Yu.S.Gagloytining aniqlashicha, alan qabilasining sharqiy guruhiga mansub urug'larning kelib chiqishi bevosita massagetlarga borib taqalgan.² Shuning uchun ham sarmat, sak, massaget, dax, alan, os va qadimgi xorazmiylar og'zaki badiiy ijodi an'analarining Orolbo'yi mintaqasi xalqlari folkloridagi rudimentlarini tadqiq etgan L.S.Tolstova "massaget-alan subsrtati"³ terminini qo'llaganligini to'g'ri deb hisoblaymiz. Chunki milloddan burungi VII – milodiy II asrlarga Orolbo'yi mintaqasini asosan sak-massagetlar egallagan bo'lishsa, shundan keyin bu hududda tarixan ana shu qadimgi etnosning davomchilari hisoblangan alan va os urug'lari yashashgan. Alanlarning tarqalish areali Shimoliy Kavkazdan tortib Orolbo'yigacha bo'lган keng hududni o'z ichiga qamrab olgan. Aslida Amudaryo sohillarida istiqomat qilgan alanlarning etnik migratsiyasi sabablarini Abu Rayhon Beruniy shunday izohlaydi: "U (Jurjon va Xorazm o'rtasidagi qum sahrosi) bir vaqtarda ko'l bo'lган bo'lsa kerak , chunki Jayhun – men Balx daryosini aytmoqchiman – u orqali Xazar dengiziga Balxan deb atalgan shahar yaqinidan oqib borgan...Jayhun u vaqtda hozir sahro bo'lib yotgan Zamm (Karki) bilan Amuya (Chorjo'y) o'rtasidagi joylarni kesib o'tgan, Balxanga yetib borguncha o'z yo'lida uchragan shahar va qishloqlarni sug'organ va Jurjon hamda Xazar o'rtasida dengizga borib quyilgan. Yo'lida to'siqlar paydo bo'lganligi uchun uning suvi g'uzlar mamlakati chekkalariga qarab burilgan. Uning yo'lida tog' uchragan. Bu tog'ni hozir Famm-al -asad (Dahani sher) deb, Xorazm aholisi esa uni Sakr-ash-Shayton (Shayton to'g'oni) deb ataydi. U (suv) to'planadi va qirg'oqlaridan toshib chiqadi, suv to'lqinlarining izlari uning (tog'ning) tepasida saqlanib qolgan. U (suv og'irlik va bosim chegarasidan o'tgach, bu omonat toshlar ustiga chiqqandan keyin ular orasidan yorib o'tgan va taxminan Duldulotlagandan Tuyamo'yingacha bo'lган bir kunlik yo'l masofasini bosib o'tgan, so'ngra u o'ngga – Forobga, hozir Fahmi nomi ostida mashhur bo'lган

¹ Маликов А.М. К.Вопросу о происхождении кунградцев // Вестник Каракальпакского филиала АН РУз. – Нукус, 2008. – №1(210). – С.62.

² Гаглоити Ю.С. Аланы и вопросы этногенеза осетин. – Тбилиси, 1966. – С.59-62.

³ Толстова Л.С.Исторические предания Южного Приаралья. – М.: Наука, 1984. – С.186-194.

o‘zan bo‘ylab oqqan va odamlar uning qirg‘og‘ida uch yuzta shahar va qishloqlar qurbanlar, ularning xarobalari hozirda ham saqlanib qolgan. Bu o‘zanga ham, u boshlangandan keyin, birinchi o‘zandagidek to‘sinq uchragan; suvning yo‘li to‘silib, u chapga burilgan va Mazdubast ismli o‘zanda Xorazm va Jurjon o‘rtasidagi sahrodan o‘tib, bijnoqlar yerigacha oqib borgan U ko‘p joylarni bosib ketgan va ularni uzoq vaqtlargacha xonavayron ham qilgan; ularning aholisi Hazar dengizi bo‘yiga ko‘chib ketgan. Bular alan va os urug‘lari bo‘lib, hozir ularning tili xorazmiylar tili bilan bijnoq tili aralashmasidan iborat”.¹

Sarmatlar, sak-massagetlar va keyingi etnogenetik jarayonlar natijasida bu etnoslar substratini o‘ziga singdirib yuborgan alan, os va boshqa ko‘plab urug‘lar Orolbo‘yi mintaqasi aholi etnik tarkibining shakllanishida bevosita ishtirok etganligini tasdiqlaydigan etnolingvistik ma’lumotlar mavjudligini alohida ta’kidlagan L.S.Tolstova qoraqalpoq xalqi tarkibidagi mo‘yten qavmining “samat” nomli urug‘i qadimgi sarmatlarga bog‘liq deb hisoblaydi.² Xorazm vohasida qadimiy alan urug‘i nomi bilan bog‘liq holda shakllangan Alanyob, Qirq alan, Xo‘jamiyor alan kabi joy nomlari,³ os etnonimiga aloqador Osqal‘a (Amudaryo), Oslar (Gurlan), Osiyon (Qo‘shko‘pir), Osmachit (Xiva) kabi toponimlar⁴ mavjudligi, shuningdek, Amudaryoning chap sohilida istiqomat qiluvchi qipchoq urug‘iga mansub o‘zbeklar tarkibida “os” shaxobchasi,⁵ XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Surxon vohasida yashagan yuz urug‘ining jilontamg‘ali shaxobchasida “yas” urug‘i⁶ borligi qayd etilgan. XVIII asrda Buxoroda yashab ijod qilgan tarixchi Mirza Badiuldevonaning “Majmuai al-arkam” asarida keltirilgan olchin, qushchi, kerayit, qorluq, do‘rman, uyshun, arlat, qatag‘on, saroy kabi 52 o‘zbek urug‘lari sirasida “as” urug‘ining nomi ham tilga olingan. Tarixnavisning yozishicha, aslar xon lashkarining o‘ng qanotida xizmat qilishgan.⁷ Ana shu kabi materiallar O‘rta Osiyo hududida yashagan qadimgi aholi tarixiy taraqqiyot davomidagi

¹ Бу иқтибос қуйидаги манбадан олинди: Гуломов Я. Хоразмнинг сугорилиши тарихи. – Тошкент, 1958. – Б.26.

² Толстова Л.С. Кўрсатилган асар. – Б.187.

³ Вайнберг Б.И. Топонимика как источник по истории туркмен Хорезма // Топонимика Востока. – М.: Наука, 1962. – С.45.

⁴ Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б.91.

⁵ Толстова Л.С. Кўрсатилган асар. – Б.187.

⁶ Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С.97.

⁷ Бубенюк О.Б. Следы исчезнувших аланов в Средней Азии // Східний світ. – Мінск, 2003. – №1. – С.31.

murakkab va ko‘pqatlamlı etnik jarayonlar natijasida keyinchalik ushbu mintaqada istiqomat qilgan xalq va qavmlar tarkibiga singib ketganligini ko‘rsatadi. Bu esa sak-massaget mifologiyasi va epik an’analari etnik jarayonlar tizimidagi oraliq bo‘g‘in – qangla, alan, os va boshqa urug‘lar nomoddiy madaniy merosi orqali mintaqadagi o‘zbek, qoraqalpoq va turkman xalqlari folklorida davom etib kelganligidan shohidlik beradi.

Ma’lumki, arxeologik izlanishlar natijasida O‘rta Osiyoning qadimgi aholisi, shu jumladan, sarmat, sak, massaget, alan, so‘g‘d, kushon va baqtriyarning arxaik mifologiyasini o‘zida aks ettirgan ko‘plab yodgorliklar topilgan. Ana shunday topilmalardagi kosmogonik, animistik, totemistik va dualistik tasavvurlar aks etgan mifologik talqinlarni mintaqa hududida yashovchi hozirgi xalqlar folklori materiallari bilan qiyoslab o‘rgangan olimlar skif-sarmat, ya’ni sak-massaget mifologiyasi bilan O‘rta Osiyo xalqlari asotiriy qarashlari orasida mushtarakliklar mavjudligini tasdiylaydigan ko‘plab faktlarni aniqlashgan.¹ Sak-massaget mifologiyasi yaratilgan va uning bugun ushbu hududda yashayotgan xalqlar folkloridagi rudimentlari hamda epik talqinlar o‘rtasidagi qariyib ikki yarim – uch ming yillik davriy chegara bo‘lishiga qaramasdan ular orasidagi tarixiy-genetik mushtaraklik, o‘zaro tarixiy-vorisiy aloqadorlik yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. “Hayvon uslubi”ga mansub arxeologik topilmalar orasida ot kulti bilan bog‘liq yodgorliklar ko‘pchilikni tashkil etishi Strabonning massagetlar quyoshga topinib, uning sharafiga otlarni qurbanlik qilishlari haqidagi ma’lumotini yodga tushiradi. Shuningdek, sak-massaget qabilalari mifologiyasida quyosh, suv, olov va o‘simpliklar kulti, hayot daraxti bilan bog‘liq kosmogonik qarashlar, serhosillik g‘oyasini o‘zida aks ettirgan “muqaddas ona” obrazi, kiyik, bo‘ri kabi jonivorlar bilan aloqador totemistik e’tiqodlar, ajdodlar homiyiligiga ishonish an’anasi keng tarqalgan edi. Tarixiy taraqqiyot davomida mintaqa aholisining etnik tarkibi o‘zgarishi, bir qavm o‘rnini ikkinchisi egallashi, urug‘-qabilalarning o‘zaro singib, birlashib ketishi va boshqa etnik jarayonlar kontekstida ana shu qadimiyy mifologik arsenal ham diffuziyalanib, O‘rta Osiyo xalqlari folklori, amaliy san’ati, urf-odat va marosimlarida saqlanib qolgan.

Binobarin, massaget-alan substratining qoraqalpoq folkloridagi izlarini o‘rgangan L.S.Tolstova to‘g‘ri e’tirof etganidek, Orolbo‘yi

¹ Қаранг: Артамонов М.И. Сокровища саков. – Л., 1973; Акишев А.К. Искусство и мифология саков. – Алма-ата: Наука, 1984; Погребова М.Н., Раевский Д.С. Ранние скиты и Древний Восток. – М., 1992.

mintaqasi hududida yashagan qadimgi aholi asosan, yirik suv tarmoqlari – Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari, Orol va Hazar (Kaspiy) dengizlari, turli-tuman ko‘llar bo‘yida yashaganligi hamda ularning kundalik mehnat jarayoni va turmush tarzi suv bilan bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli xalq ijodining arxaik namunalarida ham suv kulti muhim rol o‘ynagan. Shuning uchun etnik mansubiyati sarmat-sak-massaget-alan tillarida so‘zlashgan qadimgi kavmlar bilan aldoqador bo‘lgan xalqlar folklorida suv stixiyasi bilan bog‘liq epik motivlar ustuvorlik qilishining sababi ham tarixiy-vorisiy aloqadorlik bilan izohlanadi.¹

Folklorshunoslikda qadimgi skif qabilalari, shu jumladan, sarmat, sak va massagetlarning arxaik eposi mavjud bo‘lganmi, degan masala ancha paytdan beri turli munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. “Skif eposi mavjud bo‘lganligini taxmin qilib o‘tirishimizga hech qanday hojat yo‘q, –deb yozadi V.I.Abaev, – Gerodot va boshqa mualliflar bizga shu qadar ko‘p epos parchalari va syujetlarning rudimentlarini qoldirishganki, zamonlar o‘tishi bilan bu manbalarda keltirilgan faktlarning mohiyati qanchalik xiralashgan bo‘lmisin, epik ijod sarchashmasi skiflar diyorida bo‘lganligidan dalolat berib turadi”.² Skiflar madaniyati, mifologiyasi va tili haqidagi xilma-xil ma’lumotlari orasida afsonaviy hukmdorlar, skif afsona va rivoyatlarining qahramonlari, xayoliy-fantastik mavjudotlar, xususan, bir ko‘zli bahodir arimasplar, oltinni qo‘riqlovchi grifonlar va shu kabi boshqa materiallar skiflarda juda murakkab mifologik va diniy e’tiqodlar tizimi, ancha taraqqiy etgan va boy epos mavjud bo‘lganligi, ana shu epik asarlardan ko‘pchiligining syujeti va obrazlari yunonlarga tanish bo‘lganligini aniqlagan G.M.Bongar-Levin va E.A.Grandtovskiy “shubhasiz, skiflar juda boy xalq ijodi an’analariga ega bo‘lishgan, ularning o‘ziga xos turmush tarzini aks ettiruvchi turli-tuman epik asarlar g‘oyat keng tarqalganligiga shubha qilmasa ham bo‘ladi. Garchi qadimgi skif eposi bizgacha saqlanib qolmagan bo‘lsa-da, uning izlarini aniqlashga qaratilgan izlanishlar istiqbolli tadqiqotlar sirasiga kiradi”,³ – deb xulosa chiqarishgan.

Qadimgi skiflar mifologiyasi, diniy-e’tiqodiy qarashlari va folklor an’analarini arxeologik topilmalarda o‘z ifodasini topgan syujetlar

¹ Толстова Л.С. Кўрсатилган асар. – Б.215.

² Абаев В.И. Скифо-европейские изоглоссы. – М.: Наука, 1965. – С.85.

³ Бонгар-Левин Г.М., Грандтовский Э.А. В поисках скифского эпоса // Курьер ЮНЕСКО. – 1977. – №1. – С.43.

asosida tadqiq etgan B.N.Grakov,¹ M.I.Artamonov,² kabi olimlarning tadqiqotlari ham skif qabilalari, shu jumladan sak va massaget qavmlari eposi mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi. Xususan, D.S.Raevskiy skiflar madaniyatiga mansub arxeologik topilmalardagi mifologik obrazlar va epik syujetlarning talqinlarini tahlil qilar ekan, “skiflarda rivojlangan mifologik tasavvurlar tizimi va xalq eposi an’analari mavjud bo‘lganligiga shubha yo‘q, albatta. Biroq, skiflarning o‘z yozuviga ega bo‘limganligi bizning kunlargacha yetib kelgan skif folklori materiallarining ko‘lamni unchalik katta emasligiga sabab bo‘lgan. Antik davr mualliflarining asarlari orqali yetib kelgan epos parchalari esa qachonlardir gurkirab rivojlangan boy folklor an’alarining aks-sadosi, xolos. Shuning uchun ham skif folklorini rekonstruksiya qilish, uning tarixiy interpretatsiyasi hamda qiyosiy-mifologik tahlilini amalga oshirish turli-tuman manbalarni tadqiqotga jalb etish orqaligina amalga oshiriladi”.³ Olim bu o‘rinda skif, shu jumladan, sak va massaget qabilalari epik an’alarining o‘ziga xos xususiyatlari va mazmunini o‘rganish qadimgi yunon yozma manbalari bilan bir qatorda o‘sha davr mifologiyasi va eposini o‘zida aks ettirgan arxeologik topilmalarni ham qiyosiy manba sifatida tadqiqot doirasiga tortishni nazarda tutmoqda.

Demak, tarixiy ildizlari qachonlardir O‘rtal Osiyoda istiqomat qilgan skif (sak, massaget, sarmat) qabilalari og‘zaki ijodiyotiga borib bog‘lanadigan syujetlarning epik transformatsiyasi ushbu hudud doirasida lokallashtirilishi hamda bu joyda hozirda yashovchi xalqlar folklorida badiiy interpretatsiya qilinayotganligi qadimda bu o‘lkada keng rivoj topgan epik ijrochilik an’anasi mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi.

O‘zbek folklorshunosligida ham sak, massaget va boshqa etnoslarning qadimiy epik an’alarini mavjud bo‘lganligi xususida fikrlar bayon etilgan. Atoqli folklorshunos olimlar V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov o‘zlarining “O‘zbek xalq qahramonlik eposi” nomli fundamental tadqiqotlarining tarixiy dostonlar tahliliga bag‘ishlangan faslida Ergash Jumanbulbuldan yozib olingan “Oysuluv va Kunbotir” dostonini Gerodotning “Tarix” kitobida keltirilgan Tumaris haqidagi

¹ Граков Б.Н. Пережитки скифских религий и эпоса у сарматов // Вестник древней истории. – М., 1969. – №3. – С.70-72.

² Артамонов М.И. Антропоморфные божества в религии скифов // Археологический сборник Государственного Эрмитажа. Вып.2. – Л., 1961. – 51-64.

³ Раевский Д.С. Скифский мифологический сюжет в искусстве и идеологии царства Атея // Советская археология. №3. – М., 1970. – С.90.

rivoyat bilan qiyosiy tadqiq etish asnosida quyidagicha xulosaga kelishgan: “Gerodot Kirning o‘limi haqidagi xalq rivoyatlarining turlituman og‘zaki namunalarini eshitganligini qayd etar ekan, juda ko‘plab ana shunday rivoyatlar orasidan eng ishonchli deb hisoblaganini o‘z asarida keltirgan. Bu hikoyada, shubhasiz, og‘zaki tarzda ommalashgan afsona, balki epik afsona belgilari mavjud. Ikki yarim ming yil mobaynida O‘rta Osiyo zaminida bir-biri bilan o‘rin almashinib turgan xalqlar va tillar vositasida davom etib, massagetlar va qadimiy forslardan bugungi o‘zbek dostonchilarigacha amal qilib kelgan, buning ustiga tarixiy syujet tarzini barqaror saqlab qolgan muntazam og‘zaki epik an’ana mavjud bo‘lishi mumkinligiga ishonish qiyin”.¹

Darhaqiqat, Qo‘rg‘on dostonchilik maktabiga mansub baxshilar repertuarida qayd etilgan “Oysuluv va Kunbotir” dostonining mazmuni hamda motivlar tarkibi Gerodotning “Tarix” asarida hikoya qilingan To‘maris to‘g‘risidagi rivoyat syujetiga deyarli aynan mos kelishi va yunon tarixchisi ushbu rivoyatni og‘zaki manbalar asosida bayon etganligi massagetlar davridayoq o‘lkamizda ancha rivojlangan epik an’ana mavjud bo‘lganligiga yorqin dalil bo‘la oladi. To‘g‘ri, qariyib ikki yarim ming yillik tarixiy taraqqiyot natijasida massagetlar davri epik ijodiyoti bilan XX asr o‘zbek xalq dostonchiligi epik an’analari o‘rtasida bevosita aloqadorlik saqlanib qolmagan bo‘lsa-da, mazkur dostonning har ikki talqinidagi uyg‘un jihatlar ushbu epik syujetlar tarixiy-genetik jihatdan mushtarak manba, ya’ni sak-massaget eposiga borib taqalishini ko‘rsatadi.

O‘zbek folklorshunosligining asoschisi H.Zarifov o‘zbek xalq eposini o‘rganish masalasiga doir bir maqolasida dostonlarning tarixiy asoslari va shakllanish jarayonini tadqiq etishda qadimgi folklor asarlarining yozma manbalarda keltirilgan fragmentlari va ba’zi lavhalari muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlagan edi. Uning fikricha, “o‘zbek xalq eposi yuzasidan olib borilgan dastlabki tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bizga ma’lum bo‘lgan ayrim dostonlar qachonlardir O‘rta Osiyoda istiqomat qilgan qabilalar eposi haqida qadimgi yunon mualliflari asarlarida qayd etilgan ma’lumotlarga bevosita aloqadordir. Masalan, “Oysuluv” dostoni syujeti mohiyatiga ko‘ra miloddan burungi VI asrda ro‘y bergen tarixiy voqealarga borib taqaladi – bu epik asarda o‘rtaosiyolik jasur malika To‘marisning Eron shohi Kirga qarshi olib

¹ Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М.: ОГИЗ, 1947. – С.131.

borgan mardonavor kurashi aks ettirilgan. To‘maris haqidagi eposning ba’zi lavhalarini taniqli xalq baxshisi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingen “Ra’no bilan Suxangul” dostonida ham uchratamiz. Baholdir Zariadr va Sirdaryo vohasining sohibjamol qizi Odatidaning otashin muhabbatи to‘g‘risidagi qadimiy qissaning asosiy motivlari ham folklorshunoslarning O‘zbekistonda olib borgan keyingi izlanishlari natijasida to‘plangan o‘zbek xalq dostonlariga o‘xshab ketishi xarakterli holatdir”.¹ Tilshunos olim A.K.Borovkov turkiy xalqlar eposining shakllanishi masalasiga munosabat bildirar ekan, qadimgi yunon tarixchilarining o‘tmishdagi turli skif qabilalari og‘zaki ijodi hamda ahmoniyalar davrida xilma-xil romantik-epik syujetlar keng tarqaganligi haqidagi ma’lumotlariga asoslangan holda jahondagi rivojlangan epik an’analardan biri O‘rta Osiyoda vujudga kelgan edi, deb hisoblaydi.²

Binobarin, qadimgi yozma manbalarda “skif” nomi bilan tilga olingen etnoslar aslida sak va massaget qabilalari ekanligini, ularning ancha rivojlangan epik an’analari nafaqat yunon mualliflarining asarlaridagi rudimentlar tarzida, balki o‘zbek folkloridagi jonli epik an’ana orqali ham yetib kelganligi xususida H.Zarifov shunday yozadi: “Ayrim muarrixlar “skif” nomi bilan atalgan massaget va shaq qabilalarining o‘zbek xalqi etnogenezida muhim o‘rin tutganligini yetarlicha asoslab berishgan. Shu bois, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida shaq va massaget eposi, ularning qahramonona jasoratlari madh etilgan ko‘hna dostonlarining qoldiq holda yetib kelgan rudimentlari saqlanganligi bejiz emas. Xususan, “Oysuluv” yoki “Kunbotir” dostonida tasvirlangan voqealar miloddan burungi VI asrda ro‘y bergen tarixiy hodisalarning badiiy in’ikosidir. Bu doston syujeti Gerodot “Tarix”ida keltirilgan qadimi qissalardan biri – massagetlarning podsho Kir boshchiligidagi bosqinchilarga qarshi kurashiga bag‘ishlangan epik hikoyalarga o‘xshab ketadi. Buyuk muarrix naql qilgan bu qissaning ayrim motivlari o‘zbek baxshilari repertuaridagi boshqa dostonlarda ham uchraydi. Masalan, o‘rtaosiyolik baxshilar shaq pahlavoni Rustam jasoratlari madh etilgan epik asarlarni hamon tildan qo‘ymay kuylab kelmoqdalar”.³ Olim o‘zbek xalq dostonlaridagi jangovar ot obrazining

¹ Зарифов Х.Т. К изучения узбекского народного эпоса // Вопросы изучения эпоса народов СССР. – М.: Издательство Академии наук, 1958. – С.102.

² Боровков А.К. Вопросы изучения тюркоязычного эпоса народов Средней Азии и Казахстана // Вопросы изучения эпоса народов СССР. – М.: Издательство Академии наук, 1958. – С.72.

³ Зарифов Х. Аршак – халқ қаҳрамони // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 2011. – Б.14-30.

tarixiy asoslari masalasini yoritar ekan, qadimgi yunon manbalaridagi naqlarga asoslangan holda, epik otning muhim bir jihat, ya’ni jangu jadallarda egasiga yordamlashish xususiyati “miloddan bir necha asr ilgari O’rta Osiyo haqidagi rivoyatlarda bo‘lgan”ligi, “epik ot obrazining bu xususiyati, shubhasiz, O’rta Osiyo xalqlarining o‘zida yaratilgan”ligini qayd etishi¹ ham o’tmishda mamlakatimiz hududida istiqomat qilgan ajdodlarimizning rivojlangan epik an’analari mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi.

An’anaviy xalq teari va tomosha san’atining qadimiy ildizlarini tadqiq etgan M.Rahmonovning yozishicha, “O’rta Osiyo xalqlarining eposlari ham juda qadimiy. U ibtidoiy jamiyatning sinfiy jamiyatga o’tishi bilan shakllana boshlagan va ular tarixiy voqealar va chet el bosqinchilariga qarshi vatanparvarlik kurashi zamirida maydonga kelgan... Ayrim eposlarning mazmunlari antik davr tarixchilaridan Gerodot, Ktesiy, Polien, Xores Mitlinskiy asarlari orqali bizgacha yetib kelgan. O’rta Osiyo tarixchilarian Hamza Ispihoni, Tabariy, Mas’udiy, Beruniy kabi mualliflar asarlarida ham xalq og‘zaki ijodiyoti – eposlar haqida ma’lumotlar ko‘p. Chunonchi, Gerodot asarlari orqali bizgacha yetib kelgan “To‘maris” eposida ahmoniy shohlaridan Kirning eramizdan avvalgi 529 yilda O’rta Osiyoni bosib olishi, massaget qabilalarining boshlig‘i ayol To‘marisning el-yurti bilan bosqinchilarga qat’iy zarba berishi, Kirni o‘ldirib cheksiz qahramonlik ko‘rsatgani tasvirlanadi”.² Olimning tadqiqotlaridan ma’lum bo‘lishicha, To‘maris, Shiroq, Zarina, Strangiya, Zariadr, Odatida, Siyovush, Rustam kabi epik qahramonlar haqidagi qadimiy sak-massaget va so‘g‘d xalq eposi asarlari teatrlashgan marosimlarda namoyish etilgan. Sak-massagetlar davri xalq eposining qanchalik keng ommalashganligini san’atshunos L.I.Rempelning o‘sha paytda “saroylarda, ibodatxonalarda va o‘ziga to‘q odamlarning koshona uylari devorlarida, peshtoqlarida rivoyatlardan, afsonalardan olingan ko‘rinish suratlari chizilgan. Zariadr va Odatidalarning muhabbatи ifodalangan epik asarning mavzusiga qiziqish zo‘r bo‘lgan. Yunon mualliflari Xores Mitlinskiy va Ateniyalar o‘sha paytlarda odamlar bu dostonning mazmunidan to‘la xabardor bo‘lganliklari uchun ularga tanish lavhalar chizilganini ta’kidlaydilar.

¹ Зарифов Х.Т. Ўзбек халқ достонларининг тарихий асослари бўйича текширишлар // Пўлкан шоир. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. 4-китоб. – Тошкент: Фан, 1976. – Б.69.

² Раҳмонов М. Ўзбек театри (қадимий замонлардан XVIII асрга қадар). – Тошкент: Фан, 1975. – Б.44.

Uy devorlaridagi chizilgan epos mavzusiga oid lavhalarning tasviri ham juda hayotiydir”,¹ – degan fikri ham tasdiqlaydi.

Dostonlarning tarixiy asoslari bo‘yicha izlanish olib borgan T.Mirzaev va B.Sarimsoqovlar o‘zbek xalq eposi taraqqiyotining ilk davrini “sak eposi” deb tasiflaydilar hamda bu davr miloddan avvalgi VIII – milodiy V asrlarni o‘z ichiga qamrab oladi, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, sak eposining asosiy mohiyati Girkoniya, Parfiya, Ariana, Marg‘iyona, Baqtriya va So‘g‘dni birlashtirib turuvchi muhim savdo yo‘llarini qo‘lga kiritish maqsadida O‘rtta Osiyo hududida ko‘p bora xuruj qilgan ahmoniylargacha qarshi sak va massaget qabilalarining olib borgan qahramonona kurashini badiiy aks ettirishdan iborat bo‘lgan.²

Filologiya fanlari nomzodi M.Qo‘shmoqov o‘zining “Tilla kampir yulduzi ostida” nomli maqolasida Qo‘rg‘on dostonchilik matabining “onaboshi dostonchisi” Tilla kampir epik repertuari mahsuli hisoblangan “Oysuluv” dostonining syujetini Gerodotning “Tarix” asarida keltirilgan Tumaris to‘g‘risidagi massaget eposi bilan qiyoslab, ajoyib tarzda tahlil qilgan. Tadqiqot natijasida, massagetlar epik ijodi mahsuli sanalmish “To‘maris” – tarixiy-qahramonlik eposi bo‘lganligi hamda asrlar o‘tishi bilan har bir xalq shoiri ijodida kamol topib boravergan bu doston qo‘rg‘on dostonchiligi matabi epik an’analari doirasida qayta ishlanib, “Oysuluv” qahramonlik-romanik dostoniga aylanganligi aniqlangan.³

O‘zbek folklorida tarixiy voqelikning aks etishi masalasini qo‘sinq, doston, afsona va rivoyat janrlariga oid materiallar asosida atroflicha o‘rgangan folklorshunos olim U.Jumanazarov o‘zbek xalq eposining taraqqiyot bosqichlarini tasnif qilar ekan, “qadimgi sak-massagetlar tarixi aks etgan dostonlar”ni alohida qatlab sifatida ajratib tasniflagan. “O‘zbek xalq eposi sirasida massagetlar hayoti bilan bog‘liq qadimiy tarixiy syujetlar deyarli saqlanib qolmagan. Ammo o‘tmishda bu qabilalarning erkin va farovon hayoti, kurash va intilishlarini aks ettirgan juda ko‘p syujetlar bo‘lganligi aniq. Bu syujetlar og‘zaki epik an’ana orqali bizga qadar yetib kelmagan bo‘lsa-da, ayrim syujetlarning izlari saqlanib qolgan. Atoqli o‘zbek xalq dostonchisi Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan yozib olingan “Oysuluv” dostoninigng nasriy

¹ Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана. – М., 1965. – С.28.

² Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Достон, унинг турлари ва тарихий тараққиёти // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.28-29.

³ Кўшмоқов М. Чечанликда сўзга сувдайин оқиб (адабий-танқидий мақолалар ва эссе). – Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – ... Б.127-140.

bayoni fikrimizning dalili bo‘la oladi”,¹ – deya qadimgi sak-massaget eposi mavjud bo‘lganligini tasdiqlovchi muhim ilmiy farazni ilgari surgan olim o‘z monografiyasida sak-massagetlar davri tarixiy voqeligini o‘zida aks ettirgan epos namunasi sifatida Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan yozib olingan “Oysuluv” dostonini tahlilga tortgan.

Bizning fikrimizcha, yuqorida ko‘rsatilgan davrda O‘rta Osiyo hududida kechgan tarixiy voqeа-hodisalar haqida yaratilgan epik asarlar markazida asosan sak va massaget qabilalarining o‘z yurti daxlsizligi uchun olib borgan mardonavor kurashi yotadi. Zero, Gerodotning “Tarix” asarida hikoya qilingan qadimiy epik syujetlardan birida ham massagetlar malikasi Tumarisning yovuz Kir qo‘sishinlarining bosqinchilik yurishlariga qarshi olib borgan kurashi aks ettirilgan. Shunga ko‘ra, o‘zbek xalq eposi taraqqiyotining dastlabki bosqichini “sak eposi” tarzida emas, balki “sak-massaget arxaik eposi” deb nomlash to‘g‘riroq bo‘ladi. Fikrimizni dalillash uchun quyidagilarni keltiramiz:

- birinchidan, miletlik Gekatey (miloddan burungi VI asr), Strabon va Gerodot (miloddan burungi V asr) kabi mualliflar sak va massagetlarni Orolbo‘yi mintaqasining asosiy aholisi deb e’tirof etishgan. Bu qabilalar konfederatsiyasi o‘z ichiga Sharqiy Turkistondan Kavkazorti mintaqasigacha bo‘lgan hududda yashagan sarmat, alan, as, daxa, apasiag, toxar, xorazmiy (Strabonning keltirishicha, atasiya va xorazmiylar ham massagetlardandir)², augasi, derbik, assian (ya’ni usun) kabi ko‘pgina urug‘, qavm va qabilalarini o‘z ichiga qamrab olgan.

- ikkinchidan, qadimgi yunon yozma manbalari, xususan, Gerodot, Polien, Ktesiy va boshqa muarixlarning asarlarida naql qilingan ko‘pgina afsona va rivoyatlar aslida sak va massaget qabilalarining eposi reliktlari hisoblanadi;

- uchinchidan, o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasining xarakteri va epik ijodiyotning yuzaga kelish va taraqqiyot qonuniyatlariga ko‘ra ularning ilk qahramonlik qo‘shiqlari hamda dostonlari arxaik epos darajasida bo‘lgan.

- to‘rtinchidan, sak va massagetlar davrining xronologik jihatdan mushtarak bo‘lib, ular istiqomat qilgan jo‘g‘rofiy hudud bir mintaqada

¹ Жуманазаров У. Ўзбек фольклори ва тарихий воқелик. – Тошкент: Фан, 1991. – Б.18.

² Древние авторы о Средней Азии. – Ташкент: Остехиздат, 1940. – С.23.

joylashganligi sababli ularning epik an'analari ham bevosita o'zaro ta'sir va ijodiy aloqalar fonida rivojlanib borgan;

– beshinchidan, miloddan burungi V asrda Persopol saroyining devori chizilgan suratlarda sak va massagetlar (shuningdek, xorazmiylar) surati bir xil kiyimda tasvirlan-ganligi¹ ham ularning o'zaro yaqin bo'lganligidan dalolat beradi.

Shularni hisobga olgan holda, o'zbek xalq dostonlarining tarixiy taraqqiyoti bosqichlarini tasniflash va davrlashtirishda ilk qatlamni "sak-massaget arxaik eposi" deb atash o'zini to'la oqlaydi, deb o'ylaymiz.

Endi sak-massaget eposi an'analari bilan O'rta Osiyo turkiy xalqlari, shu jumladan, o'zbek folklori orasidagi tarixiy-vorisiy aloqadorlik xususida to'xtalganda, birinchi navbatda har ikki etnosning o'ziga xosligini ko'rsatadigan asosiy belgisi – til masalasi kun tartibiga qo'yilishi tabiiydir. Sak va massaget qabilalarining qaysi tilda so'zlashganliklari xususida fanda turli xil farazlar mavjud. Ko'pchilik olimlar bu qabilalar hind-yevropa tillari oilasiga mansub qadimiy tillardan birida so'zlashishgan bo'lsa kerak, deb hisoblaydilar. Ammo bir qator o'zbek tarixshunos olimlarning aniqlashlaricha, mamlakatimiz hududida istiqomat qilgan qadimgi aholi milodning boshlarida turkiy tilda so'zlashishgan, deb hisoblaydilar.² Mamlakatimizda yaratilgan beba yoyma yodgorliklardan biri "Avesto"da sak qabilalari "tura" deb atalganligi³ ham ularning tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan bo'lishi mumkinligini anglatadi.

Ilmiy adabiyotlarda saklar joylashgan hudud va ularning qaysi tillar oilasiga mansub tilda so'zlashishganligi haqida ham turli xil fikrlar bildirilgan. Ko'pchilik olimlar antik davr yozma manbalarida nomi tilga olingan skif va sak qabilalari joylashgan hudud Xitoydan Vengriyagacha bo'lgan ulkan territoriyani o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, ular eroniy tillarga mansub lajhada so'zlashishgan, degan qarashni ilgari suradilar.⁴ Boshqird tarixchisi R.G.Kuzeev esa bronza davrida Volgabo'yи tekisliklari, janubiy Boshqirdistonning o'rmon mintaqasida eroniy tillardan birida gaplashadigan sarmatlar, shu jumladan, saklar ham istiqomat qilgan, deb hisoblaydi.⁵

¹ Кароматов Х. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Тошкент, 2008. – Б.19.

² Мухамеджанов Р.А. Культура древнебухарского оазиса III-IV вв. – Ташкент: Фан, 1983. – С.53.

³ Бу хақда қаранг: Кароматов Х. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Тошкент, 2008. – Б.19.

⁴ Бу хақда қаранг: Елницкий Е.А. Скифы евразийской степи. – Новосибирск, 1977. – С.15.

⁵ Кузеев Р.Г. Происхождение башкирского народа. – М.: Наука, 1974. – С.376.

Markaziy Osiyo arxeologiyasi materiallarini qiyosiy o‘rgangan B.A.Litvinskiyning fikricha sak qabilalari Sharqiy Turkiston, Tog‘li Oltoy, Farg‘ona vodiysi, Sirdaryo, Zarafshon va Amudaryo bo‘ylari, Pomir tog‘i etaklari, Xorazm vohasi, Murg‘ob daryosi sohillari, ya’ni tarixan turkiy qavmlar istiqomat qilib kelgan hududlarda yashaganlar.¹ Ba’zi ilmiy adabiyotlarda skif qabilalarining hammasi emas, balki bir qismigina eroniy lahjaga so‘zlashgan bo‘lib, asosiy qismi turkiy tilli bo‘lgan, degan qarash ham ilgari suriladi. Xususan, V-VIII asrlarda janubiy Uralga kelib o‘rnashgan skif qabilalari ana shunday ikki tilga mansub bo‘lganliklari tarixiy manbalar orqali dalillangan.² Buning ustiga S.L.Volin ham skif qabila birlashmasiga mansub urug‘larning faqat sharqiy gruppasiga kiruvchi qavmlargina eroniy tilli bo‘lgan bo‘lishi kerak, deb taxmin qilgan edi.³ Qadimgi skiflar, shu jumladan, sak va massaget qabilalarining turkiy tilli qavm bo‘lganligi M.Zakiev,⁴ D.Aytmuratova⁵ kabi olimlar tarafidan ham e’tirof etilgan. Tarix fanlari doktori Q.Rajabov ham “saklar, massagetlar, skiflar, xunnlar, sug‘diylar, xorazmiylar deb turlichay nomlangan, aslida bitta turk(iy) xalqning turli urug‘lari va qabilalari bo‘lgan”,⁶ – deb hisoblaydi.

Qadimgi O‘rta Osiyoda yashagan qabila birlashmasining nomi sifatida qo‘llanilgan “sak” (yoki “shaq”) etnonimi hozirgi turkiy xalqlar tilidagi urug‘-qabila nomlari tizimida saqlanib qolgan. Masalan, “shaklar” (turkman xalqi tarkibidagi urug‘), “shaga” (qozoq urug‘laridan biri), “seke”/“saga” (qirg‘iz urug‘laridan biri),⁷ “shakay”⁸ (o‘zbek xalqi tarkibidagi urug‘). Folklorshunos olim H.Zarifov yirik o‘zbek qavmlaridan biri laqaylar tarkibidagi “shakay” (shak-ay) shaxobchasi nomidagi “-ay” qo‘sishimchasi o‘zbek etnonimlarida, xususan, laqay

¹ Литвинский Б.А. Древние кочевники “Криши мира”. – М.: Наука, 1972. – С.159-161.

² Мажитов Н.М. Южный Урал в VII-XIV вв. – М.: Наука, 1977. – С.175.

³ Волин С.Л. К истории древнего Хорезма // Вестник древней истории. – №1 (14). – М., 1941. – С.133-135.

⁴ Закиев М.З. Об изучении древних тюрков и их языков // Тюркское языкознание. – Ташкент: Фан, 1985. – С.25-28.

⁵ Айтмуратов Д. Тюркские этнонимы: каракалпак, черные клубуки, черкез, башкорт, кыргыз, уйгар, тюрк, печенег, сак, массагет, скиф. – Нукус, 1976. – С.171-173.

⁶ Ражабов Қ. Туркий халқларнинг қадимги аждодлари ҳақидаги илк ёзма маълумотлар таҳлили ҳамда Алп эр тўнга сиймоси // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – №1 (57). – Бухоро, 2015. – Б.119.

⁷ Айтмуратов Д. Тюркские этнонимы: каракалпак, черные клубуки, черкез, башкорт, кыргыз, уйгар, тюрк, печенег, сак, массагет, скиф. – Нукус, 1976. – С.171.

⁸ Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории Южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С.100.

urug‘lari nomida ham (masalan, do‘say) ko‘p uchrashini qayd etadi.¹ Rossiya federatsiyasida yashovchi turkiy tilli xalqlardan biri yoqtular o‘zlarini “saxa” deb nomlashlari ham ana shu qadimiy etnos bilan bevosita aloqadordir. Sak qabilasi nomini bildiruvchi etnonim mamlakatimiz hududidagi ayrim joy nomlari – toponimlarda ham o‘z izini qoldirgan. Xususan, Toshkent viloyatining Parkent tumanida Shaqqo‘rg‘on (Shak + qo‘rg‘on), Saxsartepa (Sak+sar+tепа), Qashqadaryo viloyatidagi Tengraxarama yaylovi yaqinida Qirshak (Qirsak), G‘uzor tumanidagi Eskibog‘ qishlog‘ida Gulshaq (Gul + shak) kabi joy nomlari mavjudligi aniqlanganki, ularning paydo bo‘lishi bevosita “sak” etnonimiga aloqadordir.

Qadimgi skiflar, ya’ni savromat, sak va massaget qabilalari aslida prototurkiy tilda so‘zlashganligini ayrim lingvistik materiallar ham tasdiqlaydi. Tilshunos olim M.Z.Zakiev skiflarning turkiy tilda so‘zlashishganligiga dalil sifatida quyidagilarni yozgan edi: “Gerodotning asarida (IV, 59) qayd etilgan ayrim skif xudolarining nomlari ma’nosini ham turkiy tillar materiallari asosida izohlasa bo‘ladi: *Gesteya* – oila o‘chog‘ining homiysi hisoblangan ma’buda, skifchasiga *Tabiti* – “topmoq” ma’nosidagi “*tabu*” fe’liga “-ti” affiksini qo‘shish yo‘li bilan yasalgan; *Zeъs* – oliv xudo, ulug‘ hoqon, tangri va odamlarning otasi – skifchasiga *Papay* (turkiy tilda *babay*, *papay* – ajdodboshi, bobo); *Geya* – zamin ma’budi, skifchasiga – *Api* (turkiy tilda *abi* – opa, momo, ona iloha); Apollon – yunon mifologiyasida eng jasur tangri, skiflarda *Gaytosir* atamasi ham kelib chiqishiga ko‘ra turkiy o‘zakdan bo‘lishi mumkin. Ya’ni *Giy-tas-ir* yoki *Koy-tas-ir* – “qoyaday mustahkam odam”.² Ushbu etimologik tahlilga qo‘shimcha sifatida, skif mifologiyasida oila farovonligi va serhosillik ma’budasi sifatida tasvirlangan Tabiti atamasining kelib chiqishiga o‘zbek tilidagi “topinmoq” fe’li asos bo‘lgan bo‘lishi ham mumkin.

Atoqli folklorshunos H.Zarifov ham sak/shaqlar tilidagi lug‘aviy birliklar u yoki bu tarzda fonetik o‘zgarishga uchragan holda bo‘lsa-da, o‘zbek tilida saqlanib qolganligiga ko‘plab misollar keltirgan edi: “O‘zbek tilining lug‘at boyligida kelib chiqishiga ko‘ra qadimgi so‘g‘d, shaq va skif (bu o‘rinda Ovrupo hududida istiqomat qilgan skiflar emas, balki qadimgi O‘rta Osiyoda yashagan qavmlar nazarda tutilmoxda –

¹ Зарифов Ҳ. Аршақ – халқ қаҳрамони // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. З-китоб. – Тошкент: Фан, 2011. – Б.21.

² Закиев М.З. Об изучении древних тюрков и их языков // Тюркское языкознание. – Ташкент: Фан, 1985. – С.26-27.

H.Zarifov) tillariga mansub bo‘lgan so‘zlarning ko‘p qo‘llanilishi ham tasodifiy emas. Masalan, shaq lahjasida “yem-xashak” ma’nosidagi “xvasi” so‘zi tilimizda “xashak” tarzida ishlataladi. Shuningdek, “cho‘p”, “mayda xashak” ma’nosidagi “xas” so‘zi ham yuqoridagi o‘zakka aloqador. Tilimizdagi “charvi” so‘zi shaq tilida “yog” ma’nosida qo‘llanilgan “tsarbi” leksemasining fonetik variantlaridandir... Shaq tilidagi “kava”, so‘g‘dcha “kapa” so‘zlarining ma’nosi “baliq” demakdir. Nazarimda, jonli so‘zlashuvda ko‘p qo‘llaniladigan “og‘zingni kappa-kappa ochma”, “muncha og‘zingni kappa-kappa ochasan?” kabi iboralardagi “kapa” ham xuddi shu ko‘hna so‘zga ma’nodoshday tuyuladi... Skif va so‘g‘d tillarida “qo‘l” ma’nosini anglatuvchi “chang” so‘zi o‘zbekcha “changal” so‘zining paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan. Skiflar jangovar drujina yoki askarlar guruhini “bala” deyishgan. Zero, o‘zbek xalq eposining shavkatli qahramonlaridan birining nomi *Bāl Avaz*, *Balä Avaz*, *Avaz balä* deb atalishining boisi ham ana shu ko‘hna terminga bog‘lanadi. Taxminimcha, “askarbola” («askar + bola») so‘zining kelib chiqishi ham “chang+al” tipidagi lisoniy birliklarning shakllanishiga o‘xshab ketadi. ...“Bala” so‘zi o‘zbek xalq etnogenezida muhim o‘rin tutgan qadimgi qabilalar tiliga mansub bo‘lib, hozirda uning asl ma’nosi unutilib ketgan”.¹

Saklarning turkiy tilli etnos bo‘lganligini tasdiqlaydigan yana bir dalil mavjudki, u ham bo‘lsa mazkur etnonimning etimologik kelib chiqishi bilan bog‘liqidir. Taniqli osetin tilshunosi V.V.Abaevning fikricha, “sak”/“shak” etnonimining lug‘aviy ma’nosi “kiyik” bulib, u ushbu jonivorni totem-ajdod deb tasavvur qilgan qabila nomini bildirgan.² Darhaqiqat, “sak” etnonimining mazkur etimologik talqini asosli bo‘lishi mumkin. Chunki Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida “soqaqlig“ tag“” birikmasi keltirilgan bo‘lib, u “kiyikli tog“” deb izohlangan.³ Modomiki, “sak” etnonimi qadimgi turkiylar tilida “kiyik” ma’nosini bildirgan “saq” so‘zidan kelib chiqqan, u holda shu nom bilan ataluvchi qabilaning o‘zi ham turkiy tilli bo‘lgan deb hisoblash mumkin.

Ana shu ma’lumotlar skif qabilalari, shu jumladan, sak va massagetlar bugungi turkiy xalqlarning qadimgi ajdodlari bo‘lgan,

¹ Зарифов Х. Аршақ – халқ қаҳрамони // Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. 3-китоб. – Тошкент: Фан, 2011. – Б.19-20.

² Абаев В.В. Осетинский язык и фольклор. Т.І. - М.-Л., 1949. – С.179.

³ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-том. – Тошкент: Фан, 1960. – Б.457.

binobarin, ularning tilidagi leksik qatlam hamda shu tilda yaratilgan qadimiy epik an'ana tarixiy-vorisiy aloqadorlik tarzida o'zbek xalqining nomoddiy madaniy merosi arsenaliga singib ketgan, deb taxmin qilishga to'la asos beradi.

O'rta Osiyoda yashagan qadimgi aholi folklori, xususan, sak-massaget eposi namunalarining qadimgi yunon manbalaridan o'rin olishining ham muayyan sabablari bor. Ma'lumki, Gerodot, Polien, Strabon, Ktesiy, Arrian, Plutarx, Kvint Kursiy Ruf, Diador, Pompey Tron va boshqa ko'pgina qadimgi yunon muallif-lari asarlarida keltirilgan qadimgi skif qabilalarining arxaik madaniyati, xususan, mifologiyasi va epik ijodiyotiga doir ma'lumotlarning aksariyati bevosita og'zaki manbalardan olingan. Masalan, "tarix otasi" nomini olgan Gerodot skiflar diyori bo'ylab ko'p sayohatlar qilgan va ana shu safarlari chog'ida o'zining kelgusida yozilajak asari uchun zarur materiallar to'plagan. Shubhasiz, u skiflarning boy og'zaki ijodi, ayniqsa, qahramonlik va jasoratni tasvirlovchi epik asarlari bilan tanishgan. Shuning uchun ham u uz "Tarix"ida skif qabilalari hayoti bilan bog'liq u yoki bu rivoyatni keltirishdan avval so'zni "aytishlaricha", "menga aytib berishlaricha", "hikoya qilishlaricha" kabi birikmalar bilan boshlaydi. Bu esa Gerodot asarida keltirilgan skif folklori namunalari bevosita og'zaki an'anaga borib taqalishidan darak beradi. Gerodotning "Tarix" asarida keltirilgan "skif hikoyalari"ning negizi folklorga borib bog'lanishini D.S.Raevskiy va L.A.Lelekovlar ham qayd etishgan.¹

O'zbek xalq ijodidagi epik syujetlar va an'anaviy motivlarning tarixiy asoslarini aniqlashda qadimgi yozma manbalar orqali saqlanib qolgan arxaik folklor namunalari yoki ularning qoldiq holidagi ko'rinishlarini qiyosiy tahlil qilish substrat hodisalarning ham ahamiyati kattadir. Zero, skif mifologiyasining osetin xalq eposidagi qoldiq holda yetib kelgan ko'rinishlarini o'rgangan V.I.Abaevning "Qadimiy etnoslarga mansub substrat izlari o'sha etnik muhit yo'q bo'lib yoki boshqa qavmlar tarkibiga singib, ularning tilida so'zlashish an'anasi esa o'sha hududda unut bo'lib ketganidan ancha keyin, ba'zan esa, hatto oradan juda uzoq vaqt o'tgandan keyin aniqlanishi mumkin",² degan xulosasi o'zbek xalq ijodidagi epik syujetlardan ba'zilarining qadimiy

¹ Раевский Д.С., Л.А.Лелеков. Скифский рассказ Геродота: фольклорные элементы и исторические информативность // Народы Азии и Африки. – М., 1979. – №6. – С.68-78.

² Абаев В.И. Скифо-европейские изоглоссы. – М.: Наука, 1965. – С.48.

asoslarini sak-massagetlar eposi rudimentlari bilan qiyosan tahlil qilish yaxshi samara berishini bildiradi.

Sak-massaget qabilalari eposining reliktlari O‘rtta Osiyo hududida istiqomat qilgan ko‘pgina xalqlar va elatlarning folklor an’analari rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatganligiga ilmiy adabiyotlarda ko‘plab dalillar mavjud. Xususan, osetin tili va folklorining tadqiqotchisi V.I.Abaev qadimgi skiflar folklorining epik transformatsiyasi haqida fikr yuritar ekan, shunday yozadi: “Osetin xalq qahramonlik eposining yetakchi personajlaridan biri Satani obrazining genezisini aniqlash nartshunoslikning asosiy masalalaridan sanaladi. Bunday g‘aroyib obraz faqatgina ijtimoiy hayotda ayollarning roli ustuvorlik qilgan jamiyat og‘zaki ijodidagina yuzaga kelishi mumkin. Shunda beixtiyor skif (sak, massaget) eposida tasvirlangan ayollar obrazi yodga tushadi: yengilmas Kirga qaqqhatgich zarba bergen jasur To‘maris (Gerodot), Amagi (Polien), Zarina (Ktesiy). Shuningdek, qadimgi dunyo muarrixlari asarlaridagi “ayollar hukmronlik qiladigan” sarmat qabilalari to‘g‘risidagi qaydnomalarni ham eslaymiz. Bu kabi boshqa parallelliklar va qiyosiy tahlillar asosida shuni ishonch bilan ta’kidlash mumkinki, osetin xalq qahramonlik dostonining tarixiy asoslari sarmat va skif (sak, massaget) eposiga borib taqaladi, binobarin, osetin epik kuychilari ana shu qadimgi qavmlarning epik an’analarini izchil davom ettirib kelishmoqda”.¹

Bugungi kunda Kavkazda istiqomat qiluvchi osetinlarning qadim ajdodlari – os va alanlar bir zamonlar O‘rtta Osiyoda, aniqrog‘i, Xorazm vohasi va Amudaryo bo‘ylarida istiqomat qilganligini, Abu Rayhon Beruniyning Amudaryo suvining kamayishi natijasida Uzboy sohillarida yashagan os va alan urug‘i vakillari Hazar (ya’ni Kaspiy) degizi ortiga ko‘chib o‘tganligi, bu qavmlarnig tili xorazm va bijnoq (qipchoq) tilining aralashmasidan iborat bo‘lganligi to‘g‘risidagi dalillarga suyanadigan bo‘lsak, osetin qahramonlik eposida qadimgi sak-massagetlar folklori epik syujetlari va motivlari saqlanib qolganligini tarixiy-vorisiy aloqador mahsuli deb baholash mumki bo‘ladi.

Ma’lumki, asosan Sirdaryo, Zarafshon va Amudaryo havzasidagi ulkan hududda istiqomat qilgan sak, massaget qabilalari O‘rtta Osiyo turkiy xalqlari, xususan, o‘zbek xalqining qadimgi ajdodlari hisoblanadi. Asosan, ko‘chmanchi chorvadorlik, yarim o‘troq va o‘troq dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan sak va massaget qabilalari uyushmasiga kiruvchi

¹ Абаев В.И. Скифо-европейские изоглоссы. – М.: Наука, 1965. – С.84.

aholi o‘z ona yurti, oilasi va qadriyatlarini bosqinchi dushmanlardan mardonavor himoya qilgan. Qadimgi yunon yozma manbalari orqali saqlanib qolgan ma’lumotlarga qaraganda, saklar juda mard, tanti va jasur bo‘lib, dushmanlariga qarshi otda ham, piyoda ham jang qila olishgan. Ularning og‘zaki ijodida yaratilgan ko‘pgina folklor asarlari asosan qahramonlik xarakterida ekanligining sababi ham ana shunda. Akademik A.P.Qayumovning yozishicha, “O‘rta Osiyo va Eron xalqlari o‘rtasida ma’lum bo‘lgan bir qancha afsonalar qadimiy yunon avtorlarining asarlarida eslatib o‘tiladi. Ular tarixiy adabiyotlarda sak xalqi eposlari, deb nomlangan. Bunday afsonalar ikki turdadir. Ulardan ba’zilari qahramonlik eposlari bo‘lib, O‘rta Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashini tasvirlaydi. To‘maris va Shiroq afsonasi shular jumlasidandir. Amorg va Sparetta haqidagi afsona ham shu mazmunda. Ammo u yerda qahramonlik mavzusi muhabbat va sadoqat bilan chatishib ketgan. Uni ham qahramonlik, ham sevgi-sadoqat to‘g‘risidagi qissa deb qarash mumkin. Boshqa afsonalar sov sevgi va sadoqat to‘g‘risidagi ijod namunalaridir”.¹

Yuqorida keltirilgan iqtibosda O‘rta Osiyo xalqlari hayoti bilan bog‘liq folklor asarlarining qadimgi yunon manbalari orqali yetib kelgan relikt, ya’ni qoldiqlarini “sak xalq eposi namunalari” tarzida talqin qilish o‘zini to‘la oqlaydi. Ammo bu materiallar folkloarning qaysi janriga mansubligini belgilashda muallif fikrlari biroz bahstalabligi ham ko‘zga tashlanadi. Bu o‘rinda To‘maris, Shiroq, Amorg va Sparetta to‘g‘risidagi folklor namunalarining janri ikki xil tarzda, ya’ni “afsona” va “qissa” deb belgilangan. Agar afsona xalqning qadimiy e’tiqodlari va mifologiya bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, voqelikni xayoliy uydirmalar vositasida fantastik talqin asosida ifoda etuvchi folklor janri ekanligini hisobga olsak, qadimgi yunon mualliflarining To‘maris, Shiroq, Amorg va Sparetta haqidagi hikoyalari janr nuqtai nazaridan rivoyat ekanligi ma’lum bo‘ladi. Qadimgi sak-massagetlar folklorida To‘maris va Shiroq kabi xalqparvar, yurtparvar qahramonlarning jasoratini tarannum etuvchi qahramonlik eposi namunalari, shuningdek, Amorg va Sparetta, Zariadr va Odatida, Strangey va Zarineya to‘g‘risidagi ishqiy-romanik dostonlar yaratilgan va xalq orasida keng tarqalgan bo‘lishi tabiiydir. Agar sak-massaget epik an’anasida bu kabi yirik epos namunalari mavjud bo‘lmaganida bu etnoslar to‘g‘risida so‘z yuritgan antiq davr mualliflari

¹ Ўзбек адабиёти тарихи. 1-том. – Тошкент: Фан, 1977. – Б.45.

yuqorida nomlari zikr etilgan epik obrazlar va ularning sarguzashtlari bayon etilgan rivoyatlarni keltirib o‘tmagan bo‘lishar edi.

Sak-massagetlar folklorida tarixiy qo‘sishiq, tarixiy afsona va rivoyat janrlari bildan bir qatorda qahramonlik dostonlari muhim o‘rin tutgan. O‘zbek xalq dostonchiligi an’analarining arxaik davrini tashkil etadigan sak-massaget eposi o‘z mohiyati va xarakteriga ko‘ra qahramonlik dostonlaridan iborat bo‘lganligini T.Mirzaev va B.Sarimsoqovlarning “qadimgi massaget va sak qabilalarining eposi qahramonlik eposi xarakterida bo‘lib, ularda vatanparvarlik, mardlik, vafodorlik kabi xislatlar ulug‘langan”,¹ – degan fikri ham tasdiqlaydi. Folklorshunos M.Qo‘sismoqov ham “Gerodot ‘Tarix’ida ham qahramonlik eposining toji – alp xotun xarakteri balqib turadi”, – deb yozadi.² Darhaqiqat, qadimgi O‘rta Osiyoning jo‘g‘rofiy tuzilishiga nazar tashlasak, juda sersuv bo‘lgan Amudaryo hozirgi Uzboy sho‘rxokligi orqali Kaspiy dengiziga quyilgan paytda uning o‘ng sohilidagi hudud Turon, chap qirg‘og‘idan boshlanadigan yerlar esa Eron deb atalganligini ko‘ramiz. Yunon mualliflarining tarixiy asarlarida ham qadimgi turonliklar, shu jumladan, sak, massaget qabilalarining bosqinchilik maqsadida qo‘sish tortib kelgan Eron shohi Kirga qarshi olib borgan mardonavor kurashi bayon qilingan lavhalar ko‘p keltirilgan. Demak, o‘z yurtining ozodligi va hurligini hamma narsadan ustun qo‘ygan sak va massaget qabilalarining turmush tarzi, orzu-intilishlari, vatanparvar o‘g‘il-qizlarining mardligi tasvirlangan epik asarlar ham qahramonlik eposi tarzida kuylangan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Sak eposi o‘zining mohiyati qahramonlik xarakteriga ega bo‘lgan, degan ilmiy farazni ilgari surgan o‘zbek folklorshunoslari T.Mirzaev va B.Sarimsoqovlar “ana shu qahramonlik xarakterining haqqoniyligini tasdiqlovchi bironta epos namunasi bizga qadar yetib kelganmi?” degan savolga shunday javob berar ekanlar, “Ha, yetib kelgan. Lekin eposga xos u relikt ham aynan epos shaklida emas, balki mazmunan yetib kelgan”, deb yozadilar hamda o‘zbek folklorida mavjud bo‘lgan “Oysuluv” garchi doston shaklida keyinroq yuzaga kelgan bo‘lsa-da, biroq o‘zining hayotiy-tarixiy asoslari bilan To‘maris afsonasiga borib taqalishini” qayd etadilar.³

¹ Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Достон, унинг турлари ва тарихий тараққиёти // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.31.

² Кўшмоқов М. Чечанликда сўзга сувдайин оқиб / Адабий-танқидий мақолалар ва эссе. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – Б.132.

³ Ўша манба. – Б.31-32.

Darhaqiqat, sak-massagetlar mifologiyasi va epik an'analarining izlari turkiy xalqlar, shu jumladan, o'zbek folklorida ham ko'p uchraydi. "Go'ro'g'li" turkumiga mansub o'zbek xalq dostonlarida qahramon o'zining qirq yigitlarida birortasini u yoki bu yumush bilan safarga jo'natishdan avval ularga bir kosa may tutadi. Shunda yigitlar orasidan chiqqan eng botir va jasuri ana shu kosani olib ichadi va safarga jo'naydi. Bu o'rinda may to'la kosa qahramon tushida yoki ovga borganida ko'rib, oshiq bo'lib qolgan parini olib kelishga qodir bo'lган bahodirni aiqlashnig timsoliy vositasi vazifasini bajaradi. Bu motiving tarixiy asoslari esa bevosita qadimgi sak-massaget eposiga borib taqaladi.

Gerodotning yozishicha, skiflarda muqaddas qadah bo'lib, unda bir yil davomida jangda dushmanlarni mahf etgan kishigina may ichish huquqiga ega bo'lган.¹

Ritual-muqaddas qadah yoki kosani qahramonlik belgisi sifatida talqin qilish an'anasi qadimgi skiflar madaniyati an'analari bilan bevosita bog'liq bo'lган boshqa xalqlar, jumladan, osetin folklorida ham mavjuddir. Osetin xalq eposida tasvirlaishicha, bahodir nartlarning "uasamonga" deb atalgan g'aroyib qadah bo'lib, ronga deb yuritiladigan mo'jizakor ichimlik bilan to'ldirilgan ana shu qadah nartlar davrasining o'rtasida turarkan. Jangu jadallarda ko'p qahramonlik ko'rsatib, nom qozonga bahodirlargina ana shu qadahdagi ichimlikni ichish baxtiga muyassar bo'lisharkan.²

Olis safarga jo'naydigan epik qahramonni aniqlash vositasi vazifasini bajaradigan oltin kosa, tilla jom kabi detallar o'zbek xalq dostonlarida ham faol qo'llanilgan. Jumladan, "Malika Ayyor" dostonining Yorlaqab Beknazар o'g'li ijro etgan variantida tasvirlanishicha, Bolli ko'liga shikor qilgani borgan Go'ro'g'li boshi ustidan kaptar bo'lib uchib o'tgan Qosimxon podshoning pari qizini ko'rib oshiq bo'lib qolgach, qarorgohiga qaytib kelib, qo'liga may to'ldirilgan oltin kosani olib qirq yigitga qarab shunday murojaat etadi:

Har maydonda o'zin menman deguday,
Xon Go'ro'g'lining g'amini yeguday,
Charchatib tulporni cho'lда yelguday,

¹ Геродот. История. В 9-ти кн. / Пер. Г.А.Стратановского. Т.2. – М.: ООО “Издательство АСТ”, “Ладомир”. – 2001. – С.66.

² Абаев В.И. Скифо-европейские изоглоссы. – М.: Наука, 1965. – С.83.

Oltin kosa kelib qo‘ldan olguday,
Bu kosani yengil dema, qirq yigit,
Torkistonga tanho o‘zi borguday,
Dushmanlarga qorong‘ulik solguday.
Torkistonda Qosim sardor qizini,
Chambilimga o‘zi olib kelguday,
Qirq yigitda bir azamat bormikan?¹

Bu o‘rinda “oltin kosa” qirq yigit ichidan eng jasur, botir, ya’ni “Torkistonga tanho o‘zi borguday”, “Dushmanlarga qorong‘ulik solib”, “Qosim sardor qizini Chambilga olib kelguday” qahramonni aniqlash vazifasini bajaradi. Dostonda tasvirlanishicha, bu xizmatga bel bog‘lagan Avazxon otasining qo‘lidan oltin kosani olib, Torkistonga safarga jo‘naydi.

Sak va massagetlar yashagan davrdan hozirgi kunga qadar orada juda ko‘p vaqt o‘tganiga qaramay, garchi muayyan rudiment va qoldiqlar tarzida bo‘lsa-da, ularning arxaik eposi bilan bog‘liq syujet, motiv va obrazlar Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan, o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodida hamon saqlanib kelayotganligi sak-massaget epik an’anasi naqadar ko‘lamdor va syujetlarga boy bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Gerodot tomonidan naql qilingan sak-massaget eposi syujetlaridan birida hukmdor Kirning tug‘ilishi haqida shunday hikoya qilinadi: “Shoh Astiagning bir qizi bor bo‘lib, uning ismi Mandana ekan. Kunlardan bir kuni shoh g‘aroyib tush ko‘ribdi: tushida uning qizi shu qadar ko‘p peshob qilibdiki, oqibatda shahar g‘arq bo‘lib, butun Osiyo suv ostida qolibdi. Saroydagagi ta’birchilar: “Shohim, bu tushingiz karomatli ekan. Qizingiz Mandana bir o‘g‘il farzand ko‘radi, shu bola ulg‘aygach butun Osiyoni o‘z tasarrufiga olguvchi sohibqiron bo‘ladi”, – deb yo‘ribdilar. Bunday nevarasi tug‘ilib, oxir-oqibat saltanati qo‘ldan ketishidan qo‘rqan Astiag qizini turmushga berishni istamabdi. Ammo qizi voyaga yetgach, uni midiyalikka uzatishni xohlamay, Kambis degan bir eronlik yigitga uzatibdi. Oradan bir yil o‘tar-o‘tmas Astiag yana bir tush ko‘ribdi: tushida qizi Mandananing qornidan o‘sib chiqqan tok novdalari butun Osiyoni chulg‘ab olibdi. O‘z tushidan o‘zi cho‘chib uyg‘ongan shoh yana ta’birchilarini huzuriga chorlabdi va farzand kutayotgan qizi istiqomat qiladigan Eronga odam yubortirib: “Men borgunimcha qizimni

¹ Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети хузуридаги Ўзбек тили ва адабиёти илмий-тадқиқот институти Фольклор архиви. Инв.№1460/3.

bir joyga qamab, tashqariga chiqarmay turinglar!” deb amr qilibdi. Ta’birchilar shohning qizidan tug‘ilajak bola uning o‘rniga taxtga o‘tirib, Osiyoga hukmdor bo‘lajagini bashorat qilishibdi.

Toju taxti qo‘ldan ketajagidan vasvasaga tushgan Astiag o‘zining eng yaqin qarindoshlaridan biri Garpagni huzuriga chorlab: “Ey Garpag! Senga o‘ta muhim bir vazifa topshirmoqchiman. Bu vazifani to‘la-to‘kis ado etmog‘ing lozim. Yana meni aldab, o‘z qoningga zomin bo‘lib yurmagin tag‘in. Mandananing tug‘iladigan bolasini uyingga olib kelib, hech kimga bildirmay o‘ldirgin. Keyin biror joyga ko‘marsan”, – debdi. Shunda Garpag: “Ey shohim! Biror marta so‘zingizni ikki qilib, yuzingizni yerga qaratganmanmi? Agar siz shuni xohlar ekanmiz, men bu vazifani uddalayman”, – deb Eronga yo‘l olibdi.

Mandananing oy-kuni to‘lib, ko‘zi yorigach, tug‘ilgan o‘g‘il bolani Garpagning qo‘liga topshiribdilar. Garpag uni uyiga olib kelibdi-da, xotini bilan maslahatlashibdi. Xotini unga bu chaqalojni nima qilmoqchi ekanligini so‘raganida, Garpag shohning qarib qolganligi, agar u o‘lsa o‘rniga taxtga o‘tiradigan o‘g‘li yo‘qligi, mobodo Mandana podsho bo‘lsa, bolasini o‘ldirgan odamni aniqlab, shak-shubhasiz o‘ch olajagini aytib, chaqalojni o‘zi o‘ldirmaslikka ahd qilibdi. Shundan so‘ng u Mitradat degan bir cho‘ponini chaqirtiribdi. Akbatan degan joydagi tog‘ etadidagi ho‘kiz boqadigan bu cho‘ponning xotinini ismi ellinchasiga Kino bo‘lib, midiyaliklar tilida “spako”, ya’ni “it” degan ma’noni bildirar ekan. Cho‘pon yetib kelgach, Garpag uga qarab shunday debdi: “Podshohimiz Astiagning amri shu, bu bolani olib borib tog‘ orasidagi kimsasiz pastqamlikka qo‘yib kelasan, toki o‘sha yerda izg‘ib yurgan yovvoyi hayvonlar uni yeb ketsin. Mobodo buni o‘ldirishga ko‘zing qiymasdan tirik qoldirsang itday xor bo‘lib o‘lasan”.

Cho‘ponning xotini ham homilador bo‘lib, o‘sha kunlarda oy-kuni yaqilashib qolgan, erini shoshilinch Garpag chaqirtirganida xavotirga tushib, uning yo‘liga ko‘z tutib o‘tirgan ekan. Mitridat o‘z xotinining oldiga kelgach, Garpagning uyiga borganida hamma yoqni chaqaloqning yig‘isi tutganligi, xo‘jayin uning qo‘liga ana shu bolani tutqazib, toqqa olib borib yo‘q qilishi buyurgani, yo‘rgaklari zaru zarbofdan bo‘lib, hamma yog‘i tillagan burkangan bu chaqaloq asli kimning zuryodi ekanligini bilmaganligi, ammo yo‘lda kelayotganida hamroh bo‘lgan bir xizmatkordan bu begunoh bola shoh Astiagning qizi Mandananing farzandi ekanligini bilib olganini aytib beribdi. Shundan keyin cho‘pon bolani xotinining qo‘liga beribdi, Kino yo‘rgakni ochib ko‘rsaki, durkunday o‘g‘il bola ekan. Shunda u o‘zini erinig oyog‘i ostiga tashlab:

“Bu norasidani o‘ldirmay olib qolaylik, men ham homilador edim. Siz kelmasdan avval ko‘zim yoridi, ammo bola o‘g‘il tug‘ildi. Shu go‘dakni menga bering, bolamiz o‘rniga farzand qilib, boqib katta qilay. Yorug‘ dunyo yuzini ko‘rmay so‘lgan g‘unshamizni esa Garpag aytganday qilib, toqqa tashlab keling. Ana shunda ham biz farzandli bo‘lib qolamiz, ham Astiagning amrini bajargan bo‘lasiz”, – deb yalinibdi. Mitradat o‘ylab qarasa, xotini haq gapni aytadi. Shundan keyin u shohning nevarasini xotiniga beradi-da, o‘lik chaqaloqni savatga solib toqqa qarab yo‘l oladi. Tog‘ning eng olis darasiga borgach, bola solingen savatni yerga qo‘yib, uning yoida yordamchi cho‘ponlaridan birini qorovul qilib qo‘yib, o‘zi shaharga – Garpagning oldiga jo‘naydi. Cho‘pon topshiriqni bajarib kelganligini eshitgan Garpag o‘zining yaqin kishilaridan birini toqqa jo‘natadi. U savatga solingen bola o‘lib yotganini ko‘rgach, olib dafn etadi. Cho‘pon esa Mandananing bolasiga Kir deb ism qo‘yib, xuddi o‘z farzandiday parvarishlay boshlaydi.

Bola o‘n yoshga to‘lganida bamisol navqiron yigitlarday kuchli, baquvvat va aqli bo‘libdi. Bir kuni u o‘z tengqurlari bilan o‘ynagani borganida bolalar uni o‘zlaricha podsho etib saylabdilar. Shunda Kir darhol ishga kirishib, bolalardan bir qismini uy-joy qurishga, uch-to‘rttasini qo‘riqchi bo‘lishga, bir-ikki tengdoshini esa “ko‘z-quloq” bo‘lish, ya’ni tevarak-atrofda bo‘layotgan voqeа-hodisalardan xabardor qilib turishi buyuribdi. Ammo o‘yinda qatnashayotgan bolalardan biri – Artembar degan boyning o‘g‘li Kirga bo‘ysunishni istamay, uning aytganini qilmabdi. Shunda o‘yinda “podsho” vazifasini bajarayotgan Kir o‘sha bolani jazolash uchun qamchi bilan rosa savalabdi. Bu xo‘rlikka chidayoolmagan bola otasining oldiga yig‘lab boribdi. Artembar esa o‘sha zahotiyoy shoh Astiagning saroyiga borib, ho‘kizboqar cho‘ponning o‘g‘li Kirning ustidan arz qilib: “Shohim, bir tayini yo‘q molboqarning bolasi bizday aslzodalarga sira kun bermay qo‘ydi, o‘zini xuddi podsho deb bilib ko‘ringan bolaning boshiga qamchi solayapti!” – deb o‘g‘lining qamchi zarbidan ko‘kangan yelkasini ko‘rsatibdi.

Buni eshitib g‘azablangan Astiag “bebosh” bolaning adabini berib qo‘yish uchun molboqar Mitradat bilan uning o‘g‘li Kirni saroyga chaqirtiribdi. Ular kelishgach, shoh Kirdan nima uchun Artembarday badavlat kishining o‘g‘lini qamchilaganining sababini so‘rasa, u: “Shohim! Meadolat yuzasidan ish ko‘rdim, qishlog‘imizning bolalari o‘yin paytida meni podsho etib sayladilar. Ular orasida shu bola ham bor edi. Hammalari meni podsholikka munosib deb bilishdi. Men podsho

bo‘ldim, o‘yin boshlandi. Boshqa o‘yindoshlarim amrimga bo‘ysunishdi, ammo bu bola podshoga itoat etishdan bosh tortib, sarkashlik qildi. Agar shu ishim adolatdan bo‘lmasa, mayli, meni jazolayvering”, – debdi.

Bu gapni eshitgan Astiag yaxshilab sin solib qarasa, bolaning yuzko‘zi o‘zining qiziga o‘xshab ketarmish. Ana shunda shoh qarshisida turgan bola o‘ziing nevarasi ekanligini tusmollab, “Nahotki o‘sha bo‘lsa, axir Garpag uni tog‘da yovvoyi jonivorlar tilka-pora qilib o‘ldirib yubordi, degan ediku! Qanday qilib tirik qoldi ekan?” deb o‘ylab, rangining qoni qochib, tanasidan quvvat ketib, holsizlanib qolibdi. Birozdan keyin o‘ziga kelib, yaxshi gap bilan Artembarning ko‘nglini ko‘tarib jo‘natib yuboribdi. So‘ngra xizmatkorlariga bolani saroyning ichkari xonalaridan biriga olib kirishni buyuribdi va cho‘pon Mitradat bilan yuzma-yuz qolib, bu bola qanday qilib uning xonadoniga borib qolganini so‘rabdi. Sir ochilsa boshi ketishidan qo‘rqqan cho‘pon: “Bu o‘zimning o‘g‘lim, uni mening xotinim tuqqan, shohim”, – debdi. Shunda Astiag: “Birovning bolasini qamchilab azoblash adolatdan emas”, – deb cho‘ponni jallodlariga topshiribdi. Jallodlar bechora Mitradatni rosa kaltaklabdilar, qattiq azobga chidayolmagan cho‘pon bo‘lgan gaplarni aytib berishga majbur bo‘libdi.

Bu gapni eshitgan Astiag g‘azab o‘tida kuyib-yonib Garpagni huzuriga chaqirtirib: “Garpag! Qizimning bolasini yo‘q qilishni buyurganimda sen uni qandlay qilib o‘ldirding?” – deb so‘rabdi. Cho‘ponning saroya olib kelinganidan xabar topgan Garpag yolg‘on so‘zlashni istamay, shohga qarab: “Hukmdorim! Men go‘dakni qo‘limga olgach, ko‘p o‘yladim. Bu begunoh bolaning qotiliga aylanib, sening va qizingning oldida gunohkor bo‘lib qolishni istamadim. Shuning uchun ham bir cho‘ponimni chaqirib, bolani uning qo‘liga tutqazdim-da, birorta kimsasiz joyga olib borib tashlab kelishni, toki bola o‘zi o‘lguniga qadar o‘sha yerda qoldirishni buyurdim. Agar buyrug‘imni bajarishdan bo‘yin tovlasa, uni shak-shubhasiz o‘lim jazosi kutajagini aytib qo‘rqtidim. Oradan bir-ikki kun o‘tgach, o‘zimning ishongan qullarimdan ikkitasini o‘sha toqqa jo‘natdim. Bola o‘lganligidan xabar topgach, o‘sha qullar ko‘magida uni dafn etdim”, – debdi.

Shundan keyin Astiag o‘z nevarasi Kirni saroyda olib qolibdi. Bir kuni u yana ta’birchilarini huzuriga chaqirib, o‘zining qachonlardir ko‘rgan tushi haqida so‘rabdi. Ta’birchilar: “Agar o‘sha bola o‘lmay, tirik qolgan bo‘lsa u baribir bir kunmas-bur kun podsho bo‘ladi”, – deyishibdi. Shunda Astiag: “Bola o‘lgan emas, bir uzoq qishloqda

cho‘ponning oilasida voyaga yetibdi. Qishloqning bolalari o‘yin chog‘ida uni o‘zlariga podsho etib saylabdilar. U o‘zini xuddi haqiqiy podsholardek tutib, tevaragida tansoqchilarni, a’yonlarni, ayg‘oqchijonsizlar hamda xizmatkorlarni yig‘ib, podsholik o‘yinini o‘ynabdi. Sizningcha bu nimani anglatadi?” – deb so‘rabdi. “Agar bola tirik bo‘lib, garchi o‘yinda bo‘lsa-da podsho etib saylangan bo‘lsa, qo‘rmasang iz ham bo‘laveradi. Chunki bir marta shohlikka saylangan kishi ikkinchi marta podsho bo‘lmaydi”, – deyishibdi ta’birchilar. Astiag: “To‘g‘ri aytasizlar, men ham shunday deb o‘ylayman. Bola o‘yinda podsho qilib saylanishi bilan tushimning ta’biri amalga oshdi. Endi undan cho‘chimasam ham bo‘laveradi”, – debdi. Shunda ta’birchilar har ehtimolga qarshi bu bolani ko‘zdan nariroq bo‘lsin uchun Eronga jo‘natib yuborishni maslahat beribdilar.

Shundan keyin Kirni Eronga jo‘natibdilar, u o‘zining ota-onasini topib, o‘sha yerda yashay boshlabdi. Oradan ko‘p yillar o‘tgach, bir jangda Krezni mag‘lub etgan Kir podsho bo‘libdi. Kir bolaligini emizib katta qilgan xotinining ismi “it” degan ma’noni bildirar ekan. Shuning uchun Mandananing g‘aroyib tug‘ilgan o‘g‘li haqidagi naql og‘izdan-og‘izga o‘tib, oqibatda Kirni it emizib katta qilgan, degan rivoyat keng ommalashib ketibdi”.¹

Kirning tug‘ilishi haqidagi rivoyatning Gerodot tomonidan naql qilingan bu namunasidagi tush motivi jahon xalqlari folklorining epik janrlari uchun an‘anaviy syujet elementdaridan biri hisoblanadi. Podsho Astiagning tush ko‘rishi va ana shu tush ta’biri kelgusida qahramonlik ko‘rsatadigan botir hukmdorning tug‘ilishidan bashorat beradi. Ayni shu motiv o‘zbek folklorida ham mavjud bo‘lib, uning o‘ziga xos talqini “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining Egamberdi Ollomurod o‘g‘li variantida uchratamiz. Dostonda tasvirlanishicha, bir kuni Shohdarxon uqlab yotgan yerida tush ko‘radi. Tushida bir qarchig‘ay kelib boshiga tepadi. Uyqusi ochilib, yuragiga hovul tushib, podsho uyg‘ona ketadi. Qur‘achilarga qur‘a tashlatadi, folchilarga fol ochtiradi, romchilarga rom ko‘rsatadi. Lekin tushining ta’birini hech kim topmolmaydi. Shunda podshoning odamlari uzoq joydagi tog‘da yashovchi bir kampirning zo‘r ta’birchi ekanligidan xabar topib, uni podshoning huzuriga olib keladilar. Podsho kecha yotib tush ko‘rganinini, tushida bir qarchig‘ay kelib boshimga tepganligini aytganida “momosi o‘rnidan turib,

¹ Геродот. История. В 9-ти кн. / Пер. Г.А.Стратановского. Т.2. – М.: ООО “Издательство ACT”, “Ладомир”. – 2001. – С.107-122.

podshoga tomon yurib, yoniga o‘tirib, tush ta’birini qur’ada ko‘rib, momo tirjayib qari yuzi bujmayib, bir kulib podshoga tushning ta’birini berib:

– Aylanay podshoyim, elingizda yaqinda bir sohibqiron paydo bo‘libdi. Uni askarlar chetdan olib kelibdi. Otini Ravshanxon deydi. Yovmit elidan bo‘lib, Buvraxon podshoning avlodidandir. To‘liboy deganning uli ekan. Ravshanxon yetti yoshda ekan. Qosimbek otli qobilaboshing Ravshanxонни ul qilaman deb ota-enasining uyidan pinhona o‘g‘irlab, uyiga olib kelibdi. Qobilaboshi etagiga solibdi, xotini yoqasidan tashlab, etagidan olibdi. Ikkalasi iskasam gulim, qafasda bulbulim, so‘rsam bolim, dedi. Ravshanxonga uch kokil qo‘ydi. Bir kokilga kumush, biriga tilla, biriga mushki anbar suvini berdi. Kuniga besh marta buzib, besh marta o‘rdi, birini oyday, birini kunday qilib orqasiga tushirib qo‘ydi. Kunduz sandiqqa solib, kechasi eshikni bekitib, tizzasiga olib o‘ynatib o‘tiradi. Ana shu Ravshanxon elingdan, aylanay, bir xotin oladi, undan bir o‘g‘il ko‘radi. Otini Go‘ro‘g‘li qo‘yadi. Mamlakatingni Go‘ro‘g‘li oladi. Hamma amaldorlaringni o‘z yo‘liga soladi. Tushingni ta’biri shul, – deydi”.¹

Ko‘rinadiki, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonidagi Shohdorxonning g‘aroyib tush ko‘rishi va bu tushida doxil bo‘lgan qarchig‘ay ta’birchilar tomonidan Ravshanxon bilan Hiloloydan tug‘ilajak farzand sifatida talqin qilinishi bilan bog‘liq voqealar mohiyatan Gerodot hikoya qilgan Kirning tug‘ilishi to‘g‘risidagi rivoyatga o‘xshab ketadi. Gerodotning yozishicha, podsho Astiag qizidan tug‘ilajak bola kelgusida sohibqiron bo‘lib, uning taxtini egallashi haqidagi bashoratni eshitgach, bolani yo‘q qilish payiga tushadi. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining Egamberdi Ollomurod o‘g‘li variantida ham ayni shu holatni ko‘ramiz. Shohdorxonning zulmiga chidayolmagan Ravshan ikkiyat xotini Hiloloyni tashlab, qaynag‘asi Gajdumbek bilan o‘zining yurtiga qochib ketganidan keyin bir kuni Shohdorxon podsho o‘zicha o‘ylaydi: “Men bir tush ko‘rdim, tushimning ta’birini jo‘latuvdim. Ravshan degan sohibqiron bor deb aytibidi. Elingdan bir xotin oladi. Undan bir ul paydo bo‘ladi. Otini Go‘ro‘g‘li qo‘yadi deb aytibidi. Aytgan so‘zining bari to‘g‘ri keldi. Katta-kichini jiysam, daryobotga borsam, ko‘p o‘tinni jiysam. Hilolni

¹ Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети хузуридаги Ўзбек тили ва адабиёти илмий-тадқиқот институти Фольклор архиви. Инв.№1461. “Гўрўғлиниг туғилиши” достони. Айтувчи: Эгамберди шоир Олломурод ўғли.

shu o‘tinning ustiga qo‘yib, tagidan olov bersam. O‘tga kuydirib, Hilolni yo‘q qilib yuborsam”.

Shunday qilib, Shohdorxon: “Hilolni yo‘q qilsak Go‘ro‘g‘li qaydan paydo bo‘lib, kaydan mening yurtimga podsho bo‘lar ekan?” deb, shu gapni o‘zicha ma’qul bilib, amaldorlarini jiyip, amaldorlari ham podshoning so‘ziga kirib, Hilolni kuydirib o‘ldirmoqqa maslahatni bir joyga qo‘yadilar”.¹

Kirning tug‘ilishi haqidagi qadimgi yunon manbaidagi rivoyatda podshom Astiag nevarasini o‘dirish haqidagi buyruqni o‘zining yaqin kishilaridan biri Garpag degan amaldoriga topshiradi. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining Egamberdi Ollomurod o‘g‘li variantida esa qahramonning tug‘ilishi va tarbiyalanishi bilan aloqador voqealar tafsilotida Rustambek obrazi ishtirok etadi. Rustambek Gajdumbekning og‘aynisi edi, Shohdorxonning Hiloloyni yo‘q qilish haqidagi maslahatida qatnashib, qanday qilib bo‘lsa-da, do‘stining singlisini bu falokatdan omon saqlab qolishni ko‘ngliga tugib qo‘ygan edi. Ammo Hiloloyning huzuriga borib, bu xavfdan ogoh etganida u qochib ketishga unamaydi. Rustambek noiloj ichiga qaytgandan keyin “Burqisarmas qalandar Hilolning oldiga keldi. Hilolning oldiga kelib, o‘ng tomonidan bilagidan ushladi. Rakasak degan kasalni Burqisarmas xudodan tiladi. Kasalni burnidan iskatdi, shunda Hilol o‘zidan ketdi. Odamzotning ikkita ruhi bo‘lar ekan. Bittasini ruhi gavhari, bittasini ruhi hayvoni der ekan, ruhi hayvoni chiqib ketdi. Hiloloy o‘zini bilmay qoldi. Hilolning ustiga joynamozni kafan qilib yopib, Burqisarmas qalandar dalaga chiqib ketdi”.

Ertasi kuni Hiloloydan xabar olish uchun kelgan Rustambek uning o‘lib yotganini ko‘radi va olib borib dafn etadi. Go‘rda Hiloloyning ko‘zi yorib, o‘g‘il farzand ko‘radi.

Gerodotning Kirning tug‘ilishi haqidagi rivoyatida Astiagning rahmdil cho‘pon tufayli omon qolgan nevarasi Mitradat oilasida o‘sib voyaga yetgani kabi Ravjanbek bilan Hiloloyning go‘rda tug‘ilgan farzandi Go‘ro‘g‘li ham Gajdumbekning og‘aynisi Rustamxonning xonadonida ulg‘ayadi. Asli hoqon surriyodidan bo‘lganligi uchun Kir o‘n yoshga to‘lganida bamisolai navqiron yigitlarday kuchli, baquvvat va aqli bo‘ladi. Egamberdi Ollomurod o‘g‘li ta’rificha, “Go‘ro‘g‘li sherni,

¹Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети хузуридаги Ўзбек тили ва адабиёти илмий-тадқиқот институти Фольклор архиви. Инв.№1461. “Гўрўғлиниг туғилиши” достони. Айтувчи: Эгамберди шоир Оллюмурод ўғли.

odamzotni ham yilqini emgan. Sherning kuchini olgan, shuning uchun Go‘ro‘g‘li kuchli bo‘lgan. Hamma tilga Go‘ro‘g‘li tushadi”.

Podshoning Haybat degan bir polvoni bor edi. Shu polvonning bitta uli bor edi. Otini Rahmon der edi. Qo‘ynida ko‘p oltin oshig‘i bor edi. Go‘ro‘g‘liminan Rahmon ovdarmoloq o‘ynadi. Bolalar bularni tomosha qildi. Go‘ro‘g‘lining oltindan soqqasi, kumushdan gangi bor. Go‘ro‘g‘li oltin soqqasini yerga qo‘ydi. Rahmonberdi g‘irrom o‘ynab utib olib qo‘ydi. Go‘ro‘g‘li Rahmonga: “Sen g‘irromlik qilding, oltin soqqamni ber”, dedi. Rahmon: “Men utib oldim, menda oltin soqqa ko‘p”, dedi. Go‘ro‘g‘li qahrlanib, Rahmonning ko‘kragiga minib, o‘ng qo‘lini sug‘urib oldi. Poychasidan ushlab osmonga otdi. Rahmonberdining jasadi shahardan chiqib ketdi”.

Xatirchilik Egamberdi Ollomurod o‘g‘lidan yozib olingan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida epik qahramon o‘yinda g‘irromlik qilgan bolaning qo‘lini sug‘urib olishi motivi Gerodotning “Tarix” asarida naql qilingan epik rivoyatda bolalar tomonidan podsho etib saylangan Kirning o‘z amriga bo‘ysunmagan (ya’ni o‘yinbuzuqilik qilgan) boyvachcha bolani qamchi bilan savalashi motiviga o‘xshab ketadi. Har ikki holatda ham bolaning jazolanishi o‘yin voqealari bilan bog‘lanib ketadi. Gerodotning hikoya qilishicha, bolasini bir cho‘ponning farzandi xo‘rlaganiga chiday olmagan Artembar podsho Astiagning huzuriga arzga boradi. Bu motiv “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida ham mavjud bo‘lib, o‘ziga xos tarzda bayon etilgan.

Doston talqinicha, podsho Shohdorxonning oldiga bolasi qamchilangan Haybat polvon emas, balki Murodim degan polvon arzga boradi. Chorsuda bolalar bilan o‘ynab yurgan Go‘ro‘g‘lining sin-sunbati, qilayotgan ishi, o‘zini tutishiga e’tibor qaratgan Murodim bu bolaning zotu surriyodini aniqlash uchun uni zimdan poyleydi. Keyin sekin Go‘ro‘g‘lining qoshiga borib, “qarchig‘ay kelbatli, burgut qoboqli, urush maydonida Rustam haybaytli sohibchangal o‘g‘lon, qaydin bo‘larsan?” deb saol bergenida bu odamning dushman ekanligini fahmlagan Go‘ro‘g‘li shunday javob qaytaradi:

Tarzimga qarasang, lodon bolaman,
Dushman kelsa men o‘chimni olaman,
Darbadarman, ota-ena ne qilsin,
Ota-enasi yo‘q yetim bo‘laman.
Men bilmayman avlodimni-zotimni,
Dushmanlardan men olaman o‘chimni,
Go‘ro‘g‘li deydilar mening o‘zimni, – deb javob beradi.

Ana shundan keyin bu bola haqiqatdan ham kelgusida sohibqiron bo'lajagini bilgan Murodim Shohdorxonning oldiga boradi-da: "Ey podshoyim, turqiga qaradim, hamma joyi tutash, o'zi sohibqiron, Rustam haybatli, burkit qoboqli, o'zi sohibchangal, changallasa tovni talqon qiladi. Har qanday odam ko'rsa undan hazar qiladi. Lekin qahrlansa shaharingni bir kechada vayron qiladi", – deb ta'riflaydi. Gerodotning "Tarix" kitobidagi Kirning tug'ilishi to'g'risidagi rivoyatda tug'ilajak bolaning sohibqiron bo'lishi va kelgusida yurtga podsholik qilishi tush ta'birlchlari tilidan bayon qilingani holda, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonining Egamberdi Ollomurod o'g'li variantida Go'ro'g'lining taxtga chiqishi haqidagi bashorat birinchi marta Shohdorxonning tushini yo'rgan Pattigul momo tilidan aytilda, ikkinchi marta uning xabarini yetkazish uchun kelgan Murodim polvon tomonidan aytildi.

Gerodotning hikoya qilishicha, Artebarning so'zlarini eshitib, oddiy cho'pon bolasining nechog'lik kuchli ekanligidan xabar topgan Astiag darhol bu bolani huzuriga olib keltiradi va uning yuz-ko'ziga qarab, qizining farzandi ekanligini bilib oladi.

"Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida esa podshoning o'zi bolani ko'rish uchun u o'ynayotgan joyga boradi. Murodim polvonning ta'rifidan keyin podsho Go'ro'g'lini o'z ko'zi bilan kurib-bilib olish uchun oddiy choponni kiyib: "Men ham ko'ray, qanday odam ekanini bilay", – deb, polvonni iyartib, o'zini tanitmay bolani axtarib yo'lga chiqadi. O'sha payt Go'ro'g'li eski shaharda chavki o'ynayotgan bo'ladi, Murodim ko'rsatganida podsho yaqinroq borib razm solib qarasa, qaddi-qomati ko'zi o'yib olingan Ravshan ko'rning xuddi o'zi. Shundan keyin Shohdorxon o'zining qachonlardir ko'rgan tushi yodiga tushib, Murodimga qarab: "Murodim, men bir tush ko'rganimda Pattigul degan kampir shu tushimni yo'rib, bir yigit keladi, elingdan xotin oladi. Undan bir ul tug'iladi, degan edi. Shu aytgani boylaganday keldi. Ravshan xotin oldi, o'zi Yovmitga qochib ketdi. Xotini joyida qop ketdi. O'lirmoqchi bo'lganimda bir oqshominan shu xotin yo'q bo'lib ketdi. Shu xotin o'lgan ekan, go'rga qo'yilgan ekan bu bola go'rda tug'ilgan ekan. Qarasam, o'zi sohibqiron ekan. Ravshanning ko'zini o'yib oluvdim. Rangi-ro'yini ko'ruvdim. Shu bolaning qoshi-ko'zi otasining o'zi. Endi besh yuzta yasovulni qo'yaylik. Shu bolani tutaylik. Shu bola go'rda tuvilsa go'rga kiradi, qaerda ushlasak bir shekilli qilaylik", – deydi. Gerodotning Kirning tug'ilishi to'g'risidagi rivoyatida ham Mitridat cho'pon tomonidan tarbiyalangan bola o'z qizining farzandi ekanligini bilgan Astiag bir vaqtlar ko'rgan tushini eslaydi va uni

yo‘rgan ta’birchilarni huzuriga qaytadan chaqirtiradi. Har ikki holatda tushdagi bashoratning eslanishi bilan bog‘liq epik motiv mavjudligi ushbu syujetlarning tarixiy-genetik jihatdan yaqinligini anglatadi.

Epik qahramonning o‘z tug‘ilgan joyini tark etib, ota yurtiga ketishi motivining talqini ham har ikki epik syujetda mushtaraklik kasb etadi. Gerodotning asarida keltirilgan rivoyatda bayon etilishicha, ta’birchilarining maslahatiga kirgan Astiag qizining bolasini o‘zining ko‘zidan yiroq qilish maqsadida uni Eronga jo‘natib yuboradi. Shu tariqa, Kir Eronga borib, o‘zining ota-onasi bilan topishadi. Egamberdi Ollomurod o‘g‘lining “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida esa Shohdorxon podshoning zulmidan qochgan epik qahramon ko‘lda baytalini boqib turganida enasi tushiga kiradi-da, “yetti yoshingga kirganingda Taka-yovmit elingga bor. U yerda Ravshan ko‘r otang bor, Gajdimbek tog‘ang bor, izlaysan. Agar izlamasang sutimga rozi emasman”, deydi. Ana shundan keyin Go‘ro‘g‘li Rustambek tog‘asi bilan xushlashib-rozilashib, Taka-yovmit eliga keladi va otasi bilan topishadi.

Yuqorida keltirilgan qiyosiy-tarixiy tahlillar shundan dalolat beradiki, sak va massaget qabilalari orasida ancha rivojlangan epik an’ana mavjud bo‘lib, uning ijodkorlari va ijrochilari o‘sha davr voqeligini aks ettiruvchi tarixiy-qahramonlik qo‘shiqlari, bahodirlik ertaklari, epik rivoyatlar hamda arxaik epos namunalarini ijro etishgan. Ularning repertuaridagi epik asarlar o‘zining syujet qurilishi va mazmuniga ko‘ra qahramonlik-jangnoma xarakteriga ega bo‘lib, asosan, ona yurtini chet el bosqinchilaridan mardonavor himoya qilgan vatanparvar sardorlarning qahramonliklari va jangu jadallarda ko‘rsatgan mislsiz jasoratlarini tasvirlashga bag‘ishlangan, deb taxmin qilish mumkin. Ikki yarim ming yillik tarix davomida O‘rta Osiyo hududida yashovchi etnoslar o‘zining tili, madaniyati va an’analalarini muttasil o‘zgartirib, o‘zbek xalqining shakllanishi jarayonidagi g‘oyat murakkab etnogenetik jarayonlarni boshidan kechirganligi tufayli sak-massaget epik an’analari bilan hozirgi o‘zbek baxshilari ijodiyoti o‘rtasida bevosita aloqadorlik saqlanganligini isbotlash qiyin, albatta. Lekin xalq dostonchiligining yaratilishi, taraqqiyoti va rivojlanishini ta’minlaydigan eng muhim omillardan biri – epik bilim va epik xotiraning shakllanishida qadimgi epik an’alar, xususan, sak-massaget arxaik eposi ham muhim rol o‘ynaganligiga shubha yo‘q. Gerodotning “Tarix” asarida keltirilgan Kirning tug‘ilishi va bolaligi to‘g‘risidagi rivoyat bilan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining Egamberdi Ollomurod o‘g‘li variantining syujeti orasidagi struktural-semantik

mushtaraklik, motivlar tizimining o‘xshashligi epos namunasining yuzaga kelishiga asos bo‘lgan prosyujet sak-massagetlar folklorida shakllangan, deb xulosa chiqarishga asos beradi.

“TO‘MARIS” RIVOYATI VA UNING EPIK TALQINLARI

Qadimgi sak-massaget eposining qahramonlik xarakteriga ega bo‘lganligini namoyish etuvchi eng muhim manbalardan biri yunon manbalarida naql qilingan “To‘maris” rivoyati hisoblanadi.

Turkiy va o‘zbek folklorshunosligida “To‘maris” rivoyatining o‘ziga xos xususiyatlari, yuzaga kelish manbalari, uning syujet qurilishidagi asosiy motivlar va personajlar, To‘maris obrazining mohiyati haqida turli-tuman mulohazalar, ilmiy qarashlar bildirilgan.

“O‘zbek adabiyoti tarixi” besh jildligening 1977 yilda chop etilgan 1-jildida ushbu rivoyatning qisqacha matni “To‘maris qissasi” nomi ostida berilgan. Bu tadqiqotda ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi olib borgan mardonavor kurashi aks ettirilgan ushbu asarning tub mohiyati xususida bildirilgan quyidagi mulohaza asosli ilmiy qarash ilgari surilgan: “To‘maris rahbarligida massagetlarning bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashi va g‘alabasi, bu xalqning, ayniqsa, uning boshlig‘i To‘marisning olib borgan siyosati va mardligi qadimgi O‘rta Osiyo ayollari qahramonligini sharaflaydi. Qissada To‘maris o‘z yurti va xalqining osoyishta va baxtiyor yashasha uchun g‘amxo‘rlik qiluvchi odila va oqila hukmron sifatida namoyon bo‘ladi...Bu afsona yovuzlik va bosqinchilikka qarshi ezgulik va osoyishtalik tantanasini kuylovchi ijod namunasidir”.¹ Garchi ushbu iqtibosda To‘maris to‘g‘risidagi qadimiylar asarining janr mansubiyati bir o‘rinda “qissa”, boshqa joyda “afsona” deb har xil talkin qilingan (aslida u rivoyat hisoblanadi) bo‘lishiga qaramay, muallifning mazkur ko‘hna epik asar mohiyatiga doir qarashlari tarixiy epos tabiatini o‘rganishda muayyan ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Filologiya fanlari doktori, professor U.Jumanazarovning yozishicha, “Qadimgi massagetlar hukmdori beva To‘marisning tarixiy shaxs bo‘lganligi, uning massaget qabilalarining erki va ozodligi yo‘lida olib borgan kurashlari uzoq tarixda yuz bergenligi hech kimni shubhaga solmaydi. O‘z tarixida yuz bergen ulkan tarixiy voqealarni afsona va rivoyatlar shaklida ajdod va avlodlar xotirasida mustahkamlaganligi bois ijodkor xalq keyinchalik bunday voqealar haqida ham Oysuluv, To‘rabek xonim kabi afsonalarni yaratgan”.²

¹ Ўзбек адабиёти тарихи / беш томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1977. – Б.48-49.

² Жуманазаров У. Халқ тарихи сахифаларини вараклагандага (адабий-бадиий бадиҳалар). – Жиззах, 2006. – Б.21.

Olim bu o‘rinda To‘maris haqidagi qadimiy rivoyat syujetining epik rivoji bilan bog‘liq g‘oyat muhim bir nuqta – Xorazm vohasida keng tarqalgan To‘rabekxonim haqidagi afsona va rivoyatlarning yuzaga kelishi massaget eposiga aloqadorligi masalasiga e’tiborni qaratadi. Binobarin, “To‘maris” va “To‘rabekxonim” rivoyatlarida tasvirlangan voqelik hamda har ikkala folklor asari syujeti bir qator mushtarak jihatlarga egaligini etnograf olima L.S.Tolstova ham qayd etib o‘tgan edi. Amazonkalar va matriarxal tuzum bilan bog‘liq motivlarning Orolbo‘yi xalqlari folkloridagi talqinlari masalasiga to‘xtalib o‘tgan olima Xorazm vohasi o‘zbeklarining qachonlardir bu hududda hukmronlik qilgan jasur ayollar to‘g‘risidagi afsonalarida Gerodot “Tarix”ida keltirilgan To‘maris to‘g‘risidagi rivoyatning aks sadosi mavjud, degan xulosaga keladi.¹

Sak-massaget qabilalari eposining reliktlari O‘rta Osiyo hududida istiqomat qilgan ko‘pgina xalqlar va elatlarning folklor an’analari rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatganligiga ilmiy adabiyotlarda ko‘plab dalillar mavjud. Xususan, osetin tili va folklorining tadqiqotchisi V.I.Abaev qadimgi skiflar folklorining epik transformatsiyasi haqida fikr yuritar ekan, shunday yozadi: “Osetin xalq qahramonlik eposining yetakchi personajlaridan biri Satani obrazining genezisini aniqlash nartshunoslikning asosiy masalalaridan sanaladi. Bunday g‘aroyib obraz faqatgina ijtimoiy hayotda ayollarning roli ustuvorlik qilgan jamiyat og‘zaki ijodidagina yuzaga kelishi mumkin. Shunda beixtiyor skif (sak, massaget) eposida tasvirlangan ayollar obrazi yodga tushadi: yengilmas Kirga qaqshatgich zarba bergen jasur To‘maris (Gerodot), Amagi (Polien), Zarina (Ktesiy). Shuningdek, qadimgi dunyo muarrixlari asarlaridagi “ayollar hukmronlik qiladigan” sarmat qabilalari to‘g‘risidagi qaydnomalarni ham eslaymiz. Bu kabi boshqa parallelliklar va qiyosiy tahlillar asosida shuni ishonch bilan ta’kidlash mumkinki, osetin xalq qahramonlik dostonining tarixiy asoslari sarmat va skif (sak, massaget) eposiga borib taqaladi, binobarin, osetin epik kuychilari ana shu qadimgi qavmlarning epik an’analarini izchil davom ettirib kelishmoqda”.²

Bugungi kunda Kavkazda istiqomat qiluvchi osetinlarning qadim ajdodlari – os va alanlar bir zamonlar O‘rta Osiyoda, aniqrog‘i, Xorazm vohasi va Amudaryo bo‘ylarida istiqomat qilganligini, Abu Rayhon

¹ Толстова Л.С. Исторические предания Южного Приаралья. – М.: Наука, 1984. – С.203.

² Абаев В.И. Скифо-европейские изоглоссы. – М.: Наука, 1965. – С.84.

Beruniyning Amudaryo suvining kamayishi natijasida Uzboy sohillarida yashagan os va alan urug‘i vakillari Hazar (ya’ni Kaspiy) degizi ortiga ko‘chib o‘tganligi, bu qavmlarnig tili xorazm va bijnoq (qipchoq) tilining aralashmasidan iborat bo‘lganligi to‘g‘risidagi dalillarga suyanadigan bo‘lsak, osetin qahramonlik eposida qadimgi sak-massagetlar folklori epik syujetlari va motivlari saqlanib qolganligini tarixiy-vorisiy aloqador mahsuli deb baholash mumkin bo‘ladi.

Darhaqiqat, O‘rtta Osiyo xalqlari, xususan, uzbek, qoraqalpoq va turkman xalqlari epik ijodiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan “To‘maris” rivoyati qadimgi sak-massaget eposining eng yorqin namunalaridan biri bo‘lib, uning mazmuni Gerodotning “Tarix” asarida hikoya qilingan.

“Eron shohi Kir sharqdagi ko‘pgina mamlakatlarni bosib olgach, massagetlar yurtini ham o‘ziga bo‘ysundirishni o‘yladi. Massagetlar jasur qavmlardan hisoblanib, ular ko‘p sonli edilar. Ular Sharqda, Araks daryosining orqasida, kun chiqar tomonda, issedonlarga yonma-yon yashar edilar. Ular skiflarga mansub qavm edi. Araks katta daryodir. Ayrimlar uni kichik deb hisoblaydilar. Araksda hajm jihatidan Egiy dengizidagi orol – Lesbos bilan tenglashadigan bir necha orollar ham mavjud. Bu orollarda yashaydigan odamlar yoz oylarida yerdan turli xil tomirlarni kovlab olishadi va qaynatib ichishadi. Daraxtlardan pishgan mevalarni terishadi va ularni saqlab qo‘yishadi. Bu yerda yana boshqa bir mevali daraxt ham bo‘ladi. U mevaning alohida navi hisoblanadi. Massagetlar bu joyga to‘planishib, gulkhan yoqishadi, atrofiga o‘tirishadi, bu mevalarni olovga tashlashadi. Gulxanda yonayotgan meva ajoyib hid taratadi va u odamlarni sarxush etadi. Massagetlar mevani gulxanga qanchalik ko‘p tashlashsa, kayflari shunchalik oshadi. Mast bo‘lishsa-da, o‘rinlaridan turib ketishmaydi, aksincha, raqsiga tushadilar va qo‘sinqaytadilar. Bu massagetrarning o‘ziga xos turmush tarzidir.

Araks egri-bugri oqadigan daryo, qirq irmoqdan hosil bo‘ladi. Irmoqlarning bittasidan boshqa hammasi botqoqliklar tomon oqadi va singishib ketadi. Aytishlaricha, bu botqoqliklar atrofida baliqlarni xom yeydigan va tyulenlarning terisini kiyim qilib kiyadigan odamlar yashashadi. Ayrim qarashlarga qaraganda, massagetrarning nomi forsiy tildagi “masya” – baliq so‘zidan olingan, shu sababli “baliq ovlovchilar”, “baliqxo‘rlar” ma’nosini berishi mumkin. Faqat Araksning bitta ochiq irmog‘i Kaspiy dengiziga quyiladi.

Shunday qilib, Kaspiy dengizini g‘arbdan Kavkaz tog‘lari, sharqdan, kunchiqar tomondan esa ko‘z ilg‘amas cheksiz tekisliklar chegaralab turadi. Bu kengliklarning katta qismida Kir bosib olishni

orzu etgan massagaetlar yashaydilar. Kirni harbiy yurishga majbur etadigan bir necha sabablar bor edi. Eng avvalo, uning tug‘ma xususiyati, o‘zini barcha odamlardan ustun chog‘lashi bo‘lsa, so‘ngra – omadi, barcha janglarda g‘oliblikni qo‘lga kiritgani edi. Kir hujum qilgan hech bir qavm uning yovuz changalidan qochib qutula olmagan edi.

Massagetlar malikasi marhum shohning xotini edi. Uni To‘maris deb atashardi. Kir uni xotinlikka olish taklifi bilan elchilar yubordi. Lekin To‘maris Kirning uylanishdan maqsadi massagetlar yurtiga ham hukmronlik qilish ekanligini tushundi, shu sababli unga rad javobini berdi. Kir o‘z maqsadiga hiyla yo‘li bilan erisha olmagach, massagetlar mamlakatiga ochiqchasiga hujum qilishga kirishdi. Arak daryosidan suzib o‘tish uchun yog‘och-ko‘priklar qurishga buyruq berdi. Kirning qo‘sishnlari ko‘prik qurayotganligini sezgan To‘maris Eron shohiga elchi orqali quyidagi mazmundagi xatni jo‘natdi.

– Ey, Eron shohi! G‘arazli maqsadingdan voz kech. Bu ko‘priklarni qurish senga yaxshilik keltiradimi yoki yo‘qmi, sen buni hali oldindan bilmaysan. Shu sababli bu ishingni to‘xtat-da, o‘z mamlakatingga shohlik qilaver, biz ham mamlakatimizni o‘zimiz idora etishimizga hasading kelmasin. Albatta, sen bu maslahatga amal qilishni xohlamaysan. Sen tinchlikni saqlash emas, balki qanday bo‘lmisin, urushni afzal ko‘rasan. Agar sen massagetlarga hujum qilishni zo‘r havas bilan xohlayotgan bo‘lsang, u holda ko‘prik qurish ishlarini to‘xtat. Qo‘siningni xotirjamlik va bexavotirlik bilan bizning mamlakatimizga olib o‘t, biz daryodan mamlakat ichkarisiga uch kunlik yo‘l yurib, chekinamiz. Agar sen bizni o‘z yeringga kiritishni istasang, bu haqda ham xabar qilki, bunga ham rozimiz.

To‘maris halol jang orqali o‘z vatanini himoya qilajaligini bildirganidan so‘ng Kir o‘zining yaqinlari va amaldorlarini huzuriga kengashish uchun chaqirdi. Voqeani tushuntirdi va bu haqda ularning fikrini so‘radi. Kengashga qatnashganlar bir ovozdan To‘maris o‘z qo‘sini bilan aytgan yeriga chekinishini ma’qulladilar. Lekin kengashda qatnashayotgan lidiy qavmiga mansub Krez ularning fikrini inkor etdi.

– Ey shohim! Men ancha yillar (Zevs sening qo‘lingni menga tutqazgan)dan beri sening xonadoningga yog‘iladigan ko‘plab falokat va yovuzliklardan xabar berib kelmoqdaman. Mening maslahatlarim ko‘pgina og‘ir musibatlarni ham daf etishga xizmat qildi. Agar sen o‘zingni boqiy yashayman, qo‘singa abadiy boshliq bo‘laman deb

o‘ylasang, u holda mening fikrim sen uchun foydasizdir. Agar sen o‘zingni faqir inson, faqat o‘limga tik boqadigan odamlar ustidan hukmron shoh ekanligingni tan olsang, u holda, eng avvalo, shuni yodingda tut: inson faoliyati hamisha o‘zgarib turadi, inson doimo baxtli bo‘lishi uchun yo‘l yo‘qdir. Hozirgi masala yuzasidan men amaldorlaringning maslahatiga qarshiman, boshqacha fikrdaman. Agar dushmanga o‘z yerimizga o‘tishiga yo‘l qo‘ysang, unda dahshatli xavf tug‘iladi: mag‘lubiyatga uchrasang, o‘z mamlakatingni ham nobud qilasan. Chunki massagetlar sening ustingdan g‘alaba qozonishsa, albatta, mamlakatlari tomon chopmaydilar, aksincha, sening taxtingni egallah uchun bostirib keladilar. Agar g‘alaba sen tomonda bo‘lganida ham, o‘ylanmanki, bu unchalik sharafli ish emas. Agar massagetlarni o‘z tuprog‘ida yengsang, ularni dadil ta’qib qila boshlaysan. Sening va ularning ustunlik tomonlarini taqqoslashga ruxsat ber. Dushmanni parchalasang, hech to‘siksiz To‘maris ning taxti tomon bostirib borasan. Agar massagetlar o‘z mamlakatingga kirishlari uchun ruxsat bersang-u mag‘lub bo‘lsang, ayol kishiga bo‘ysunish Kir va uning o‘g‘li Kambis uchun uyat va chidab bo‘lmas haqorat hisoblanadi. Menimcha, daryodan o‘tish va mamlakat ichkarisiga kirish, dushman qancha joyga chekinsa, uni shu yerda tor-mor etish kerak. Anglashimcha, massagetlar forslarning hashamatli turmush tarzidan mutlaqo bexabar, ularning nozne’matlari beradigan rohat-farog‘atni bilishmaydi. Shu sababli qarorgohingda massagetlar sharafiga dabdabali ziyofat uyuştiraylik. Ko‘plab qo‘ylarni so‘yaylik, katta idishlarda sharoblarni va har xil taomlarni mo‘l-ko‘l qo‘yaylik. Bu ishlarning hammasini tayyorlab bo‘lganidan so‘ng qo‘shiningning yaroqsiz qismini qarorgohda qoldirib, o‘zimiz yana ko‘prik tomon qaytaylik. Agar adashmasam, dushmanlar mo‘l-ko‘l taomlarni ko‘rib, unga tashlanadilar va bizga ulug‘ g‘alabani yakunlash uchun imkoniyat tug‘iladi.

Maslahatchilar kengashi tarqaldi. Kir birinchi fikridan qaytdi va Krezning maslahatini qabul qildi. U To‘marisdan chekinishni so‘radi. To‘maris o‘z va‘dasiga binoan uch kunlik masofaga chekindi. Kir o‘g‘li Kambisni o‘ziga merosxo‘r deb tayinladi va uni Krezga ishonib topshirdi. Agar massagetlar mamlakatida mag‘lubiyatga uchrasa, o‘g‘li Krezning maslahati va homiyligida davlatni boshqarishini uqtirdi. Kir shunday topshiriqlar bilan Kambis va Krezni Eronga jo‘natdi, o‘zi esa qo‘shini bilan massagetlar mamlakati tomon yurdi.

Kir Arak daryosidan massagetlar yurtiga o‘tgan kechasi qo‘rqinchli tush ko‘rdi. Tushida Gishtaspning katta o‘g‘lining yelkasida ikki qanoti

bor emish. Qanotlaridan biri Osiyoga, ikkinchisi Yevropaga soya solib turganmish. Gishtasp ahmoniyalar sulolasidan bo‘lgan Arsamning o‘g‘li edi. Gishtaspning katta o‘g‘li Doro edi. Kir massagetlar yurtiga qo‘shin tortgan vaqtida Doro yigirma yoshda edi. Harbiy xizmatga yoshi yetmaganligi uchun Eronda qoldirilgan edi.

Kir uyqudan turar ekan, ko‘rgan tushining ma’nosini chaqa boshladi, chunki shoh bu tushni katta ahamiyatga molik deb hisobladi, u tezda yoniga Gishtaspni chaqirdi va xilvatda unga shunday dedi:

– Gishtasp sening o‘g‘ling Doro menga va davlatimga qarshi fitna uyushtirmoqda. Bu fitna rostligini aniq bilib turibman. Chunki tangri menga dahshatli ko‘rguliklarni oldindan ma’lum qiladi. Kechasi men o‘g‘ling Doroni tush ko‘rdim. Uning yelkasida ikki qanoti bor emish. Ulardan biri Osiyoga, ikkinchisi Yevropaga soya tashlab turibdi. Ko‘rgan tushimdan shu narsa mutlaq rostligiga ishonamanki, o‘g‘ling mening hayotimga suiqasd uyushtirmoqchi. Shu sababli Eronga tezda jo‘na va o‘g‘lingni mening huzurimga qilgan jinoyatlari uchun javob berishga olib kel. Shundan so‘nggina men bu mamlakatni zabit etaman va o‘z yurtimga g‘alaba bilan qaytaman.

Kir Doro unga nisbatan yovuz niyatini amalga oshirayapti deb o‘ylagan edi. Ammo u tangri bu tush bilan boshqacha xohish bildirganligini anglamadi. Tushning ta’biri Kir massagetlar yurtida o‘lishi, uning taxi Doro qo‘liga o‘tishi bilan izohlanardi.

Gishtasp Kirga shunday javob berdi:

– Ey, shoh! Sening hayotingga suiqasd uyushtiradiganlar hali forslar o‘rtasida tug‘ilmagan. Agar shundaylar bo‘lsa, aminmanki, ular tez orada halok bo‘ladilar. Axir, sen forslarni qullikdan ozod etding. Hukmronligingdagi barcha xalqlarning soliqlarini bekor qilding. Agar mening o‘g‘lim senga qarshi tushingda isyon ko‘tarayotganligi ayon bo‘lgan ekan, men uni sening qo‘lingga topshiraman, qanday jazoga tortish sening ixtiyoringga.

Shundan so‘ng Gishtasp o‘g‘lini tutish uchun Araksdan o‘tib, Eronga qaytdi. Eron shohi Kir Krezning maslahatini bajarishga kirishdi. Kuchsiz jangchilarini qarorgohida qoldirib, o‘zi esa qo‘shinning sara qismi bilan orqaga chekindi. Massagetlarning qo‘shini Kir qoldirgan askarlari bilan jangga kirishdi va ularni mag‘lubiyatga uchratdi. Massagetlar g‘alabadan keyin forslarning qarorgohini egallar ekan, bu yerdagi noz-ne’matlarni ko‘rib, aysh-ishrat qilishga kirishdilar. Jangchilar sharoblardan to‘yanicha ichishib, mast bo‘lishib, uyquga ketishdi. Voqeа shunday tugashini kutib turgan fors jangchilarining

asosiy qismi yetib keldi, massagetrarning katta qismini o‘ldirdi va asirga oldi. Asirga olinganlar orasida malika To‘marisning o‘g‘li, massagetrar lashkarboshisi Sparganis ham bor edi.

Malika To‘marisga o‘z qo‘smini va o‘g‘lining taqdiri haqidagi xabar yetib keldi. Malika Kirga elchi yuborib, o‘z munosabatini bildirdi:

– Qonxo‘r Kir! Sen bu jasorating bilan faxrlanma. Uzumning suvi sening aqlining ham yo‘qotadi. Sharob ichganingda sen ham yaramas gaplarni aytib, sayray boshlaysan. Demakki, sen mening o‘g‘limni odil jangda qurol kuchi bilan emas, zahar makri bilan yengding. Endi mening yaxshi maslahatimni eshit: o‘g‘limni qaytarib ber-da, xushu xushvaqt mening yurtimdan chiqib ket. Ketmasang, massagetrarning jasur askarlari seni sharmandalarcha halok qiladi. Agar sen bunga ko‘nmasang, massagetrar tangrisi Quyosh nomi bilan qasam ichamanki, men sen mechkayni qonga to‘ydiraman.

Kir To‘marisning elchi orqali bildirgan so‘zlariga hech bir ahamiyat bermadi. Malikaning o‘g‘li Sparganis esa kayfi tarqalgach, musibatli ahvolni tushundi. Kirdan kishanni yechishni so‘radi. Faqat shahzodani ozod qildilar, lekin Sparganis oriyati kuchlilik qilib, o‘zini o‘zi o‘ldirdi.

To‘maris Eron shohi uning maslahatini e’tiborga olmaganini eshitib, hamma qo‘sminini to‘pladi va Kirga qarshi hujum boshladi. Bu jang vahshiy odamlar o‘rtasida bo‘ladigan urushlarning ham eng dahshatlisi edi.

Dastlab ular bir-birlariga kamondan o‘q uzdilar. O‘qlar tugagach, xanjar va nayza bilan tashlanishdi. Jang uzoq davom etdi, muxoliflarning hech biri chekinishni xohlamas edi. Nihoyat, massagetrar g‘alaba qozonishdi. Barcha forsiy askarlar jang maydonida jon berdi. Kir ham halok bo‘ldi. Uning shohligi yigirma to‘qqiz yil davom etdi. To‘maris sharob solinadigan meshni odam qoni bilan to‘ldirdi va so‘ngra forsiylarning uyulib yotgan jasadlari orasidan Kirning jonsiz tanasini izlab topdi. Malika uning boshini meshga soldi, so‘ngra marhumming ustidan masxaromuz tarzda hukm qildi:

– Men seni jangdaadolat bilan yengib, sog‘-omon qolgan bo‘lsanda, baribir sen meni halok qilding, g‘am-g‘ussaga botirding, chunki sen mening o‘g‘limni hiyla bilan asir olding. Shu sababli men endi seni qonga botiraman”.¹

¹ Геродот. История. В 9-ти кн. / Пер. Г.А.Стратановского. Т.2. – М.: ООО “Издательство АСТ”, “Ладомир”. – 2001. – С.108-113.

Ko‘plab mutaxassislar Gerodot tomonidan mazmuni keltirilgan bu rivoyat aslida sak va massagetlar orasida qahramonlik eposi sifatida ommalashgan yirik asarlardan biri bo‘lganligini e’tirof etadilar. Xususan, folklorshunos olim M.Qo‘shmoqov to‘g‘ri qayd etganidek, “Gerodot “Tarix”ida qahramonlik eposining toji – alp xotin xarakteri balqi turadi”.¹

Gerodotning “Tarix” asari tufayli bizgacha yetib kelgan sak-massaget folklori namunasi hisoblan mish “To‘maris” rivoyatining zaminini xalq og‘zaki badiiy ijodiyotida ekanligini tasdiqlaydigan bir necha dalillarni keltirish mumkin. Shulardan birinchisi, “Tarix”da keltirilgan rivoyat matnida an’anaviy epik syujetlar strukturasiga xos quyidagi motivlar mavjudligidir:

- 1) Eron shohi massagetlar malikasi To‘marisning beqiyos husni-jamoli haqidagi ta’rifni eshitgach, unga sovchi yuborishi;
- 2) Dushman hukmdori o‘z maqsadiga erishishi uchun ayyor, mastonlardan foydalanishi;
- 3) Podsho Kirning tush ko‘rishi va tushida uning kelgusi taqdiri bashorat qilinishi;
- 4) To‘marisning o‘g‘li Sporganisning aldov yo‘li bilan qo‘lga tushishi va uning Eronga olib ketilishi;
- 5) Massagetlar malikasi bilan Kir qo‘gshini o‘rtasida jang;
- 6) Dushman yurt sarkardasini mag‘lub etilishi.

Sak-massaget qabilalarining tashqi dushmanlarga qarshi el-yurt ozodligi va vatan daxlsizxligi yo‘lida olib borgan mardonavor kurashi bilan bog‘liq real tarixiy voqeа-hodisalarning epik talqini natijasida yuzaga kelgan “To‘maris” dostoni qahramonlik eposi sifatida kuylangan. Unda tasvirlangan epik voqelikning markazida ona diyorining mustaqilligini har narsadan, hatto o‘zining jonidan ham ustun ko‘radigan mard, tanti va ayni paytda g‘oyatda jasur alp ayol To‘maris obrazi turadi. Sak-massagetlar orasida keng shuhrat qozongan ushbu asarda tasvirlangan voqeа-hodisalar aslida real tarixiy asoslarga ega ekanligiga shubha yo‘q. O‘z elini dushmanidan mardlarcha himoya qilgan To‘marisning mislsiz jasorati haqida dastlab tarixiy qo‘shiqlar yuzaga kelgan. Bunday qo‘shiqlarda el-yurt xaloskori va himoyachisi sifatida nom qozongan To‘marisning mardligi, bahodirligi va vatanparvarligini tarannum etilgan. Keyinchalik ana shu xildagi xilma-

¹ Кўшмоқов М. Чечанликда сўзга сувдайин оқиб.. (адабий-танқидий маколалар ва эссе). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – Б.132.

xil tarixiy qo'shiqlarning keng epik planda kuylanishi natijasida sak-massaget baxshilari repertuarida "To'maris" eposi yaratilgan bo'lishi kerak. Ehtimol Gerodotning axborotchilaridan biri ana shu mashhur xalq eposining mazmunini eshitgan va uni muarrixga hikoya qilib bergen bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. "To'maris" (Tomir, Tmar, Tomiris, Tamiramida) nomi sitsiliyalik Diodor, Polien, Strabon, Elian kabi mualliflarning asarlarida ham uchrashi sak-massaget eposining syujeti ancha keng tarqalganligi va antik davrning ko'plab mualliflarga ma'lum bo'lganligidan dalolat beradi.

To'maris haqidagi sak-massaget eposi syujetining ayrim motivlari o'zbek xalq dostonlari syujet strukturasida ham uchraydi. Masalan, To'marisning o'g'li Sparganisning dushman lashkarining hiylasi oqibatida asir tushib qolishi motivini olaylik. Gerodot tomonidan naql qilingan rivoyatga ko'ra, podsho Kir o'zining yaqinlari maslahatiga binoan daryodan o'tgach, o'z qo'shinining ozroq qismini turfa nozu ne'matlar bilan bezatilgan dasturxon yonida qoldirib, asosiy lashkarini sal naroqda pistirmaga yashirib qo'yadi. Bundan bexabar massagetlar Eron qo'shinini osongina mag'lub etgach, dasturxon dagi nozu ne'matlar, shu jumladan, sharobdan ham bahramand bo'lib, mast bo'lib qoladilar. Natijada Kirning pistirmadagi lashkari hujumiga dosh berolmaydilar, Sporganis esa asir tushadi.

Mastlik yoki makkor, ayyor kishilarning dushmanligi oqibatida dushman qo'liga tushish motivi "Alpomish", "Yusuf bilan Ahmad" kabi dostonlarda ham uchraydi. Muhammadqul Jonmurod o'g'li Po'lkanning "Yusuf bilan Ahmad" dostonida tasvirlanishicha, Misr podshohi Go'zalshoh tomonidan yuborilgan ayyor Mirza Mahmud bemahalda ovga chiqqan Yusuf bilan Ahmadni qo'lga makkorlik bilan qo'lga tushirib, o'z yurtiga haydab olib ketadi:

"Tomoshaylang Mirza Mahmud ishiga,
Ayon edi Asaljonning tushiga.
Ko'kcha bilan polvonlari yugurib,
Yaqinlashdi ikki bekning qoshiga.
Mirza Mahmud bejoy ayyor ekandi,
Savdo soldi ikki bekning boshiga.

Ana, Mirza Mahmud, Ko'kcha g'animing menman degan zo'r qirq polvonlari bilan kelib, uyquda yotganda boylab oldi. Qo'lini tirsagining balandidan boylab, behisob qamchilarni badaniga urdi. Ikki bek shunday

ko‘zini ochsa, qo‘li boylovlı, yuragi dog‘lovli, o‘ngmi-so‘l qilib hayday berdi”.¹

Xalq eposi uchun tipologik hodisa hisoblangan an'anaviy syujet elementlaridan yana biri epiк qahramonning tush ko‘rishi motividir. Gerodotning naql qilishicha, massagetlar mamalkatiga yurish qilishdan avval Kirning tushiga ahmoniyalar sulolasiga mansub bo‘lgan Arsamning surriyodi Gishtaspning katta o‘g‘li kiradi. U yelkasidagi ikki qanotini silkitib uchib borar, qanotlaridan biri Osiyoga, ikkinchisi esa Yevropaga soya solib turganmish. Bu tush Gishtaspning o‘g‘li Doro kelajakda Kirning taxtini egallashiga ishora ekanligini bilgan hukmdor darhol bu bolani yo‘q qilishni buyuradi. Kirning amriga bo‘ysunishdan o‘zga chorasi qolmagan Gishtasp bolani izlab ortig‘a qaytib ketadi.

“Yusuf bilan Ahmad” dostonining Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan variantida tasvirlanishicha, kunlardan bir kuni Misrning podshosi Go‘zalshoh yotib tush ko‘radi, tushida ko‘p yomon ish ko‘radi. Misr shahri taloto‘p bo‘ladi. Odamlarning og‘zi angrayib qoladi, burni tangrayib qoladi. Chang chiqqan joyga qarab, yov shu-da, deb shangrayib qoladi. Go‘zalshoh podsho qurandozlarini, hukamolarini, munajjimlarini, romchilarini, tamizchilarini, har narsani biladigan odamlarini chaqirib, bir so‘z aytidi:

Xaloyiqlar, uxlab o‘zim tush ko‘rdim,
Men tushimda ko‘p qabohat ish ko‘rdim.
Tushi qursin, ta’birlari ko‘p yomon,
Elimda davr olgan tuyg‘un qush ko‘rdim,
Tushi qursin, ta’birlari ne bo‘ldi?

Ikki yo‘lbars Misr eliga keldilar,
Kelib turib menga tiklab turdilar,
Birovi o‘zima og‘iz soldilar,
Tirnog‘iman urgan yo‘lbars kim bo‘ldi?

Vahshat qip ik yo‘lbars elima yetdi,
Hovlilarim buzib, osmonga otdi.
Elimdan bir chinor ko‘karib ketdi,
Shoxlari ko‘m-ko‘k bo‘p osmonga yetdi,

¹ Юсуф ва Ахмад (достон). Ўзбек халқ ижоди. Айтувчи: Мухаммадқул Жонмурод ўғли Пўлкан. Нашрга тайёрловчи: Б.Саримсоқов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. – Б.83.

Misrning odami ostida yotdi,
Soya bergen azim daraxt kim bo‘ldi?

G‘azab qip, birovi changalni soldi,
Tepamdagи tillam sochilib qoldi.
Tushimda bir qo‘shnim kala bo‘ldi,
Hovli, ayvonlarim tekis bo‘p qoldi,
Tekis bo‘lgan imoratlar kim bo‘ldi?

Bir oy elima porillab keldi,
Shu’lasi olamni yop-yorug‘ qildi.
Hamma odam bari kelgan shul oyga,
Barcha fuqarolar iqtido qildi,
Ravshan qilgan yop-yorug‘ oy kim bo‘ldi?

Bul tushimning hisobini qilinglar,
Og‘ir lashkar elga yaqin keldima,
O‘zima bir podsho xasm bo‘ldima?!

Bul tushimning ilojini aytinglar,
Aytib turib uy-uyingga qaytinglar.

Shunda Chin-Mochindan kelgan Bobo Qambarga podshoga qarab,
uning ko‘rgan tushini ta’birlab shunday deydi:

Davra olgan shunqor Yusuf jonimdi[r],
Kelgan yo‘lbars Ahmad, Yusuf bolamdi[r].
Tepangdan to‘kilgan tilla – qoningdir,
O‘zingda nimkala quching – joningdir,
Qulagan imorat – sening tanangdir,
Og‘iz solgan, changal urgan o‘zingga,
Kelib qolar Ahmad, Yusuf bolamdir.
Ko‘m-ko‘k qilib bo‘zartadi ko‘zingdi,
Bir kuni kep bosar sening izingdi.

Tush yo‘yuvchi Bobo Qambar, Go‘zalshoh.
Uch kun podsho bo‘lar sening taxtingga,
Yop-yorug‘ oy – Bobo Qambar, Go‘zalshoh,
So‘ylaydigan suyagi yo‘q til bo‘ldi,
Urganch shahri oltoychalik yo‘l bo‘ldi.

Aytib berdim bul tushingdi ta’birin,
Tushingning ta’biri, podshom, shul bo‘ldi.¹

Eron shohi Kir tushida ikki qanotli ulkan qush bo‘lib ko‘ringan Doroni yo‘qotish payiga tushgani singari Go‘zalshoh ham bobo Qambarning so‘zlarini eshitgach, Yusuf bilan Ahmadni qo‘lga tushirish choralarini izlay boshlaydi.

Mazkur dostonning Abdulla shoир Nurali o‘g‘li tomonidan “Ahmad bilan Yusuf” nomi bilan ijro etilgan variantida² esa voqealar bevosita Misr hukmdori Go‘zalshohning tush ko‘rishi tasviridan boshlanadi. Go‘zalshoh bir kuni ayni sahar vaqtি bir tush ko‘radi. Tushida boshidan bir lagan tilla sochilib ketadi, bir qora qush og‘zidan uchib chiqadi, shu paytda ikki yo‘lbars kelasolib podshoni talaydi. Podsho qo‘rqib uyg‘onsa, tushi ekan. Orada uch-to‘rt kun o‘tgach, ko‘rgan tushidan cho‘chigan podsho o‘z xizmatchilariga bu tushning ta’birini bilishni buyuradi. Shunda Bobo Qambar podshoning tushini yo‘rib, shunday deydi:

– Podshohim, boshingdan sochilgan bir lagan qizil tilla – qoningdir, og‘zingdan uchib chiqqan qora qush – shirin joningdir, o‘sha vaqtда ikki yo‘lbars sizni talagan bo‘lsa, bular Xorazmdagi Ahmad bilan Yusuf xoningdir.

Buni eshitgan Go‘zalshoh darhol Bobo Qambarni zindonga tashlashni buyuradi va Ahmad bilan Yusufni bandi qilib kelish uchun Xorazmga Mirza Mahmudni yuboradi.

O‘zbek folklorining epik turga mansub janrlarida tush motivi ko‘pincha qahramonning kelgusi taqdiri, tasvirlanayotgan voqelikning keyingi rivoji bilan aloqador u yoki bu voqea-hodisalar haqida xabar berish, ma’lumot berish vazifasini bajaradi. Ana shu jihatiga ko‘ra tush motivi eposning an’anaviy syujet elementlaridan sanaladi. Gerodot tomonidan keltirilgan “To‘maris” rivoyatida ham tush motivi mavjudligi bu asar sak-massagetlar folklorida epos sifatida ommalashganligidan dalolat beradi.

¹Юсуф ва Аҳмад (достон). Ўзбек халқ ижоди. Айтувчи: Мұхаммадқул Жонмурод ўғли Пўлкан. Нашрга тайёрловчи: Б.Саримсоқов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. – Б.47-49.

² Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети хузуридаги Ўзбек тили ва адабиёти илмий-тадқиқот институти Фольклор архиви. Инв.№1689.

Ma'lumki, To'maris obraziga xos yetakchi xususiyat uning jangu jadallarda jasorat ko'rsatishi, o'z yurti va yaqinlari uchun jonini ham ayamasligi, dushmanga qarshi beshavqat va murosasizligidir. Ayni shu xususiyat o'zbek folklorida tasvirlangan ko'pgina alp ayollar, shu jumladan, Islom shoir Nazar o'g'lidan yozib olingan "Orzigul" dostoni qahramoniga ham xos asosiy belgilardan biridir.

Orzigul o'z yori Suvonxon bilan Qushqanot qo'rg'onida turganida Qoraxon ularning ustiga lashkar tortib keladi. Dushman bilan kurashish uchun jangga otlangan Suvonxon og'ir yarador bo'lib qaytgach, Orzigul o'z yorining yarog'-anjomini, urush quollarini qo'liga olib jang maydoniga yo'l oladi. Islo shoirning tasvirlashicha, Orzigul yorining "uning ust-boshlarini olib kiyib, yor kamarini beliga boylab, sochini boshiga tuyib, bir telpakni bostirib qo'yib, yoriningsovutini kiyib, o'tkir dastgirini qo'liga olib, ot qo'yib kelayotgan yovga qarab, yorining otini minib jo'nayberdi. Orzigul o'zicha shu gaplarni aytib boraberdi:

Yomon kunda qizlar boylar sochini,
Qattiq kunda sarf qilmaymi kuchini?
Yaxshi yor olmasmi yorning o'chini,
Dushman qarg'a, men bo'layin lochini.

Suvondan bo'layin doim xabardor,
Yorimning hushi yo'q, men bo'lay hushyor.
Dushmanlar qo'limda bo'lsin xoru zor,
Kuchim to'kib bugun o'ch olmoq darkor.

Orqamdan kelibdi Qoraxon jodugar,
Olarman deb mendan bo'lib umidvor.
O'z otamga bo'lguncha men suyar yor,
Otishib, chopishib o'lmagim darkor, –

deb, Orzigul oyim, qo'lida qilich, yovga aralasha berdi".¹

Ushbu lavhada tasvirlangan Orzigul o'zining badiiy qiyofasiga ko'ra To'maris tipidagi epik obrazlarga xos belgilarni o'zida mujassamlashtirgan holda namoyon bo'lganligi ko'rindi.

¹ Орзигул (достонлар). Ўзбек халқ ижоди. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. – Б.327-328.

Sak-massaget eposidagi To‘maris syujeti (yoki uning muayyan motivlari) nafaqat qadimgi yozma manbalar orqali, balki O‘rta Osiyo xalqlarining bevosita jonli epik ijodiyoti orqali ham bizgacha saqlanib qolgan. Tarixiy-genetik asoslari “To‘maris” eposi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ana shunday syujetlardan biri qirq qizlar yoki childuxtaron to‘g‘risidagi o‘zbek xalq afsona va rivoyatlarida ko‘zga tashlanadi. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanidagi Denov qishloq fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan “Qirq qiz” qabristoni nomining kelib chiqishi haqidagi rivoyatda xuddi To‘maris singari o‘z diyorini tashqi dushmanidan mardlarcha himoya qilgan jasur qizlar obrazi tasvirlangan:

“Qutayba Vardonze qo‘rg‘onini qamal qilib olibdi. Shu kecha hukmdorning qizi – malika boshliq qirq qizning qirq pahlavonga unashtirish marosimi – to‘yi bo‘lishi kerak ekan. Yog‘iy bosqini shodlik shamini bo‘ron bo‘lib o‘chiribdi: hamma dushmanaga qarshi jangga safarbar etilibdi. Lekin yovning qo‘li baland kelaveribdi. Yengilishini bilgan hukmdor yer osti yo‘li orqali xotin-qizlarni qochirishga muvaffaq bo‘libdi.

Qo‘rg‘onni qo‘lga kiritgan Qutayba qimirlagan jonni qilichdan o‘tkazibdi. U qo‘rg‘onda birortayam ayol zoti yo‘qligidan ajablanibdi.

Malika boshliq qirq qiz Jilvon cho‘li bag‘ridagi to‘qayzorni o‘zlariga makon qilib olishibdi. Boshqa xotin-xalajlar ichkariroqqa – Gujumli tog‘ini qoralab ketaveribdilar.

- Yog‘iyalar bizning yaqinlarimizni vahshiyarcha o‘ldirdilar. Ular uchun qasos olamiz! – debdi malika. Malika boshliq qirq qizning ham ahdu paymoni, maqsadi shunday bo‘libdi.

Tevarak-atrofni yaxshi bilgan qizlar vaqtı-vaqtı bilan to‘qayzor oralab ov qilib yurgan yog‘iyalarga hujum qilar va o‘z odamlarining sirli ravishda g‘oyib bo‘layotgani Qutaybani qattiq qayg‘uga solar ekan.

Oxiri bosqinchilar sardori hiyla ishlatibdi. Ovga bir necha navkarlarini yo‘llabdiyu, ortidan ayg‘oqchilar qo‘yibdi. Bundan xabarsiz qizlar ovchilarni bir zarb bilan gumdon qilishibdi-da, jasadlarini botqoqlik qa‘riga uloqtirishibdi. Shig‘ovullar ularning izidan kelib, makonlarini bilib olibdilar. Qutayba ko‘p sonli navkarları bilan to‘qayzorning qizlar turadigan qismini o‘rab olibdi. Ularga asiralikni qabul qilib, ixtiyorlari bilan taslim bo‘lsalar, yaxshi hayot kechirishlarini va’da qilibdilar.

Malika kuchlar teng emasligini, lekin dushmanaga bo‘yin sunish o‘limdan-da og‘irroq ekanini aytganida hamma qizlar shu fikrda ekanliklarini bayon etibdilar. Malikaning buyrug‘i bilan hamma qizlar

bir-birlariga qarab, yuzma-yuz turibdilar va bir vaqtning o‘zida bir-birlariga xanjar sanchibdilar. Bu qadar mardonaliqdandan lol bo‘lgan Qutayba o‘z kishilariga qizlarni izzat-ikrom bilan ko‘mishni buyuribdi. Shunday qilib, bu mozor “Qirq qiz qabristoni” nomini olibdi”.¹

Ko‘rinadiki, yuqoridagi rivoyatning qahramoni ham xuddi To‘maris singari malika; u ham o‘z yaqinlarining qasosini olish uchun bostirib kelgan dushmanga qarshi kurashadi. Dushman lashkari ko‘p sonli bo‘lgani tufayli ularni yenga olmaganlaridan keyin, o‘zlarini o‘ldirishadi. Qutayba bu qizlarni jisman mag‘lub qilgan bo‘lsa-da, ammo ruhan yenga olmaydi. Yurtsevarlik va ozodlik uchun kurash g‘oyasi mazmur rivoyatning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

O‘zbek folklorida qayd etilgan ba’zi afsonalarda esa yov qo‘liga tushmaslik uchun jonini fido qilgan jasur qizlar soni qirqta emas, balki yetti nafar deb talqin qilinadi. Masalan, Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi Yetti qiz degan joy haqidagi afsonada ana shunday yetti qiz obrazi tasvirlangan: “Xazoraspning yonginasidagi so‘lim bog‘lar qo‘ynidagi kichkina qishloqda yetti nafar qizlar nozanin dugonalar istiqomat qilisharkan. Go‘zal qizlar husnining ovozasi el orasida doston bo‘lib ketibdi, hamma latofat bobida taho bo‘lgan bu qizlarni bir bor ko‘rishga zor ekan. Bundan xabar topib qolgan zolim xon odobli va malohatli qizlarga uylanish harakatiga tushibdi. Ammo go‘zallar fosiq xonning taklifini rad etib, sovchilarini haydab yuboribdilar.

Shunda g‘azablangan xon zo‘rlik bilan bo‘lsa-da, o‘z niyatiga erishmoqchi bo‘libdi. Xon sarbozlari balo-qazoday bo‘lib qishloqqa yopirilibdilpr. Zolim xonning qabih niyatidant bexabar go‘zallar odatdagidek bog‘ sayriga chiqishgan ekan. Qizlardan biri arg‘imchoq uchsa, boshqasi gul terar, yana biri xushovoz bulbullar nag‘masiga jo‘r bo‘lib qo‘shiq aytar ekan. Shu payt olisdan otlarning dupur-dupuri eshitilibdi. Birdan qiy-chuv ko‘tarilib, yov bostirib kela boshlabdi. Xonning shum malaylari yopirilayotganini ko‘rgan qizlar shohona qasrda umrbod bandi bo‘lgandan ko‘ra poklikni afzal ko‘ribdilar. Shunda kuchli dovul ko‘tarilib, hamma narsa-go‘zal bog‘u, sohibjamol qizlar, bari g‘oyib bo‘lishgan emish. Yashnab turgan bog‘ o‘rnida yetti tup yulg‘un butasi qolibdi, xolos. Aytishlaricha, zolim xon sarbozlaridan qochib, yer ostiga kirib ketgan yetti qizning zaminda qogan sumbul

¹ Ушбу ривоят матнини бизга тақдим этганлиги учун илмий маслаҳатчимиз М.Жўраевга миннатдорчилик билдирамиз – Т.К.

sochlari yetti tup yulg‘unga aylangan emish. O‘shandan buyon bu joy “Yetti qiz” deb yuritilar ekan”.¹

Ushbu afsonani “Tumaris” rivoyati bilan bog‘laydigan muhim nuqtalardan biri xonning yetti nafar qizga uylanmoqchi bo‘lib harakat qilishi va qizlar bu taklifni rad etishgach, kuch bilan qo‘lga kiritish maqsadida bostirib kelishi motividir.

Folklorshunoslikda Sulton Sanjar bilan To‘rabekxonim to‘g‘risidagi o‘zbek xalq rivoyati Gerodotning “Tarix” asarida keltirilgan sak-massaget rivoyatining o‘ziga xos versiyalaridan biridir, degan taxminlar ilgari surilgan.² To‘maris to‘g‘risidagi sak-massaget rivoyati syujetini o‘zbek va qoraqalpoq folklori materialari bilan qiyoslab o‘rgangan L.S.Tolstova shunday yozadi: “Lyuborytnymi reminessensiyami privodimoy Gerodotom legendy massagetov o vtorjenii voys Kira vo vladeniya sarisy Tomiris i o srajenii mejdu nimi yavlyayutsya legenda xorezmskix uzbekov o Tyurabekxanum, pravitelnitse Xerezma, i sultane Sandjare, vtorgshemsya v yee vledeniya, a takje, epizod iz karakalpaksogo eposa “Кылк кыз” o vtorjenii v Xerezm Nadir-shaxa i o borbe devushki-bogatyre Altynay, sestry-bliznesy pravitelya Xerezma”.³ Ushbu epik syujetlarni tarixiy voqelikning folkorda aks etishi nuqtai nazaridan muqoyasa qilgan U.Jumanazarov esa “Gerodotning “Tarix” asarida keltirilgan To‘maris haqidagi afsona bilan L.S.Tolstova hamda akademik Ya.G‘ulomov keltirgan To‘rabekxonim haqidagi afsona ko‘pgina detallari syujeti jihatidan bir-birlariga o‘xshab ketadi. Bu afsonalar go‘yoki uzoq vaqtlar mobaynida unutilib ketgan ko‘hna afsonalarning yangi davrda, yangi tarixiy voqealar ta’sirida hamda yangi personajlar vositasida yaratilgan yangi variantlaridan iboratdek tuyuladi”,⁴ – deb yozgan edi.

Darhaqiqat, To‘maris va To‘rabekxonim to‘g‘risidagi rivoyatlarning syujet tizimida bir-biriga o‘xshaydigan mushtarak negizga bog‘lanuvchi motivlar anchagina. Gerodot tomonidan keltirilgan rivoyatda To‘maris massagetlar malikasi deb ta’riflangani singari To‘rabekxonim ham

¹ ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв.№1591. Н.Сабуров ёзиб олган.

² Қаранг: Толстова Л.С. Отголоски массагето-аланского субстрата в фольклоре тюркоязычных народов Хорезмского оазиса // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С.154-159; Жуманазаров У. Халқ тарихи сахифаларини вараклагандада (адабий-бадиий бадиҳалар). – Жиззах, 2006. – Б.19-21.

³ Толстова Л.С. Отголоски массагето-аланского субстрата..С.155.

⁴ Жуманазаров У. Халқ тарихи сахифаларини вараклагандада (адабий-бадиий бадиҳалар). – Жиззах, 2006. – Б.21.

Xorazm sultonining qizi. To‘marisning go‘zalligi haqidagi ovoza Eron shohi Kirning qulog‘iga yetib borgach, u hiyla yo‘li bilan ham To‘marisni, ham uning yurtini qo‘lga kiritishni rejalashtirgani singari To‘rabekxonimning husnda tengsizligidan xabar topgan Mari hukmdori Sulton Sanjar ham unga sovchi qo‘yadi. Xorazmdan yozib olingan rivoyatda aytilishicha, “Mang‘it xonining go‘zal bir qizi bor, hamma uni ko‘rishga zor, eliga o‘zi vafodor, lekin husnda tengi yo‘q, botirligida o‘n-yigirma yigit unga teng kela olmaydi”, – degan gap-so‘z Mari podshosining qulog‘iga ham yetib qolibdi. Mari podshosining ismi Sulton Sanjar Moziy ekan. U To‘rabekxonimni so‘ratib kishi qo‘ygan ekan. Sulton Sanjar Moziyning kishilari Odilbek xonning huzuriga kelib: “Qizingizni podshohimiz so‘ratib yubordi, bizlarga javob qaytaring”, – debdilar. Odilbekxon nima deyarini bilmasdan, sovchilarni To‘rabekxonimning o‘ziga yuboribdi. To‘rabekxonim: “Kimki g‘azal aytishib yengsa, ot chopishib o‘zsa, qilich o‘ynashda ustun chiqsa shunga xotin bo‘laman”, – deb kelgan sovchilarning oldiga shart qo‘yar ekan. To‘rabekxonim Maridan kelgan sovchilarga ham: “Borib sultoningizga aying, shart o‘ynashsin, yutsa olsin, yutqizsa indamay qolsin”, – debdi. Sulton Sanjar Moziy bu gapni eshitib, zolimligi yana haddan oshib: “Shu xotindan pand yeb qolamanmi, shartli ham olaman, shartsiz ham olaman”, – debdi. Sanjar Moziyning askarlari son-sanoqsiz ekan. Yetti kun deganda Hazoris elatiga yetib kelib, Amudaryo qirg‘og‘ida tug‘ tiklab yotib, To‘rabekxonimga yana odam yuboribdi”.¹

Go‘zal qizning unga uylanish niyatida kelgan talabgorlar oldiga shart qo‘yishi o‘zbek xalq eposiga xos an’naviy motivlardan biri bo‘lib, uning eng go‘zal poetik talqinini “Alpomish” dostoni qahramoni Barchin yoki “Kuntug‘mish” dostonida tasvirlangan Xolbekanining shart qo‘yishi motivi misolida o‘rish mumkin. To‘rabekxonim ham Sulton Sanjar tomonidan yuborilgan sovchilarga g‘azal aytishish, ot chopishish va qilich o‘ynatish shartlarini ma’lum qilishi qadimgi ajdodlarimiz turmush tarzida urf bo‘lgan nikoh oldidan yoshlarning oila qurishga loyiqligini sinab ko‘rish marosimlari bilan bevosita bog‘liq holda yuzaga kelgan epik motivdir. Shu o‘rinda xorazmliklarning To‘rabekxonim to‘g‘risidagi rivoyatini To‘maris haqidagi qadimgi epos syujeti bilan bog‘laydigan yana bir detal mavjud: u ham bo‘lsa, talabgorning o‘z qo‘shinini daryo bo‘yiga olib kelishidir.

¹ “Тўрабекхоним ва Султон Санжар” // Олтин олма. Ҳаётий эртаклар. 1-китоб. -Тошкент, Адабиёт ва санъат, 1966. – Б.14.

Sak-massaget eposining Gerodot naqli orqali yetib kelgan namunasida To‘maris o‘z lashkarini mamlakatning uch kunlik ichkarisiga olib kirib ketgach, Kir qo‘shinini Araks daryosidan o‘tkazib, massagetlar tuprog‘iga qadam qo‘ygan. Xorazmning sug‘orilishi tarixini o‘rgangan Ya.G‘ulomovning fikricha, Gerodot asarida keltirilgan “Araks” aslida Amudaryoning qadimiy nomi bo‘lib, “Araks quyilgan joyda u qirq tarmoqqa bo‘linib ketadi, bu tarmoqlardan biri yalangliklardan oqib o‘tib, Kaspiy dengiziga quyiladi, qolgani esa botqoqlik va lagunalarga (botqoq ko‘llarga) borib tushadi, u yerda, go‘yoki, pishirilmagan baliq go‘shti bilan ovqatlanadigan va tyulen terisini kiyib yuradagan xalq yashar emish. Gerodot bergen bu ma’lumotni o‘sha vaqtda Xorazm yerlarida Amudaryoning katta bir tarmog‘i Kaspiy dengiziga borib kuyilganligidan dalolat beradi, deb qarash mumkin. Asosiy o‘zani esa, xuddi hozirgidek, Orol dengizi tomoniga oqib, ko‘pdan-ko‘p o‘zgarib turadigan tarmoqlarga bo‘linib, keng botqoqliklar hosil qilgan. Biroq botqoqlik so‘zi ostida Orol dengizining Janubiy qirg‘og‘idagi daryoning quyilish joyini ham tushunish mumkin”.¹ Shunga ko‘ra, har ikki rivoyatda ham gap bitta daryo haqida boradi, deb xulosa chiqarish mumkin.

Zolim Kirningsovchi sifatida yuborgan elchilaridan Eron shohining g‘arazli maqsadini anglagan To‘maris kelgan kishilar orqali agar Kirning niyati urushish bo‘lsa, bu ham o‘z qo‘shinini mamlakatning ichkarisiga uch kunlik yo‘lga olib kirib, vatanining daxlsizligi uchun jangga tayyor ekanligini ma’lum qiladi. Aynan shunga o‘xsha tasvirni “To‘rabekxonim va Sulton Sanjar” rivoyatida ham uchratamiz. To‘rabekxonim o‘z shartini aytgach, bu shartda yengilajakligini bilgan Sulton Sanjar qizning otasi Odilshohga xat yozi: “Odilshoh, meni yetti iqlim podshosi taniydi, yetmish xonlik boj beradi, sen bir qizingni mendan qizg‘anasan. Ertaga yo qizingni o‘z qo‘ling bilan olib kelib berasan, yo urush maydoniga chiqasan”, – debdi. Odilshoh bu xatni qiziga o‘qib bergen ekan, qizi xatga javob yozibdi-da, otasiga o‘qib beribdi. Javob maktubida To‘rabekxonim: “Ey, ahmoq podsho! Kuchingni pesh qilguncha maydonga, men bilan qilichbozlikka chiq!” – degan ekan”.

To‘marisning rad javobini eshitgan Kir o‘zining yaqin kishiliri va saroy a’yonlarini huzuriga chaqirtirib maslahat qilgani kabi Odilshoh ham qizining javob maktubini ulamo, vuzaro, qozi-yu muftilarga o‘qib

¹ Фуломов Я. Хоразмнинг сугорилиши тарихи. – Тошкент, 1959. – Б.35.

berib maslahat so‘rabdi. Odilshohning amaldorlari: “Ulug‘ xonim, bekorga qon to‘kilmasin, yaxshisi, To‘rabekxonimga o‘zimiz bir gap aytib ko‘raylik”, – debdilar. To‘rabekxonim esa: “Agar maydonga chiqsa yo yengib olar, yo yengilib o‘lar”, – debdi-da, kelgan odamlarga javob maktubini tutqazib, eldan haydab chiqaribdi. Sulton Sanjarning odamlari ot choptirib borib, Sultonga qizning javob maktubini qo‘rqa-pisa uzatib, qulluq qilib, bosh egib turibdilar. Sulton darg‘azab bo‘lib, lashkarboshilarini chaqiribdi, ularga Xorazmni bosib olishni, To‘rabekxonimni tiriklay qo‘lga tushirib, olib kelishni buyuribdi.

To‘rabekxonim otasining oldiga kelib: “Otajon, menga mard yigitlaringizdan qirqtasini bersangiz, shu Sultonning kelishini poylab yo‘lga chiqsam”, – debdi. Odilshoh qiziga qirq yigitni qo‘shib, o‘zi ham butun Xorazmning er yigitlaridan askar to‘plab urushga tayyorgarlik ko‘rib turibdi. To‘rabekxonim Mang‘it elidan chiqib, katta maydon yo‘l yurib Honqaga yetganda, Sulton Sanjarning behisob qo‘shini ustidan chiqib qolibdi. To‘rabekxonim yigitlarcha kiyinib, qilich-qalqon taqib olgani uchun uning qiz ekanligini biror dushman bilmabdi. To‘rabekxonimni ko‘rgan dushman yigitlari “bu shunday chiroyli yigit” deb, unga qarashar emishlar. Shu yerda qirq yigit bir taraf, dushman lashkarlari bir taraf bo‘lib olib, bir-birini na u yoq, na bu yoqqa o‘tkazishmas ekan. Birdan dushman askari To‘rabekxonimga va uning yigitlariga ot qo‘yib bostirib kelibdi. Shu topda bir jang bo‘libdiki, buni hech qachon va hech yerda biror kishi ko‘rmabdi. Dushman askarlari qancha g‘azab, qancha kuch bilan kelsa ham, bu qirq yigit bilan To‘rabekxonimning qilichidan boshi osmonga uchib, gavdasi burda-burda bo‘laveribdi. Bir qo‘shin qirilsa, yana biri kelib To‘rabekxonimning qarshisiga chiqa beribdi. Uch kecha-uch kunduz jang qilib To‘rabekxonim Sulton Sanjarning askarlarini tor-mor qilibdi. Xazoris qal’asining na kunchiqarida va na kunbotarida jang bo‘lmagan joy qolmay dushmani quvib qumga qochiribdi.

Oxiri jangda To‘rabekxonimning boshidan cho‘girmasi uchib ketib, qop-qora sochi otning oyog‘igacha tushibdi. Buni ko‘rgan dushman o‘z hushini qayta yo‘qotib: “Ovozasi jahonni tutgan, necha xonni tang qoldirgan, necha odamni qilichidan o‘tkazgan shu qiz ekan”, – deb, olotos qochibdilar. Sulton Sanjar Moziy ham: “Axir sani ko‘rarman”, – deb yurtiga qaytib, yetti yoshdan yetmish yoshgacha askar yig‘ib olib, behisob nayza-yu qilichlar bilan, bir lakmas o‘n lak qo‘shin bilan “Xorazm qaydasan”, deb yurish qilibdi. Xorazm yerlari Amudaryoning suvi bilan sug‘orilib, ekinlari yetilar edi. Sulton Sanjar Moziy o‘ylab,

shu daryoni bog‘lashga qaror beribdi. “Agar men daryoni bo‘g‘sam, bu qiz menga albatta bosh egib kelib, qul bo‘lishga ham rozi bo‘ladi. Odilshoh ham menga tobe bo‘ladi”, – deb o‘ylabdi. Daryoning eng tor oqadigan joyini topish uchun, daryo yoqalab yo‘l yurib, Tuyamo‘yin bilan Pitnak oralig‘iga kelganda hamma qo‘sishnalarini shu yerga tushirib, ullidan kichchisigacha ishga solibdi. Hamma askarlar tog‘ chopib, tosh chiqarib Amudaryoning shu torayib oqadigan joyiga tashlayveribdilar. Bir necha kundan so‘ng Amudaryoning suvi Xorazmga oqmay boshqa tomonga ketaveribdi. Shu orada olti oy suvsiz qolib, butun yerlar oqarib, sho‘r ochib, qaqrab qolibdi. Yurtning ahvoli ham kundan-kunga yomonlashib, xaloyiqning tinkasi qurib qolibdi. Kunlardan bir kun el-yurt yig‘ilib, Odilshohning oldiga kelib: “Podshohim, yurtimiz xarob bo‘ldi, suvsizlik yomon. Olti oy chidadik, agar yana olti oy o‘tsa holimiz ne kechadi? Yaxshisi, qizingni Sulton Sanjarga berib, yurtni bu ofatdan qutqar”, – deyishibdi.

Odilshoh qizini oldiga chaqirib: “Qizim el-yurtning ahvoli o‘zingga ma’lum, qani ayt, nima gaping bo‘lsa shu elga ayt!” – debdi. To‘rabekxonim: “Otajon, men uchun el-yurt azob tortmasin, men albatta suv keltiraman, uch kundan keyin hamma yer suvga serob bo‘ladi”, – debdi. Shu kuni eliga qarab, ulardan duoyi fotiha olib, qirqta baytalni olib, baytallarning ham toza tuqqanlaridan olib yo‘lga chiqib, har bir baytalni bir chaqirim yerga bog‘lab, yakka o‘zi tuyamo‘yinga, Sulton Sanjar Moziyning chodir tashlagan yeriga borib otidan ham tushmay: “Mana men, ey Sulton! Qani, ne maqsading bo‘lsa ayt”, – debdi. Sulton Sanjar Moziy bu go‘zal malikani ko‘rishi bilanoq es-hushini oldirib, ne derini bilmay, aqli hayron, tili lol bo‘lib qolibdi. Uning yonida xizmatda turgan qanchadan-qancha to‘ralar tilini tishlab qolibdi, sanamlarning qo‘llarida ushlagan narsalari tushib ketibdi. Xullas, To‘rabekxonimning husni barisini shaydo qilibdi. Shunda Sulton Sanjar Moziy tilga kirib, ikki qo‘lini ko‘kragiga olib borib, otda turgan To‘rabekxonimga: “Marhamat, farishtam. Otdan tushib dam oling”, – debdi. “Men sonsiz lashkaring oldiga yakka o‘zim keldim, agar men kerak bo‘lsam daryoning bog‘langanini yozdir, men o‘z ko‘zim bilan ko‘rayin, keyin dam olaman”, – deb, To‘rabekxonim otdan tushmay, Sulton Sanjar Moziyning javobini kutib turibdi. Sulton Sanjar Moziy darrov hamma amaldorlarga: “Daryoni oching!” – deb buyruq beribdi. To‘rabekxonim daryoning ochilishiga yaxshilab nazar solib turibdi-da, daryo ochilgan zamoniyooq baytalga qamchi chekibdi. Sulton Sanjar hash-pash deguncha baytal bir tosh yo‘l bosib ikkinchi baytalga yetib olibdi. Bir necha

vaqtadan so‘ng bir g‘orga duch kelib, shu g‘orning ichiga kirib yo‘qolgan. To‘rabekxonim eson-omon yurtiga yetib kelgan. Xalq uni yaxshi kutib olib, elu yurtini obod etib murodu maqsadiga yetgan.

Akademik Ya.G‘ulomov to‘g‘ri e’tirof etganidek, “Qadimgi O‘rta Osiyo qahramon ayollarining jasurligini hikoya qiluvchi rivoyatlarning ko‘p elementlarini o‘zida saqlab qolgan bu afsona To‘rabekxonimni o‘z mamlakatini halokatdan qutqazuvchi obraz sifatida gavdalantiradi”.¹ Nazarimizda, muhtaram olimimiz “Qadimgi O‘rta Osiyo qahramon ayollarining jasurligini hikoya qiluvchi rivoyatlar” deganda aynan To‘maris to‘g‘risidagi sak-massaget eposini nazarda tutgan bo‘lishi kerak. Chunki To‘maris va To‘rabekxonim obrazlari o‘zining mohiyati, epik talqini hamda vatanparvarlik, qahramonik xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan jangovar qizlarga xos belgilarni tashishi bilan mushtaraklik kasb etadi.

Sak-massaget eposining qahramoni To‘maris xayoliy-epik obraz bo‘imasdan, balki o‘scha davrda massagetlarni boshqargan real hukmdor ayolning ismi bo‘lganligi ehtimoldan xoli emas. Binobarin, tarixiy manbalarning guvohlilik berishicha, To‘rabekxonim ham XIV asrda yashagan real tarixiy shaxs bo‘lib, Oltin O‘rda hukmdori Qutlug‘ Temurning xotini bo‘lgan. Ana shu hukmdorning yorliqlarida To‘rabekxonim “buyuk malika” deb ulug‘langan.² Xorazm vohasida ko‘pgina obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan To‘rabekxonim bir qancha tarixiy obidalar, jumladan, Urganch shahrida xonaqo qurdirgan. Shuning uchun ham voha aholisining folklorida To‘rabekxonim obrazi xalqning farovonligi, ozodligi va xotirjamligi uchun kurashuvchi fidoyi ayol sifatida tasvirlangan. Bu obrazning shakllanishida qadimgi Orolbo‘yi mintaqasi, xususan, Xorazm vohasi hududida istiqomat qilgan massagetlar folkloridagi To‘maris obraziga xos xususiyatlarning xalq epik xotirasida saqlanib qolgan rudimentlari ham muhim rol o‘ynagan, albatta.

Gerodot tomonidan keltirilgan “To‘maris” rivoyatida epik qahramonning raqibi sifatida tasvirlangan Eron hukmdori Kir obrazi bilan To‘rabekxonimga xaridor bo‘lgan Mari podshosi Sulton Sanjar obrazi orasida ham o‘xhash jihatlar ko‘p. Avvalo shuni qayd etish kerakki, Gerodot rivoyatida nomi zikr etilgan Kir ronda hukmronlik qilgan real tarixiy shaxs bo‘lgan. Ma’lum bo‘lishicha, Sulton Sanjar

¹Фуломов Я. Хоразмнинг сугорилиши тарихи. – Тошкент, 1959. – Б.34.

² Снесарев Г.П. Хорезмские легенды, как источник по истории религиозных культов Средней Азии. – М.: Наука, 1986. – С.164.

To‘rabekxonimdan ikki asar ilgari yashab o‘tgan tarixiy shaxs bo‘lib, 1118-1157 yillarda Marida hukmronlik qilgan. U uch marta, ya’ni 1138, 1143-1144 va 1147 yillarda Xorazmni egallash uchun yurish qilgan. Ammo har gal o‘z yurtini mardonavor himoya qilgan xorazmliklarning qattiq qarshiligiga uchrab, mag‘lub bo‘lib ortiga chekinishga majbur bo‘lgan. Rivoyatdagi Amudaryo suvining to‘silishi motivi ham muayyan tarixiy asoslarga ega: Sulton Sanjar birinchi marta Xorazmga yurish qilgan paytda bu o‘lgani xorazmshoh Otsiz boshqarar edi. U o‘z qo‘smini bilan Hazorasp ostonasida mudofani tashkil etar ekan, dushman yo‘lidagi pasttekislikni daryo suvi bilan bostirib yuborgan. Ana shu jangda otidan ayrilgan Sulton Sanjar cho‘lda piyoda ketishga majbur bo‘lgan ekan.¹

Xulosa qilib aytganda, To‘maris haqidagi qadimiy epik syujet sak-massaget qabilalarining folklor an’analari doirasida shakllangan bo‘lib, ushbu syujet asosida qurilgan tarixiy qo‘sish, rivoyat va dostonlarda ajdodlarimizning o‘z yurtini bosqinchi dushmanlardan himoya qilish maqsadida olib borgan mardonavor kurashi hamda ana shunday hayot-momot janglarida qahramonlikda erkaklardan qolishmagan alp xotinqizlarning mislsiz jasorati tasvirlangan. To‘maris to‘g‘risidagi ko‘hna eposning Gerodot “Tarix”ida keltirilgan mazmunining tahlili uning tarkibidagi bir qator epik syujetga xos an’anaviy motivlar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu esa sak-massagetlar folklorida To‘maris jasorati tasviriga bag‘ishlangan yirik asar bo‘lganligi va u qahramonlik eposining arxaik tipiga mansub bo‘lganligidan dalolat beradi.

O‘rta Osiyoda kechgan tarixiy-etnografik jarayonlar natijasida o‘lkaning qadimgi tub aholisi sirasiga kiradigan sak va massaget qabilalari o‘zbek xalqining qadimgi ajdodlari tarkibiga singib ketishi tufayli ularning folklor an’analari, shu jumladan, qahramonlik eposining yorqin namunalaridan biri hisoblangan “To‘maris” rivoyatining mazmuni va syujet elementlari ham substratetnos nomoddiy madaniy merosiga aylangan. O‘zbek va qoraqalpoq xalqlari folklorida “To‘maris” rivoyati syujetiga o‘xshash rivoyat, afsona va dostonlar, shu jumladan, Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining xotirasi asosida yozib olingan “Oysuluv” dostoni saqlanib qolganligining sababi ham ana shunda.

2.2. “Oysuluv” dostoni syujetining genezisi va uning variantlari

¹ Ўшаба асап. – Б.166-167.

Qadimgi sak-massaget eposining badiiy evolyusiyasi masalasida so‘z yuritganda, tabiiyki, birinchi navbatda, massagetlar malikasi, jasur va qahramon hukmdor malika To‘maris to‘g‘risidagi epik syujetning o‘zbek folkloridagi o‘ziga xos talqini hisoblangan “Oysuluv” dostoni ko‘z oldimizga keladi. Binobarin, tarixan qadimiylar epik an’analarga borib taqaladigan qahramonlik eposi namunalariga qaraganda tarixiy dostonlar baxshilar repertuarida unchalik katta mavqega ega bo‘lmasada, real tarixiy voqelikni o‘ziga xos tarzda badiiy aks ettirishi, tarixiy haqiqat va epik bayonning o‘zaro uyg‘unligini ajoyib tarzda ifoda qilishi bilan alohida ajralib turadi. O‘zbek xalq baxshilari epik repertuarida qayd etilgan “Oysuluv”, “Shayboniyxon”, “Oychinor”, “To‘lg‘anoy”, “Namoz”, “Amir qochdi”, “Temurning yoshligi”, “Sohibqiron Amir Temur” kabi tarixiy dostonlar o‘zining yaratilish davri va epik bayon etilgan tarixiy voqelik xarakteri jihatidan bir-biridan ajralib tursa-da, o‘zining janriy xususiyati va mohiyatiga ko‘ra yaxlit bir tipni tashkil etadi. Ana shu dostonlar orasida eng qadimiysi va syujet asoslariga ko‘ra o‘zbek xalq dostonchiligi ijodiyotining ilk qatlami – sak-massaget eposi an’analariga borib taqaladigani atoqli so‘z ustasi Ergash Jumanbulbulning xotirasi asosida mazmuni yozib olingan “Oysuluv” dostonidir.

O‘zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari va shakllanish bosqichlarini tadqiq etgan folklorshunos olimlar T.Mirzaev va B.Sarimsoqovlar sak eposining eng yirik namunalaridan biri sifatida “To‘maris” rivoyati matnini keltirish asosida “epos – xalq hayotining badiiy solnomasi bo‘lib, u hayotni real-konkret detallar, faktlar asosida emas, aksincha, hayotiy haqiqatga xalal bermagan holda voqelikni badiiy obrazlar vositasida aks ettirishi”ni¹ dalillab berishgan. Bu rivoyat o‘zbek folkloridagi epik syujetlar riaojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganligini “Oysuluv” dostonining hayotiy-tarixiy asoslari “To‘maris” rivoyatiga bog‘lanishi misolida isbotlagan olimlar sak-massagetlar og‘zaki ijodida ushbu epik syujetning yuzaga kelishi sabablari haqida shunday yozadilar: “Eron hukmdorlaridan O‘rta Osiyoga bostirib kirgan Kir yengiladi va o‘zi jangda halok bo‘ladi. Bu – inkor etib bo‘lmas tarixiy haqiqat. Xalq eposi, o‘z navbatida, bunday unutilmas voqeani o‘zida aks ettirmay qo‘ymas edi. Chunki qahramonlik eposining asosiylar maqsadi, hayotiy zarurati ham shunda (ya’ni xalq o‘z ijodida, ayniqsa, eposda,

¹ Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Достон, унинг турлари ва тарихий тараққиёти // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.32.

o‘zining eng oljanob, eng go‘zal, muqaddas ideallarini aks ettiradi). Shunday ekan, bosqinchi Kirming o‘ldirilishi sak eposida dastlab to‘la aks ettirilgan, deb faraz qilish lozim”.¹ Muhtaram ustozlarimizning ushbu fikrlari “To‘maris” rivoyati qachonlardir sak eposida mahalliy aholining bosqinchi Kir qo‘s Shinlariga qarshi olib borgan mardonavor kurashi va bu jangda g‘olib chiqib, o‘z yurtining daxlsizligini saqlab qolganligini tasvirlagan qahramonlik dostoni shaklida ijro etilgan, deb taxmin qilishga asos beradi.

Filologiya fanlari nomzodi M.Qo‘s shmoqov o‘zining “Tilla kampir yulduzi ostida” nomli maqolasida syujetining ildizlari juda qadimiy bo‘lgan “Oysuluv” dostonini mazkur eposning Tilla kampir – Jumanbulbul – Ergash Jumanbulbul o‘g‘li varianti deb hisoblaydi va asosan mazmuni saqlanib qolgan bu dostonning yetakchi motivlarini To‘maris to‘g‘risidagi tarixiy rivoyat syujeti bilan qiyosan tahlil qiladi. Har ikki asarning obrazlar silsilasi va motivlar tarkibini muqoyasa qilish asosida qadimgi yunon yozma manbalari orqali yetib kelgan “To‘maris” rivoyati aslida qahramonlik eposi tarzida ommalashganligi, bir vaqtlar Tilla kampir “qo‘sish qilib kuylagan” bo‘lsa-da, folklor-shunoslar tomonidan Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining aytib berishi tufayli faqat mazmunigina yozib olingan “Oysuluv” esa qahramonlik-romanik dostoni sifatida ijro etilgan,² degan xulosaga kelganligi tarixiy epos mohiyatini tushunishda muhim ilmiy qimmatga ega. Maqola muallifining “Oysuluv” dostonida tarixiy voqelik bilan badiiy haqiqatning uyg‘unligi masalasiga doir fikrlari ham e’tiborlidir. Shuningdek, xalq eposida real tarixiy haqiqatning aks etishi va bunday epik asarlarda badiiy uydiranening o‘rni masalasini yoritgan M.Boboev ham misol tariqasida “To‘maris” rivoyati va “Oysuluv” dostonini keltirib o‘tgan.³

O‘zining bir qator tadqiqotlarida “To‘maris” haqidagi rivoyatni o‘zbek xalq tarixiy eposining eng qadimiy tiplaridan biri sifatida tahlil qilgan folklorshunos olim U.Jumanazarov ushbu rivoyatni “Oysuluv” dostoni syujetining shakllanishiga asos bo‘lgan epik manba sifatida baholaydi. Uning fikricha, “Oysuluv” – sof tarixiy doston bo‘lib, unda sak-massaget qabilalarining tashqi dushmaniga qarshi olib borgan

¹ Ўша асар. – Б.32.

² Қўшмоқов М. Тилла кампир юлдузи остида // М.Қўшмоқов. Чечанликда сўзга сувдайин оқиб.. (адабий-танқидий мақолалар ва эссе). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – Б.132-135.

³ Бабаев М. Жизнь, история, эпос. – Ташкент: Фан, 1991. – С.14-15.

mardonavor kurashi va vatanparvarlik g‘oyalari o‘z ifodasini topgan.¹ Bunday tarixiy dostonlar va ularda tasvirlangan epik obrazlarning yaratilishi xususida to‘xtalar ekan, olim shunday yozadi: “O‘zbek xalq baxshisi Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan mazmuni yozib olingan “Oysuluv” va Eron hukmdori Nodirshohning Xorazmga bostirib kirishida qarshilik ko‘rsatgan Oysuluv haqidagi “Qirq qiz” syujeti To‘maris afsonasining turli davrlarda, turli tarixiy voqealarga javob tariqasida kontaminatsiyalarga uchrab yaratilgan shakllaridan iborat”.²

Darhaqiqat, o‘zbek folklorida epik syujetining tarixiy asoslari qadimgi sak-massaget eposi an’analariiga borib taqaladigan, aniqrog‘i, bevosita massagetlar malikasi jasur To‘maris to‘g‘risidagi rivoyatning Gerodot tomonidan hikoya qilingan talqiniga ko‘p jihatdan mos keladigan asar “Oysuluv” dostoni hisoblanadi. Bizning kunlargacha faqat epik bayon tarzidagi qisqacha mazmunigina saqlanib qolgan ushbu asarning aniqlanishi va yozib olinishi tarixi masalasiga to‘xtalganda atoqli folklorshunos olim Hodi Zarifovning quyidagi xotirasini keltirib o‘tish kerak bo‘ladi: “1937 yil, yanvar. Qishning uzoq kechalarida Ergash Jumanbulbul o‘g‘li bilan o‘zbek dostonchiligi va xalq dostonlari haqida suhbatlashar edik. Bu suhbatlarda Ergash otadan o‘tmish dongdor dostonchilar haqida ko‘p qimmatli ma’lumotlar yozib olishga muvaffaq bo‘ldim, – deb yozadi H.Zarifov, – Suhbatlarning birida Ergash shoir XIX asr o‘zbek xalq dostonchilarining mashhurlaridan Katta Bo‘ron, Kichik Bo‘ron, Amin baxshilarni buyuk hurmat bilan ta’riflar ekan, shu davrning keksalaridan Sulton kampir va Tilla kampir nomi bilan dong qozongan ikki shoira xotinning chechanligi, talanti, dostonchilikdagi mavqesini ustod darajasiga ko‘tardi. Bu vaqt ana shunday zabardast shoirlarning shogirdlaridan yoshlikda ko‘proq ta’lim ololmay qolganiga afsuslanib, menga shunday dedi:

– O‘g‘lim! Yoshlikda bilmabmiz, besh-olti og‘iz qo‘sinqi o‘rganib olib, shunga ko‘nglimiz o‘sib, Xech yerda bolalarga gap bermay: “Men Jumanbulbulning o‘g‘li bo‘laman, qo‘sinqi o‘zim topib beraman, gap desang xirmon qilib uyib beraman”, – deb ketaberibmiz, bu zamonga kelib kerak qiluvini bilmabmiz. Yoshligimizda elda yurgan shoirlarning

¹ Жуманазаров У. “Ойсулув” – соф тарихий достон // Ўзбек филологиясининг долзарб масалалари», (мақолалар тўплами). – Тошкент: Фан, 1991. – Б.162-167; Яна ўша. Тўмарис шахсияти: тарих ва афсона // Халқ оғзаки ижодиёти миллий ва умуминсоний қадриятлар тизимида (халқаро илмий конференция материаллари), Нукус: “Илим” нашриёти, 2015. – Б.25-26.

² Жуманазаров У. Халқ тарихи сахифаларини вараклагандага (адабий-бадиий бадиҳалар). – Жиззах, 2006. – Б.21.

qadriga yetmadik. Otamiz bechora, u ham shu gapni aytar edi: “Yoshlik qildik, Tilla kampirdan gap-qo’shiq o’rganmadik. Birimiz – Jossoq, shoirlarning ustodi, birimiz – Bulbul, Bulbul bilan qo’shiq aytishgandao’rtadagilar biznikini qiladi ma’qul. Tilla kampirning ham topgani shul, deb o’ta berdik. So’ng bilsak, biz toy ekanmiz, u – tulpor, biz yilg’a ekanmiz, u buloq, biz daryomiz degan u – dengiz ekan.”

Otam aytar edi: “Tilla kampirning bir dostoni bor, uni men ham bilmayman, Jossoq ham bilmaydi, boshqa shoirlarning ham aytganini eshitmadik. Tilla kampir yosh vaqtida qo’shiq qilib aytar ekan, qarigan so’ng ertak qilib aytar edi. Men ko’pda quloq ham solmas edim, ertakda, deb keta berar edim”. Bir kun: “Tilla kampirning ertagini aytib bering”, – dedim otamga. Shunda shoir kulib: “Men momongday aytolmayman-da, bilganini aytsam, aytib berayin”, – deb yonboshlab yotib naql qilib edi”, – deb asarning mazmunini Ergash ota so’zlab berdi. Men uni shoir og‘zidan yozib oldim va “Oysuluv” deb nom berdim”.¹

Shu o‘rinda tarixan sak-massaget eposining badiiy evolyusiyasi natijasida yuzaga kelgan mazkur dostonning nomi va janriy mansubiyati masalasiga oydinlik kiritaylik. Yuqorida qayd etilganidek, uni aytib bergen baxshi Ergash Jumanbulbul o‘g‘li bu asarni “Tilla kampirning dostoni” deydi. Baxshining otasi Jumanbulbulning xotirlashicha, Tilla kampir yoshlik paytida bu asarni “qo’shiq qilib”, ya’ni doston sifatida ijro etgan, ammo yoshi o‘tgach, qariligi tufayli uni doston tarzida kuylashga kuchi yetmay, “ertak qilib” aytgan. Ergash shoirdan yozib olingan namuna ham dostonning nasriy bayoni tarzidadir. Binobarin, xalq baxshilari orasida dostonni “ertak qilib aytish” an’anasi ham mavjud bo‘lgan. Shunday qilib, Tilla kampir o‘zining dostonini qanday nomlaganligi haqida ma’lumot saqlanib qolmagan. O‘zbek folklorshunosligining asoschisi Hodi Zarifov Tilla kampirning “ertagi”da tasvirlangan epik qahramon nomiga asoslangan holda, unga “Oysuluv” deb nom bergan. Biroq, u o‘zining taniqli folklorshunos olim V.M.Jirmunskiy bilan hamkorlikda yozgan “O‘zbek xalq qahramonlik eposi” kitobining tarixiy dostonlar tahliliga bag‘ishlangan bobida Ergash shoirdan mazmuni yozib olingan bu dostonni “Oysuluv va Kunbotir” deb nomlagan.² Doston matnida tasvirlangan voqealar o‘z yurtiga

¹ Булбул тароналари / Эргаш Жуманбулбул ўғлининг достон ва термалари. Беш томлик. 1-том. Нашрга тайёрловчи: Ҳоди Зариф. – Тошкент: Фан, 1971. – Б.37-38.

² Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М.: ОГИЗ, 1947. – С.128.

bostirib kelgan dushmanga qarshi mardonavor kurashgan malika Oysuluv va uning botir o‘g‘li Kunbotir obrazlari bilan bog‘liq holda bayon qilingani uchun shu nom tanlangan bo‘lsa ehtimoldan xoli emas. Ammo o‘zbek folklorshunosligida bu asarni “Oysuluv” nomi bilan atash an’anaga aylangan.

Dostonning janriy xususiyatlari haqida fikr yuritgan V.M.Jirmunskiy va H.Zarifov “ushbu doston o‘zining hozirgi holatida qahramonlik-romanik janrga yaqin keladi” deb hisoblashadi.¹ Folklorshunos M.Qo‘shmoqov ham “Oysuluv”ni qahramonlik-romanik doston deb tasniflaydi va uning bunday janriy xususiyat kasb etishini qadimiylar epik syujetning Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi epik an’analari doirasida ishlanishining natijasi deb biladi.² Taniqli o‘zbek folklorshunoslari T.Mirzaev va B.Sarimsoqovlarning fikricha esa “Oysuluv” dostoni “tarixiy-qahramonlik dostonlarining eng yaxshi namunalaridan biridir. Chunki uning mazmuni qahramonlik xarakteriga ega bo‘lishi, bir qator o‘rinlarda uzoq kechmishda ro‘y bergen konkret voqealarga mos kelishi shunday xulosa chiqarishga imkon beradi”³.

Bizning fikrimizcha ham, “Oysuluv” dostoni mohiyat e’tiboriga ko‘ra o‘zbek xalq tarixiy eposining tarixiy-qahramonlik tipiga mansub epik asardir. Mazkur dostonda tasvirlangan asosiy voqealarga-hodisalar zamirida epik qahramonlarning el-yurtni tashqi bosqinchiligi dushmanlar xurujidan himoya qilish yo‘lida ko‘rsatgan mislsiz jasoratini tasvirlanganligi, Oysuluv obrazi talqinida esa erkaklar bilan bab-baravar jangu jadallarda ishtirok etgan alp xotin-qizlar siymosi o‘z ifodasini topganligi, uning o‘g‘li Kunbotir obrazi ham o‘zida kuch-qudratga to‘la alp, el-yurtni himoya qiluvchi botir xususiyatlarini aks ettirishi bu asarda qahramonlik eposiga xos belgilar mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda, dostonda tasvirlangan voqealar zamirida ajdodlarimizning O‘rta Osiyoga bostirib kelgan Eron hukmdori Kirga qarshi olib borgan kurashi va ana shu hayot-mamot jangida massagetlar malikasi To‘maris va uning o‘g‘li Sparganisning ko‘rsatgan mislsiz jasorati haqidagi tarixiy rivoyat talqinlari bilan uyg‘unlashib ketadiki, bu hol “Oysuluv” dostoni

¹ Ўша асар. – Б.131.

² Кўшмоқов М. Чечанликда сўзга сувдайин оқиб (Адабий-танқидий мақолалар ва эссе). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978. – Б.135.

³ Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Достон, унинг турлари ва тарихий тарақкиёти // Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари. – Тошкент: Фан, 1981. – Б.18.

syujetiga asos bo‘lgan voqelik real hayotiy-tarixiy asosga ega ekanligidan dalolat beradi.

Qo‘rg‘on dostonchilik matabining atoqli namoyandasini Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining yuqorida keltirilgan e’tirofiga ko‘ra, bu doston faqatgina Tilla kampir repertuarida mavjud bo‘lgan. Jumanbulbulning momosi Tilla kampir Qo‘rg‘on qishlog‘ida tug‘ilib o‘sib, shu joydagi ko‘p asrlik epik an’ana muhitida dongdor baxshi bo‘lib yetishgan. Xronologik jihatdan uning yashagan davri XVIII asrning oxiri – XIX asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Demak, shu davrda O‘rta Osiyo xalqlarining bosqinchi dushmanlarga qarshi olib borgan mardonavor kurashi tasvirlangan “Oysuluv” dostoni Tilla kampirning ijodiy hofizasi tufayli jonli ijro holatida kuylanib, epik an’anada saqlanib turgan. Ammo g‘oyat katta ijtimoiy-siyosiy mohiyat kasb etgan ushbu doston o‘sha davrning boshqa peshqadam baxshilarini tomonidan o‘zlashtirilmaganligi tufayli uning poetik matni saqlanib qolmagan.

O‘zbek xalq tarixiy-qahramonlik eposining yorqin namunasi “Oysuluv” dostonining Qo‘rg‘on dostonchilik maktabiga mansub epik kuychi repertuarida qayd etilishi ham beziz emas. Chunki bu Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi ijodiy muhitiga xos yetakchi xossalardan biri epik asarlarda tasvirlangan xotin-qizlar obrazining alp, botir, bahodir sifatida ishlanishi bilan xarakterlanadi. Ya’ni “o‘zbek xalq dostonlarida xotin-qizlar obrazining bu darajada yetuk ishlanishi faqatgina Tilla kampir va Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining muhitida uchraydi. Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining “Xoldorxon” dostonidagi Yunus pari obrazi ham ko‘p jihatdan Oysuluvga o‘xshaydi. Xotin-qizlar obrazining oliy fazilatlar, ulug‘ g‘oyalar bilan bu darajada yetuk ishlanishida xalq shoiralarining, shu jumladan, Tilla kampirning ijodiy hissasi kattadir”¹.

Demak, “Oysuluv” dostonining Tilla kampir epik reper-tuarida qayd etilishi Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi ijodiy muhitida xotin-qizlar obrazining qahramonlik dostoni personajlariga xos sifatlar asosida tasvirlanishi an’anasining ustuvorlik qilishi bilan belgilanadi.

“Oysuluv” dostoni o‘zining syujet asoslariiga ko‘ra massaget qabilalarining O‘rta Osiyoga bostirib kirgan bosqinchi dushmanaga qarshi olib borgan kurashi bilan bog‘liq voqeа-hodisalarini o‘zida aks ettirgan tarixiy epos namunasi – “To‘maris” rivoyati syujetiga kup jihatdan yaqin kelishini qayd qilgan T.Mirzaev va B.Sarimsoqovlarning

¹ Зарифов Х. Улкан ҳалқ санъаткори // Эргаш шоир ва унинг достончиликдаги ўрни. – Тошкент: Фан, 1971. – Б.16.

fikricha, “Oysuluv” dostonining yaratilishiga asos bo‘lgan qadimiy rivoyatning “mazmuni grek tarixchisi Gerodotning (484-425) “Tarix” kitobidagi yarim tarixiy, yarim affsonaviy xarakterdagi naqli orqaligina ma’lumdir. Bu hol folkloristlar oldiga “Oysuluv” dostoniga asos bo‘lgan tarixiy va adabiy manbalarni yanada jiddiy o‘rganish, uning poetik tekstini izlash vazifasini qo‘yadi”.¹

Qayd qilish joizki, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi O‘zbek tili va adabiyoti ilmiy-tadqiqot instituti Folklor arxivida 1816-inventar raqami ostida ro‘yxatga olingan “Oysuluv” dostoni mavjud. Bu dostonning matni 15 ta o‘quvchi daftari va uchta umumiyligi daftarga avtoruchka bilan yozilgan, hajmi 437 sahifadan iborat. Uni 1991 yilda Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanidagi Tarqapchig‘ay qishlog‘ida yashovchi Ro‘zi baxshi Qulto‘ra o‘g‘li ijrosida qashqadaryolik folklorshunos olimlar A.Qahhorov hamda A.Ergashev yozib olgan. Biz ana shu asar matnini “Oysuluv” dostonining H.Zarifov tomonidan Ergash shoirning xotirasi asosida yozib olingan “Tilla kampir varianti” bilan solishtirib o‘qiganimizda, Ro‘zi Qulto‘ra o‘g‘li talqinidagi dostonning yuzaga kelishiga 1937 yilda yozib olingan “Oysuluv” dostonining nashri asos bo‘lgan, degan xulosaga keldik. Chunki bu doston Janubiy O‘zbekiston hududida istiqomat qilgan baxshilarining epik repertuarida mavjud bo‘lgan emas. Dostonning Ro‘zi Qulto‘ra o‘g‘li repertuari qayd etilishi esa xalq dostonlari nashrining baxshilar epik ijodiyotiga ko‘rsatgan ta’siri bilan bog‘liq hodisadir. Shunday bo‘lsa-da, ushbu variant bilan tanishish natijasida dostonning Ro‘zi Qulto‘ra o‘g‘li tomonidan aytilgan namunasi “Oysuluv” dostonining poetik matnini topish va yozib olish ehtiyoji kun tartibiga turganligi sababli Ergash shoirdan yozib olingan nasriy bayonning nashridan foydalangan holda sun‘iy ravishda “yasalgan”, degan xulosaga keldik. Chunki “Oysuluv” nomli doston yoki uning syujeti asosiga qurilgan boshqa biror epik asar qashqadaryo va Surxondaryo baxshilari repertuarida ilgaridan mavjud bo‘lmaganligi ham bu asarning yuzaga kelishi notabiyy hol ekanligini ko‘rsatadi.

Binobarin, o‘zbek folklorshunoslarning “Oysuluv” dostoni-ning tugal poetik matnini aniqlash va uni yozib olish borasida olib borgan ko‘p yillik ilmiy izlanishlari natija bermadi. Chunki bu doston faqatgina Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi vakilasi Tilla kampir tomonidangina aytilgan bo‘lib, boshqa baxshilar uni bilmagan. Ergash shoirning ta’biri

¹ Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Кўрсатилган мақола. – Б.19.

bilan aytganda, uni Jumanbulbul ham bilmagan, Jossoq ham bilmagan, boshqa shoirlarning ham aytganini eshitmaganlar. Tilla kampirning “ertagi” Qo‘rg‘on dostonchilik maktabining keyingi avlod ijodkorlari va ijrochilari tomonidan o‘zlashtirilmaganligi uchun bu asar epik xotirada saqlanib qolmagan. Natijada uning asl poetik matni unutilib ketgan. “Oysuluv” dostoni nafaqat Qo‘rg‘on, balki mamlakatimizdagi boshqa dostonchilik maktablari ijodiy an’anasida ham uchramaganligining boisi ana shunda. Hozirda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi O‘zbek tili va adabiyoti ilmiyat-tadqiqot instituti Folklor arxivida “Oysuluv” dostonining ikkita namunasi mavjudligi, ya’ni Ergash shoirdan 1937 yilda H.Zarifov yozib olgan variant hamda garchi yaratilishi jihatidan sun’iy bo‘lsa-da, qashqadaryolik Ro‘zi Qulto‘ra o‘g‘lidan yozib olingan, deb taqdim etilgan ikkinchi variant ro‘yxatga olinganligi bu ikki namunani bir-biridan keskin farqlash va epik an’anada mavjud bo‘lmagan, keyinchalik sun’iy ravishda “yasalgan” namunaning folklorshunoslik amaliyotida qo‘llanilishining oldini olish maqsadida Tilla kampirdan boshqa baxshi-shoirlar bisotida uchramaganligi sababli dostonning Ergash shoirning o‘z otasidan eshitgan xotirasi asosida H.Zarifovga aytib bergen nasriy bayonini mazkur epik asarning “Tilla kampir varianti” deb nomlashni ma’qul ko‘rdik.

Ergash shoir xotirasi asosida yozib olingan “Oysuluv” dostoni Eron bilan Turon mamlakatlarining bir-biriga taraf ekanligi, Eron podshohi Doro tez-tez turonliklar ustiga yurish qilib turishi va Turon podshosi unga qarshi jang qilib, el-yurtini himoya qilishining ta’rifidan boshlanadi. Turon mamlakatini Oysuluv degan bir alp ayol boshqarar, uning suluvgi beqiyos bo‘lib, ta’rifi Eron podshohining lashkarboshisi Pahlavon Qaysarning qulog‘iga ham yetib borgan edi. U Oysuluvga oshiq bo‘lib qoladi va qanday qilib bo‘lmasin, unga uylanish taraddudiga tushadi. Gerodot tomonidan naql qilingan rivoyatda esa massagetlar malikasi, marhum shohning xotini To‘marisni xotinlikka olmoqchi bo‘lgan podsho Kir unga sovchi qilib elchilarini yuboradi. Ammo Kirning sovchi yuborishi oshiqlik vajidan emas, balki To‘marisga uylanish orqali massagetlar yurtini o‘z tasarrufiga olish edi. Qashqadaryolik Ro‘zi Qulto‘ra o‘g‘lidan yozib olingan “Oysuluv” dostonining boshida keltirilgan nasriy qismda ham Eron va Turonning bir-biriga g‘ashligi, dushman hukmdorining turonliklar xuruj qilishi, Doro qo‘s Shiniga Qaysar degan pahlavon boshchilik qilishi bilan bog‘liq

tasvirlar xuddi Ergash shoirdan yozib olingan namunaga deyarli aynan o‘xhash holda berilgan.

Dostonda tasvirlanishicha, Oysuluvning bahodir o‘g‘li Kunbotirning ta’rifini eshitgan podsho Doro o‘zining lashkarboshisi Pahlavon Qaysarni o‘z huzuriga chaqirib Oysuluvning o‘g‘lini bandi qilib kelish vazifasini topshiradi. Garchi Ergash shoir o‘z otasidan eshitgan matnni qayta hikoya qilib bergan bo‘lsa-da, ijro jarayonida saj’dan o‘rinli foydalanganligini Doroning ushbu so‘zлari talqinidan ham bilsa bo‘ladi: “Ey Pahlavon Qaysar! Sen o‘zing polvon, egningda kark teri qalqon, belingda keskir isfihon, sening qo‘lingdadir mamlakati Eron, biz bilan qattiq taraf bo‘lipti mamlakati Turon”.¹ Ushbu matnda “polvon”, “qalqon”, “isfihon”, “Eron”, “Turon” so‘zlaridagi oxirgi ikki tovushning o‘zaro ohangdoshligi alliteratsiyaning ajoyib namunasini yuzaga keltirgan.

Dostonning Tilla kampir variantida podsho Doro o‘zining lashkarboshisi Pahlavon Qaysarga “Oysuluvni o‘ldirib, Kunbotirni asir qilishni” buyurishi tasvirlangan bo‘lsa, Ro‘zi Qulto‘ra o‘g‘li variantida Oysuluvning qo‘rg‘onini vayron qilishni amri farmon qilgan podsho Qaysarga shunday deydi:

Oysuluv der el so‘ragan shohini,
Husni qoyil qilar falak mohini.
Shunday yurtga qo‘shin tortib borsang sen,
Eshitmagin ko‘z yoshini, ohini.

Borib qo‘rg‘onini vayron aylasang,
Zo‘rlarining tortib qo‘lin boylasang.
O‘ljalarini norlar tirkab joylasang,
Xotin-qizin asir qilib haydasang.

Tang qilarsan Turon elning holini,
Suruv-suruv qilib hayda molini.
Avval topgin Kunbotiday ulini,
Mahkam qip bog‘la oyoq-qo‘lini.²

¹ Булбул тароналари / Эргаш Жуманбулбул ўғлининг достон ва термалари. Беш томлик. 1-том. Нашрга тайёрловчи: Ходи Зариф. – Тошкент: Фан, 1971. – Б.42.

² Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети хузуридаги Ўзбек тили ва адабиёти илмий-тадқиқот институти Фольклор архиви. И nv. №1816. 1-дафтар. – Б.5-6.

Doroning buyrug‘i Pahlavon Qaysarni o‘ylantirib qo‘yadi, chunki Turonga qo‘shin tortib bormayin desa, Doro podsho “agar qo‘rqsang o‘zim boraman”, deb turibdi; boray desa Turonning malikasi Oysuluvga ko‘ngil qo‘ygan, dushman bo‘lib borganini bilgach, “avvalo tegmaydi, tekkan bilan ko‘ngilsiz bo‘ladi” deb, nima qilarini bilmay, oxiri ayyormastonlarni ishga solishga qaror qiladi. Dostonning har ikkala variantida ham “ko‘sa” nomi bilan atalgan ayyor obrazi o‘zining makkorligi, shumligi, har qanday ishning uddasidan chiqa olishi mahorat bilan tasvirlangan. Tilla kampir variantida aytilishicha, “mastonlarning ichida uch yuz oltmishta kirgan, Daqqiyunusni ko‘rgan, shaytonga necha safar firib bergen bir ko‘sa bor edi, jami ayyorning keksa-qartaygani ham shu ko‘sa edi”.¹ Dostonning Ro‘zi Qulتو‘ra o‘g‘li talqinidagi variantida bayon qilinishicha, Doroning qo‘l ostidagi qirqta mastonning “bariga yoshi uch yuz oltmishtan oshgan, to‘rt yuzga yaqinlashgan, qancha-qancha podsholar bilan so‘ylashgan, hammasini la’qillatgan, yuragini dukillatgan bir ko‘sa ayyor boshchilik qilar edi. Ko‘sa bilan bilimdonlikda hech kim teng kelolmas edi”.² Bu o‘rinda o‘zbek xalq dostonchilik ijodiyotiga xos bo‘lgan an’anaviy epik qoliplardan biri – ayyor, ko‘sa, maston kabi salbiy tiplarning yoshi g‘oyat qarilagini tasvirlashda qo‘llaniladigan traditsion raqam timsoli (360 yoki 330) hamda “Daqqi Yunusni ko‘rgan” (yoki “Daqqi Yunusdan qolgan”) kabi birikma bilan ta’riflanishi hodisasining o‘ziga xos ifodasini ko‘ramiz. Xususan, Ergash Jumanbulbul o‘g‘lidan yozib olingan “Kuntug‘mish” dostonida tasvirlanishicha, epik qahramon Xolbekani izlab Zangar shahriga kelganida qo‘rg‘on darvozasi oldida qorovullik qilayotgan qo‘rboshiga duch bo‘ladi. Baxshi qo‘rboshini shunday ta’riflaydi: “Qo‘rboshi bobo uch yuz o‘ttizga kirgan edi. Daqqi Yunusni ko‘rgan edi, necha safar shayton bilan bahslashganda firib bergen edi, qarilikni bo‘yniga olmay, doim bo‘zbola bo‘lib yurgan edi”. Qo‘rg‘on dostonchilik maktabining boshqa bir vakili Egamberdi Ollomurod o‘g‘lining “Qironxon va Dilovar pari” dostonida³ Odilxon podshoning

¹ “Булбул тароналари”. – Б.44.

² Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети хузуридаги Ўзбек тили ва адабиёти илмий-тадқиқот институти Фольклор архиви. Инв.№1816. 1-дафтар. – Б.2-3.

³ Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети хузуридаги Ўзбек тили ва адабиёти илмий-тадқиқот институти Фольклор архиви. Инв.№1795. “Шахзода Киронхон ва Диловар пари” достони. Айтувчи: Эгамберди Олломурод ўғли.

sevimli xotini farzand ko‘rganiga chiday olmagan kundoshlar “uch yuz yoshga kirgan, Daqqi Yunusdan qolgan bir benavo ayyor”ning huzuriga ikki taqsimcha tilla olib borishadi.

O‘zbek folklorida salbiy personajlarning uzoq umr ko‘rganligini ifodalash maqsadida qo‘llaniladigan an’anaviy “Daqqi Yunusni ko‘rgan” birikmasi tarkibidagi “Daqqi Yunus” atamasining kelib chiqishi o‘zining yovuzligi bilan nom chiqargan Rim imperatori Diokleiton (245-313) haqidagi rivoyatlar bilan bog‘liqdir. Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida yozilishicha, “Daqlityonus ismli hukmdor sanamlarga ibodat qiluvchi Rum podshohlarining oxirgisidir. Podshohlik unga o‘tgach, uning avlodida qoldi. Bundan keyin Konstantin podshoh bo‘ldi. U Rum podshohlaridan xristian dinini qabul etgan birinchi podshoh edi”.¹

Uzoq umr ko‘rganlikning raqam belgisi sifatida “360”, “330”, “300” kabi raqamlarning Daqqi Yunus nomi bilan bog‘liq holda qo‘llanilishi ham o‘ziga xos an’ana bo‘lib, bu quyidagi naqlda ham o‘z ifodasini topgan: “Qadim zamonda zolimligi bilan nom chiqargan Daqqi Yunus degan bir podsho yashagan ekan. Kunlardan bir kuni uning g‘azabidan qo‘rqan yetti yigit bilan ularning bir iti olis tog‘dagi bir g‘orga yashirinib, uyquga ketishibdi. Uyg‘onganlaridan so‘ng ular Yamliqo degan yigitni non sotib olib kelish uchun bozorga yuboribdilar. Ammo nonvoy Yamliqo bergen pulni olmabdi. Ular hatto bir-birlarining tillariniyam tushunmabdilar. So‘ngra tilmoch chaqiribdilar. Shunda tilmoch: “Bu Daqqi Yunusdan qolgan pul, endi ular o‘tmaydi”, debdi. Ma’lum bo‘lishicha, Daqqi Yunusning olamdan o‘tganiga uch yuz yil bo‘lib, g‘orga yashiringan yigitlar shuncha vaqt uslashgan ekan”.²

Demak, “Oysuluv” dostonidagi ayyor ko‘sса obrazining qiyofasini chizishda xalq baxshilari ana shu epik an’anaga suyanib ish kurishgan.

Dostonda tasvirlangan Oysuluv obrazi bir tomondan o‘z elini jondidan suygan adolatparvar hukmdor sifatida gavdalansa, ikkinchi bir jihatdan o‘zining mardligi, mislsiz jasorati, qat’iyatliligi, qahramonligi bilan yurtni tashqi dushmanlar xurujidan mardonavor himoya qiladigan alp qiyofasida namoyon bo‘ladi. Atoqli olim H.Zarifov to‘g‘ri qayd etganidek, “husni, axloqi va odobi, matonati bilan yuksak insoniy fazilatlarni o‘zida mujassamlashtirgan Oysuluv obrazi tadbirli davlat arbobi, yovuz dushmanga dahshat soluvchi dovyurak botir, munosib

¹ Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. Т.1. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.65.

² Имомов К. Ўзбек халқ насли поэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.50.

qahramonlarni yetishtirgan olijanob va mehribon murabbiy ona sifatida alohida diqqatga sazovordir”.¹ Chindan ham Oysuluv obrazi o‘zida diyorini ko‘z qorachig‘iday asrab-avaylaydigan chinakam vatanparvar hukmdor, dushman qo‘shiniga tikka borib qiron keltirguvchi sheryurak bahodir, Kunbotirdek mard farzandni tarbiyalab voyaga yetkazgan mehribon ona, o‘zining mislsiz husni-jamoli bilan dovruq solgan sohibjavol, eldoshlarining dardiga malham bo‘lib, ularni ezgu yo‘lga boshlaydigan xalqparvar inson sifatida tasvirlanadi. Dostonning xalqchilligi, g‘oyaviy jihatdan pishiqligi va badiiy asar sifatida qadrlanishining sababi ham ana shunda.

Oysuluvning yovga nisbatan murosasizligi va har qanday g‘animning ustiga qo‘rqmay tikka borishi dostonning Tilla kampir variantida shunday bayon etilgan: “Oysuluv erkak libosini kiyib, olmos qilichini, kark teri qalqonni qo‘iga olib, qo‘shinni otlantrib, karnaysurnay torttirib, Asqartog‘iga qarab kelaberdi”.² Qo‘shin Asqartog‘iga yetib kelganida Pahlavon Qaysarning lashkari ham ularning ro‘parasida shay bo‘lib turgan bo‘ladi. Dushman lashkari ichidagi devlarning vajohatini ko‘rgan turonliklarning ayrimlari ko‘rqib chekinmoqchi bo‘lganda Oysuluv ularga dalda berib, bir so‘z aytadiki, bu holat ushbu epik obrazning alp ayol sifatidagi qahramonona talqinida asosiy chizgilardan bo‘lib xizmat qiladi: “Oysuluv askarning devlardan qo‘rqqani bilib: – Odam devdan qo‘rqami? Devi bilan men olishaman, askari bilan siz, – deb shakaman merganlarni ilgari solib, ularga dalda berib, devlarga qarab ot qo‘ydi. Ikki orada dara-darada urush bo‘ldi, hech yerda bo‘lmagan surish bo‘ldi. Oysuluv tulporiga qamchi bosib, to‘da-to‘da devga yuguradi, yetgandan ikki bo‘ladi, to‘p-to‘p qilib oldiga solib quvadi”.³ Ko‘rinadiki, doston qahramoni Oysuluv jangu jadallarda qahramonlik ko‘rsatib, dushmanning dodini bergen, hatto mifologik tabiatga ega bo‘lgan xayoliy personajlar sifatida tasvirlangan devlarni ham tor-mor etib jasorat ko‘rsatgan mard ayol. U uchqur tulporini mingancha, jang maydonida bahodirlarcha savash qilishi bilan turonliklar lashkariga o‘rnak bo‘lgan alp hukmdor. Dostondagi Oysuluv obrazi o‘z yurtining mustaqilligini bor kuch-g‘ayrati bilan himoya qiluvchi, ona diyorining muqaddas tuprog‘i yovuz dushman otining

¹ Зарифов Х. Улкан ҳалқ санъаткори // Эргаш шоир ва унинг достончиликдаги ўрни. – Тошкент: Фан, 1971. – Б.16.

² “Булбул тароналари”. – Б.60.

³ “Булбул тароналари”. – Б.61.

tuyoqlari ostida toptalmasligi uchun jonini ham berishga tayyor turgan fidoyi va vatanparvar hukmdor sifatida tasvirlanadi.

Oysuluv obraziga xos ana shu xususiyat Gerodotning “Tarix” kitobida naql qilingan “To‘maris” rivoyati qahramoniga ham xos bo‘lgan yetakchi xossa sanaladi. To‘maris ham xuddi Oysuluv singari o‘z vatanini, fidoyi va mehnatkash yurtdoshlarini jon-dildan sevadi. Yurtiga bostirib kirishni niyat qilgan har qanday dushmanga qarshi mardonavor kurashidi. Kirning qo‘s Shinlari massagetlar diyoriga o‘tish uchun daryoga ko‘prik qurayotganligini eshitgan To‘maris Eron shohiga elchi orqali shunday xabar yuboradi: “Ey, Eron shohi! G‘arazli maqsadingdan voz kech. Bu ko‘priklarni qurish senga yaxshilik keltiradimi yoki yo‘qmi, sen buni hali oldindan bilmaysan. Shu sababli bu ishingni to‘xtat-da, o‘z mamlakatingga shohlik qilaver, biz ham mamlakatimizni o‘zimiz idora etishimizga hasading kelmasin. Albatta, sen bu maslahatga amal qilishni xohlamaysan. Sen tinchlikni saqlash emas, balki qanday bo‘lmasin, urushni afzal ko‘rasan. Agar sen massagetlarga hujum qilishni zo‘r havas bilan xohlayotgan bo‘lsang, u holda ko‘prik qurish ishlarini to‘xtat. Qo‘siningni xotirjamlik va bexavotirlik bilan bizning mamlakatimizga olib o‘t, biz daryodan mamlakat ichkarisiga uch kunlik yo‘l yurib, chekinamiz. Agar sen bizni o‘z yeringga kiritishni istasang, bu haqda ham xabar qilki, bunga ham rozimiz”.

Ana shu parchadan ko‘rinadiki, To‘maris har qanday dushmanidan qo‘rqmaydigan jasur, botir hukmdor. Shu bilan bir qatorda unda mardlarga xos tantilik va adolatlilik xislatlari ham bor. Shuning uchun u Kirga halol jang orqali o‘z vatanini himoya qilajaligini bildiradi. Binobarin, Oysuluv va To‘maris obrazlari o‘zining tarixiy-qahramonlik eposi personajlariga xos epik talqini, chuqur ijtimoiy mohiyat kasb etishi hamda badiiy ifodasiga ko‘ra mushtaraklik kasb etadi. Bu esa “Oysuluv” dostoni syujetining tarixiy asoslari sak-massagetlar eposida shakllangan To‘maris to‘g‘risidagi rivoyatga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatuvchi muhim dalildir.

“Oysuluv” dostoni syujetining shakllanishiga asos bo‘lgan manba To‘maris haqidagi qadimiy rivoyat ekanligini tasdiq-laydigan dalillardan biri har ikkala asar kompozitsion qurilishidagi motivlar tarkibidagi o‘xshashlik, mushtaraklikdir. Misol tariqasida, Oysuluvning o‘g‘li Kunbotirning dushman qo‘liga banldi bo‘lib tushishi motivini olib ko‘raylik.

Dostonda tasvirlanishicha, Oysuluvning o‘g‘li Kunbotir qirq yigit bilan Asqartog‘iga ov qilgani borib, ov ovlab yurib bir takani otadi. Taka oqsaganicha qochib, bir dara bilan enkayib, tog‘ning Eron tomon oshuviga tushib ketadi. Kunbotir uning orqasidan qirq yigit bilan izmaz quvib ketadi. Yarador taka daradan-daraga o‘tib, yul adashtirib, buzuq yerga urib ketadi. Kunbotir qorasini ham ko‘rmay, takasini axtarib tog‘ning ustiga tushib qoladi. Shu tariqa Kunbotir bilan uning qirq yigit Pahlavon Qaysar tomonidan yollangan ayyor ko‘saga duch kelib qolishadi. Ayyor ko‘sa o‘zini Doro podshodan jabr kurib qochgan kishi qilib ko‘rsatib, aldov yo‘li bilan Kunbotirni o‘zining avvaldan tayyorlab qo‘yilgan makoni – g‘orga boshlab boradi. Kunbotir bu ko‘saning ko‘nglidagi shumlikni bilmay g‘aflatda qoladi. Ayyor ko‘sa Kunbotir bilan uning qirq yigitini mehmon qiladi, “parilar ko‘hna sharobni kosalarga to‘ldirib quyaberdi, yuz nozi bilan, shirin so‘zi bilan alyor deb Kunbotirga bosib uzataberdi, u ham olib ichaberdi. Shunday qilib, Kunbotirning ham boshi gangib, bu ham yiqilib, uxlab qoldi”.¹ Shunday qilib, ayyor ko‘sa bilan uning mastonlari hiyla ishlatib, Kunbotir bilan uning yigitlarini mast qilib, qo‘lga tushiradilar.

Kunbotirning yarador taka ortidan quvib o‘zga yurt – Eron hududiga o‘tishi tasvirida turkiy xalqlar eposiga xos an’anaviy motivlardan biri – ohu (kiyik, bug‘u, bo‘ri va h.k.)ning epik qahramonga yo‘l boshlovchilik qilishi motivining o‘ziga xos ifodasini ko‘ramiz. Bu epik motiv o‘zbek xalq dostonlarida ko‘p uchraydi. Masalan, Islom shoir Nazar o‘g‘lidan yozib olingan “Orzigul” dostonida tasvirlanishicha, besh kunlik shikorga chiqqan Suvonxon ov qilib yurganida bir kuni kechasi ko‘ziga yovvoyi kiyik ko‘rinadi. Suvonxon va uning yonidagi beklar bu kiyikni ushlab olmoqchi bo‘lib quvadilar. Kiyik bir necha kecha-kunduz qochib yurib, Asqar tog‘ining belidan o‘tib ketadi. Oradan yigirma uch kun o‘tgach, beklar kiyikni ko‘zdan qochiradilar, ammo Suvonxon kiyikning izidan quvishni to‘xtatmaydi. Kiyik esa qochib borib Qushqanot qo‘rg‘oniga kirib ketadi. Suvonxon shu kiyikning orqasidan Qushqanotga kiradi va Orzigul bilan uchrashadi.² Yo‘l boshlab boruvchi jonivor obrazi bilan bog‘liq epik motivlarning tarixiy ildizlari juda qadimiydir. Chunki qadimgi turkiylarning miflarida ham qabilani yangi manzilga bug‘u boshlab borganligi hikoya qilingan.³

¹ “Булбул тароналари”. – Б.45-47.

² Орзигул. Ўзбек халқ ижоди. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – Б.300-301.

³ Гадло А. В. Этническая история северного Кавказа IV-X вв. – Л.: Наука, 1979. – С.17.

Binobarin, Kunbotir qirq yigit bilan mastlik tufayli dushman qo‘liga tushishi motivi To‘marisning farzandi Sparganisning Kir tuzog‘iga tushishi voqeasining aynan takroriga o‘xshaydi. Gerodotning hikoya qilishicha, Eron shohi Kir Krezning maslahati bilan kuchsiz jangchilarini qarorgohida qoldirib, o‘zi esa qo‘shinning sara qismi bilan orqaga chekinadi. Massagetlarning qo‘shini Kir qoldirgan askarlari bilan jangga kirishadi va ularni mag‘lubiyatga uchratadi. Massagetlar g‘alabadan keyin forslarning qarorgohini egallar ekan, bu yerdagi nozne’matlarni ko‘rib, aysh-ishrat qilishga kirishadilar. Jangchilar sharoblardan to‘yanicha ichishib, mast bo‘lishib, uyquga ketishadi. Voqea shunday tugashini kutib turgan fors jangchilarining asosiy qismi yetib keladi va massagetlarning katta qismini o‘ldirib, asirga oladi. Asirga olinganlar orasida malika To‘marisning o‘g‘li, massagetlar lashkarboshisi Spargapis ham bor edi.

Massagetlar rivoyatida hikoya qilinishicha, Spaganis dushman qo‘liga asir tushgach, Eron hukmdori malika To‘marisga o‘z qo‘shini va o‘g‘lining taqdiri haqidagi xabar yuboradi. To‘maris ham Kirga elchi yuborib, o‘z munosabatini bildirar ekan, shunday deydi: “Qonxo‘r Kir! Sen bu jasorating bilan faxrlanma. Uzumning suvi sening aqlingni ham yo‘qotadi. Sharob ichganingda sen ham yaramas gaplarni aytib, sayray boshlaysan. Demakki, sen mening o‘g‘limni odil jangda qurol kuchi bilan emas, zahar makri bilan yengding. Endi mening yaxshi maslahatimni eshit: o‘g‘limni qaytarib ber-da, xushu xushvaqt mening yurtimdan chiqib ket. Ketmasang, massagetlarning jasur askarlari seni sharmandalarcha halok qiladi. Agar sen bunga ko‘nmasang, massagetlar tangrisi Quyosh nomi bilan qasam ichamanki, men sen mechkayni qonga to‘ydiraman”.

Ana shu monolog orqali massaget malikasi To‘marisning naqadar jasurligi, har qanday vaziyatda ham o‘zini yo‘qotmasdan, oqilona fikr yurita bilishi, dushmanga nisbatan murosasizligi, fidoyiligi va yurtsevarligi o‘z ifodasini topganligini anglaymiz.

Turon malikasining o‘g‘li bandi bo‘lganidan keyin elchi orqali taslim bo‘lish taklifining yetkazilishi va bunga dovyurak malikaning mardonavor javob berishi motivi “Oysuluv” dostonida ham mavjud. Tilla kampir variantida Pahlavon Qaysarning “Agar Oysuluv podsho urushmasdan mamlakatni bersa, o‘zi ham menga tegsa, zindonda yotgan o‘g‘lini chiqarib beraman, ham o‘zi, ham o‘g‘li o‘limdan omon qoladi”, degan mazmundagi maktubini o‘qib ko‘rgan Oysuluv elchilarga qarata shunday deydi: “Doro bilan Qaysarga aytinlar: podsholaring qo‘lidan

kelganini qilsin! Bor lashkari bilan, qo‘ru qo‘rxonasi bilan urushga otlansin! Men taraddud qilib turibman, bosib boraman. Yo Doro bilan Qaysarni o‘ldirib, Kunbotirning o‘chini olaman, yo shu urushda o‘lamani”.¹

Yuqorida keltirilgan qiyosiy tahlillar asosida shunday xulosaga kelish mumkin:

1.Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi epik an'analarini o‘zida mujassamlashtirgan Tilla kampirning ijrosi orqali XVIII-XIX asrlarda xalasida keng ommalashgan “Oysuluv” dostoni massagetlar malikasi To‘maris to‘g‘risidagi qadimgi rivoyat syujetining epik rivoji va badiiy evolyusiyasi natijasida shakllangan. O‘zbek xalq dostonchiligi ijodiyotining ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida yuzaga kelgan bu dostonning hayotiy-tarixiy asoslari To‘maris rivoyati borib taqaladi.

2. Gerodotning “Tarix” asarida naql qilingan To‘maris haqidagi rivoyat hamda “Oysuluv” dostonining Tilla kampir varianti syujetining yetakchi motivlari va obrazlar tizimi (To‘maris – Oysuluv, Sparganis – Kunbotir, Kir – Doro, Gishtasp – Pahlavon qaysar, Krez – ayyor ko‘s) mushtarak bo‘lib, bir-biriga to‘la mos keladi. “To‘maris” rivoyatida massagetlar o‘lkasiga bostirib kelgan dushman hukmdori Kir deb nomlangani holda “Oysuluv” dostonida Eron podshosining ismi Doro deyilishi epik syujetning badiiy evolyusiyasi davomidagi kontaminatsion jarayonlar bilan bog‘liqdir. Chunki tarixiy manbalardan ma’lum bo‘lishicha, O‘rta Osiyoga bosqinchilik yurishi bilan hujum qilgan Kir massagetlar bilan bo‘lgan jangda yengilgach, uning boshini tanasidan judo qilishgan. Bu tarixiy haqiqat sak-massageget eposi namunasai hisoblangan “To‘maris” rivoyatida ham o‘z ifodasini topgan. Epik syujetning tadrijiy rivoji natijasida fosiq hukmdor obrazi bilan bog‘liq epik talqinlar keyinchalik O‘rta Osiyoga yana bosqinchilik maqsadida yurish qilgan Eron podshosi Doro nomi bilan bog‘liq holda tasvirlanishi an'anaga aylanganligi sababli “Oysuluv” dostonida Kir nomi uchramaydi.

3.To‘marisning jasorati haqidagi hikoya qiluvchi sak-massageget eposi syujetining tarixiy-folkloriy jarayondagi izchil rivoji davomida dastlabki epik yacheyska (taxmin qilish mumkinki, Gerodot “Tarix”ida hikoya qilingan rivoyat tarzida bo‘lgan)ning asosiy mohiyati, motivlar tarkibi va obrazlar silsilasi (garchi personajlar ismi o‘zgartirilgan va motivlar yangicha epik talqin qilina boshlagan bo‘lsa-da) asosan

¹ “Булбул тароналари”. – Б.51-52.

saqlanib qolgan. Shu bilan bir qatorda jangnoma dostonlar va romanik eposning intensiv yaratilishi va takomillashishi jarayonida o‘z yurtini dushmanlardan mardlarcha himoya qilgan alp ayol to‘g‘risidagi qadimiy syujet jangnoma dostonlar va romanik eposga xos motivlar bilan ham boyitila borgan. “Oysuluv” dostonida dushman zindoniga tushgan Kunbotirni Pahlavon Qaysarning qizi Oftoboy sevib qolishi motivining “Yusuf bilan Ahmad” dostonida Misrda zindonband etilgan qahramonlarga Go‘zalshohning zindonboshisi Hamza mirshabning qizi Qorako‘zning g‘amxo‘rlik qilishi voqealariga o‘xhashligi kabi parallelliklarning sababi shu bilan izohlanadi.

4. Hayotiy voqelikni ifoda etish tarzi va g‘oyaviy-badiiy mohiyatiga ko‘ra “To‘maris” rivoyatining sak-massagetlar folklorida jonli ijroda ommalashgan dastlabki shakli tarixiy-qahramonlik eposi xarakterida bo‘lgan. Binobarin, “Oysuluv” dostonining Tilla kampir varianti ham o‘zining janriy mansubiyatiga ko‘ra tarixiy-qahramonlik eposi namunasi hisoblanadi. Har ikki epos namunasidagi asosiy personajlarning epik talqini, asarlarning xalqchilligi va g‘oyaviy asoslarini belgilovchi ijtimoiy-tarixiy mohiyati ham shunday xulosa chiqarishni taqazo etadi.

XULOSA

Sak-massaget eposi namunalarining qadimgi yozma manbalar orqali yetib kelgan rudimentlarini o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodi namsunalari bilan qiyosiy o‘rganish orqali folklordagi epik syujetlar evolyusiyasiga doir quyidagi xulosalarga keldik:

1. O‘zbek folklori epik janrlarining shakllanish tarixi va tadrijiy rivoji qonuniyatlarini aniqlashda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan og‘zaki badiiy ijod namunalari, ya’ni qadimgi davr folklori, ya’ni arxaik folkloini tadqiq etish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Binobarin, muayyan etnos og‘zaki badiiy ijodi an’analalarining eng qadimiylarini “paleofolklor” termini bilan ifodalash maqsadga muvofiqdir. Xalq ijodining jonli ijro holatida yetib kelgan namunalarini aniqlash, epik syujetlar tizimining genetik ildizlari va rivojlanish jarayoniga xos xususiyatlarni yoritish, tarixiy-folkloriy jarayon rivoji natijasida an’anadan tushib qolgan yoki unutilib ketgan arxaik syujetlarni rekonstruksiya qilish “paleontologik metod” asosida amalga oshiriladi.

2. Xalq og‘zaki ijodining eng qadimiylariga oid materiallarni bevosita og‘zaki ijro sharoitlarida yozib olish ishlari deyarli amalga oshirilgan emas. Chunki paleofolklor yaratilgan va yashashda davom etgan davrlarda ko‘pchilik etnoslar hali o‘z yozuviga ega bo‘lmaganligi tufayli buni amalga oshirishning imkonini ham yo‘q edi. Jahon folklorshunosligi tarixida xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini bevosita ijrochilar og‘zidan jonli ijro holatida yozib olish ishlari juda qadimdan boshlanganligi, xususan, qadimgi xitoy xalq qo‘shiqlarini to‘plash ishlari miloddan burungi davrlarda konfutsiylik ta’limoti bilan bog‘liq holda boshlanganligi haqida ma’lumotlar bor. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotining eng qadimgi namunalarini, ya’ni paleofolkloini aniqlash va ilmiy tadqiq etishda asosan qadimgi yozma yodgorliklarda keltirilgan folklor materiallari, arxeologik topilmalar va qoyatosh suratlari, ya’ni petroglyphlarda aks etgan obraz va syujetlar, shuningdek, folklor va marosimlarda saqlanib qolgan mifologik tasavvurlar, inonch-e’tiqodlar asosiy manba vazifasini o‘taydi. Shunday bo‘lsa-da, paleofolkloarning o‘ziga xos jihatlarini nisbatan to‘laroq saqlab qolgan manba – bu o‘tmishda yaratilgan yozma manbalar xisoblanadi. Qadimgi davr folklorini o‘zida jamlagan yozma yodgorliklar sirasiga mamlakatimizda yaratilgan ulkan yozma obida – “Avesto”, antik davr manbalari – Gerodotning 9 kitobdan iborat “Tarix”i, Polienning “Harbiy hiylalar”,

sitsiliyalik Diodorning “Tarixiy kutubxona”, Flaviy Arrianning “Aleksandrning yurishi”, Kursiy Rufning “Aleksandr Makedonskiy tarixi”, Strabonning “Geografiya”, Klavdiy Ellianning “Ajoyib hikoyalar”, Pompey Tron va Yustinning “Tarixiy kundaliklar” kabi asarlari, shuningdek, O’rta Osiyo xalklari tarixi, madaniyati, tili va urfodatlari haqida ma’lumot bergen qadimgi xitoy yozma yodgorliklari kiradi.

3. O’zbek folklori epik syujetlarining arxaik qatlamin qadimda Tog‘li Oltoydan Kavkazortigacha bo‘lgan ulkan hududda, shu jumladan, mamlakatimizning Zarafshon vohasi, hozirgi Toshkent viloyati hamda Farg‘ona vodiysida istiqomat qilgan sak va massaget qabilalari eposi tashkil etadi. Jo‘g‘rofiy jihatdan bunday ulkan hududda yashagan sak-massaget qabilalari nomoddiy madaniyatining umumiyligi jihatli ularning rivojlangan mifologik tasavvurlar tizimi, fanda “hayvon uslubi” deb nom olgan mifopoetik tasviriy san’at usulini yaratganligi hamda qahramonlik, mardlik va jasoratni kuylovchi yirik epik asarlarni o‘z ichiga olgan eposlar silsiga ega bo‘lganligi bilan belgilanadi.

4. Mamlakatimiz hududida yashagan ajdodlarimizning ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida nomoddiy madaniy meros, shu jumladan, xalq og‘zaki badiiy ijodi an’analari o‘z tabiatiga ko‘ra muttasil ravishda yangilanib, takomillashib, ba’zilari unutilib, yangilari esa yaratilib kelavergan. Izchil davom etgan ana shunday tarixiy-folkloriy jarayon natijasida sak-massagetlar eposi keyinchalik shu etnoslarning ham bevosita ishtirokida shakllangan o‘zbek xalqining dostonchilik an’analariga singib ketgan. Gerodotning “Tarix” kitobida keltirilgan “Skiflarning dunyoga kelishi”, “Geraklning o‘z otini izlashi”, “To‘maris”, “Ko‘r qullar”, “Saklar qozoni” va boshqa ko‘plab sak-massaget eposining qoldiq holdagi namunalari, Polienning “Harbiy hiylalar” kitobidagi “Shiroq” rivoyati, shuningdek, tarixiy-vorisiy aloqadorlik natijasida antik davr yozma manbalaridan o‘rin olgan “Zarina va Strangey”, “Amorg va Sparetta”, “Zariadr va Odatida” kabi qadimiy romanik epos namunalarining qiyosiy-tarixiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, asosan qahramonlik-jangnoma va ishq-muhabbat mavzusidagi asarlarni o‘z ichiga olgan sak-massaget eposi har tomonlama rivojlangan o‘zbek xalq dostonchiligi an’analarining yuzaga kelishiga asos bo‘lgan manbalardan biri rolini o‘tagan.

5. Sak-massagetlar davri epik kuychilar, ya’ni baxshilar repertuari asosan qahramonlik va jangnoma mazmunidagi tarixiy qo’shiqlar, bahodirlik rivoyatlari va dostonlaridan iborat bo‘lishi o‘sha davr

ijtimoiy-siyosiy muhitining o‘ziga xos tabiatini bilan bog‘liq bo‘lib, urug‘-qabilalarning etnomadaniy konsolidatsiyasi tobora kuchayib borishi va tashqi dushmanidan himoyalanish maqsadida o‘zaro birlashish g‘oyasi yetakchi planga chiqishining natijasidir.

6. Sak-massaget xalq poeziysi va tarixiy eposi bosqinchi dushmanlarga qarshi olib borilgan mardonavor kurash voqealari hamda yurt daxlsizligi uchun bo‘lgan ana shunday janglarda alohida jasorat ko‘rsatgan ayrim bahodirlarning mislsiz qahramonligini aniq faktlar va hayotiy lavhalar bilan tasvirlagan. To‘maris haqidagi tarixiy rivoyatning yuzaga kelishi va xalq orasida keng yoyilishining sababi ham ana shunda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR

1. Karimov I. O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-sonli «Qadimiylar yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori // «Xalq so‘zi» gazetasi. – Toshkent, 2017 yil, 25 may.
3. Abaev V.V. Osetinskiy yazык i folklor. T.I. - M.-L., 1949.
4. Abaev V.I. Skifo-yevropeyskie izoglossы. – M.: Nauka, 1965.
5. Abaev N.V. Otrajenie religiozno-mifologicheskix predstavleniy narodov Sayano-Altaya v skifo-sakskoy mifologii // Vestnik Buryatskogo gosudarstvennogo universiteta. Ser.16. – Выр.1. – Ulan-Ude, 2004. – S.166-178.
6. Abramzon S. M. Folklorные motivы v kirgizskix predaniyax geneologicheskogo sikla // Folklor i etnografiya. Svyazы folklora s drevnimi predstavleniyami. – L., 1977.
7. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 2-tom. Hindiston. – Toshkent: Fan, 1965.
8. Aytmuratov D. Tyurkskie etnonimy: karakalpak, chernye klobuki, cherkez, bashkurt, kyrgyz, uygur, tyurk, pecheneg, sak, massaget, skif. – Nukus, 1976.
9. Akimov M. Xudojestvennye osobennosti geroicheskix i lyubochnyx dastanov Azerbaydjana. – Baku: Znanie, 1986.
10. Akishev A.K. Iskusstvo i mifologiya sakov. – Alma-ata: Nauka, 1984.
11. Akishev K.A., Kusheev G.A. Drevnyaya kultura sakov i usuney doliny reki Ili. – Almata: Nauka, 1963.
12. Artamonov M.I. Sokrovicha sakov. – L., 1973. Artamonov M.I. Antropomorfnye bojestva v religii skifov // Arxeologicheskiy sbornik Gosudarstvennogo Ermitaja. Выр.2. – L., 1961. – 51-64.
13. Asqarov A. O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2015.
14. Afanaseva V.K. Gilgamesh // Mify narodov mira. T.1. – M., 1980. – S.302-303.
15. Babaev M. Jizn, istoriya, epos. – Tashkent: Fan, 1991.
16. Bahodirova S. Tumaris (qissa). Qoraqalpoqchadan Muzaffar Ahmad tarjimasi. – Toshkent: O`zbekiston, 2016. – 120 b.

17. Bichurin N.Ya. Sobraniya svedeniy o narodax, obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. T.1. – M. –L.: Izd-vo AN, 1950. – S.144-230.
18. Bogachenko Tatyana Viktorovna. Istoricheskie osnovy skazaniy o jenšinax-voitelnitsax Yujnorusskix stepey: Dis. ... kand. ist. nauk. – Rostov na Donu, 2005. – 263 c.
19. Boynazarov F. O‘rta Osiyoning antik davri. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991.
20. Bongar-Levin G.M., Grandtovskiy E.A. V poiskakh skifskogo epoka // Kurer YuNESKO. – 1977. – №1. – S.43.
21. Bubenyuk O.B. Sledы исчезнувших аланов в Средней Азии // Sxidniy svit. – Minsk, 2003. – №1. – S.31.
22. Bulbul taronalari / Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining doston va termalari. Besh tomlik. 1-tom. Nashrga tayyorlovchi: Hodи Zarif. – Toshkent: Fan, 1971.
23. Veselovskiy A.N. Istoricheskaya poetika. – M.: Vysshaya shkola, 1989. – 406 s.
24. Gagloyti Yu.S. Alanы i voprosy etnogeneza osetin. – Tbilisi, 1966.
25. Gadlo A. V. Etnicheskaya istoriya severnogo Kavkaza IV-X vv. – L.: Nauka, 1979.
26. Gasanov Z. Elementы shamanizma v epose “Kyoroglu” i v mife o proisxojdennii skifov ot Gerakla // Ot obЩego tyurkskogo proshloga k obЩemu tyurkskomu buduЩemu. – Baku, 2007. – S.706-716.
27. Gerodot. Iстория. – L.: Nauka, 1972.
28. Gerodot. Iстория. V 9-ti kn. / Per. G.A.Stratanovskogo. T.2. – M.: OOO “Izdatelstvo AST”, “Ladomir”. – 2001.
29. Grabar-Passek M. Antichnye syujetы i formы v zapadnoevropeyskoy literature. – M.: Nauka, 1966.
30. Grakov B.N. Perejitki skifskix religiy i epasa u sarmatov // Vestnik drevney istorii. – M., 1969. – №3. – S.70-72.
31. Gutnov F.X. Rannie alanы. Problemy etnosotsialnoy istorii – Vladikavkaz: Ir, 2001.
32. Dalgaт U.B. Literatura i folklor. – M.: Nauka, 1981.
33. Dovatur A.I. Povestvovatelnyi i nauchnyi stil Gerodota. – L., 1957.
34. Drevnie avtorы o Sredney Azii. – Tashkent: Ostexizdat, 1940.
35. Dyakonov I.M. Epos o Gilgameshe // Epos o Gilgameshe (“O vse vidavshem”). Per. sakkadskogo I.M.Dyakonova. – SPb., 2006.

36. Dyakonov M.M. Ocherki istorii drevnego Vostoka. – M., 1956.
37. Dyakonov M.M. Ocherki istorii drevnego Vostoka. – M., 1956.
38. Dyumezil J. Legendы о “сыновьях слепых” на Кавказе и в Прикаспии // Etnograficheskoe obozrenie. – M., 1996. – №5. – S.81-93.
39. Yevsyukov V.V. Mifologiya kitayskogo neolita. Istorya i kultura Vostoka Azii. – Novosibirsk: Nauka, 1988.
40. Yelniskiy Ye.A. Skifы yevraaziyskoy stepi. – Novosibirsk, 1977.
41. Yelniskiy L.A. Skifskie legendы kak kulturno-istoricheskiy material // Sovetskaya arxeologiya. – 1970. – №2. – M., 1970. – S.63-73.
42. Jirmunskiy V.M. Narodnyy geroicheskiy epos. – M., –L., 1962.
43. Jirmunskiy V.M. Oguzskiy geroicheskiy epos i “Kniga Korkuta” // Kniga moego deda Korkuta. – M. –L., Nauka, 1962.
44. Jirmunskiy V.M. Tyurkskiy geroicheskiy epos. – L.: Nauka, 1974.
45. Jirmunskiy V.M. Folklor Zapada i Vostoka. Sravnitelno-istoricheskie ocherki. – M., 2004.
46. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos. – M.: OGIZ, 1947.
47. Jumanazarov U. “Oysuluv” – sof tarixiy doston // O‘zbek filologiyasining dolzarb masalalari». (Maqolalar to‘plami). – Toshkent: Fan, 1991. – B.162-167.
48. Jumanazarov U. To‘maris shaxsiyati: tarix va afsona // Xalq og‘zaki ijodiyoti milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimida (xalqaro ilmiy konferensiya materiallari). – Nukus: “Ilim” nashriyoti, 2015. – B.25-26.
49. Jumanazarov U. O‘zbek folklori va tarixiy voqelik. – Toshkent: Fan, 1991.
50. Jumanazarov U. Xalq tarixi sahifalarini varaqlaganda (adabiy-badiiy badihalar). – Jizzax, 2006.
51. Jo‘raev M. «Alpomish» dostonida mifologik obrazlar // «Alpomish» – o‘zbek xalq qahramonlik eposi. – Toshkent, 1999. – B.149-154.
52. Jo‘raev M. Arxeofolkloristika: qoyatosh suratlari va kalendar miflar genezisi // Xorazm folklori. VIII kitob. – Urganch, 2006. – B.20–28.
53. Jo‘raev M. Bo‘ri haqidagi qadimgi turkiy miflar va o‘zbek folklori // Adabiyot gulshani. – Toshkent, 1999. – B.8-17.

54. Jo‘raev M. Navro‘z bayrami / O‘zbek folklorshunosligi kutubxonasi. – Toshkent: Fan, 2009.
55. Jo‘raev M. Paleoosiyo mifologik syujetlari va ularning arxeofolkloristik talqini // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2006. – 5-son. – B.15.
56. Jo‘raev M. Rukopisnoe nasledie i yego rol v izuchenii epicheskoy traditsii tyurkoyazichnih narodov sentralnoy Azii // Rukopisi – pervichnyy istochnik izucheniya natsionalnogo naslediya (Materialy mejdunarodnoy nauchnoy konferensii. 13-14 marta, 2013 goda). – Ashgabad, 2013. – S.400-402.
57. Jo‘raev M. Folklorshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2009. – 190 b.
58. Jo‘raev M., Saidova R. Buxoro afsonalari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 126 b.
59. Zarifov X.T. K izucheniya uzbekskogo narodnogo eposa // Voprosy izucheniya eposa narodov SSSR. – M.: Izdatelstvo Akademii nauk, 1958.
60. Zarifov H. Arshaq – xalq qahramoni // O‘zbek folklorshunosligi masalalari. 3-kitob. – Toshkent: Fan, 2011. – B.14-30.
61. Zarifov H. Ulkan xalq san’atkorি // Ergash shoir va uning dostonchilikdagi o‘rni. – Toshkent: Fan, 1971. – B.37-23.
62. Zarifov H. Folklor va arxeologiya materiallarini qiyosiy o‘rganish masalasiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1958. – №1. – B.25-30.
63. Zarifov H.T. O‘zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo‘yicha tekshirishlar // Po‘lkan shoir. O‘zbek xalq ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 4-kitob. – Toshkent: Fan, 1976. – B.69.
64. Zemaletdinov Z.L. Tatarskaya narodnaya skazka i literaturnye skazki G.Tukaya: Avtoref. diss. kand. filol. nauk. – Kazan, 1993.
65. Ibrohimova Z. 2013 yil bolalar nasri haqida // Sharq yulduzi. – Toshkent, 2014. – №3. – B.122.
66. Imaeva G.Z. Skazochnye novellisticheskie syjetы AT 950 “Sokrovища Rampsinita”, AT 1534 “Shemyakin Sud” i ix otrajenie v literature: Avtoref. diss. kand. filol. nauk. – Yekaterinburg, 1995. – S.14.
67. Imomov K. O‘zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
68. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi (darslik). – Toshkent, 1990. – 304 b.
69. Ingkyong O. “Alpomish” va “Jumo‘ng” dostonlarining qiyosiy-tipologik tahlili: Filol. fanlari dokt. diss. – Toshkent, 2014.

70. Ipak yo‘li afsonalari (Joy nomlari bilan bog‘liq afsonalar). To‘plab, nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi: M.Jo‘raev. – Toshkent: Fan, 1993. – 128 b.
71. Ismagilov R.B. O lokalizatsii nekotorix plemen “Istorii” Gerodota // Istoricheskie chteniya pamyati M.P.Gryaznova. Ch. 2. – Omsk, 1987.
72. Istorya narodov Uzbekistana. T.I. – Tashkent, 1950.
73. Karimiy G‘ulom. So‘zboshi // Alisher Sa’dulla. Shiroq (qissa). – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – B.3-4.
74. Karmysheva B.X. Ocherki etnicheskoy istorii ujnykh rayonov Tadzhikistana i Uzbekistana. – M.: Nauka, 1976.
75. Karomatov H. O‘zbekistonda moziy e’tiqodlar tarixi. – Toshkent, 2008.
76. Kattabekov A. Tarixiy haqiqat va badiiy mahorat. – Toshkent: Fan, 1982.
77. Kisel V.A. Rasskaz Gerodota i ritualnye sosudy drevnih kochevnikov // Arxeologiya, etnografiya i antropologiya Yevrazii. – №3 (31). – Novosibirsk, 2007. – S.69-79.
78. Klinger V.P. Skazochnye syuzety v istorii Gerodota. – Kiev, 1903.
79. Korogly X.G. Iz vostochno-zapadnykh folklorных svyazey. Temyaglaz (Depegyoz) – Polifem // Tipologiya i vzaimosvyazi srednevekovykh literatur Vostoka i Zapada. – M.: Nauka, 1974. – S.287.
80. Krinichnaya N.A. Russkaya narodnaya istoricheskaya proza. Voprosy genezisa i struktury. – M.: Nauka, 1987.
81. Kuznesova T.I., Miller T.A. Antichnaya epicheskaya istoriografiya. Gerodot. Tit Liviy. – M.: Nauka, 1984.
82. Kuzmina Ye.Ye. V strane Kavata i Afriasiaba. – M.: Nauka, 1977.
83. Lelekov L. A., Raevskiy D. S. Skifskiy rasskaz Gerodota: folklorные elementy i istoricheskaya informativnost // Narody Afriki i Azii. – M., 1979. – №6. – S.68–69.
84. Lisevich I.S. Drevnekitayskaya poeziya i narodnaya pesnya. – M.: Nauka, 1969.
85. Losev A. F. Antichnaya mifologiya v yeyo istoricheskem razvitiu. – M.: Uchpedgiz, 1957.
86. Lyusin V.N. Osobost arxetipov jenskogo/devichego uspexa v russkoy skazke // Obshchestvennye nauki i sovremennost. – M., 2000. – №4. – S.91.

87. Manas. Kirgizskiy narodnyu geroicheskiy epos. – M., 1986.
88. Machinskiy D.A. Zemlya arimasпов v antichnoy v traditsii i “prostor ariev” v Aveste // Jrechestvo i shamanizm v skifskuyu epoxu (Materialы mejdunarodnoy konferensii). – Sankt-Peterburg, 1996. – S.4-6.
89. Meletinskiy Ye.M. “Edda” i rannie formy eposa. – M.: Nauka, 1968. – 364 s.
90. Meletinskiy Ye.M. Vvedenie v istoricheskuyu poetiku eposa i romana. – M.: Nauka, 1986. – 318 s.
91. Meletinskiy Ye.M. Pervobытные istoki slovesnogo iskusstva // Rannie formy iskusstva. – M.: Nauka, 1972. – S.149–190.
92. Meletinskiy Ye.M. Proisxojdenie geroicheskogo eposa. Rannie formy i arxaicheskie pamyatniki. – M.: Nauka, 1963. – 462 s.
93. Mirzaev T., Sarimsoqov B. Dostonlar, ularning tasnifi va tarixiy taraqqiyoti // O‘zbek folklorining epik janrlari. – Toshkent, 1981. – B.6-23.
94. Mirkarim Osim. To‘maris (qissa) // Mirkarim Osim. Shiroq (tarixiy qissalar). – Toshkent: Yozuvchi, 1995. – B.3-17.
95. Mirkarim Osim. Shiroq (tarixiy qissalar). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016.
96. Mirmuhsin. Tanlangan asarlar. Uch tomlik. Birinchi tom. She’rlar, dostonlar. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973. –372 b.
97. Molotova A.A. Prelomlenie istoricheskix sobytiy v dastane «Gulandam // Izvestiya KazGU. Seriya: Vostokovedeniya. – Almata, 2009. – №3 (48). – S.91-97.
98. Moshkova V.G. Kratkiy ocherk istorii savromato-sarmatskix plemen // Stepi yevropeyskoy chasti SSSR v skifo-sarmatskoe vremya. – M., 1989. – S.156-157.
99. Neyxard A. A. Skifskiy rasskaz Gerodota v otechestvennoy istoriografii. – L., 1982.
100. Neklyudov S.Yu. Literaturno-folklorные rekonstruk-sii i problemы paleofolklora // Slovo i mudrost Vostoka. Literatura. Folklor. Kultura. – M., 2006. – S.287-295.
101. Neklyudov S.Yu. Mifologicheskaya semantika v zachinax mongolskogo eposa // Rocznik Orientalistyczny. Tom LVIII. Zeszyt 1. – Warszawa, 2005. – P.117-132 (internet materiallaridan).
102. Nikitina S.Ye. O vzaimootnoshenii ustnykh i pismennykh form v narodnoy kulture // Slavyanskiy i balkanskiy folklor. Rekonstruksiya

drevney slavyanskoy duxovnoy kultury: istochniki i metody. – M.: Nauka, 1989. – S.149-161.

103.Nikolaev D.S. Rannyaya irlandskaya poeziya i problema paleofolklorra: Avtoref. diss. kand. filol. nauk. – M., 2011.

104.Oltin olma. Hayotiy ertaklar. 1-kitob. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1966.

105.Skrjinskaya M.V. Geroi kimmeriyskix i skifskix legend v grecheskoy poezii i vazovoy jivopisi VII-VI vv. do n. e. // Vestnik drevney istorii. – M., 1986. – №4. – S.84-94.

106.Oktabrskaya I.V. Ob odnoy paralleli k skifskomu syujetu v traditsionnoy kulture tyurko-mongolskix narodov // Izvestiya Sibirskogo otdeleniya AN SSSR. Seriya istorii, filosofii i filologii. Vyp.2. – Novosibirsk, 1990. – S.123-134.

107.Orzigul (dostonlar). O'zbek xalq ijodi. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1975.

108.Oskolkov V.S. K voprosu o vliyanii antichnogo eposa na geroicheskie skazaniya tyurkskix narodov // Antichnost i obshchelovecheskie sennosti. Vyp.6. – Almaty, 1999. – S.188-195.

109.Strogeskiy V.M. Epicheskaya poeziya i drevnegrecheskoe istoriopisanie // Iстория: mir proshlogi v sovremenном osvetschenii. – SPb., 2008. – S.58-66.

110.Raevskiy D.S. Ocherki ideologii skifo-sakskix plemen. Орыт rekonstruksi skifskoy mifologii. – M.: Nauka, 1977. – 216 s.

111.Raevskiy D.S. Skifskiy mifologicheskiy syujet v iskusstve i ideologii sarstva Ateya // Sovetskaya arxeologiya. – M., 1970. – №3. – S. 90-101.

112.Raevskiy D.S., L.A.Lelekov. Skifskiy rasskaz Gerodota: folklornye elementy i istoricheskie informativnost // Narody Azii i Afriki. – M., 1979. – №6. – S.68-78.

113.Rajabov Q. Turkiy xalqlarning qadimgi ajdodlari haqidagi ilk yozma ma'lumotlar tahlili hamda Alp er to'nga siymosi // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – №1 (57). – Buxoro, 2015. – B.119.

114.Rahmatulla Yusuf o'g'li. "Go'ro'g'li" dostonlari. – Toshkent: Sharq, 2005.

115.Raxmonov N.A. Orxono-Yeniseyskie pamyatniki i tyurkskiy epos. Diss. dokt.filol. nauk. – Tashkent, 1991.

116.Rahmonov M. O'zbek teatri (qadimiy zamonlardan XVIII asrga qadar). – Toshkent: Fan, 1975.

117.Rempel L.I. Iстория iskusstv Uzbekistana. – M., 1965.

- 118.Rusyaeva A. S. Pontiyskaya legenda o Gerakle: vymysel i realnost // Duxovnaya kultura drevnih obyestv na territorii Ukrayny. – Kiev, 1991. – S.112.
- 119.Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi // O‘zbek folklorining epik janrlari. – Toshkent, 1981. – B.68-100.
- 120.Sattorov M. Moziy saboqlari // Saylanma. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
- 121.Snesarev G.P. Xorezmskie legendy kak istochnik po istorii religioznykh kultov Sredney Azii. – M.: Nauka, 1986.
- 122.Strabon. Geografiya. – M., 1993.
- 123.Taylor E. Pervobyttnaya kultura. – M.: Politizdat, 1989. – 574 b.
- 124.Tolstov S.P. Drevniy Xorezm (opryt istoriko-arxeologicheskogo issledovaniya). – M., 1948.
- 125.Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. – Toshkent: Fan, 1964.
- 126.Tolstova L.S. Drevnie motivy v folklore uzbekov Yujnogo Xerezma (po materialam polevых issledovaniy) // Sovetskaya etnografiya. – M., 1973. – №2. – S.23-31
- 127.Tolstova L.S. Otgoloski rannix etapov etnogenезisa narodov Sredney Azii v yee istoricheskoy onomastike // Onomastika Sredney Azii. – M., 1978. – S.9-10.
- 128.Tolstova L.S. Otgoloski massageto-alanskogo substrata v folklore tyurkoyazychnykh narodov Xerezmskogo oazisa // Etnografiya i arxeologiya Sredney Azii. – M.: Nauka, 1979. – S.154-159
- 129.Tolstova L.S. Istoricheskie predaniya Yujnogo Priaralya. – M.: Nauka, 1984.
- 130.Torokova Ye.S. Xakasskie narodnye bytovye skazki: syujetnyy sostav i poetika: : Avtoref. diss. kand. filol. nauk. – Ufa, 2005.
- 131.Toporov V.N. Praslavyaskaya ustnaya slovesnost (opryt rekonstruksii) // Istoryya literatury zapadnykh i ujnykh slavyan. T.1. – M., 1997. – S.38-94.
- 132.Tuallagov A.A. Skifo-sarmatskiy mir i nartovskiy epos osetin. – Vladikavkaz, 2001.
- 133.Turdimov Sh. Doro ko‘z – siklop. – O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – Toshkent, 1985. – 6 iyul.
- 134.Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonining genezisi va tadrijiy bosqichlari. Filol.fan.dokt.diss. – Toshkent, 2011.

- 135.Turdimov Sh. Etnos va epos. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012.
- 136.Umurov H. Saylanma. 1-jild: Risolalar. – Toshkent: Fan, 2007.
- 137.Frezer Dj. Zolotaya vev. Issledovanie magii i religii. 2-ye izd. – M.: Politizdat, 1983. – 704 s.
- 138.Freydenberg O.M. Mif i literatura drevnosti. – M.: Nauka, 1978. – 896 s.
- 139.Xolmurodov A. O‘zbek qissachiligi: taraqqiyot muammolari (XX asr so‘nggi choragi): Filol. fanlari doktori diss. – Toshkent, 2008.
- 140.Chernishev P.G. Etnograficheskoe napravlenie v russkom literaturnom protsesse XIX veka: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – M., 2004. – 21 s.
- 141.Cho‘loq bo‘ri. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent, Yulduzcha, 1988.
- 142.Shaniyazov K. Kipchaki v uzbekskoy etnicheskoy srede v dooktabrskoy period (protsessy integratsii) // Etnicheskie protsessy v natsionalnyx grupp Sredney Azii i Kazaxstana. – M., 1980.
- 143.Shaniyazov K. Uzbeki-karluki (istoriko-etnograficheskiy ocherk). – Tashkent: Fan, 1964.
- 144.Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent, 2001.
- 145.Shtal I.V. Epicheskie predaniya drevney Gresii. – M.: Nauka, 1989.
- 146.Shuhrat. Mardlik afsonasi (doston) // Yo‘ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiyl o‘rtalim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2013. – B.30-36.
- 147.Yusuf va Ahmad (doston). O‘zbek xalq ijodi. Aytuvchi: Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan. Nashrga tayyorlovchi: B.Sarimsoqov. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1987.
- 148.O‘zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1977.
- 149.O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 2-jild. “Yusuf bilan Ahmad” dostoni (Muhammadqul Jonmurod o‘g‘li Po‘lkan va Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti). Nashrga tayyorlovchi: M.Jo‘raev. Mas’ul muharrir: E.Ochilov. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.
- 150.O‘raeva D. O‘zbek motam marosimi folklori. – Toshkent: Fan, 2004. – 120 b.

151.Quvvatova D.H. XX asr ikkinchi yarmi o‘zbek dostonchiligining taraqqiyot xususiyatlari: Filol. fanlari doktori... diss. – Toshkent, 2016. – 267 b.

152.Qo‘chqor Usmon. Shiroq. Rivoyat. –Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990.

153.Qo‘shmoqov M. Tilla kampir yulduzi ostida // M.Qo‘shmoqov. Chechanlikda so‘zda suvdayin oqib.. (Adabiy-tanqidiy maqolalar va esse). – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1978. – B.132-135.

154.G‘ulomov Ya. Xorazmning sug‘orilishi tarixi. – Toshkent, 1958.

155.Hamdamova S. Folklor an’analari va badiiy talqin: ta’sir hamda aks ta’sir masalalari (XVIII-XIX asr she’riyati misolida): Filol. fanlari nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2012. – 32 b.

156.Eshonqulov J. Epik tafakkur tadriji. – Toshkent: “Fan”, 2006

157.Hasanov, Zaur. Historical and mythological parallels between the Legend of Herodotus about Cimmerians and “sons of blind slaves” and epos “Koroglu” // International Silk Road Cultural & Academic Conference (Myth, Nation, Literature). – Baku. 2006. – pp. 93-96.

ARXIV MATERIALLARI

158.Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi O‘zbek tili va adabiyoti ilmiy-tadqiqot instituti Folklor arxivi. Inv.№19.

159.Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi O‘zbek tili va adabiyoti ilmiy-tadqiqot instituti Folklor arxivi. Pap.№94. Inv.№1439.

160.Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi O‘zbek tili va adabiyoti ilmiy-tadqiqot instituti Folklor arxivi. Inv.№1460/3.

161.Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi O‘zbek tili va adabiyoti ilmiy-tadqiqot instituti Folklor arxivi. Inv.№1461. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni. Aytuvchi: Egamberdi shoir Ollomurod o‘g‘li.

162.Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi O‘zbek tili va adabiyoti ilmiy-tadqiqot instituti Folklor arxivi. Inv.№1591. N.Saburov yozib olgan.

163.Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi O‘zbek tili va adabiyoti ilmiy-tadqiqot instituti Folklor arxivi. Inv.№1689.

MUNDARIJA

Muqaddima.....	3
Paleofolklor va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....	9
Qadimgi yunon yozma manbalari va epik syujetlar genezisi	25
Sak-massaget eposi va uning poetik trasformatsiyasi	63
“To‘maris” rivoyati va uning epik talqinlari.....	98
Xulosa.....	140
Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar	143

GBPS



**Global Book Publishing Services
1211 Polk St, Orlando, FL 32805, USA
Email info@scientificpublication.org**

QO'CHQAROV TO'XTAMUROD OLIMOVICH

**Interpretation Of The Archaic Epic In Turkish And
Other Written Sources. Monograph.
Fergana- USA Globel Book Publishing Services
(GBPS) USA 2023, 145 p.**